JURNAL TAHRIRIYATI

BOSH MUHARRIR:
Madraximova Feruza Ruzimbayevna (p.f.d., dots.)

BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI:
Matyoqubov Hikmat Shuhratovich (PhD., dots.)

TAHRIRIYAT A’ZOLARI:

S.R.Davletov – t.f.d. prof.
I.S.Abdullayev – i.f.d. prof.
B.Ruzmetov – i.f.d. prof.
J.X.Ataniyozov – i.f.d. prof.
R.M.Matkarimov – p.f.d. prof.
I.Saifnazarov – f.f.d. prof.
M.S.Xajiyeva – f.f.d. prof.
B.S.Abdullayeva - ps.f.d. prof.
E.R.Ro‘ziyev - p.f.d. prof.
M.S.Salayeva - p.f.d.prof.
M.O.Atajanova - f.f.d.
S.U.Xodjaniyazov - p.f.d.,dots.
D.T.Xudayberganov -i.f.d.dots.
S.T.Davlatova – t.f.d. dots.
U.I.Abdullayev – t.f.d. dots.
M.M.Matyakubova – t.f.n.dots.
X.X.Matyakubova – PhD., dots.
D.Q.G‘oyipov – f.f.d. dots.
A.D.O‘rozboyev – f.f.d. dots.
B.B.Nurullayeva – ps.f.n. dots.
E.X.Zoyirov – f.f.n. dots.
O.E.Xayitov – ps.f.d. dots.
D.A.Urazboyeva – ps.f.d. dots.
X.R.Matyakubov – p.f.n.dots.
D.Atamuradova – PhD.
Z.Y. Adilov – PhD.
Z.K.Abidova – PhD.
Y.A.Karimov - PhD.

3/2024
ISSN: 2181-3418

MUNDARIJA/СОДЕРЖАНИЕ/CONTENTS

PSIXOLOGIYA

Kurbaniyozova R.Y. Keksalardagi emotsional holatlarning qadriyatlar yo‘nalganligiga ta’siri....4
Eshnazarova F.J. Psixologik tayyorgarlikning sportchi emotsional holatiga ta’siri....10
Qurbonova F.M. Talablarda pedagogik kasbiy rivojlanishining yoshga xos ta’sirining sabab, oqibatlari va konseptual asoslari....16
Vaxabova O‘.T. Yoshlar ijtimoiy me’yorlari shakllanishiga axborot muhiti ta’sirining psixologik xususiyatlari....21
Yulchiyeva G.Y. Oliy ta’lim muassasasi talabalarida stressga chidamlilikning psixologik xususiyatlari....29
Atamuratova F.B. O‘smir o‘quvchilarda salomatlikka yo‘nalganlik rivojlanishi masalasining ilmiy adabiyotlarda o‘rganilishi....34
Xujaniyozova O.R. O‘smirlik davridagi o‘quvchilarning kreativ kompetentligini shakllantirish va rivojlantirishning psixologik tomonlari....40
Norbosheva M.A. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy faollik, tashabbuskorlik va tashkilotchilik sifatlarini shakllantirish....46
Fatidinova D.M. Onlayn qimor o‘yinlariga qaramlik va iqtisodiy mas’uliyatning buzilishi o‘rtasidagi bog‘liqlik....53
Sirojiddinova F.X. Maxkum ayollar, jinoyat va zo‘ravonlikni psixologik omillari....59
Kadirova O.S. Maktabgacha tarbiya yoshi davridagi bolalarda tashabbuskorlik xususiyati shakllanishida oilaning ahamiyati....65

FILOLOGIYA

Abidova R.K. The importance of expressing gratitude: a speech act perspective....70
Avaznazarov O.R. Alisher Navoiy dostonlarida yo‘l obrazi geografiyasi....76
Azizova D.M. Shekspir ijodida burilish ro‘y bergan davrning maxsuli....83
Baltayeva Z.Sh. Erkin Vohidovning folklor namunalaridan foydalanish mahorati....88
Buranova M.U. Enhancing student engagement trough traditional and digital tools in the educational process....93
Doshanova G.I. Sirojiddin Sayyid dostonlari haqida....99
Inamova G. Ingliz tili og‘zaki nutq faoliyatining fonetik kompetensiyasini takomillashtirishning nazariy va amaliy asoslari....104
Jumatov R.Y., Mutallapova R.Y. Umumiy jargonlarning paydo bo‘lish mezonlari va tasniflari....112
Kazakova L.M. Nemis va o‘zbek tillaridagi harbiy texnikaga oid terminlarning gipero-giponimik munosabati....118
Pardayeva M.X. Said Ahmad hajviyalarida yordamchi so‘z turkumlarining nutqiy voqelanishi....123
Temirova D.K. Til o‘rganishda tarjimashunoslik nazariyasining ahamiyati....128

Muassislar:
Urganch davlat pedagogika instituti
«Ziyo scientific center» MCHJ

Sahifalovchi va dizayner:
S.Allanazarov
H.Yunusxo‘jayev

Tahririyat bilan aloqa:
E-mail: ziyo.scientific@bk.ru
Sayt: www.re-search.uz
Tel: +99899-347-36-05

Manzil:
O‘zbekiston, 220100, Urganch shahri, Gurlan ko‘chasi, 1-uy.

Тевосян Г.А. Эффективность традиционных подходов к обучению русскому как иностранному: взгляд сквозь призму времени.....133
To‘liboyeva G.B. O‘zbek va qoraqalpoq she’riyatida ko‘ngil obrazi.....139
Turayeva D.M. O‘rta Osiyo xalqlari yozuvida punktuatsiyaning shakllanishi.....144
Umarova N.A. Globallashuvning zamonaviy arab romani rivojiga ta’siri.....150
Xamidova D.M. Ingliz tilidagi iqtisodiy terminlarning etimologik xususiyatlari.....158
Xoliqberdieva G.A. Realias of anecdotes about Khoja Nasreddin (based on «Bu kimning eshagi?»).....166
Буранова Л.У. Обучение английскому языку с коммуникативной направленностью в рамках развития монологической и диалогической речи.....173
Юлдашева Х.А. Тавфиқ ал-Ҳакимнинг “Руҳнинг қайтиши” романида миллий кодларнинг ифодаланиши.....178
Rajabova N.E. Sulton Uvays Qaraniy ziyoratgohi nomining asarlarda aks etishi va uning yoshlarning ezgulikka chorlashdagi ahamiyati.....185
Расулова М. Семантическая характеристика фразеологизмов со значением способа действия.....190
Yo‘ldasheva M.F. Jek London asarlari tarjimalarining leksik xususiyatlari (“Martin iden” va “Oq so‘yloq”asarlari asosida).....197
Musaboyeva Z.I. Adabiyot darsliklari uchun badiiy asar tanlash mazmuni.....202
Dinalieva A.M. Ingliz badiiy matnida leksik majoziy vositalarning kontseptual ahamiyati.....206
Тухтаев С.Т. Концепт «Щедрость» в русской и узбекской паремиологической картине мира.....213
Расулова К.Ю. Сравнительно-сопоставительный анализ трансформированных фразеологизмов морально-нравственной сферы русского и узбекского языков.....221
Nasriyeva G.Z. Ingliz va o‘zbek nasridagi tipologik o‘xshashlik va adabiy ta’sir.....228
Абдуллаева Р.Х. Пословицы: зеркало традиций и культуры народа.....234
Saidova I.A. So‘z o‘yinini tarjima qilish usullari.....243
Kurbanniyozova D.SH. Til o‘rganish muhitini shakllantirishda sotsiolingvistikaning roli.....250
Nurmetova M.O. An analysis of good and evil in the works of nathaniel hawthorne: a literary examination.....255
Rajabova S.SH. Paying special attention to the unique characteristics of language learners in language acquisition and teaching.....260
Самандаров М.И. Использование художественного текста в обучении русскому языку в национальных классах Республики Узбекистан.....266
Yakubova N.E. Ogahiy tarixiy asarlarida arabcha siniq ko‘plik shakllari va semantikasi.....273
Masharipova Y.O. Leksik transformatsiyalarning lingvokulturologik tadqiqi.....279
Ибрагимова Ф.Р. Дидактические возможности совершенствования методики обучения русскому языку учащихся 10-11 классов.....290

Jurnal Oliy ta’lim fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2024-yil 27-sentyabrdagi 361-son qarori bilan filologiya va psixologiya fanlari bo‘yicha dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2022-yil 5-mayda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan № 1612 raqami bilan ro‘yxatdan o‘tgan.

Allanazarova N.B. Language, culture and linguoculturology.....294
Asqarova Z.Y. Ogahiyning “Riyozu-d-davla” asaridagi nazm sarlavhali she’riy parchalar tahlili.....298
Хушманова Г.И. Слово сочетание как номинативная единица языка.....309
Hazratkuliyon D.F. O‘zbekistondagi tojik yoshlari she’riyatiga bir nazar.....313
Davronova Z.J. Badiiy matnda qo‘llangan antroponimlarning keyingi davrda yaratilgan badiiy asarlar matniga munosabati.....322
Sapayeva Z.R. A comparative study of english and uzbek literatures through historical, cultural, and global lenses.....327
Saidova N.A. Tilning leksik-semantik tizimidagi argoning funksiyasi.....334

TARIX

Sheripov U.A. XXI asrda markaziy osiyoda transchegaraviy suvlardan foydalanish va suv muammolarining kuchayishi.....340
Ahmedova N.F. Xiva xonligi adabiy muhitini o‘rganishda epigrafik manbalarning o‘rni.....348
Мадаминов Ж.Х. Нордлиги – люди севера.....357
Атамуратова Д.Р., Мадаминов Ж.Х. Канун завоевательной кампаний царской россии: внутренняя неготовность хивинского ханства, а также п редпосылки.....362

FALSAFA

Xo‘janova T.J. Yangi va eng yangi davrda yuz bergan axborot urushlarining mafkuraviy kurash maydonidagi tendensiyalari.....368

PEDAGOGIKA

Kutlimuratova N.R. Husayn Voiz Koshifiyning ijtimoiy – siyosiy qarashlarini tarbiyaviy ahamiyati.....376
Abdullayeva A.A. Uchinchi Renesans davrida milliy tarbiya g‘oyasining takomillashuvi.....379

Kurbaniyozova Ra’no Yuldashevna
Urganch davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

KEKSALARDAGI EMOTSIONAL HOLATLARNING QADRIYATLAR YO‘NALGANLIGIGA TA’SIRI

Annotatsiya. Mazkur maqolada keksalarning qadriyatlari va ularga ta’sir qiluvchi mexanizmlardan biri, emotsional holatlari (o‘z-o‘zini his qilish, faollik, kayfiyat) tahlil qilinadi. Keksalardagi bu emotsional sohalari ularning turli qadriyatlarni qabul qilishlari jamiyatning keksalarga bo‘lgan munosabatlari bu jarayonga qanday ta’sir ko‘rsatishini bevosita belgilaydi.

Kalit so‘zlar: kasb-hunar olami, ta’lim-tarbiya, ijtimoiy hayot, qiziqishlar olami, oliy nufuzga ega bo‘lish, ijodkorlik, faol ijtimoiy munosabatlar.

Kurbaniyozova Rana Yuldashevna
Independent researcher at Urgench State University

THE INFLUENCE OF EMOTIONAL STATES ON VALUE ORIENTATION IN ELDERLY PEOPLE

Annotation. This article analyzes the values of the elderly and one of the mechanisms influencing them, their emotional states (self-awareness, activity, mood). The emotional domains in the elderly, their acceptance of various values, and how society's attitudes toward the elderly directly influence this process are explored.

Keywords: world of professions, education and upbringing, social life, realm of interests, achieving high status, creativity, active social relationship.

Курбаниязова Раъно Юлдашевна
Независимый исследователь Ургенчского государственного университета

ВЛИЯНИЕ ЭМОЦИОНАЛЬНЫХ СОСТОЯНИЙ У ПОЖИЛЫХ ПОЖИЛЫХ НА ЦЕННОСТНЫЕ ОРИЕНТАЦИИ

Аннотация. В данной статье рассматриваются ценности пожилых людей и один из механизмов их влияния – эмоциональное состояние (самочувствие, активность, настроение). Эмоциональная сфера пожилых людей напрямую

определяет, как они воспринимают различные ценности, и как отношение общества к пожилым людям влияет на этот процесс.

Ключевые слова: мир профессий, образование и воспитание, социальная жизнь, мир интересов, обладание высоким престижем, творчество, активные социальные отношения.

KIRISH

Keksalik davrida emotsional holatlar jismoniy, ijtimoiy, biologic omillarga bog‘liq holda o‘zgaradi.Ushbu davrda insonlar bir qator ijobiy va salbiy emotsional holatlarni boshdan kechirishi mumkin[3]. Keksalarning qadriyatlari hayot davomida o‘zgarib boradi va ulardagi emotsional holat bu jarayonda muhim rol o‘ynaydi. Qadriyatlar insonning hayotga bo‘lgan munosabatini shakllantirsa, emotsional holatlar esa bu munosabatlarning barqarorligi yoki o‘zgaruvchamligini ta’minlaydi.

Qadriyatlarni o‘rganish bugungi kunda dolzarb masalalalardan biri bo‘lib kelmoqda. Qadriyatlarni pedagogik, falsafiy, ijtimoiy hamda psixologik tomondan shu kungacha bir qator olimlar o‘rganib keldilar. Ammo, hamma sohaning umumiy maqsadi qadriyatlarni inson va jamiyat hayotidagi ahamiyatini o‘rganishdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI

G‘arb va Sharq olimlaridan qadriyatni inson hayotining tarkibiy qismi sifatida G.Allport, qadriyatlar insonning e’tiqodi, hissiyoti va xulq-atvorini boshqarishini M.Rokich, qadriyatlar insonning ehtiyojlar ierarxiyasiga bog‘liqligini A.Maslou hamda Sh.Shvarts qadriyatlarni jamiyat va shaxslararo munosabatlar asosida tahlil qilganlar .

Quyida biz ham kichik tadqiqot ishimizda qadriyatlarning emotsional holatlarga o‘zaro aloqasini tahlil qildik. Ushbu natijalar I.G.Seninning “Qadriyatlar yo‘nalishi so‘rovnomasi” va V.A.Doskin, N.A.Lavrenteva, V.B.Sharay va M.P.Miroshnikov tomonidan yaratilgan “O‘z-o‘zini his qilish, ahvol, faollik, kayfiyat”[2] (CAH) metodikasi shkalalarida tekshirib ko‘rildi. Tadqiqotimizda 108 nafar keksa yoshdagilar ishtrok etishdi. Tadqiqot natijalarimizni jadvalda aks ettirdik.Ushbu korrelyatsiya Spss-14 dasturida, Kolmogorov Smirnov va Spirmen mezoni asosida ishlandi.

Qadriyatlar yo‘nalishi so‘rovnomasi hamda O‘FK metodikasi shkalalari orasidagi korrelyatsiya koeffitsentlari (Spirmen mezoni bo‘yicha N=108)

	O‘z-o‘zini his qilish	Faollik	Kayfiyat
Kasb hunar olami	0,351(	-	0,057

	**)	0,091	
Talim-tarbiya	0,332(**)	0,047	0,098
Oilaviy hayot	0,137	-0,012	0,092
Ijtimoiy hayot	0,268(**)	0,028	0,098
Qiziqishlar olami	0,274(**)	-0,065	0,07
Oliy nufuzga ega bo‘lish	0,309(**)	0,14	,240(*)
Yuqori moddiy taminot	0,163	0,067	0,085
ijodkorlik	0,230(*)	0,012	0,072
Faol ijtimoiy munosabatlar	0,229(*)	-0,004	0,014
O‘z ustida ishlash	0,329(**)	-0,049	0,072
Yutuqlarga yo‘nalish	0,338(**)	0,036	0,168
Ma’naviy qoniqish	0,290(**)	-0,161	-0,013
O‘zlikni saqlash	0,282(**)	-0,005	0,049

I.G.Seninning “Qadriyatlar yo‘nalishi so‘rovnomasida kasb-hunar olami shkalasi va O‘FK (o‘z-o‘zini his qilish, faollik, kayfiyat) so‘rovnomasidagi o‘z-o‘zini his qilish sohasi shkalalari o‘rtasida musbat bog‘liqlik kuzatildi($r=0,351;p<0,01$) [1]. Ya’ni keksalarimiz kasb-hunar hayotdagi asosiy qadriyat sifatida shakllangan bo‘lsa, bu ularning o‘zini anglash va qadrli his qilishiga ijobiy ta’sir o‘tkazadi. O‘z bilimi va tajribalarini keying avlodga o‘tkazish imkoniyatiga ega bo‘lishi, ularning o‘z-o‘zini his qilish darajasini oshiradi va o‘zlarini jamiyat uchun kerakli his qilishiga olib keladi.

METOD VA METODOLOGIYA

Tadqiqotda nazariy tahlil, empirik tadqiqot, eksperiment, statistik tahlil va komparativ yondashuvlar qo‘llanildi. Nazariy tahlil orqali keksalarning emotsional holatlari va qadriyatlar yo‘nalganligi o‘rtasidagi bog‘liqlik o‘rganildi. Empirik

tadqiqot uchun maxsus so‘rovnomalar asosida ma'lumotlar yig‘ildi. Eksperimentlarda esa emotsional holatlarning ijobiy o‘zgarishlari tahlil qilindi. Statistik qayta ishlashda SPSS dasturi qo‘llanilib, korrelyatsiya va regressiya tahlillari amalga oshirildi. Komparativ yondashuv orqali turli yosh guruhlari o‘rtasida solishtirishlar olib borildi. Shu asosda xalqaro tajriba o‘rganilib, o‘zbek jamiyatiga moslashtirildi.

TAHLIL

Ta’lim-tarbiya va o‘z-o‘zini his qilish sohasi shkalalarida o‘zaro musbat bog‘liqlik kuzatilganini guvohi bo‘lishimiz mumkin. (r=0,332; p<0,01) Bunday keksalarimiz bilimlarini rivojlantirishga ko‘proq e’tibor qaratganda o‘z-o‘zini his qilishi ham yuqori bo‘ladi.Ya’ni bu jarayonda ularning o‘ziga bo‘lgan bahosi oshadi va o‘zini rivojlanayotgan shaxs sifatida his qiladi.Va ta’lim-tarbiya orqali boshqalarga foyda keltirish hissi ularning emotsional sohasidagi o‘z-o‘zini ijobiy his qilishini kuchaytiradi.

Tadqiqotimizning maqsad va vazifasidan kelib chiqib, Itimoiy hayot va o‘z-o‘zini his qilish shkalalari o‘rtasida musbat aloqador ekanligi aniqlandi. (r=0,268; p<0,01) .Demak,bundan shu xulosaga kelamizki,ijtimoiy hayotga faol qo‘shilgan keksalarimiz do‘stlar,oila va jamiyatda o‘zlarini qadrli va kerakli his qilishiga yordam berar ekan.Jamiyatda hurmat qozongan keksalarimizning psixologik barqarorligiga ham hissa qo‘shadi.

Qiziqishlar olami va o‘z-o‘zini his qilish sohasi shkalalari orasida musbat bog‘liqlik kuzatildi. (r=0,274; p<0,01) [1] Ya’ni qiziqishlarni muhim hisoblagan keksalarimizda o‘zini qiziqtirgan sohaga vaqt va e’tibor ajratish keksalarda o‘z-o‘zini ijobiy his qilishni kuchaytirar ekan.

Oliy nufuzga ega bo‘lish va o‘z-o‘zini his qilish **s**hkalalari orasida ham musbat aloqadorlik kuzatildi (r=0,309; p<0,05).Bu esa keksalarimizdagi oliy nufuzga erishishda ularda bevosita o‘ziga ishonch, emotsional barqarorlik va hayotdan qoniqish hissini ta’minlaydi.

Metodikaning quyidagi oliy nufuzga ega bo‘lish va kayfiyat **s**hkalalari o‘rtasida musbat aloqadorlik aniqlandi (r=240; p<0,05).Natijalardan ko‘rinib turiptiki,nufuzga ega bo‘lishga intilgan va bunga erishgan keksalar o‘zlarini maqsadli va muvaffaqiyatli his qilishadi.Bu esa ularning kayfiyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatar ekan.

Keyingi shkala bo‘yicha korrelyatsion bog‘liqlikni kuzatganimizda ijodkorlik va o‘z-o‘zini his qilish shkalalarida ham musbat aloqadorlikni kuzatishimiz mumkin. (r=.0,230; p<0,01) [3].Ya’ni ijodkorlik orqali keksalarimiz o‘z qobilyatlarini rivojlantiradi va o‘z imkoniyatlarini kengaytiradi,bu esa o‘zini qadrli his qilishga olib keladi. Qolaversa ijodkorlik bilan shug‘ullangan insonlarda stress kamayadi o‘zini yaxshi his qilishiga yordam beradi.

Keyingi shkalalarimiz ijodkorlik va kayfiyat shkalalarida biz yana musbat korrelyatsion bog‘liqlikni uchratishimiz mumkin (r=0,113**; p<0,01).Ya‘ni turli yoshdagi keksalar ijodkorlik jarayonida ijobiy kayfiyatda bo‘lar ekanlar. Va bunday kayfiyat ijodkorlik bilan bog‘liq muammolarga yechim topish ehtimolini ham oshirar ekan

Faol ijtimoiy munosabatlar va o‘z-o‘zini his qilish shkalalari o‘rtasida ham o‘zaro musbat aloqadorlik natijasi qayd etildi (r=0,229; p<0,01).Ya’ni shaxs faol ijtimoiy munosabatlarda ijtimoiy qo‘llab-quvvatlovni his qiladi, boshqalar tomonidan keladigan ijtimoiy yordam ruhiyatni mustahkamlaydiva o‘z-o‘zini his qilishni yaxshilaydi.

O‘z ustida ishlash va o‘z-o‘zini his qilish shkalalari o‘rtasida musbat aloqadorlik namoyon bo‘ldi (r=0,329p<0,01).Ya’ni o‘z ustida ishlashni boshqa qadriyatlarga qaraganda ahamiyatli hisoblagan keksalarda o‘z-o‘zini his qilish darajasi yuqori bo‘lishi, o‘zini rivojlantirish jarayoni orqali erishilgan yutuqlar,o‘ziga ishonch va maqsadga intilish kabi jihatlar bilan bog‘liq. Bunday shaxslar o‘z hayotining nazoratini qo‘lida ushlab, o‘z maqsadlari va qadriyatlariga mos ravishda yashaydi,bu esa ularning ruhiy faravonligini oshiradi.

Yutuqlarga yo‘nalish va o‘z-o‘zini his qilish shkalalari o‘tasida o‘zaro musbat korrelyatsion bog‘liqlik aniqlandi (r= 0,338;p<0.01)[4]. Bunday keksalarimiz muvaffaqiyatga intilishlari,natijalardan qoniqish olishlari va o‘z imkoniyatlariga ishonishlari orqali hayot mazmunini boyitib shaxsning o‘z- o‘zini yaxshi his qilishiga olib kelar ekan.[5]

Ma’naviy qoniqish shkalasining va o‘z-o‘zini his qilish shkalasi bilan musbat aloqadorligi aniqlandi (r=0,290;p<0.01). Keksalarimiz ichki tinchlik, hayot mazmunini anglash va qadriyatlariga mos yashash orqali o‘zini his qilish darajasi ham ijobiy bo‘ladi. [6] Ma’naviy qoniqish keksalarning ichki dunyosida,muvozanat va hotirjamlikni ta’minlaydi.

O‘zlikni saqlash va o‘z-o‘zini his qilish shkalalari orasidagi o‘zaro korrelyatsion aloqadorlikni tahlil qilinganda, ishonch darajasidagi musbat bog‘liqlik qonuniyatlari mavjudligini ko‘rishimiz mumkin (r=,0,282;p<0.01). O‘zlikni muhim hisoblagan keksalarimiz o‘z qarorlariga tayanib yashashadi va bu esa ularning ichki ishonchini oshishiga sabab bo‘ladiva o‘z-o‘zini ijobiy his qilishiga yordam beradi.

XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki ,keksalardagi o‘z-o‘zini his qilish,faollik,kayfiyat ko‘pgina qadriyatlarlarga,jumladan kasb- hunar olami ta’lim-tarbiya ,ijtimoiy hayot qiziqishlar olami, oliy nufuzga ega bo‘lish ,ijodkorlik, faol ijtimoiy munosabatlar, o‘z ustida ishlash kabi sohalarning ustunligiga bog‘liq ekan.

Iqtiboslar/Сноски/References

1. Белова А.Н. Шкалы, тесты и опросники в медицинской реабилитации: Руководство для врачей и научных работников. Под ред. А.Н. Беловой, О.Н. Шепетовой. М.: Антидор, 2002. - 440с,

2. Белова А.Н., Шепетова О.Н. Нейрореабилитация: Руководство для врачей. М.: Антидор, 2003. - 570с.

3. Валунов О. А. В сб.: Оптимизация реабилитационного процесса при цереброваскулярном инсульте, 1990. - С. 88-95.

4. Валунов О.А., Демиденко Т.Д., Львова Р.И. К вопросу оценки эффективности реабилитации больных с последствиями инсульта. Журн неврол и психиат 1996; 5: 102-107

5. Маслоу А.Г. Мотивация и личность. — СПб: Евразия, 1999.

6. Nishonova. Z.T, Kamilova N.G‘., Abdullayeva D.U., Xolnazarova M.X. Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya. – T., 2019.

Eshnazarova Farida Jo‘raqulovna
Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Samarqand filiali dotsenti, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

PSIXOLOGIK TAYYORGARLIKNING SPORTCHI EMOTSIONAL HOLATIGA TA’SIRI

Annotatsiya. Ushbu maqolada psixologik tayyorgarlikning sportchi emotsional holatiga ta’siri yuzasidan ma’lumotlar bayon etilgan. Shuningdek, psixologik tayyorgarlikning asosiy ta’siri, sportchilarning stressni boshqarish qobiliyatini oshirish, kutilmagan vaziyatlarga tezkor va samarali javob berishda zarur bo‘lgan psixologik intervensiyalarni rejalashtirish masalalari muhokama etilgan.

Kalit so‘zlar: sport, sportchi, sport turi, emotsiya, musoboqa, psixologik tayyorgarlik, maxsus tayyorgarlik, motivatsiya.

Эшназарова Фарида Жўрақуловна
Доцент Самаркандского филиала Института переподготовки и повышения квалификации специалистов физического воспитания и спорта, доктор философских наук (PhD)

ВЛИЯНИЕ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ НА ЭМОЦИОНАЛЬНОЕ СОСТОЯНИЕ СПОРТСМЕНА

Аннотация. В данной статье представлены сведения о влиянии психологической подготовки на эмоциональное состояние спортсмена. Также обсуждаются основные эффекты психологической подготовки, повышения способности спортсменов управлять стрессом, планирования психологических вмешательств, необходимых для быстрого и эффективного реагирования на непредвиденные ситуации.

Ключевые слова. спорт, спортсмен, вид спорта, эмоция, соревнование, психологическая подготовка, специальная подготовка, мотивация.

Eshnazarova Farida Jurakulovna
Associate Professor, Samarkand Branch of the Institute for Retraining and Advanced Training of Specialists in Physical Education and Sports, Doctor of Philosophy (PhD) in Philosophy

THE IMPACT OF PSYCHOLOGICAL PREPARATION ON THE EMOTIONAL STATE OF AN ATHLETE

Annotation. This article presents data on the impact of psychological preparation on the emotional state of an athlete. It also discusses the main effects of psychological preparation, the need to increase the ability of athletes to manage stress, and the planning of psychological interventions necessary for a quick and effective response to unexpected situations.

Keywords: sport, athlete, sport, emotion, competition, psychological preparation, special preparation, motivation.

Psixologik tayyorgarlik sportchilarning emotsional holatiga chuqur va keng ko‘lamli ta’sir ko‘rsatadi, bu esa ularning sportdagi ishlash samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Ushbu tayyorgarlik sportchilarga musobaqa sharoitlarida yuzaga keladigan stress va bosimlarni samarali boshqarish qobiliyatini rivojlantirish, shuningdek, musobaqa davomida ruhiy va emotsional jihatdan barqaror bo‘lish imkonini beradi.

Psixologik tayyorgarlikning asosiy ta’siri – bu sportchilarning stressni boshqarish qobiliyatini oshirishdir. Stress boshqarish ko‘nikmalari sportchilarga musobaqa davomida yuzaga keladigan kutilmagan vaziyatlarga tezkor va samarali javob berishga imkon beradi. Bu, o‘z navbatida, sportchilarning diqqatini jamlashini va musobaqalarda qaror qabul qilish jarayonlarini yaxshilaydi.

Psixologik tayyorgarlik shuningdek, sportchilarning ijobiy motivatsiya va o‘z-o‘zini ishontirish qobiliyatlarini mustahkamlaydi. Masalan, vizualizatsiya va maqsadlarini tasavvur qilish mashqlari sportchilarga o‘zlarining maqsadlariga erishish yo‘llarini ko‘rish va musobaqa paytida ijobiy natijalarga erishish uchun zarur bo‘lgan ruhiy kuchni to‘plashga yordam beradi. Bu usullar sportchilarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi va musobaqa davomida emotsional barqarorlikni saqlashga yordam beradi [1, B. 52].

Motivatsiayaga asoslangan yondashuvlar, jumladan meditatsiya va nafas olish mashqlari, sportchilarning emotsional reaksiyalarini boshqarishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu mashqlar sportchilarga hozirgi lahzada qolish va musobaqa sharoitida paydo bo‘ladigan his-tuyg‘ularni hukmsiz qabul qilish orqali ularga emotsional barqarorlikni saqlashga yordam beradi.

Nihoyat, guruh dinamikasi va jamoaviy yig‘ilishlar orqali amalga oshiriladigan psixologik tayyorgarlik, sportchilarning jamoa bilan o‘zaro munosabatlarini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu tayyorgarlik sportchilarga jamoa a’zolari bilan samarali muloqot qilish, ularning his-tuyg‘ularini tushunish va jamoaviy maqsadlarga erishishda bir-birlarini qo‘llab-quvvatlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Shunday qilib, psixologik tayyorgarlik sportchilarning emotsional holatiga keng qamrovli ta’sir ko‘rsatadi, bu esa ularning musobaqalarda psixologik jihatdan mustahkam bo‘lishlarini va eng yaxshi sport natijalarini ko‘rsatishlarini ta’minlaydi. Bu yondashuvlar

sportchilarning emotsional boshqaruv qobiliyatlarini oshirishda muhim rol o‘ynaydi va ularni musobaqa sharoitlarida yuqori darajadagi bosimlarni samarali boshqarishga tayyorlaydi.

Sportchilarning stressga qarshilik ko‘rsatish qobiliyatini oshirishda turli metodlar qo‘llaniladi. Bu metodlar sportchilarga musobaqa va mashg‘ulot davomida yuzaga keladigan jismoniy bosimlarni samarali boshqarishga yordam beradi. Ushbu metodlar orasida psixologik tayyorgarlik, jismoniy tayyorgarlik va emotsional boshqaruv ko‘nikmalarini o‘z ichiga oladi. [2, B. 32]

Psixologik tayyorgarlik usullari sportchilarni stressga qarshi mustahkam qilishda muhim rol o‘ynaydi. Bu jarayon kognitiv-behavioral terapiya (CBT), achinishga asoslangan yondashuvlar (mindfulness), vizualizatsiya va nafas olish texnikalari kabi usullardan foydalanadi. CBT orqali sportchilar o‘zlarining salbiy fikrlarini aniqlab, ularni ijobiy va maqsadga yo‘naltirilgan fikrlarga aylantira oladilar. Vizualizatsiya sportchilarga musobaqa vaqtida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan stressli vaziyatlarni oldindan ko‘rib chiqishga imkon beradi, bu esa ularga psixologik jihatdan tayyor bo‘lishga yordam beradi. Jismoniy tayyorgarlik ham sportchilarning stressga qarshilik ko‘rsatish qobiliyatini oshirishda muhimdir. Muntazam jismoniy mashqlar, ayniqsa, chidamlilikni oshiruvchi va stressni kamaytiruvchi mashqlar sportchilarning jismoniy va psixologik salomatligini yaxshilaydi. Jismoniy tayyorgarlik sportchilarga stressni boshqarishda yordam beradi va ularning umumiy ruhiy barqarorligini mustahkamlashga yordam beradi.

Emotsional boshqaruv ko‘nikmalari stressga qarshilikni oshirishda yana bir muhim omil hisoblanadi. Psixologik mashqlari va nafas olish texnikalari sportchilarga o‘zlarining his-tuyg‘ulariga diqqatni qaratish va ularni boshqarish orqali stressga javob berishlarini yaxshilash imkonini beradi. Sport faoliyatida, ayniqsa jamoaviy sport musobaqalarida guruh jamoaviy faoliyatlar sportchilarning stressga qarshilik ko‘rsatish qobiliyatini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Jamoa yig‘ilishlari va faoliyatlari sportchilarga bir-birlari bilan tajribalarini almashish va o‘zaro qo‘llab-quvvatlash tarmog‘ini shakllantirish imkonini beradi, bu esa ularning ruhiy salomatligini yaxshilaydi va stressga qarshilik qobiliyatini oshiradi.

Sportchilarning emotsional boshqaruvida ham bir nechta omillar ta’sir qiladi. Sportchilarning emotsional boshqaruviga ta’sir qiluvchi omillar ko‘p qirrali bo‘lib psixologik holatiga, ishlash qobiliyatiga ta’sir qiladi. Ushbu omillar orasida shaxsiy xususiyatlar, tajriba darajasi, jamoaviy muhit, murabbiyning roli, va tashqi stress manbalarini o‘z ichiga oladi. Masalan, shaxsiy xususiyatlar: Har bir sportchining shaxsiy xususiyatlari, jumladan ularning temperamentlari, shaxsiy qadriyatlari va avvalgi tajribalari ularning emotsional boshqaruv qobiliyatlariga ta’sir qiladi. Misol uchun, o‘z-o‘zini nazorat qilish qobiliyati yuqori bo‘lgan sportchilar bosim ostida yanada barqaror bo‘lishi mumkin. Tajriba darajasi: Sportchilarning musobaqalarda qatnashish tajribasi ham ularning emotsional boshqaruviga ta’sir qiladi. Ko‘p tajribaga ega bo‘lgan sportchilar yangi yoki kam tajribali sportchilarga qaraganda stressli vaziyatlarni boshqarishda ko‘proq mahoratga ega bo‘lishi mumkin. Tajriba, sportchilarga bosimli vaziyatlarni tanish va boshqarish

usullarini ishlab chiqishga yordam beradi. Jamoaviy muhit: Sportchilarning jamoaviy muhiti, jumladan jamoadoshlarining qo‘llab-quvvatlovi va jamoaviy madaniyat ularning emotsional holatlarini ancha ta’sirlaydi. Ijobiy va qo‘llab-quvvatlovchi jamoa muhiti sportchilarga stress va bosimni samarali boshqarishda yordam beradi, bu esa ularning ishlash samaradorligini oshiradi. Murabbiyning roli: Murabbiylar sportchilarning emotsional boshqaruvini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Murabbiyning yondashuvi, qo‘llab-quvvatlovi va qobiliyatlarni rivojlantirishga bo‘lgan e’tibori sportchilarga o‘zlarining emotsiyalarini boshqarishda yordam beradi. Murabbiylar sportchilarga o‘zlarining his-tuyg‘ularini tan olish, ularni ifodalash va samarali boshqarish ko‘nikmalarini o‘rgatishlari mumkin. Tashqi stress manbalari: Sportchilarning hayotidagi tashqi omillar, masalan, oilaviy muammolar, moliyaviy bosim yoki o‘qish yuklari kabi omillar ham ularning emotsional boshqaruviga ta’sir qiladi. Bu tashqi stresslar sportchilarning diqqatini chalg‘itishi va ularning sportdagi ishlashiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin [3, B. 70].

Bugungi kunda sportchilarning emotsional holatini boshqarish sohasida yangi yondashuvlar doimiy ravishda rivojlanib bormoqda, bu yondashuvlar sport psixologiyasi va texnologiya sohalaridagi innovatsiyalar bilan bog‘liq. Ushbu yangi yondashuvlar orasida neyropsixologiya, virtual reallik (VR), biofeedback texnologiyalari, va genetik testlar kabi usullar sportchilarning emotsional holatlarini yanada samarali boshqarishga imkon beradi. Neyropsixologiya: Sportchilarning miya faoliyatini tahlil qilish orqali ularning emotsional holatlarini boshqarishga yordam beradigan usullar rivojlanmoqda. Neyropsixologik yondashuvlar orqali sportchilar o‘zlarining diqqatini jamlash, stressni boshqarish va his-tuyg‘ularini nazorat qilish qobiliyatlarini yaxshilashlari mumkin. Ushbu sohadagi tadqiqotlar sportchilarning miya tuzilishi va funksiyasini chuqurroq tushunishga yordam beradi, bu esa ularning emotsional holatini yanada samarali boshqarish imkonini beradi. Virtual reallik (VR): Virtual reallik texnologiyasi sportchilarga musobaqa sharoitlarini haqiqiy dunyo bilan bir xil darajada his qilish imkonini beradi. VR orqali sportchilar turli stresli vaziyatlarni boshdan kechirishadi, bu esa ularni haqiqiy musobaqalar uchun ruhiy va emotsional jihatdan tayyorlaydi. VR texnologiyasi sportchilarga o‘zlarining qo‘rquv va tashvishlarini boshqarishda amaliy tajribalar beradi. Biofeedback texnologiyalari sportchilarning fiziologik reaktsiyalarini kuzatish orqali ularning stress va emotsiyalarni qanday boshqarishini o‘rganishlariga yordam beradi. Masalan, yurak urish tezligi va terlash darajasini kuzatish orqali, sportchilar o‘zlarining jismoniy holatlariga mos ravishda nafas olish va relaksatsiya usullarini qo‘llashni o‘rganadilar, bu esa ularning emotsional holatini boshqarish qobiliyatlarini oshiradi. Testlar: Sportchilarning genetik profilini tahlil qilish orqali ularning stressga qarshilik ko‘rsatish qobiliyatlarini va boshqa psixologik xususiyatlarini aniqlash mumkin. Bu ma’lumot sportchilarga ularning shaxsiy ehtiyojlariga mos keladigan maxsus tayyorgarlik dasturlarini ishlab chiqish imkonini beradi. Psixologik tayyorgarlikning sportchilarning emotsional holatiga ta’siri ham bir qator usullar orqali o‘rganiladi [4]. Emotsional boshqaruvning sport natijalariga ta’siri turli usullar orqali o‘lchanadi, bu usullar orqali sportchilar va murabbiylar emotsional boshqaruv dasturlarining samaradorligini baholay oladilar. Ushbu o‘lchovlar emotsional boshqaruvning sportchining

diqqatini jamlash, ishlash qobiliyatini, motivatsiyasini va jamoaviy munosabatlarni qanday ta’sirlashini aniqlashga yordam beradi.

1. Psixologik testlar va so‘rovnomalar: Emotsional boshqaruvning ta’sirini o‘lchashning asosiy usullaridan biri bu psixologik testlar va so‘rovnoma orqali olib boriladigan baholashlardir. Masalan, “Profile of Mood States” (POMS) testi sportchilarning kayfiyatini va emotsional holatlarini o‘lchash uchun keng qo‘llaniladi. Bu test orqali sportchilarning tashvish, depressiya, g‘azab, va boshqa kayfiyat holatlarini baholash mumkin, bu esa ularning sportdagi ishlash qobiliyatiga qanday ta’sir qilishi mumkinligini ko‘rsatadi.

2. Diqqat va konsentratsiyani o‘lchash: Emotsional boshqaruv dasturlarining ta’siri sportchilarning diqqatini jamlash va konsentratsiya qobiliyatlarini oshirish orqali ham o‘lchanadi. Kognitiv testlar yordamida sportchilarning diqqat darajasi va qaror qabul qilish tezligi kuzatiladi, bu esa emotsional boshqaruvning ularning umumiy ishlash samaradorligiga ta’sirini ko‘rsatadi.

3. Sport natijalarining o‘zgarishi: Emotsional boshqaruvning eng aniq ko‘rsatkichlaridan biri bu sportchilarning musobaqa natijalaridagi o‘zgarishlardir. Agar sportchi emotsional boshqaruv bo‘yicha dasturlarni qo‘llaganidan so‘ng uning ishlash ko‘rsatkichlari yaxshilansa, bu ushbu dasturlarning samaradorligini ko‘rsatadi. Masalan, sportchi bosim ostida yaxshiroq ishlashni boshlagan bo‘lsa, bu emotsional boshqaruvning ijobiy ta’siri hisoblanadi.

4. Murabbiylar va sportchilarning o‘zaro baholashlari: Murabbiylar va sportchilarning o‘zaro baholashlari ham emotsional boshqaruvning ta’sirini o‘lchashda muhimdir. Murabbiylar sportchilarning musobaqalar oldidan va keyin ularning xatti-harakatlari va emotsional holatini kuzatib, emotsional boshqaruv dasturlarining ta’sirini baholaydilar.

5. Jismoniy samaradorlik ko‘rsatkichlari: Jismoniy testlar orqali ham emotsional boshqaruvning sportchilarning ishlashiga ta’siri kuzatiladi. Bu testlar orqali sportchilarning chidamlilik darajasi, tezkorlik va kuchli ishlash qobiliyatlari o‘lchanadi, bu esa emotsional boshqaruvning jismoniy samaradorlikka ta’sirini ko‘rsatadi.

Shunday qilib, emotsional boshqaruvning sport natijalariga ta’siri turli xil metodlar yordamida o‘lchanadi, bu esa sportchilar va murabbiylarga ushbu dasturlarning samaradorligini baholash va zarur bo‘lganda ularni takomillashtirish imkonini beradi. Ushbu metodlar yordamida sportchilarning ruhiy va jismoniy salomatligini mustahkamlash va ularning sportdagi ishlash qobiliyatini maksimal darajada oshirish mumkin.

Iqtiboslar/Сноски/References

1. Masharipov Y.M., Eshnazarova F.J. Sport psixologiyasi. Uslubiy qo‘llanma. – Samarqand: 2020. – 105 b.

2. Волков Н.И., Карасев А.В., Разумовский Е.А. Критерии специальной работоспособности и построение тренировки в беге на короткие дистанции. В сб.

«Современный взгляд на подготовку легкоатлетов» Монография под редакцией Е.Е. Аракеляна, Ю.Н. Примакова, М.П. Шестакова. Москва., 2006., с. 32-52.

3. Граевская Н.Д., Долматова Т.И., Лакин В.В., Лаптева К.В. Применение новых технологий в спортивной медицине //Теория и практика физической культуры, 2007, №7. с. 67-71

4. https://www.sports.ru/

Qurbonova Feruza Maxamatjon qizi
Andijon davlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti, Pedagogika va psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi

TALABLARDA PEDAGOGIK KASBIY RIVOJLANISHINING YOSHGA XOS TA’SIRINING SABAB, OQIBATLARI VA KONSEPTUAL ASOSLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada talabalarning pedagogik kasbiy rivojlanish jarayoniga yoshga xos omillarning ta’siri har tomonlama tahlil qilinadi. Yosh davrlariga xos psixologik va pedagogik o‘ziga xosliklar kasbiy salohiyatni rivojlantirishdagi hal qiluvchi omil sifatida ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot davomida talabalarning motivatsiyasi, hissiy va ijtimoiy rivojlanishi, shuningdek, kognitiv qobiliyatlari pedagogik jarayonga qanday ta’sir ko‘rsatishi aniqlangan.

Kalit so‘zlar: xos xususiyatlar, pedagogik kasbiy rivojlanish, motivatsiya, refleksiv yondashuv, ta’lim strategiyalari.

Курбанова Феруза
Андижанский государственный педагогический институт Факультет педагогики Преподаватель кафедры педагогики и психологии

Аннотация. В статье комплексно анализируется влияние возрастных факторов на процесс педагогического профессионального развития студентов. Психолого-педагогические особенности молодежи рассматриваются как решающий фактор развития профессионального потенциала. В ходе исследования было определено, как мотивация, эмоциональное и социальное развитие студентов, а также познавательные способности влияют на педагогический процесс.

Ключевые слова: характеристики, педагогическое профессиональное развитие, мотивация, рефлексивный подход, образовательные стратегии.

Kurbanova Feruza
Andijan State Pedagogical Institute
Faculty of Pedagogy
Teacher of the Department of Pedagogy and Psychology

Annotation. This article comprehensively analyzes the influence of age-specific factors on the process of pedagogical professional development of students. Psychological and pedagogical characteristics specific to age periods are considered as a decisive factor in the development of professional potential. The study revealed how students' motivation,

emotional and social development, as well as cognitive abilities, affect the pedagogical process.

Keywords: characteristics, pedagogical professional development, motivation, reflexive approach, educational strategies.

Hozirgi taraqqiyot davrda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish jamiyat hayotining barcha jabhalarini, yangilanish ta’lim sohasidagi qonunchilik bazasini takomillashtirish hamda kasbiy ta’lim sifatini talab darajasida bo‘lishini o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan.

Talabalarning kasbiy rivojlanishi bugungi kunda zamonaviy ta’lim tizimida muhim o‘rin tutadi. Chunki har bir yosh bosqichi o‘ziga xos psixologik, ijtimoiy va kognitiv xususiyatlarga ega bo‘lib, bu ta’lim jarayonining natijadorligi va kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga ta’sir ko‘rsatadi. Yoshga xos o‘zgarishlar talabalarning o‘qish, kasb tanlash va pedagogik faoliyatga bo‘lgan qiziqishlarida o‘z aksini topadi. Ta’lim beruvchi muassasalarda talabalarning rivojlanish bosqichlari va ehtiyojlarini to‘g‘ri aniqlash, ularga mos pedagogik strategiyalarni qo‘llash zamonaviy ta’lim jarayonini sifatli tashkil etishda asosiy shart hisoblanadi. Shuningdek, yoshga xos ta’sirni hisobga olmaslik, kasbiy deformatsiya, motivatsiyaning pasayishi, kasbiy o‘sishga nisbatan indifferent munosabat kabi salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Shu sababli, ushbu mavzu nazariy va amaliy jihatdan dolzarb bo‘lib, pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi – talabalarning yoshga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ularning pedagogik kasbiy rivojlanish jarayoniga ta’sir etuvchi sabab va oqibatlarni aniqlash hamda ushbu jarayonni boshqarishning konseptual asoslarini ishlab chiqishdir. Mazkur maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilangan:

- Talabalarning pedagogik kasbiy rivojlanishi jarayonidagi yoshga xos jihatlarni o‘rganish;
- Yoshga xos ta’sirning sabab va oqibatlarini aniqlash;
- Ushbu jarayonni boshqarishda foydalanish mumkin bo‘lgan zamonaviy pedagogik yondashuvlar va strategiyalarni tavsiflash;
- Kasbiy rivojlanishni optimallashtirishga yo‘naltirilgan nazariy va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish.

Ya.L.Kolominskiy tayyorgarlik hodisasini shaxs rivojlanishining ma’lum bir natijasi sifatida ko‘rib chiqishni taklif qildi [1]. L.V.Lejnina tayyorgarlikni shakllanganlar majmui sifatida belgilaydi mutaxassisga ma’lum bir mehnat funksiyalarini bajarishga imkon beradigan qurilmalar [2]. O.B.Dmitrieva professionalga psixologik tayyorgarlik ostida faoliyat bilim, malakalar jamlanmasini tushunadi va bitiruvchiga o‘z vazifalarini bajarishga imkon beradigan ko‘nikmalar zamonaviy darajadagi professional faoliyat fan va texnika talablari [3]. Tayyorlik tushunchasi keng ma’noda kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishish sharti hisoblanib, davlat tomonidan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar tizimi shaxs faoliyati takomillashtiriladi va shakllanadi. Kasbga pedagogik va psixologik tayyorgarlik tushunchasi faoliyat harakat va mehnatga tayyorgarlik tushunchasi bilan bog‘liq. Bu haqda

S. L. Rubinshteyn fikricha har qanday inson faoliyati shaxs sifatida rivojlanishidan kelib chiqadi va ushbu faoliyatning subyekti sifatida asosiy markazda bo‘ladi. U faoliyatning birligi bilan uning dastlabki motivlari va yakuniy maqsadlariga ishondi faoliyatning o‘zi shaxsning motiv va maqsadlariga aylanadi.

Sharq mutafakkirlari ta’limotida o‘g‘il va qizlarga ta’lim va tarbiya berish bilan birga ularni kasb-hunarga o‘rgatish g‘oyasi ham muhim o‘rin egallaydi. Bundan ko‘rinadiki, kasb tanlash, kasbga yo‘naltirish masalalari hozirgi kun uchun yangilik bo‘lmay, balki azaliy muammo sifatida o‘rganib kelinmoqda. Buyuk qomusiy olim Abu Nasr Forobiy kasb-hunar to‘g‘risida ilk fikrlarini bildirib, qimmatli maslahatlarni berganlar, chunonchi ta’lim-so‘z va ko‘nikmalar majmuasi, tarbiya esa amaliy malakalardan iborat ish-harakat ekanligini, muayyan kasb-hunarga berilgan, u bilan qiziqqan kishilar shu kasb-hunarning chinakam shaydosi bo‘lishini aytgan. Bu mulohazalardan ko‘rinib turibdiki, kasb-hunar insoniyat uchun azaldan juda zarur hayotiy vosita bo‘lib kelgan. Forobiyning fikricha, insonning kasb-hunar va san’atdagi fazilatiga kelsak, bu fazilat tug‘ma emasdir, aks holda uning fikru-fazilatida mutlaqo kuch va ulug‘lik bo‘lmas edi. Agar kasb-hunar fazilati tug‘ma bo‘lganda podshohlar ham o‘zlari ishlab va harakat qilib emas, balki podshohlik ularga faqat tabiiy ravishda muyassar bo‘lgan, tabiat talab qilgan tabiiy majburiy bo‘lib qolar edi. Abu Rayhon Beruniy inson kamolotida mehnat va mehnat tarbiyasi haqida muhim fikrlarni bayon etadi. U har bir hunar egasini mehnatiga qarab turlarga bo‘ladi. Og‘ir mehnat sifatida binokor, ko‘mir qazuvchi, hunarmand, fan sohiblari mehnatini keltiradi. Ayniqsa, ilm aqli-olimlar mehnatiga alohida e’tibor berish, hayrihoh bo‘lishga chaqiradi, ularni ma’rifat tarqatuvchilar jamiyat ravnaqiga hissa qo‘shuvchilar deb biladi. Beruniy bolalarni mehnatga o‘rgatish metodlari, yo‘llari haqida ham fikr yuritadi. Masalan, bolalarni eng kichik yoshdan mehnatga o‘rgatish kerak, deydi. Abu Ali ibn Sinoning mehnatsevarlik tarbiyasi borasidagi fikrlari ham diqqatga sazovordir. Jumladan, u har bir bolani biror hunarga o‘rgatmoq shart, deydi. Yosh yigit biror hunarni o‘rgansa, uni hayotga tatbiq eta olsa va mustaqil hunar tufayli oilani ta’minlaydigan bo‘lsagina otasi uni uylantirib qo‘ymoqi lozim, deb hisoblaydi. Yusuf Xos Hojibning o‘sha davrda kosib hunarmandlarga naqadar hayrihohligi o‘z-o‘zidan emasdi. Chunonchi, davlatning tinch osoyishtaligi, jahonda tutgan mavqei, boyligi, xalqning farovonligi ana shu toifadagi kishilarga bog‘liq edi. Zero, kasb-hunar ta’limning ijtimoiy-siyosiy, moddiy va madaniy taraqqiyotining o‘lchov birligi sanalardi. Yusuf Xos Hojib jamiyat taraqqiyoti va xalq farovonligida muhim o‘ringa ega bo‘lgan dehqonlar, chorvadorlar, savdogarlar, tabiblar, olimlar haqida ham muhim fikrlar bayon etadi va har birining jamiyatdagi o‘rnini ko‘rsatib beradi [4].

Zamonaviy kasb-hunar ta’limi talaba shaxsini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi, uning hayoti va kasbiy yo‘nalishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Hozirda bo‘lajak pedagoglarni umumiy kasbiy tayyorgarliklariga alohida e’tibor berilmoqda. Oliy ta’lim muassalarining ta’lim va tarbiya berish tizimi talabalarni kasbiy faoliyatga oliy ta’lim muassasalarida tayyorlash, ularni pedagogik va psixologik tayyorgarligi, kasbiy va shaxsiy fazilatlarini shakllantirish muammosiga bag‘ishlangan. Talabalarning kasbiy faoliyatga pedagogik va psixologik tayyorgarligi asosiy komponent hisoblangan holda vazifalarni muvaffaqiyatli

bajarish yo‘lida o‘z bilim, ko‘nikma va qobiliyatlaridan samarali foydalana olishligi, kutilmagan vaziyatlarga tayyorgarlik ko‘rishni shuningdek, shaxsiy fazilatlarga, tajribaga, o‘z-o‘zini nazorat qilish va faoliyatini qayta qurishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan. Kasbiy faoliyat ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan faoliyat bo‘lib, uni amalga oshirish maxsus bilim, ko‘nikma va ko‘nikmalarni talab qiladi.

Talabalarning yoshga xos xususiyatlari va kasbiy rivojlanishida yoshga xos xususiyatlarni hisobga olish, talabalarning kasbiy rivojlanish jarayonini chuqur tushunish uchun muhim hisoblanadi. Yosh bosqichlariga mos ravishda psixologik, pedagogik va ijtimoiy jihatlar turlicha shakllanadi, bu esa ta’lim jarayonining samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

18–22 yosh (talabalik davri): Bu davr insonning shaxs sifatida shakllanishida muhim bosqich hisoblanadi. Talabalik yillari bilim olishga qiziqish yuqori bo‘lgan davr bo‘lib, shaxsning tanqidiy fikrlash, qaror qabul qilish, hamda kelajak kasbini shakllantirishdagi asosiy psixologik bosqichlaridan biridir.

- **Psixologik o‘ziga xosliklar:** Bu yoshda motivatsiya, tashabbuskorlik va mustaqillik rivojlanadi. Biroq, ba’zi talabalarda qaror qabul qilishda sustlik yoki ishonchsizlik kuzatilishi mumkin.
- **Pedagogik jarayon xususiyatlari:** Ushbu yosh bosqichida ta’lim berishda talabalarni ko‘proq mustaqil fikrlashga, mas’uliyatni his qilishga va ijodiy yondashuvga undash kerak.

Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy faoliyatga samarali tayyorgarlikni amalga oshirish, kasbiy bilim va ko‘nikmalarni muvaffaqiyatli o‘zlashtirishdagi asosiy omil kasbiy sifatlarni rivojlantirish masalasi tadqiqot doirasidagi muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Odatda bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy faoliyatga moslashtirishda ularning obyektiv imkoniyatlaridan kelib chiqib yondashish, tanlangan kasb va faoliyat talablariga shaxs imkoniyatlarining identifikatsiyalashuvi maqsadga muvofiq sanaladi. Shu boisdan ham, bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy moslashtirishda masalaning mazkur jihatlarini nazariy asoslash va bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy imkoniyatlarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Talabalarda pedagogik kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishning pedagogik – psixologik xususiyatlari bo‘lajak pedagoglar o‘rtasida o‘zaro ishonch, bir-birlarini qo‘llab quvvatlash, maqsad yo‘lida o‘zaro birlashish ko‘nikmalarini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi. Ijobiy yondashuvlarning aksariyati talabalar o‘rtasida suhbat va o‘zaro munosabatlarni rivojlantirishni o‘z ichiga oladi. Kasbiy mahoratni o‘rgatishda hamkorlikda o‘rganish yondashuvlari ayniqsa istiqbolli ekanligi aniq isbotini topgan. Bo‘lajak pedagoglarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish asosan o‘qituvchilar o‘z faoliyati jarayonida ibrat, namuna ko‘rsatish bilan yoshlarning faolligini, his – tuyg‘usini, xatti-harakatini rivojlantirishi va ta’sir eta olishi, har bir mashg‘ulot uchun material tanlash, uni murakkablashtirish va oldingi hamda keyingilari bilan aloqasini ta’minlash, pedagogik jarayonni o‘qituvchilar jamoasi va yoshlar bilan ishlashni qamrab olib, ta’limiy-tarbiyaviy vositalar majmuidan foydalangan holda rejalashtirishi shart.

Iqtiboslar/Сноски/References

1. Петухова Т.М. Методические указания по дипломному проектированию [Текст] / Свердл. инж.-пед. ин-т. – Екатеринбург, 1992. 44 с.

2. Зеер Э.Ф. Психология личностно ориентированного профессионального образования [Текст] / Э.Ф. Зеер. – Екатеринбург : Изд-во Урал. гос. проф.-пед. ун-та, 2000. 258 с.

3. Бабука В.В. Дипломное проектирование по технологии машиностроения [Текст]: учеб. пособие для вузов / Минск: Вышэйш. шк., 1979. 464 с.

4. Жалилова С. Х., Хайдаров Ф.И., Халилова Н.И. Касб психологияси. –Т: 2010. -17-б.

Vaxabova O‘gilxon Tolibjonovna
Andijon davlat pedagogika instituti Pedagogika va psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi
vaxobovaogiloy@gmail.com

YOSHLAR IJTIMOIY ME’YORLARI SHAKLLANISHIGA AXBOROT MUHITI TA’SIRINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. maqolada yoshlarda ijtimoiy voqelikka munosabat idroki va uning interpetasiyasiga ta’sir qiluvchi ijtimoiy-psixologik omillarni aniqlash asosida ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Kalit so‘zlar: shaxs hulq-atvori, motivasion komponent, munosabat, adaptiv munosabat, emosional-kognitiv motivlar, stimullar, ijtimoiy-psixologik xususiyatlar.

Вахабова Угилхон Талибжоновна
Преподаватель кафедры педагогики и психологии Андижанского государственного педагогического института
vaxobovaogiloy@gmail.com

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ВЛИЯНИЯ ИНФОРМАЦИОННОЙ СРЕДЫ НА ФОРМИРОВАНИЕ СОЦИАЛЬНЫХ НОРМ МОЛОДЕЖИ

Аннотация. в статье ставится задача разработать научно-практические предложения и рекомендации, основанные на выявлении социально-психологических факторов, влияющих на восприятие молодежью отношения к социальной действительности и ее интерпретации.

Ключевые слова: личность, мотивационный компонент, установка, адаптационная установка, эмоционально-познавательные мотивы, стимулы, социально-психологические характеристики.

Vaxabova Ugilxon Tolibjonovna
Andijan State Pedagogical institute teacher of the Department of pedagogy and psychology
vaxobovaogiloy@gmail.com

PSYCHOLOGICAL FEATURES OF THE INFLUENCE OF THE INFORMATION ENVIRONMENT ON THE FORMATION OF SOCIAL NORMS OF YOUTH

Annotation. the article aims to develop scientific and practical proposals and recommendations based on the identification of socio-psychological factors affecting the perception of young people's attitude to social reality and its interpretation.

Key words: personality, motivational component, attitude, adaptive attitude, emotional-cognitive motives, stimuli, social-psychological characteristics.

Kirish. Yoshlarning ijtimoiy xulq-atvor normalarini belgilaydigan shaxsiy xarakter xususiyatlari tizimli ravishda tashkil etilgan fazilatlar tizimiga asoslanadi. Eriksonning psixo-ijtimoiy rivojlanish bosqichlarining nazariyasiga koʻra, 20-25 yosh oraligʻida, oʻsmirlik, oʻspirinlik va kata yoshlilik oraligʻida joylashgan insonning hayot yoʻli yoshlik davri deb ataladi. Yoshlikda dunyo ogʻir ijtimoiy mas'uliyat bilan toʻla boshlaydi, ixtiyoriyijtimoiy normalar, azob-uqubatlar, sevgi azoblari vaqti keladi.

Soʻnggi yillarda yosh avlodning xulq-atvoridagi umumiy bogʻliqlik va qonuniyatlarning xilma-xilligini oʻrganishga, yoshlarni jamiyat taraqqiyotining toʻla huquqli subyekti sifatida koʻrib chiqishga yaxlit yondashuv zarurati paydo boʻlmoqda. Yoshlarning jamiyatdagi va tarixiy rivojlanish jarayoni tarkibidagi holatining asosiy ijtimoiy-psixologik koʻrsatkichlari ularning qadriyat yoʻnalishlari, ijtimoiy normalari va munosabatlardir. Ular ong tipini, faoliyat xarakterini, muammolarning oʻziga xos xususiyatlarini, ehtiyojlarini, qiziqishlarini, yoshlarning umidlarini, xulq-atvorlarning tipik modellarini belgilaydi. Kelajakni tanlash, uni rejalashtirish yoshlikning oʻziga xos xususiyatidir. Rivojlanish psixologiyasida yoshlik barqaror qadriyatlar tizimini shakllantirish, oʻz-oʻzini anglash va shaxsning ijtimoiy mavqeini shakllantirish davri sifatida tavsiflanadi. Yosh odamning ongi oʻziga xos sezgirlikka, katta ma'lumot oqimini qayta ishlash va oʻzlashtirish qobiliyatiga ega. Bu davrda tanqidiy fikrlash rivojlanadi, turli hodisalarga oʻz bahosini berish istagi, dalillarni izlash, oʻziga xos echim. Shu bilan birga, bu yoshda avvalgi yoshga xos boʻlgan baʼzi munosabatlar va stereotiplar saqlanib qolgan. Buning sababi shundaki, faol qadriyat-ijodiy faoliyat davri yosh shaxsda amaliy, ijodiy faoliyatning cheklangan tabiatiga, ijtimoiy munosabatlar tizimiga toʻliq jalb qilinmaganligiga duch keladi. Demak, yoshlarning xulq-atvorida qarama-qarshi xususiyat va fazilatlarning hayratlanarli kombinatsiyasi mavjud: muloqot qilish va tashqi dunyodan ajralib chiqish istagi; identifikatsiya qilish va izolyatsiya qilish istagi; umumeʼtirof etilgan normalarga taqlid qilish va inkor etish; muvofiqlik va negativizm. Yoshlar ongining beqarorligi va nomuvofiqligi xulq-atvor va shaxs faoliyatining koʻplab shakllariga ta'sir qiladi [1, B. 16-29].

Yoshlarning kattalarning ijtimoiy rollari tizimini oʻzlashtirishi ham qarama-qarshidir. Yosh bir faoliyat sohasida mas'uliyatli va jiddiy boʻlishi va shu bilan birga boshqa sohada oʻzini oʻsmir kabi his qilishi va tutishi mumkin. Yoshlarning ijtimoiy etukligining shakllanishi koʻplab nisbatan mustaqil, muhim omillar – oilalar, maktablar, mehnat jamoalari, ommaviy axborot vositalari, Internet, yoshlar tashkilotlari va stixiyali guruhlar ta'siri ostida sodir boʻladi. Sotsializatsiya institutlari va mexanizmlarining koʻpligi qatʼiy ierarxik tizimni anglatmaydi, ularning har biri shaxsning rivojlanishida oʻziga xos funktsiyalarni bajaradi [2, B. 25-39]. Ijtimoiy yetuklik – bu shaxsning asosiy

ijtimoiy-psixologik fazilatlari va xususiyatlarini anglash va faoliyatida amalga oshirishning yaxlitligi. Shuningdek, siz shaxsning o‘z salohiyatiga bo‘lgan munosabatini hisobga olishingiz kerak.

Metodlar. Biz tadqiqotimiz metodologik asosi sifatida E. Dyurkgeym, G. Spenser, G. Simmel, F. Tennis, M. Veber, T. Parsonslarni ijtimoiy xulq-atvorning tabiatini o‘rganish uchun "ijtimoiy faoliyat", Ch.X. Kuli, J. G. Mead, V. I. Tomas, F. Znanieckilarning sub'ekt-sub'ekt yondashuvi, L.S. Vygotskiy, A.N. Leontiev, S.L. Rubinshteyn, G.M. Andreeva, A.V. Petrovskiylarning interaksionizm, shu jumladan namoyishkorlik, o‘zini namoyon qilish fenomenini o‘rganishning nazariy jihatlari va E.Eriksonning psixo-ijtimoiy rivojlanish nazariyalarida keltirilgan dalillaridan foydalandik.

Axborot muhitida ommaviy aloqa vositasi sifatida internet quyidagi o‘ziga xos xususiyatlarga ega:

1) markaziylashtirilgan tashkiliy tuzilmaning yo‘qligi;

2) axborotni tarqatishning yuqori tezligi;

3) axborotni tarqatish tarmoq usulida amalga oshiriladi, olomonning ta’sir mexanizmiga o‘xshash xususiyatlarga ega (mish-mishlarning tarqalishi, nazoratsizlik, “tasodifiy muhit”

4) muloqotning yuqori interaktivligi: real vaqt rejimida tinglovchilar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqotga kirishish va fikr-mulohazalarni qabul qilish, shuningdek, auditoriyaning bir-biri bilan aloqasi (forumda muhokama).

Axbotor muhitida internet aloqalari turli funktsiyalarni bajaradi, masalan:

- muloqot, tanishish;
-ta’lim;
- biznes aloqalari;
- dam olish;
- axborotni qabul qilish.

Tarkibiga ko‘ra turli xil ma'lumotlarning har bir turi (ilmiy-tadqiqot, o‘quv-tarbiyaviy, transport, moliyaviy, iqtisodiy, sanoat, boshqaruv, tibbiy, ekologik, huquqiy va boshqa turlari) o‘zining maxsus texnologiyalari, semantik qadriyatlari va normalari axloqiy mezonlarga, aniqligi, mantiqiyligi, matnni qabul qiluvchi tomonidan idrok etilishining qulayligi uchun samarali.[4, B. 33-35].

Internet nafaqat barcha turdagi ma'lumotlarning bitmas-tuganmas manbai, texnologiya dvigateli, balki eng innovatsion aloqa vositasi, targ‘ibot, reklama va PR uchun vositadir. Internetda axborot tarqatish tezligi va arzonligi ortib bormoqda (pochtaga qaraganda o‘rtacha 700 marta tezroq va 335 marta arzon), aloqa chegaralari uzoqlashmoqda, fikrlar plyuralizmi hamma joyda tarqalmoqda.

E. Reid virtual identifikatsiyaga ta'sir qiluvchi elektron aloqaning uchta asosiy xususiyatini beradi: anonimlik, masofa va moslashuvchanlik. Virtual makonda foydalanuvchining o‘zi o‘z shaxsini belgilaydi. Virtual makon boshqaruv va o‘zini o‘zgartirish uchun juda qulay [5, B. 37-38].

Umumiy holatda axborot muhitini internet tarmog‘i sifatida tadqiq etish orqali uning to‘rt xususiyati ajralib chiqadi:

1. Anonimlik
2. Jismoniy ifodalanmaslik
3. Tartibga solinmagan xulq-atvorlar
4. Muloqot jarayonida psixologik va ijtimoiy xavfni kamaytirish
5. Ijtimoiy kommunikatsiya

Axborot muhitidagi yoshlarning internet kommunikatsiyasida quyidagi maqsadlarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

- instrumental maqsadlar;
- munosabatlar bilan bog‘liq maqsadlar;
- o‘z-o‘zini anglash bilan bog‘liq maqsadlar (Men konsepsiyasi)

Axborot muhitida Internet-kommunikatsiyalar yordamida zamonaviy yoshlar, ayniqsa, texnologik jihatdan rivojlangan jamiyatda turli muammolar va maqsadlarni hal qilishi mumkin. Qoidaga ko‘ra, ko‘pchilik axborot muhitidagi aloqa harakatlari ko‘p funktsiyali bo‘lib, odam bir vaqtning o‘zida bir nechta maqsadlarni ko‘zlab, ular o‘rtasida ierarxiya qurishi mumkin.

Natijalar. Talaba-yoshlarni ijtimoiy normalari shakllanishiga axborot muhitini ta’sirini aniqlash imkoniyatini ortirish maqsadida R. Lazarus va S.Folkmanning “Xulq-atvorning hayotiy qiyinchiliklarga bardoshliligi” metodikasi tanlab olindi. Metodika mualliflarining fikriga ko‘ra, hayot qiyinchiliklariga dosh berish - bu shaxsning o‘ziga xos tashqi va (yoki) ichki talablarini boshqarish uchun doimiy o‘zgaruvchan bilim va xulq-atvor harakatlari, uning resurslarini sinovdan o‘tkazish yoki undan chiqib ketish sifatida baholanadi. Salbiy hayotiy vaziyatlarni engish vazifasi - bu qiyinchiliklarni engish yoki ularning salbiy oqibatlarini kamaytirish yoki bu qiyinchiliklardan qochish yoki ularga chidashda namoyon bo‘ladi. Bir vaziyatda samarali bo‘lgan normalar boshqa vaziyatda samarasiz va hatto zararli bo‘lishi mumkin.

Shu bilan birga, ushbu vaziyatlarning xususiyatlaridan qat’iy nazar, nisbatan stressli vaziyatlarga moslashishga yordam beradigan bir qator psixo-ijtimoiy omillar mavjud.

Bularga moslashuvchan individual-tipologik (asosan, kognitiv uslub) xususiyatlar to‘plami (masalan, yengish qobiliyati, nekbinlik, o‘zini o‘zi qadrlash, ichki nazorat markazi, chidamlilik va boshqalar), shuningdek, ijtimoiy munosabat xususiyatlari va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning yetarliligi.

Sinaluvchi-respodentlarga mualliflar tomonidan taklif etilgan qiyin hayotiy vaziyatdagi shaxs hulq-atvor normasiga oid 50 ta hukmlar taklif etiladi.Ishtirokchi o‘zida taklif etilayotgan hulq-atvor normasining qanchalik tez-tez namoyon bo‘lishini baholanishi kerak. Tasdiqlar to‘rt ko‘rinishda bo‘lib: hech qachon – 0 ball, kam hollarda – 1 ball, ba’zida – 2 ball, tez-tez – 3 ball bilan baholanadi.

1-jadval

R.Lazarus va S.Folkmanning “Xulq-atvorning hayotiy qiyinchilklarga bardoshlilik” so‘rovnomasi natijalari (Pirson-r korrelyasiya)

	Qarama-qarshilik bilan kurashish	Masofa saqlash	O‘z-o‘zini nazorat qilish	Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni so‘rash	Mas’uliyatni qabul qilish	Munosabatlardan qochish	Muammoni hal qilishni rejalashtirish	Ijobiy qayta baholash
Qarama-qarshilik bilan kurashish	1							
Masofa saqlash	0,34***	1						
O‘z-o‘zini nazorat qilish	0,17**	0,45***	1					
Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni so‘rash	0,27***	0,33***	0,36***	1				
Mas'uliyatni qabul qilish	0,19***	0,29***	0,28***	0,36***	1			
Munosabatlardan qochish	0,32***	0,22***	0,15**	0,2***	0,29***	1		
Muammoni hal qilishni rejalashtirish	0,18***	0,23***	0,38***	0,2***	0,32***	0,18***	1	
Ijobiy qayta baholash	0,31***	0,31***	0,42***	0,25***	0,3***	0,22***	0,4***	1

*p<0,05; **p<0,01; ****p<0,001

Yuqoridagi jadvaldan ko‘rishimiz mumkunki, xulq-atvorda hosil bo‘lgan ijtimoiy normalar sakkizta shkala bo‘yicha tahlili ko‘zdan kechirilganda, shunday natijalar olindi. Yoshlarda “qarama-qarshiliklar bilan kurashish’ normasi boshqa normalarga ijobiy korrelyasiya kuzatilmadi.

“Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni so‘rash” shkalasi qolgan shkaladagi tasdiqlar bilan ijobiy ma’noda bog‘liq ekanligini kuzatish mumkin bo‘ldi.

“Oz-o‘zini nazorat qilish”, “Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni so‘rash”, “Masofa saqlash”, “Mas’uliyatni qabul qilish” shkalalari ham o‘zaro ijobiy korrelyasiyani kuzatish imkonini berdi.

2-jadval

R.Lazarus va S.Folkmanning “Xulq-atvorning hayotiy qiyinchilklarga bardoshlilik” so‘rovnomasi natijalari jins ko‘rsatkichlari bo‘yicha

	Jins	N	O‘rtacha	Dispersiya	t
Qarama-qarshilik bilan kurashish	Erkak	52	9,52	8,88	-1,72
	Ayol	390	10,35	10,87	
Masofa saqlash	Erkak	52	10,90	9,89	-1,92
	Ayol	390	11,75	8,85	
O‘z-o‘zini nazorat qilish	Erkak	52	14,13	17,14	-0,8
	Ayol	390	14,54	12,36	
Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni so‘rash	Erkak	52	11,10	10,68	-0,71
	Ayol	390	11,43	9,61	
Mas'uliyatni qabul qilish	Erkak	52	8,19	8,24	-2,06*
	Ayol	390	9,13	9,60	
Munosabatlardan qochish	Erkak	52	11,42	17,27	-2,44*
	Ayol	390	12,84	15,24	
Muammoni hal qilishni rejalashtirish	Erkak	52	12,42	11,97	-0,53
	Ayol	390	12,66	9,02	
Ijobiy qayta baholash	Erkak	52	13,15	21,00	-2,24*
	yol	90	14,43	14,00	

*p<0,05; **p<0,01; ****p<0,001

“Qarama-qarshilik bilan kurashish” erkaklarda o‘rtacha 9,52, dispersiya 8,88, ayollarda o‘rtacha 10,35, dispersiya 10,87 statistik ahamiyatli farqlarni hosil qildi.

“Masofa saqlash” erkaklarda o‘rtacha 10,90, dispersiya 9,89, ayollarda o‘rtacha 11,75, dispersiya 8,85 statistik ahamiyatli farqlarni hosil qildi. Bu esa o‘z navbatida ayollar masofa saqlashga nisbatan erkaklardan ko‘proq intilishlarini ko‘rsatib berdi. “O‘z-o‘zini nazorat qilish ” erkaklarda o‘rtacha 14,13, dispersiya 17,14, ayollarda o‘rtacha 14,54, dispersiya 12,36 sezilarli statistik ahamiyatli farqlar kuzatilmadi. “Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni so‘rash” erkaklarda o‘rtacha 11,10, dispersiya 10,68, ayollarda o‘rtacha 11,43, dispersiya 9,61 sezilarli statistik ahamiyatli farqlar kuzatilmadi. “Munosabatlardan qochish” erkaklarda o‘rtacha 11,42, dispersiya 17,27, ayollarda o‘rtacha 12,84, dispersiya 15,24 sezilarli statistik ahamiyatli farqlar kuzatildi. Erkaklar ayollarga nisbatan munosabatlardan qochishga moyilligi ifodalandi. “Mas’uliyatni qabul qilish” erkaklarda o‘rtacha 8,19, dispersiya 8,24, ayollarda o‘rtacha 9,13, dispersiya 9,60 sezilarli statistik ahamiyatli farqlar kuzatildi. “muammoni hal qilishni rejalashtirish” erkaklarda o‘rtacha 12,84, dispersiya 11,97, ayollarda o‘rtacha 12,66, dispersiya 9,02 sezilarli statistik ahamiyatli farqlar kuzatilmadi. “Ijobiy qayta baholash” erkaklarda o‘rtacha 13,15, dispersiya 21,00, ayollarda o‘rtacha 14,43, dispersiya 14,00 sezilarli statistik ahamiyatli farqlar kuzatildi.

Xulosa va tavsiyalar. Talaba-yoshlarning axborot muhitida ijtimoiy normalari shakllanishi faktorlarini tadqiq etish orqali quyidagi xulosalarga kelindi.

1. Bugungi kunda jamiyatda internet kommunikasiyalarining tezkor ravishda tarqalishi barcha darajalarda faol muhokama qilinmoqda. Bu soha psixologlar, shifokorlar, filologlar, sotsiologlar, harbiylar, faylasuflar, siyosatshunoslar, dasturchilar va boshqa axborot texnologiyalari mutaxassislarini qiziqtirmoqda. Internet kommunkasiyasi deyarli barcha zamonaviy davlatlarda ijtimoiy reallikka aylandi va amaliy ijtimoiy-psixologik tadqiqotlarning yangi yo‘nalishlarini belgilab bermoqda.

2. Axborot muhiti yoshlarning bo‘sh vaqtlarini tobora ko‘proq to‘ldirib, ko‘pincha jonli muloqot vaqtini siqib tashlamoqda. Hozirgi vaqtda ijtimoiy xulq-atvorning yangi modellarini targ‘ib qila oladigan va real o‘zaro ta'sir doirasiga integratsiyalashuvi mumkin bo‘lgan juda ko‘p turli xil internet tarmoqlari mavjud.

3. Axborot muhitida virtual dunyo onlayn muloqot qilish uchun ko‘plab imkoniyatlar va dasturlarni taqdim etadi. Muayyan vosita va aloqa turiga bo‘lgan afzallik foydalanuvchi tomonidan ularning xohish va imkoniyatlariga qarab belgilanadi. Insonlar turli xil media kanallaridan tobora ko‘proq foydalanmoqda va ulardan foydalanish vaqti oshib bormoqda.

4. Shaxsning ijtimoiy xulq-atvori ob'ektning ko‘p sifatliligi tufayli murakkab jarayondir. Shaxsning o‘ziga xos uslubi va xulq-atvorining ijtimoiy xususiyatlari, shu bilan birga, uning tarkibida ijtimoiy sharoit va munosabatlarning umumiyligi tufayli uni boshqalarga o‘xshash qiladigan narsa mavjud. Shaxsning ijtimoiy xulq-atvori jarayonini o‘rganish uning faoliyatining tipik ko‘rinishlarini - turmush tarzi, xulq-atvor strategiyasi, normadan chetga chiqish va boshqalarni tahlil qilishga yo‘naltiriladi.

Iqtiboslar/Сноски/References

1. Кон И.С. Психология ранней юности / И.С. Кон.- М., 2017.

2. Кон И.С. В поисках себя: личность и ее самосознание. – Москва.: Политиздат. 1994. -335 с.

3. Z.Nishanova, Z.Qurbonova, S.Abdiev. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya. TAFAKKUR BO‘STONI, 2011. -8b

4. Жохова Н.Н. Влияние социальных сетей на современное общество / Н.Н.Жохова, Л.А.Жохова

5. Rotter J. Some problems and misconceptions related to the construct of internal versus external control of reinforcement. Journal of Consulting and Clinical Psychology, 1975. 43, 56–67

6. Белинская Е.П. Современные исследования виртуальной коммуникации: проблемы, гипотезы, результаты / Е.П. Белинская, А.Е. Жичкина // Образование и информационная культура. - М., 2000. - С. 395-428

7. Болотова А.К., Жуков Ю.М. Психология коммуникаций: моногр. А.К. Болотова, Ю.М. Жуков; Нац. исслед. ун-т «Высшая школа экономики». - М.: Изд. дом Высшей школы экономики, 2015. - 495 с

8. Жичкина А.Е. Взаимосвязь идентичности и поведения в Интернете пользователей юношеского возраста: дис. Канд. психол. наук: 19.00.05 / А.Е. Жичкина. - М., 2001. - 199 с.

Yulchiyeva G.Y.
Andijon davlat pedagogika instituti
“Pedagogika va Psixologiya”
kafedrasi o‘qituvchisi

OLIY TA’LIM MUASSASASI TALABALARIDA STRESSGA CHIDAMLILIKNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Oliy ta’lim muassasalarida talabalar stress muammosi bugungi kunda butun dunyoda dolzarb mavzulardan bo‘lib hisoblanadi. O‘zbekiston bo‘yicha esa talabalar orasida stress nisbatan pastroq darajada kuzatilsa-da, oliy ta’lim tizimidagi kuchli raqobat va iqtisodiy qiyinchiliklar bu holatni kuchaytiruvchi asosiy omillar hisoblanadi. Ushbu maqolada talabalarning stressga chidamlilik xususiyatlari va ularni rivojlantirish yo‘llari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: stress, emotsional barqarorik, trening, meditatsiya, pozitiv fikrlash, motivatsiya, psixologik mslahat, autotrening, vizualizatsiya.

Андижанский государственный педагогический институт
Кафедра «Педагогика и психология»
Преподаватель Юлчиева Г.Ю.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ СТРЕССОУСТОЙЧИВОСТИ СТУДЕНТОВ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ

Аннотация. Проблема стресса среди студентов в высших учебных заведениях на сегодняшний день является актуальной темой во всем мире. В Узбекистане стресс среди студентов наблюдается на относительно низком уровне, однако сильная конкуренция в системе высшего образования и экономические трудности являются основными факторами, усиливающими это состояние. В данной статье анализируются психологические характеристики стрессоустойчивости студентов и пути её развития.

Ключевые слова: стресс, эмоциональная стабильность, тренинг, медитация, позитивное мышление, мотивация, психологическое консультирование, аутотренинг, визуализация.

Andijan State Pedagogical Instituti
Department of Pedagogy and Psychology
Lecturer: Yulchiyeva G.Yu.

PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF STRESS RESILIENCE IN UNIVERSITY STUDENTS

Annotation. The issue of stress among students in higher education institutions is a pressing topic worldwide. In Uzbekistan, stress levels among students are relatively lower; however, intense competition in the higher education system and economic challenges are the main factors that exacerbate this condition. This article analyzes the psychological characteristics of students' stress resilience and explores ways to enhance it.

Keywords: stress, emotional stability, training, meditation, positive thinking, motivation, psychological counseling, autogenic training, visualization.

Kirish. Globallashuv davrida hozirgi oliy ta’lim tizimi talabalarni nafaqat nazariy bilim va kasbiy ko‘nikmalar bilan qurollantirishni, balki ularda shaxsiy va psixologik barqarorlikni shakllantirishni ham maqsad qiladi. Talabalar ta’lim jarayonida turli stressli vaziyatlarga duch kelishadi, bu esa ularning stressga chidamlilik darajasiga ta’sir qiladi. Talabalarda stress muammosi dunyo bo‘ylab keng tarqalgan va bu masalada statistik ma’lumotlar muhim ahamiyatga ega. Jahon bo‘yicha talabalar orasida stress darajasi yuqori ekanligini Gallup [1, B. 20-21] tadqiqotlari tasdiqlaydi. Unga ko‘ra, talabalar orasida doimiy ravishda stressni boshdan kechirayotganlar soni 41% atrofida ekanligi aniqlangan. Pandemiya davrida esa talabalar o‘rtasida mental salomatlik bilan bog‘liq muammolar 20% ga oshgan.

Yangi O‘zbekistonda Oliy ta’lim tizimiga e’tibor kuchaygani bugungi kunda talabalar va oliy ta’lim professor-o‘qituvchilariga bo‘lgan e’tibor so‘nggi sakkiz yil ichida sezilarli darajada o‘zgardi. Bunga Prezidentimizning “Oliy ta’lim sohasida ham katta islohatlar amalga oshirilmoqda. Qisa muddatda yurtimizda 135 ta yangi Oliygoh tashkil etib ularning umumiy soni 211taga yetkazilgni tizimda qamrov darajasi 4 barobardan ziyod oshib, 9 foizdan 38 foizga yetgani misolida buni yaqqol ko’rsatish mumkin[2, B. 1]” – degan fikrlarini misol qilsak bo‘ladi.

O‘zbekiston bo‘yicha esa talabalar orasida stress nisbatan pastroq darajada kuzatilsa-da, oliy ta’lim tizimidagi kuchli raqobat va iqtisodiy qiyinchiliklar bu holatni kuchaytiruvchi asosiy omillar hisoblanadi. Misol uchun, 2019-yilda mamlakatda har bir o‘rin uchun o‘rtacha 8-9 nafar abituriyent hujjat topshirgani aniqlangan. Shu bilan birga, Gallup hisobotida O‘zbekiston dunyo bo‘yicha stress darajasi eng past bo‘lgan davlatlar qatoridan joy olgan bo‘lsa-da, bu umumiy ko‘rsatkichlar talabalarning ichki stressini to‘liq aks ettirmaydi [1, B. 20-21]. Mazkur statistik ma’lumotlar talabalarda stressni kamaytirish va stressga chidamlilikni oshirish bo‘yicha dasturlarni ishlab chiqish zaruratini ko‘rsatadi. Shuningdek, xalqaro va mahalliy m’lumotlar bu masalada integratsiyalashgan yondashuvning ahamiyatini ta’kidlaydi.

Oliy ta’lim muassasasi talabalarining stressga chidamliligini oshirish ularning emotsional holatlarini bilish va to‘g‘ri baxolash o‘z vaqtida stressli vaziyatlarda ularga

yordam berish bunday vaziyatlarda ularga o‘z-o‘zini anglash va nazorat qilish texnikalarini o‘rgatish har bir oliy ta’lim pedagog psixologlari vazifasi hisoblanadi. Bu borada davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev biz professor-o‘qituvchilarga ustoz va murabbiylar kunida so‘zlagan bayram tabrigida shunday ta’kidlagan edilar: “… ishonchim komil, siz, muhtaram pedagoglar, professor-o’qituvchilarimiz ta’lim sohasidagi islohatlarimizda yanada faol ishtirok etib, “Yangi O’zbekiston – ma’rifiy jamiyat” degan oliyjanob g’oyamizni amalga oshirishga munosib xissa qo’shasiz [2, B. 1.]”. Demak bugungi kun talaba yoshlari ertamiz egalari ularning psixologik holatlari Yangi O‘zbekistonning kelajagi uchun muhim hisoblanadi.

Stress – organizmning ichki yoki tashqi tahdidlarga moslashishiga javob sifatida yuzaga keluvchi holatdir. Hans Selye ta’riflaganidek, stress har qanday tashqi bosimga moslashuv reaksiyasidir. O‘quv jarayonining murakkabligi va vazifalarning ko‘pligi, imtihonlar va baholash bosimi, shaxsiy hayotdagi qiyinchiliklar va yangi ijtimoiy muhitga moslashish zarurati talabalarda stressni keltirib chiqaruvchi omillaridan hisoblanadi. Stressga chidamlilik esa shaxsning stressli vaziyatlarga bardosh berish, hissiy barqarorlikni saqlash va stress oqibatlarini boshqarish qobiliyatidir. Bu qobiliyat shaxsning psixologik xususiyatlari va tayyorgarligiga bog‘liq hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. Jahon miqyosidagi olimlar va ularning ishlari Hans Selye (Kanada) “Stressga moslashish nafaqat tashqi bosimlarga, balki shaxsning ichki barqarorligiga ham bog‘liq [3, B. 115]”. Richard S. Lazarus (AQSh) stressni boshqarish va individual moslashuv nazariyasini ishlab chiqqan. “Stressni qabul qilish sub’ektiv bo‘lib, asosan, insonning vaziyatni baholashiga bog‘liq [4, B. 371]”. Aron Antonovsky (Isroil) “Kuchli uyg‘unlik hissi shaxslarning stress bilan samarali kurashishiga imkon beradi.”[5.46-b.]A.A. Rean (Rossiya) “Stressga chidamlilik motivatsiya, emotsional barqarorlik va o‘zini boshqarish darajasiga bog‘liq.”[6, B. 220] N.E. Vodopyanova (Rossiya) “Stressga chidamlilik shaxsning kognitiv va emotsional resurslari bilan bog‘liq.”[7, B. 187] L.I. Antsyferova (Rossiya) **“Личность в сложных жизненных условиях: перестройка и развитие.”[8**, B. **29]** asarida keltirilishicha, qiyin hayotiy sharoitlarda shaxs o‘z resurslarini faollashtirish va yangi sharoitlarga moslashish orqali rivojlanadi. Moslashuv jarayonida nafaqat mavjud qiyinchiliklarni yengish, balki shaxsning o‘zini o‘zi anglash va imkoniyatlarini kengaytirish ham sodir bo‘ladi.

O‘zbekistonda A.Q. Sayfullayeva, D.A. Karimov, G. Yuldasheva kabi olimlar ilmiy tadqiqotlari talabalar stressga chidamliligini oshirishda nazariy va amaliy asoslar sifatida xizmat qiladi. O‘zbek olimlari ayniqsa, milliy xususiyatlar va qadriyatlarni inobatga olib ish olib borgani bilan ajralib turadi.

Metodika va natijalar. O‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida talabalarda stressga chidamlilikning psixologik xususiyatlari tahlil qilindi. Andijon davlat pedagogika instituti Pedagogika va psixologiya yo‘nalishi 4-bosqich talabalari o‘rtasida metodikalar o‘tkazildi. Stressga chidamlilikni oshirish va stressni boshqarish bo‘yicha psixologik treninglar, meditatsiya, relaksatsiya texnikalari o‘tkazildi. Vaqtni boshqarish, vaqtni to‘g‘ri taqsimlash bo‘yicha maslahatlar berildi.

Shu asosda, talabalar stressga chidamliligini oshirish bo‘yicha psixologik yordam dasturlarini kengaytirish va ta’lim tizimida ruhiy salomatlikni qo‘llab-quvvatlash choralari dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. Mazkur mavzuni tadqiq etishda mahalliy va xalqaro miqyosdagi ma’lumotlar birgalikda foydalanilishi muhim.

Stressga chidamlilik talabalarning psixologik jihatlari bilan chambarchas bog‘liq. Kuchli emotsional barqarorlik stressni yengishda muhimdir. O‘z-o‘zini boshqarish qobiliyatiga ega talabalar stressni osonroq yengib o‘tadilar. Optimistik qarashlar stressni imkoniyat sifatida qabul qilishga yordam beradi. Moslashuvchan talabalar doimiy o‘zgarishlarga oson moslashadi va stressni kamaytiradi. Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashham talabalrda stressga chidamlilikni oshirish omillaridan biri xisoblanadi. Do‘stlar va yaqinlarning ko‘magi talabalar stressini yengillashtiradi. Maqsadga yo‘naltirilganlik. Aniq maqsadga ega bo‘lgan talabalar stressli vaziyatlarni samarali boshqarishadi. Sog‘lom turmush tarzi. Jismoniy sog‘lom hayot stressga chidamlilikni oshiradi. Jismoniy mashqlar va sog‘lom odatlar stressga chidamlilikni kuchaytiradi.

Xulosa va tavsiyalar. Xulosa qilib aytganda talabalarda stressga chidamlilik ularning shaxsiy va psixologik xususiyatlariga bog‘liq bo‘lib, bu sohada ishlarni kuchaytirish zarur. Stressga chidamlilikning rivojlanishi nafaqat talabalarning ta’lim jarayonidagi muvaffaqiyatini, balki jamiyatning rivojlanishini ta’minlashga yordam beradi. Talabalarning stressga chidamliligini oshirish uchun quyidagilarni tavsiya qilamiz

O‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmalari: Talabalarga emotsiyalarini boshqarish, vaziyatni sovuqqonlik bilan baholash va stressli vaziyatlarda tinchlanish usullarini o‘rgatish.

Motivatsiyani kuchaytirish: Ularga o‘z maqsadlarini aniq belgilash va ularga erishish uchun qadamlarni rejali tarzda qo‘yish zarurligini tushuntirish.

Stressni boshqarish bo‘yicha treninglar: Talabalarga nafas olish texnikalari, meditatsiya va boshqa psixologik yengillik usullarini o‘rgatish.

Pozitiv fikrlashni rivojlantirish: Har qanday murakkab vaziyatni imkoniyat sifatida ko‘rishga o‘rgatish.

Jismoniy faollik: Muntazam jismoniy mashqlar va sport bilan shug‘ullanish stressni kamaytiradi va emotsional barqarorlikni oshiradi.

Sog‘lom uyqu: Talabalarga yetarlicha uxlash va o‘quv rejalarini shunga moslashtirish muhimligini tushuntirish.

Sog‘lom ovqatlanish: Stressni kamaytirishda to‘g‘ri ovqatlanishning ahamiyatini tushuntirish.

Yaxshi ijtimoiy muhit: Oila, do‘stlar va o‘qituvchilar tomonidan qo‘llab-quvvatlash talabaning stressga chidamliligini oshiradi.

Mentorlik tizimini joriy etish: Talabalarga maslahatchilar yoki murabbiylar bilan muloqot qilish imkoniyatini berish.

Akademik yuklamani muvozanatlash: O‘quv rejalarini haddan tashqari yuklamasdan, dam olish uchun vaqt ajratishga imkoniyat beradigan tarzda tashkil qilish.

Psixologik yordam xizmatlari: Oliy ta’lim muassasalarida doimiy psixologik maslahat xizmatlarini taqdim etish.

Milliy qadriyatlar va urf-odatlar: Talabalarga milliy qadriyatlar va urf-odatlarning inson ruhiyati va stressga chidamlilikdagi ahamiyatini tushuntirish.

Madaniy tadbirlar va dam olish: Milliy bayramlar, san’at va sport tadbirlarida qatnashish orqali ruhiy holatni mustahkamlash.

Raqamli vositalar: Talabalarni o‘quv materiallarini osonroq qabul qilish va vaqtni tejash uchun turli raqamli vositalar bilan ta’minlash.

Ko‘ngilochar mashg‘ulotlar: Stressni kamaytirish maqsadida turli ko‘ngilochar va ijodiy mashg‘ulotlarni yo‘lga qo‘yish.

Ushbu tavsiyalar oliy ta’lim muassasalaridagi talabalarning stressga chidamliligini oshirish va ularni ruhiy jihatdan barqaror qilishga xizmat qiladi.

Iqtiboslar/Сноски/References

1. Gallup Global Emotions Report, 2019

2. Xalq so’zi gazetasi. 2024 yil 3-son Ustoz va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan bayram tabrigi nutqidan.

3. “Stress: Hayotning zaruriy komponenti” McGraw-Hill Nashr. 1956-yil. AQSH 115-b.

4. Richard S. Lazarus “Emotion and Adaptation” 1991-yilda AQSh nashriyot Oxford University Press

5. Aaron Antonovsky “Health, Stress, and Coping” 1979 Sense of Coherence (SoC) AQShda Addison-Wesley Publishing 300-400 bet

6. А.А. Реан, "Психология стресса: адаптивные механизмы и стрессоустойчивость", издательство "Академия", Россия, 2004

7. Н.Е. Водопьянова, «Психология стресса и стрессоустойчивость: Современные подходы», издательство «Питер» Россия, 2009.

8. Л.И. Анцыферова, "Личность в сложных жизненных условиях: перестройка и развитие", издательство "Наука", Россия, 1994

Atamuratova Feruza Baxtiyarovna
Urganch davlat universiteti Pedagogika fakulteti,
psixologiya yo‘nalishi mustaqil izlanuvchi (PhD).
E-mail. @Atamuratova 14
Telefon: 90-648-15-83

O‘SMIR O‘QUVCHILARDA SALOMATLIKKA YO‘NALGANLIK RIVOJLANISHI MASALASINING ILMIY ADABIYOTLARDA O‘RGANILISHI

Annotatsiya. O‘smirlik davri energiyaga boy va rang-baranglikni talab qiluvchi xususiyatlarga egalik bilan tavsiflanadi. Shunga asosan, o‘smirlarda salomatlik masalasini shakllantirish, sog‘liq ahamiyatini tushuntirish kundan-kunga dolzarbligi ortmoqda. Chunki, internet tarmoqlarining turli xil mavzulardagi o‘ziga jalb qiluvchi oqimi yoshlarning nafaqat, salomatligi, balki hulq-atvori shakllanishiga ta’sir o‘tkazib bo‘lgan. Axborotlashgan davrda yoshlarning salomatligini saqlash qadriyatlarini shakllantirish ayniqsa muammoli masala hisoblanadi. Shunga asosan, ular moyilligi, qiziqish va ideallarini hisobga olgan holda mashg‘ulotlarning tashkillashtirilishi sog‘liqqa asoslangan qadriyatlariga ta’sir ko‘rsatish imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: “Salomatlik”, o‘smirlik davri, qiziqishi, psixologik salomatlik, psixologik farovonlik, ota-ona, kommunikativ, munosabat.

Атамуратова Феруза Бахтияровна
Ургенчский государственный университет,
педагогический факультет,
независимый исследователь (PHD) в области психологии.
E-mail. @Atamuratova 14
Telefon: 90-648-15-83

ИССЛЕДОВАНИЕ ВОПРОСА РАЗВИТИЕ ЗДОРОВЬЕОРИЕНТИРОВАННОСТИ У УЧАЩИХСЯ – ПОДРОСТКОВ В НАУЧНОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

Аннотация. Подростковый возраст характеризуется наличием черт, богатых энергией и требующих разнообразия. В связи с этим с каждым днем возрастает актуальность постановки вопроса о здоровье у подростков, разъяснения важности здоровья. Потому что притягательный поток интернет-сетей по различным темам повлиял не только на здоровье, но и на формирование поведения молодых людей. В эпоху информатизации формирование ценностей сохранения здоровья молодежи является особенно проблематичным вопросом. Исходя из этого, они считают, что организация тренировок с учетом их склонностей, интересов и идеалов позволяет им влиять на их ценности, основанные на здоровье.

Ключевые слова: «Здоровье», подростковый возраст, интерес, психологическое здоровье, психологическое благополучие, родители, общение, отношение.

Atamuratova Feruza Baxtiyarovna
Urganch State University Faculty of Pedagogy,
independent researcher (PhD) in psychology.
E-mail. @Atamuratova 14
Telefon: 90-648-15-83

THE STUDY OF THE ISSUE OF THE DEVELOPMENT OF HEALTH ORIENTATION IN ADOLESCENT STUDENTS IN THE SCIENTIFIC LITERATURE

Annotation. Adolescence is characterized by being rich in energy and possessing properties that require colorfulness. In principle, the formation of the issue of Health in adolescents, the explanation of the importance of Health, is growing in relevance day by day. Because, the attractive flow of internet networks on various topics has influenced the formation of not only the health, but also the behavior of young people. The formation of values for maintaining the health of young people in an informed period is a particularly problematic issue. Basically, they believe that the organization of training, taking into account their inclinations, interests and ideals, makes it possible to influence their health-based values.

Key words: "Health", adolescence, interest, psychological health, psychological well-being, parents, communication, attitude.

Kirish. Bugungi kunda “salomatlik” nihoyatda dolzarb masala hisoblanib, ijtimoiy hayotda va ilmiy tadqiqotlarda ham sog‘liqqa munosabatning shakllanishi barcha jabhalarda nihoyatda katta ahamiyat kasb etadi. Salomatlik masalasi va unga ta’sir qiluvchi mexanizmlarning ilmiy tadqiq qilinishi kam sonni tashkil qilinishiga qaramasdan, bu tushunchaning ochib berilishi ilmiy tadqiqotlarda tavsiflab o‘tilgan. Sog‘liqqa yo‘naltirilgan shaxsiyat yo‘nalishi tushunchasini tavsiflashda “shaxsga yo‘naltirilganlik" va "salomatlik" tushunchalarining birlashtirilishi sifatida izohlashimiz mumkin.

Shaxsning yo‘nalganlik masalasi ilmiy yondashuvlarda turli xil nazariy muhokamalarga ega bo‘lib, ushbu tahliliy yo‘nalishlarda orientatsiya masalasi psixik holatlar va shaxsiy xususiyatlarning butun tuzilishini o‘rganish sifatida tavsiflanadi. Orientatsiya tushunchasi shaxsning ruxiy rivojida tizimni shakllantiruvchi xususiyat sifatida baholanib, yo‘nalganlik odamlarning faol xulq-atvorini tavsiflab, ularni bir xil sharoitlarda o‘z maqsadlariga erishish uchun rejalar tuzishga undashi bilan ahamiyatlidir.

Yo‘nalganlik tuzilishiga ko‘ra 2 ta asosiy komponentlardan tashkil topganligi bilan izohlanadi:

1) extiros va ularning xilma-xilligi - motivatsiyalar, yo‘nalishlar, maqsadlar, intilishlar;

2) shaxsiy munosabatlar va ularning o‘zgarishi – shaxsiy fikrlar, qarashlar, jamoatchilik munosabati va umidlari” [1]. Fikrimizcha, o‘smirlarda salomatlikka yo‘nalganlikni rivojlantirishda ulardagi motivatsion soha, maqsadlar va shaxsiy munosabatlarga e’tibor qaratilishi to‘g‘ri yondashilgan. Chunki bolalikdan shakllangan munosabat doimiy ravishda asosiy harakat va munosabatlarga ta’sir o‘tkazishi ma’lum. Shu bilan birga, ijtimoiy muhit ta’siri, namuna va shaxsiy rivojlanish asosidagi motivatsion soha ham yo‘nalganlikni shakllanishiga xizmat qiladi. O‘smirlardagi do‘stiga xavas yoki o‘zi uchun ideal bo‘lgan inson hatti-harakatlariga taqlidchanlik, tashqi ko‘rinishga e’tibor va ta’lim- tarbiya jarayonidagi shaxs rivojlanishi, ideal inson haqidagi tasavvurlar ulardagi salomatlikka yo‘nalganlikni shakllanishiga va bu S.L.Rubinshteyn tomonidan "shaxsiyat yo‘nalganlik" tushunchasi ilk bora ishlatilib, insonning asosiy sevimli mashg‘uloti va ehtiroslarining o‘ziga xos xususiyati sifatida ilmiy muomalaga kiritilgan. Uning fikriga ko‘ra, yo‘nalganlik, eng avvalo, inson faoliyatining maqsadi va ehtiyojlari bilan belgilanadigan motivlar sifatida belgilanuvchi tendentsiyalarning o‘zgarishi bilan bog‘liqdir.

S.L.Rubinshteyn tahliliga muofiq shaxs yo‘nalganligi quyidagilardan iborat:

1) orientatsiya mazmuni, bunda orientatsiya muayyan muhokama mavzusiga qaratiladi;

2) yo‘nalganlik bir vaqtning o‘zida paydo bo‘ladigan va tezkor o‘rnatiladigan xusuaiyat sifatida baholanadi.

S.L. Rubinshteyn yo‘nalganlikni tushuntirishda nafaqat motivlarning muvofiqligi, balki shaxs ehtiyojlarida, moyillik, intilish, qiziqish va ideallarda ham o‘z ifodasini topishini bildirib, yo‘nalganlikni inson faoliyati va energiyasini tartibga soluvchi yagona xususiyat sifatida baholaydi [2].

Psixologik adabiyotlarda yo ‘nalganlik atamasi turli xil ta'riflarga egaligi bilan ajralib turadi. Masalan, B.G.Ananyev yo‘nalganlikni “asosiy hayot yo‘nalishi” sifatida baholasa, V.N. Myasishchev “dominant munosabat”ga asosiy e’tibor qaratadi, A.N. Leontyev esa yo‘nalishni “ma'no hosil qiluvchi motiv” shakli hisoblaydi va A.S. Prangishvili yo‘nalganlikni shaxsning dinamik ichki kuchlari tizimi ekanligini ta’kidlaydi. Fikrimizcha, o‘smirlarda salomatlik masalasining asosiy o‘rinda baholanishi, faqat nazariy tahlilda tushunibgina qolmasdan, amaliy jihatdan salomatlikni his qilishi doimo ham amalga qo‘llanilavrmaydi.

O‘smir shaxsida muammoli holatlarda suitsidal fikrlar va harakatlarning amalga oshirilishi, nosog‘lom turmush tarziga o‘rganib qolish odatlari albatta, salomatlik masalasi bilan bevosita bog‘liqdir. Demak, o‘smirlarda salomatlikka yo‘nalganlikning rivojlantirilishi dolzarb masala hisoblanadi.

Ilmiy adabiyotlarda shaxsning yo‘nalganligi doimo ijtimoiy jihatdan baholanib, ta'lim jarayonida rivojlanishiga katta ahamiyat berilgan.

A.N. Leontyev qarashlariga ko‘ra, motivlar faqat xatti-harakatni rag‘batlantirishi, shu bilan unga shaxsiy maqsad – “ma'no yaratuvchi motiv” berishi izohlangan. Shaxsni

rag‘batlantiruvchi sabablar-ijobiy yoki salbiy funktsiyani bajarishi, ba'zida o‘tkir hissiy, ba’zida affektiv – ma’no yaratuvchi rolga ega emasligi ham ta’kidlangan. Fikrimizcha, yo‘nalganlik -shaxsning tizimni shakllantiruvchi xususiyati bo‘lib, umumiy psixologik xususiyatni belgilashda ishtirok qiladi. Aynan mana shu xususiyatga ko‘ra, inson qanday faoliyat ko‘rsatishi, uning motivlari, voqelikning turli jabhalariga bo‘lgan shaxsiy munosabatlari ifodalanadi. Umumiy tartibda yo‘naltirilganlik insonning jamiyatdan nimani olayotgani va oladiganlari sifatida ma’naviy va moddiy manfaatlarni, yoki jamiyatga beradiganlari va uni shakllantirishga sarmoya kiritishi sifatida baholanadi.

Ijtimoiy munosabatlar tizimida shaxsning shakllanish jarayonidagi yo‘nalganligi muayyan davlat ishlarida ishtirok etishi, ularning rivojlanishiga yordam berishi, aralashishi yoki ishtirok etishdan bosh tortishi sifatida namoyon bo‘ladi.

B.G. Ananyev fikriga ko‘ra, tarix inson hayoti dramasining asosiy sherigi sifatida, ijtimoiy voqealar uning tarjimai holiga aylanishini, shaxs hayot yo‘lini tasvirlash berishini aytib, "hodisalar" tushunchasini taklif qiladi. Voqealar har qanday tarixiy jarayonning, jumladan, inson tarjimai holining asosiy “birligi” tarzida ifodalanadi. Voqealar tizimi shaxsning rivojlanishida, yo‘nalganligida, o‘zgarishlar dinamikasi va shaxsning qadriyatlar tizimi, uning xarakterini haqiqiy qayta qurish bilan bog‘liqligini bildiradi [3].

Aytishimiz mumkinki, o‘smirlarning yo‘nalganlik masalasi uning hayotidagi o‘zgarishlar, shaxs sifatida rivojlanish darajasi bilan bog‘liq ekan, bu o‘rinda, ta’lim-tarbiya masalasi, psixologik ta’sir mexanizmi tadqiqot ishimizda asosiy o‘rin egallaydi.

Psixologiya sohasidagi deyarli barcha olimlar shaxsning yo‘nalganlik masalasida ma'lum bir qo‘zg‘atuvchi, voqealar majmuasi yoki tushunchasi ekanligini ta’kidlaydilar. B.I. Dodonov yo‘nalganlikni ehtiyojlar majmuasi deb hisoblasa, L.I..Bojovich va R.S. Nemov motivlar tizimi yoki majmui haqida fikr bildirishgan. K.K. Platonov orientatsiyani intilishlar majmuasi tarzida ifodalab, istaklar, qiziqishlar, moyilliklar, standartlar, dunyoqarash, shaxsiy qarashlar bilan bog‘lab tushuntiradi [4]. Demak, o‘smirlarda salomatlikka yo‘nalganlikni shakllantirish va rivojlantirishda ular dunyoqarashi, istak-hoxishi va qiziqishlarini hisobga olinishi ishning samarali jihatini yoritib berishi mumkin, deya baholashimiz mumkin.

K. K. Platonov o‘z tadqiqotlarida insonning yo‘nalganligini daraja, kuch, ishonchlilik nuqtai nazaridan ko‘rib chiqishni taklif qilgan [5].

Aytish mumkinki, shaxs yo‘nalganligini rag‘batlantirish majmuasi yoki kontseptsiyasi sifatida ko‘rib chiqish mohiyatning faqat bir tomoni sifatida izohlanadi. Uning yana bir jihati shundaki, bu majmua uni harakatga yo‘naltirishi, pirovardida, inson qiyofasini ijtimoiy jihatdan ochib berishi bilan izohlanadi Buning sababi shundaki, shaxsning yo‘nalishi barqaror dominant motivatsiya tizimi yoki yangi shakllanishlarni rag‘batlantirishi, ya'ni u dominant xulq-atvorga aylanadigan vektorni ko‘rsatishi tahlil qilingan. Fikrimizcha, o‘smirlik davrida salomatlikka yo‘nalganlikni barqaror qadriyatlar tizimiga kiritish uchun doimiy tarzda ular qarashlari va motivatsiya tizimiga ta’sir qiluvchi shaxslararo munosabatlar tizimini rivojlantirishga qaratilgan psixologik ta’sir va tadbirlar tizimini yo‘lga qo‘yilishi lozimdir.

Internet tizimi rivojlangan va unga qaramlik shakllangan davrda bu jarayonni tashkil qilish ham dolzarb masalasifatida ko‘riladi. Shuning uchun ham tadqiqotimizda o‘smir o‘quvchilarning salomatlikka yo‘nalganlik darajasini o‘rganish tadqiqotimiz maqsadiga aylangan.

Psixologiya sohasidagi tadqiqotchilar tomonidan shaxsiy yo‘nalganlik turli xil qarashlar bilan izohlanib, insonning voqelikka nisbatan tajribali tanlangan pozitsiyasi, uning hayotiy faoliyatiga ta'sir qiluvchi, uni qisman rag‘batlantiruvchi va shakllantiruvchi tarzida ifodalanadi. Shunga ko‘ra aytish mumkinki, o‘smirlarda hali ijtimoiy tajribalarning noturg‘un ko‘rinishi ifodalanar ekan, ularda salomatlik masalasining ahamiyatli darajadagi o‘rnini baholash va rivojlantirish tadqiqotimiz vazifalariga kiritilgan.

Tadqiqotchilar tomonidan insonning yo‘nalganligining asosiy belgilari sifatida munosabatlarning tanlanganligi, munosabat va turli vaziyatlardagi xatti-harakatda namoyon bo‘lishi ta’kidlanadi. Ba’zi psixologlar tomonidan orientatsiya ehtiyojlar, sevimli mashg‘ulotlar, standartlar majmuasi, odamlarning xatti-harakatlarining o‘ziga xos yo‘nalishi sifatida tavsiflanadi. Shaxsning yo‘nalganlik masalasi ijtimoiy ma'noda shaxsning qiyofasini, uning muhim munosabatlariga ko‘ra belgilanishi, boshqalarga, uning shaxsiyatiga, taqdiriga ta’sir ko‘rsatishi bildiriladi Fikrimizcha, o‘smirlarda ijtimoiy ta’sir katta o‘rinni egallasa-da, aslida salomatlik masalasi va unga yondashuv shakli oiladagi tarbiya usullari bilan ham tavsiflanadi, demak bu masalada ota-onalarga manzilli tavsiyalar shakllantirish va hamkorlikni to‘g‘ri tashkil qilinishi maqsadga muofiqdir.

Yo‘nalganlik masalasi inson mohiyatidagi eng muhim narsa bo‘lib, uning ijtimoiy va axloqiy ahamiyati alohida e’tirofqilinib, shaxsning samarali rivojlanib borishida ahamiyati ta’kidlangan.V.S.Merlin qarashlarida shaxs yo‘nalganligini atrof-muhitga, jamiyatga, o‘z shaxsiyatiga munosabatlarda ifodalanishi bildirilgan Demak, biz o‘smir bilan munosabatlar tizimida uning shaxsiga va yosh xususiyatiga alohida e’tibor masalasini yanada oshirishimiz, bu borada ota-ona va ta’lim-tarbiya beruvchi mutaxassislarni ham psixologik bilimdonligini oshirishga alohida e’tibor qaratishimiz zarur.

Tadqiqotchi L.I. Bojovich nuqtai nazaricha, eng muhim motivlar va harakatlar shaxsning yo‘nalganligini tashkil qiladi.Aytish mumkinki, o‘smir xatti-harakati, kuchi, xohish-mayli va yosh xususiyatiga mos ijtimoiy munosabatlar tizimi, atrofda o‘z o‘rnini topishga intilish kabilar uning hayotida ahamiyatli darajada ifodalanganligini hisobga olsak, salomatlikka yo‘naltirishda ham motivatsiya sifatida tushuntirish va rivojlantirish masalasi o‘quvchining shaxs sifatida rivojlanishini ta’minlaydi.

Iqtiboslar/Сноски/Reference

1. Карелин, А. Болшая энциклопедия психологических тестов / А. Карелин.- М.: Эксмо, 2007. - 416 с.)

2. Рубинштейн, С. Л. Основы общей психологии / С.Л. Рубинштейн. -СПб.: Питер, 2017. - 718 с. - (Мастера психологии.

3. Ананьев, Б. Г. Человек как предмет познания [Текст] / Б. Г. Ананьев. – 3-е изд. – Москва [и др.]: Питер, 2010. – 282 с

4. Божович, Л.И. Личность и ее формирование в детском возрасте / Л.И.Божович. – СПб.: Питер, 2009. – 400 с.: ил. – (Мастера психологии))

5. (Ильин, Е.П. Мотивация и мотивы / Е.П. Ильин. – СПб.: Питер, 2002. –278 с. – (Серия «Мастера психологии»)).

Xujaniyozova Oygul Rajabovna
UrDU Sport faoliyati, pedagogika va psixologiya fakulteti “Pedagogika va psixologiya” kafedrasi dotsenti

O‘smirlik davridagi o‘quvchilarning kreativ kompetentligini shakllantirish va rivojlantirishning psixologik tomonlari

Annotatsiya: Ushbu maqola ta’lim jarayonida o‘smir yoshlarda kreativ qobiliyatni rivojlantirishning psixologik tomonlari yoritib berish yo‘llari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: o‘smirlik, kreativlik, kreativ kompitentlik, psixologik ijod, iroda, diqqat, tafakkur.

Хужаниезова Айгуль Раджабовна
УрГУ спортивная деятельность, педагогика и факультет психологии «Педагогика и доцент кафедры психологии

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ФОРМИРОВАНИЯ И РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ УЧАЩИХСЯ ПОДРОСТКОВ

Аннотация: В данной статье описаны способы объяснения психологических аспектов развития творческих способностей у подростков в ходе образовательного процесса.

Ключевые слова: подростковый возраст, творчество, творческая компетентность, психологическое творчество, воля, внимание, мышление.

Khuzhaniyozova Oygul Rajabovna
Associate Professor of the Department of “Pedagogy and Psychology” of the Faculty of Sports Activities, Pedagogy and Psychology of the UrSU

PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF THE FORMATION AND DEVELOPMENT OF CREATIVE COMPETENCE OF ADOLESCENT STUDENTS

Abstract: This article explores ways to shed light on the psychological aspects of developing creative abilities in adolescents during the educational process.

Key words:adolescence, creativity, creative competence, psychological creativity, will, attention, thinking.

KIRISH

Ma’lumki ijod – insonning fan, texnika, ishlab chiqarish, madaniyat va boshqa sohalarda ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan yangilik yaratishi, kashf etishi bilan bog’liq

murakkab psixologik jarayon bo‘lib, inson tafakkuri, xotirasi, tasavvuri, diqqati, irodasi faol ishtirok etadi, ijodda bilim, tajriba, iste’dod namoyon bo‘ladi. Buyuk mutafakkirlardan biri Abu Nasr Farobiyning ta’riflashicha “ijod – bilish jarayonida shunday ulug’ fazilatki, inson uni egallashi uchun boshqa hamma fazilatlarini ishga solishi kerak”. Darhaqiqat, ijod qilish jarayonida inson izlanadi, kuzatadi, tadqiqotlar olib boradi, natijalarni tahlil qilib mantiqiy xulosalar chiqaradi. Xulosaning to‘g’ri yoki noto‘g’ri ekanligi tajribada sinab boriladi.

Kreativ kompetentlik o‘smir yoshlarda mustaqil fikrlash sifatlari namoyon bo‘lishining eng asosiy va faol shakli hisoblanadi. Barcha tariflar bir-biridan keskin farq qiliga qaramay, uning ba’zi umumiy jihatlarini ko‘rsatish mumkin. Birinchidan, kreativ kompetentlik natijasi sifatida olinadigan mahsulotning sifat jihatidan yangilikka ega bo‘lishi; ikkinchidan, ushbu jihatlar kreativ kompetentlikning dastlabki asoslarida mavjud bo‘lmaganligi; uchinchidan esa, har qanday kreativ kompetentlik faoliyati intellektual izlanishni taqozo etishi bilan belgilanadi[1].

ADABIYOTLAR TAHLILI

O‘smir yoshlarda kreativ kompetentlik faoliyatini quyidagicha belgilariga ko‘ra tasniflash mumkin:

ijod turi (texnik, texnologik, tashkilotchilik, iqtisodiy, ijtimoiy, ma’naviy, psixolgik, didaktik, aralash);

ijod darajasi (mono ijod, mulьti ijod, mega ijod);

ijod qamrovi (bilim sohasi, tarmoqlararo, milliy, mintaqaviy, mintaqalararo, xalqaro);

ijodning davomiyligi (qisqa muddatli, o‘rta muddatli, uzoq muddatli);

ijodning shakli (innovatsion, ta’limiy, investitsion, aralash);

umumiy jihatlariga ko‘ra (yangi g’oyalarni hayotga tadbiq etish; printsipial jihatdan yangi yechimlarni ilgari surish; yangilikni amaliy qo‘llash);

yaratilgan ijod mahsulini ma’nosi va murakkabligiga ko‘ra (ratsionalizatorlik taklifi; ixtiro; kashfiyot)[2].

Tahlillar o‘smir yoshlarning ijodkorligi uning masalalar yechishi, insho yozishi, tajriba ishlari, o‘quv topshiriqlarini bajarishi bilan bog’liq muammoli vaziyatlarda mustaqil fikrlashi bilan namoyon bo‘lishini ko‘rsatdi.

Fikrimizga ko‘ra, o‘smir yoshlarning ijodi – o‘zlashtirilgan bilimlarni amaliyotdagi dalil va hodisalarga bog’lay olishi, olingan natijalarni to‘g’ri baholab, tahlil qilishi, avvalgi egallanganlari bilan umumlashtira olishidir.

Ijodiy faoliyatni o‘qituvchi va o‘quvchilarning bu jarayonga psixologik jihatdan yetarlicha tayyor emasliklari murakkablashtiradi. Muntazam ravishda muayyan usul, shakl, vositalarga tayanib qolish – yangi vaziyatlarga moslasha olmaslik, kutilmagan vaziyatlarda ish yurita olmaslikka olib keladi. Bu psixologik holat sifatida turli shakllarda namoyon bo‘lishi mumkin, jumladan: o‘zgalar fikr va mulohazalarini umuman qabul qilmaslik; umumiy qabul qilingan nuqtai nazardan qat’iy himoyalanish; yangi mazmun va vositalarga nisbatan eski usullarni qo‘llash; yangi usullarda eski usullarning saqlanib qolishi; umuman yangi masalani yechishda an’anaviy usullarni qo‘llash kabilar.

O‘smir yoshlar kreativ kompetentlik faoliyatini tashkil qilishda ikki o‘zaro bog’liq

vazifani e’tiborga olish lozim. Ularning birinchisi – o‘smir yoshlar kreativ kompetentlik faoliyatida mustaqil fikrlashni rivojlantirish, bilim egallashdagi intiluvchanligi, ilmiy dunyoqarashini shakllantirilishi bilan; ikkinchisi – o‘zlashtirilgan bilimlarni ta’limda va amaliy faoliyatda mustaqil qo‘llay olishga o‘rgatish bilan belgilanadi.

Quyidagi ko‘rsatkichlar o‘smir yoshlarda kreativlik kompetentlikni shakllantirish mezonlari sifatida taklif qilindi: mustaqil qaror qabul qilish; o‘z imkoniyatlariga ishonch; faol izlanuvchanlik; fikrlash tezligi; fikrlash moslashuvchanligi; g’oyaning o‘ziga xosligi; g’oyaning mukammalligi; g’oyaning ijobiy yo‘naltirilganligi; axborotlarni qayta ishlash va maqsadli qo‘llay olish; tasavvur kengligi; bir-biridan uzoq fikrlarni o‘zaro bog’lay olish; g’oya salmog’ini baholay olish; yechimning nafis, bejirim va oddiyligi; ko‘plab g’oyalarni yuzaga keltira olish; g’oyaning asosliligi. Ushbu sifat ko‘rsatkichlarini baholashda test sinovi, muammoli topshiriq va tajriba usullardlan foydalaniladi.

Pedagogik texnologiyalarning muhim jihatlaridan biri butun guruhni bo‘lajak o‘qituvchilarda faoliyatiga barqaror yo‘naltirilganlikni shakllantirishga qaratiladi. Bu mashg’ulotlar asosan treninglar shaklida amalga oshirilib, ushbu asosda amaliy mashg’ulotlarni tashkil qilish o‘qituvchilarda faoliyatga oid muammoli vaziyatlarni hal qila olish ko‘nikmalarining shakllanib borishini tajriba-sinov ishlari tasdiqlab berdi.

METOD VA METODOLOGIYA

Maqola o‘smir yoshlarda kreativ kompetentlikni rivojlantirish metodlari va pedagogik texnologiyalar samaradorligini o'rganishga qaratilgan. Tadqiqotda o'quvchilarning ijodiy faoliyati, kreativ qaror qabul qilish jarayonlari tahlil qilinadi. Kreativ kompetentlikni shakllantirish uchun zarur bo'lgan pedagogik sharoitlar, o'qitish usullari va o'quv materiallarining ta'siri ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari pedagogik texnologiyalar, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi muloqot sifati asosida baholanadi.

TAHLIL

Maqsadimiz o‘smir yoshlarda kreativlik kompetentlikni o‘rganish va uni baholash usullari, shuningdek kreativlik kompetentlikni shakllantirish mezonlarini aniqlash va qo‘llash asosida ishlab chiqilgan pedagogik texnologiyalar samaradorligini asoslashdan iborat etib belgilandi. Natijada quyidagi vazifalar ijobiy hal etildi:

uzluksiz ta’lim tizimi mazmunining tahlili asosida o‘quv-tarbiya jarayonida o‘quvchilar kreativ kompetentlikini shakllantirish bo‘yicha nazariy ma’lumotlar o‘rganildi va umumlashtirildi;

kreativ kompetentlikni o‘rganish usullari, shuningdek kreativlikni shakllantirish mezonlari belgilab olindi;

so‘rovnomalar vositasida o‘quvchilarda kreativ kompetentlik borasidagi asosiy tushunchalarni o‘zlashtirganlik darajasi aniqlandi;

tadqiqot ishida o‘quvchilarda kreativ kompetentlik sifatlarini rivojlantirish borasida ishlab chiqilgan tavsiyalar sinovdan o‘tkazildi;

umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilarini kreativ kompetentlikini shakllantirish uchun zarur didaktik shart-sharoitlar hamda ijodkor shaxs o‘quvchilarda ahamiyatli sifatlarini shakllantirish tizimining didaktik modeli samaradorligi baholandi.

O‘smir yoshlarda kreativ kompetentliki shakllanganlik darajasini shakllantirishda ta’lim mazmuni asosida ishlab chiqilgan ijodiy, o‘quv hamda muammoli-vaziyatli topshiriqlarga monand mezonlar va usullari tanlandi. O‘smir yoshlarda kreativ kompetentlikni shakllantirish jarayonining o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini baholash va monitoringini amalga oshirish tartibi belgilandi hamda sinab ko‘rildi.

Olingan natijalar tahlili o‘smir yoshlarda ahamiyatli sifatlarini shakllantirish jarayonida pedagogik texnologiyalarga asoslangan trening mashg’ulotlari o‘quvchilarda kreativ kompetentlikni shakllantirishda yuqori samaraga erishilganligini ko‘rsatdi. Nazariy hamda amaliy mashg’ulotlar, muammoli vaziyatli topshiriqlarni bajarishda o‘quvchilarda ahamiyatli sifatlarini shakllantirishga xizmat qiluvchi bilim, ko‘nikmalarni mustahkamlab borishda kreativ kompetentlik asosida o‘smir yoshlarda metodlaridan foydalanish o‘smirlarda tayyorgarlik ko‘rsatkichlarining yuqori darajada bo‘lishini ta’minladi.

Kreativ kompetentlik o‘smir yoshlarning egallayotgan bilimlarini mustahkamligi va mukammalligini ta’minlash, ularda faol va mustaqil fikrlovchi shaxs xislatlarini shakllantirish, aqliy qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi faoliyat turi hisoblanadi. Bu holat, ayniqsa bo‘lajak mutaxassislarning fan asoslarini o‘zlashtirishida, keyinchalik bu jarayonga bevosita rahbarlikni amalga oshirishda o‘smirlarda kreativ kompetentlikka asoslangan zamonaviy yondoshuvlarni joriy etishida muhim ahamiyat kasb etadi[3].

O‘smirlar shaxsiga xos bo‘lgan kreativ kompetentlik bilim, ko‘nikma va malakalari tushunchalarini tadqiqot nuqtai nazaridan aniqlashtirib oldik. Jumladan: kreativ kompetentlik bilimlari – yangi yechim ishlab chiqish uchun talab etiladigan tushuncha va tasavvurlarning bilish faoliyati mahsuli sifatida inson ongidagi tizimlangan ,kreativ kompetentlik ko‘nikmalari – shaxsning maqsadga yo‘naltirilgan ijodiy faoliyatda, aqliy jarayon bosqichlarini tez va to‘laqonli amalga oshirish darajasini ifodalashi aniqlandi. Kreativ kompetentlik malakalari esa shaxsning ijodiy faoliyatni qisman avtomatlashgan tarzda, aqliy jarayon bosqichlarining faqat dastlabkisini anglagan holda amalga oshira olish darajasini anglatadi.

I.Ya.Lerner ijodiy masala ijodiy bo‘lmagan masaladan shu bilan farq qiladiki, fikrlovchi sub’ekt (shaxs) o‘zining mustaqil ish faoliyatida ya’ni, masalani yechish jarayonida o‘zi uchun yangi bo‘lgan natijalar topishga erishadi, deb ta’kidlaydi.

Ijodiy masala – algoritmli masala emas, standart masalaga o‘xshash va oddiy masala ham emas, balki topilishi lozim bo‘lgan yechimni ishlab chiqishga qaratilgan nostandart masaladir. Masalaning g’oyaviy tomoni faqatgina uning yechimini topishda emas, balki sub’ektning masalaga ijodiy yondoshish talablarini qondiruvchi munosabatiga bog’liqdir. Masalaning g’oyasini anglash – bu ushbu masalani yechiladigan masalalar guruhiga qo‘shishdir.

O‘quv-tarbiya jarayoni motivatsiyasi yoshlarni faollika, hamjihatlikka, mashg’ulotning barcha bosqichlarida yuqori darajadagi qiziquvchanlik bilan ishtirok etishga ma’ruza qilishni maqsad qilib qo‘yadi. Motivatsiyani uyg’ota olish kreativ ijodkor o‘qituvchilar mahoratining muhim tarkibiy qismi sanaladi.

Motivatsion pedagogik texnologiyalar o‘quvchilarning ta’lim jarayoniga tez kirishib

ketishini ta’minlaydi va aksincha beriladigan topshiriqlarning me’yoridan ortiq murakkabligi, olinadigan natijalarning mavhumligi motivatsiyaning turg’un bo‘lmasligiga olib keladi.

M.V.Klarinning fikriga qo‘shilgan holda qat’iy va moslashuvchan pedagogik texnologiyalarni,pedagogik mahoratli o‘qituvchilar o‘zaro farqlashni ma’qullaymiz. Qat’iy pedagogik texnologiyalarda jarayonga nisbatan ham, ta’lim natijalariga nisbatan ham tashhislilik hamda qayta hosil qilinuvchanlik xos bo‘lib, u ta’lim maqsadlariga erishishdagi qat’iy talablarni o‘zida aks ettiradi. Bundan farqli ravishda moslashuvchan pedagogik texnologiyalar ta’lim jarayonini amalga oshirishga nisbatan qayta hosil qilinuvchanlik talabini qo‘yadi, biroq, o‘qitish natijalarini tashhislashni, belgilashni shart qilib qo‘ymaydi.

Taklif etilayotgan kreativ pedagogik texnologiyaning o‘ziga xos jihatlari quyidagilar bilan izohlanadi:

1. Nafaqat butun pedagogik tizim, balki uning har bir tarkibiy qismlari: maqsadi, mazmuni, tashkiliy shakllari, usullari hamda ta’lim vositalari, pedagogik kadrlar hamda ichki ta’lim muhitining shaxs kreativligini rivojlantirishga yo‘naltirilganligi.

2. Kreativ pedagogik texnologiyaning yaxlit ta’lim jarayonda ham, lokal pedagogik bosqichda ham tizimli tavsifga ega ekanligi.

3. O‘smir yoshlar tomonidan ijodiy o‘quv topshiriqlarini bajarishda yechimni ishlab chiqish traektoriyasi va mazmunining mustaqil belgilanishi.

4. O‘smir yoshlarda kreativ kompetentlikka yo‘naltirish orqali o‘smirlarda moslashuvchanlik, harakatchanlik innovatsion yechimni ishlab chiqishga intiluvchanlik sifatlarini tarkib toptirishga qaratilganligi.

Kreativ pedagogik texnologiyalarni joriy etishda hamkorlik va hamjihatlik; avtodidaktikaning ustuvorligi; rivojlantiruvchi ta’lim tamoyillarga rioya etiladi. Taklif etilayotgan texnologiyani ikki yo‘nalishdagi yondoshuv:

a) amaliy bilishga asoslangan izlanuvchanlik yondoshuvi;

v) nazariy bilishga asoslangan izlanuvchanlik yondoshuvi asosida joriy qilish mumkin.

Kreativ pedagogik texnologiyaning asosida to‘rt bosqichdan iborat produktiv didaktik g’oyasi yotadi.

1- bosqich – o‘smir yoshlarni yangi o‘quv materiali bilan muammoli ta’lim asosida tanishtirish, ularda yangi materialni o‘zlashtirishga ijodiy motivatsiyani shakllantirish hamda ijodiy o‘quv topshiriqlarini bajarish tartibi bilan tanishtirish.

2- bosqich – o‘smirlarning ijodiy o‘quv topshiriqlari asosiy xususiyatlarini hamda ular yechimini ishlab chiqish ishlab bilan bog’liq o‘quvchilarda kreativ kompetentlik faoliyatini tashkil qilish.

3- bosqich – o‘smirlarning o‘zi uchun mustaqil o‘quv topshiriqlarini belgilashi.

4- bosqich – o‘smirlarning mustaqil ijodiy faoliyatini yo‘lga qo‘yish. Bunda o‘smirlar o‘zi loyihalagan kreativ kompetentlik faoliyati mahsulini asoslashni o‘rganadi.

O‘smir yoshlar kreativ kompetentlikini rivojlantirish uzviyligini ta’minlashda texnologiya fanining imkoniyatlari, o‘quvchilar kreativ kompetentliki uzviyligini ta’minlashda texnologiya fanining imkoniyatlari, o‘smir yoshlar kreativ kompetentliki uzviyligini ta’minlash jarayonlarini modellashtirish, uzluksiz ta’lim mazmunini modernizatsiyalashda o‘smirlarning kreativ kompetentlikini rivojlantirish mexanizmlari, kreativ kompetentlik faoliyati asosida o‘smirlarda ahamiyatli sifatlarni shakllantirish lozim.

XULOSA

Pedagogik texnologiyalarni qo‘llash jarayonida pedagogik kuzatuvni amalga oshirishda quyidagi jihatlarga e’tibor qaratildi: pedagogik kuzatuv texnologiyalarini belgilash; taklif etilayotgan pedagogik texnologiyalarning samaradorligini aniqlash; pedagogik kuzatuvni amalga oshirishni optimallashtirish maqsadida ta’lim muassasalari uchun tavsiyanomalar ishlab chiqish; o‘quvchilarda ahamiyatli sifatlarni rivojlantirish dasturini ishlab chiqish.

Iqtiboslar/Сноски/Reference

1. Ashurova S.Yu. Professionalьnaya kompetentnostь kak ob’ekt otsenki// Molodoy uchenыy. – 2012. - № 4. – S. 414-417.

2. Богоявленская Д.Б. Психология творческих способностей: учебное пособие. –М.: Академия, 2002. – 320 с.;

3. Еремина Л.И. Формирование креативности студентов в совместной творческой деятельности // Современные проблемы науки и образования. – Пенза, 2013. – №2, – С. 292-294.

4. Дэвид Векслер, «Психометрическая традиция: разработка шкалы интеллекта взрослого Векслера», Contemporary Educational Psychology, vol. 6, 21 апреля 1981, стр. 82–85.

5. Ибрагимова Г.Н. Интерфаол ўқитиш методлари ва технологиялари асосида талабаларнинг креативлик қобилиятларини ривожлантириш. Пед. фан. бўйича фалсафа док. (PhD) дисс... автореферати. – Тошкент, 2017. – 38 б.

6. Попель А.А. Психологические условия развития социальной креативности студентов в процессе профессиональной подготовки. Дис... канд. псих. наук. – Нижний Новгород, 2005. – 217 с.

Norbosheva Maqsuda Achilovna,
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti dotsenti
maqsuda_pedagog@mail.ru

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA IJTIMOIY FAOLLIK, TASHABBUSKORLIK VA TASHKILOTCHILIK SIFATLARINI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya. Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy faollik, ijtimoy faollik, tashabbuskorlik va tashkilotchilik sifatlarini shakllantirish masalasiga doir ilmiy mulohazalar yuritilgan. Ta'kidlanishicha, bolalarda ijtimoiy faollikni oshirish, ijtimoy faollik, tashabbuskorlik va tashkilotchilik sifatlarini shakllantirish va rivojlantirish nafaqat psixologik-pedagogik, balki ijtimoiy muammo sifatida ham o'ziga xos dolzarblik kasb etadi. Shu jihatlarni hisobga olib, tarbiyachi-pedagoglar bolalarning yosh va psixologik xususiyatlari, shaxsiy imkoniyatlari, qiziqishlari, hayotiy ehtiyojlari va intilishlarini inobatga olgan holda tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish, tashkil etiladigan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning jamoaviy yoki guruhli shakllarda tashkil etilishiga erishish, bolalar jamoasida o'zaro psixologik birlik va hamkorlikka asoslanuvchi sog'lom muhitni qaror toptirish, jamoa bilan ishlashda alohida faollik ko'rsatgan bolalar yutuqlarining e'tirof etib borilishini ta'minlash, ularni ma'naviy rag'batlantirish kabi talablarga amal qilishlari maqsadga muvofiqdir.

Kalit so'zlar: maktabgacha yosh, ta'lim, bola, tashabbuskorlik, tashkilotchilik, qobiliyat, sifat, ijtimoiy, faollik, muloqotchan, yetakchilik, jamoa hissi.

Норбошева Максуда Ачиловна,
Доцент Термезского университета
экономики и сервиса
maksuda_pedagog@mail.ru

ФОРМИРОВАНИЕ СОЦИАЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ, ИНИЦИАТИВНОСТИ И ОРГАНИЗАЦИОННЫХ КАЧЕСТВ У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

Аннотация. В статье содержатся научные комментарии по вопросу формирования социальной активности, социальной активности, инициативы и организаторских качеств у детей дошкольного возраста. Отмечается, что повышение социальной активности детей, формирование и развитие качеств социальной активности, инициативы и организованности является не только психолого-

педагогической, но и социальной проблемой. Учитывая эти аспекты, педагоги-педагоги должны учитывать возрастные и психологические особенности, личностные возможности, интересы, жизненные потребности и стремления детей, оказывать воспитательное воздействие, организовывать духовно-просветительскую деятельность в коллективных или групповых формах. добиваться, создавать в детском коллективе здоровую среду, основанную на взаимном психологическом единении и сотрудничестве, обеспечивать признание достижений детей, проявивших особую активность в работе с коллективом, признавать их им уместно следовать таким требованиям, как моральное поощрение.

Ключевые слова: дошкольный возраст, образование, ребенок, инициатива, организованность, способности, качества, социальный, активный, коммуникативный, лидерский, коллективный.

Maqsuda Achilovna Norbosheva,
Associate Professor of Termez University of Economics and Service
maqsuda_pedagog@mail.ru

FORMATION OF SOCIAL ACTIVITY, INITIATIVE AND ORGANIZATIONAL QUALITIES IN PRESCHOOL CHILDREN

Annotation. The article presents scientific considerations on the issue of the formation of social activity, social activity, initiative and organizational qualities in preschool children. It is emphasized that increasing social activity in children, the formation and development of social activity, initiative and organizational qualities are of particular relevance not only as a psychological and pedagogical, but also as a social problem. Taking these aspects into account, it is advisable for educators to follow such requirements as providing educational influence, taking into account the age and psychological characteristics of children, personal capabilities, interests, vital needs and aspirations, achieving the organization of organized spiritual and educational events in collective or group forms, establishing a healthy environment based on mutual psychological unity and cooperation in the children's team, ensuring recognition of the achievements of children who have shown particular activity in working with the team, and encouraging them spiritually.

Keywords: preschool age, education, child, initiative, organization, ability, quality, social, activity, sociability, leadership, sense of team.

KIRISH. Uzluksiz ta’lim tizimining asosiy va muhim tarkibiy bosqichlaridan biri sanalgan maktabgacha ta’lim shaxsning har tomonlama yetuk, barkamol bo‘lib voyaga yetishida o‘ziga xos o‘rin tutadi. Maktabgacha yosh davridanoq bolalarda ijtimoiy faollik,

ijtimoy faollik, tashabbuskorlik va tashkilotchilik sifatlarini shakllantirish masalasi ham ayni muddaolardan biri hisoblanadi. Respublikamizda maktabgacha ta’lim sohasiga oid olib borilgan so‘nggi islohotlarga asosan, zamonaviy maktabgacha ta’limni tashkil etishda quyidagi maqsadlarga erishish zarur ekanligi ko‘rsatilgan:

– bolalarning psixologik va fiziologik salomatliklarini muhofaza qilish va mustahkamlash;

– barcha faoliyat turlari bo‘yicha bolalar tashabbusini uyg‘otish va qo‘llab-quvvatlash;

– muloqot va hamkorlik ko‘nikmalarining shakllanishiga erishish;

– o‘ziga ijobiy baho berish va o‘ziga bo‘lgan ishonchni qo‘llab-quvvatlash;

– ta’lim mustaqilligini shakllantirish (o‘qishga bo‘lgan xohish va ko‘nikma, shuningdek, shaxsiy imkoniyatlari darajasini kengaytirib borish).

Mazkur maqsadlarga erishishda bolalarning ongi va tafakkurida mavjud bo‘lgan yashirin imkoniyatlarni aniqlash va rivojlantirish vazifalarning ijobiy hal etilishi muhim ahamiyatga ega.

Bugungi kunda maktabgacha ta‘lim muassasalari oldida ijtimoiy faol, jamiyat hayotining turli sohalarida o‘z iqtidori va salohiyatini to‘la namoyon eta oladigan yoshlarni tarbiyalash vazifasi turibdi. Darhaqiqat, maktabgacha ta‘lim tashkilotlari turli yoshdagi bolalarni yagona jamoaga birlashtira olgan maskan hisoblanib, u yerda bolalarni faollashtiruvchi ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlarni uyushtirish orqali keng ko‘lamli ijtimoiy faoliyatni tashkil etishdek katta imkoniyatlar mavjud.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Bolalarda ijtimoy faollik, tashabbuskorlik va tashkilotchilik sifatlarini shakllantirish va rivojlantirish nafaqat psixologik-pedagogik, balki ijtimoiy muammo sifatida ham o‘ziga xos dolzarblik kasb etadi.

Dastavval biz, “tashabbuskorlik” va “tashkilotchilik” tushunchalarining tub ma’no-mohiyatiga to‘xtalsak, manbalarda ‘‘tashabbuskorlik va tashkilotchilik" tushunchasining muqobillari sifatida “yetakchilik”, “liderlik”, “sardorlik” va “yo‘lboshchilik” kabi atamalar ham qo‘llaniladi. Mazkur tushunchalar o‘rtasida o‘zaro aloqadorlik, bog‘liqlik mavjud bo‘lib, jamoaning uyushgan holda faoliyat ko‘rsatishida individual shaxslarning ustuvor rolini ifodalashga xizmat qiladi. Shu bilan birga yuqorida tilga olingan tushunchalarning har bir o‘ziga xos mazmunni ifodalash bilan birga shaxs faoliyatining muayyan darajalarini belgilaydi.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da mazkur tushunchalarning lug‘aviy ma‘nolarini bayon etish orqali ular o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik, bog‘liq hamda farqlar xususida: - “tashabbuskorlik” - *“tashabbus ko‘rsatish” yoki “biror ishda boshlovchi bo‘lish”* va “tashkilotchilik”- *“tashkil etish xislati”* yoki *“o‘z tashkilotchiligini namoyish qilmoq”*[1, C. 125] deb ta’riflanadi.

Bolalarda ijtimoy faollik, tashabbuskorlik va tashkilotchilik sifatlarini shakllantirish va rivojlantirish nafaqat psixologik-pedagogik, balki ijtimoiy muammo sifatida ham o‘ziga xos dolzarblik kasb etadi. Sababi, ijtimoiy faol, har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirishda qobiliyatlarga ham alohida ahamiyat bermoq lozim.

Psixolog olim M.G. Davletshinning ta‘kidlashicha: “Ba’zan o‘ta iqtidorli va qobiliyatli bola haqida gap ketsa, undagi bu sifat tug‘ma ekanligiga ishora qilinadi. Psixologiyada tug‘ma alomatlari bor bo‘lgan individual sifatlar layoqat deb yuritiladi” [2, C.68].

Buyuk mutafakkir Abu Nasr Forobiy jamoaning shaxs kamolotidagi o‘rniga alohida baho beradi. Sababi, bolalar jamoasi o‘z-o‘zini boshqarish xususiyatiga ega bo‘lib, u maqsadning birligi, yagonaligi va tashkil qilish xususiyatlari orqali umumjamoa bilan bog‘lanadi. Forobiyning “Fozil odamlar shahri” asaridagi quyidagi fikrlarini keltirib: “har bir inson o‘z tabiati bilan shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi yetuklikka erishmoq uchun ko‘p narsalarga muhtoj bo‘ladi. u bir o‘zi bunday narsalarni qo‘lga kirita olmaydi, ularga ega bo‘lish uchun insonlar jamoasiga ehtiyoj tug‘iladi...Bunday jamoa a‘zolarining faoliyati bir butun holda ularning har biriga yashash va yetuklikka erishuv uchun zarur bo‘lgan narsalarni yetkazib beradi” [3, C.98].

Professor N.N.Jamilova tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotda tashabbuskorlik va tashkilotchilik malakalariga ega turli yoshdagi bolalarning bog‘chada, maktabda, kollejlarda “ o‘qish davomida bolalar jamoasiga tez qo‘shilib ketishlari, turli xil o‘yinlarni, bahslarni, tadbirlarni tashkil etish layoqatini namoyon eta olishlari, fanlarni yaxshi o‘zlashtirishlari, shuningdek, tengdoshlarini uyushtira olish malakalariga ega bo‘lishlari” [4, C.124] alohida qayd etib o‘tiladi. M.Sh.Allamuratova va G.Jo‘raboyevalar bolalarda mas’uliyat hissini shakllantirish “bolalarda o‘z-o‘zini boshqarishni, intizomni, o‘ziga-o‘zi baho berishni shakllantirish, ularni jamoa intizomiga mustaqil bo‘ysunishga, burchga sadoqatli bo‘lishga o‘rgatish”[5, C.79] ekanligini ta’kidlab o‘tadilar.

Rossiyalik olima L.I.Bojovich ontogenezda shaxsning shakllanishini ko‘rib chiqar ekan, maktabgacha bo‘lgan yoshning yakuniga kelib, bolada o‘zining “ijtimoiy Men”ini anglash jarayonining paydo bo‘lishi haqida yozgan hamda o‘zini bilib olishdan o‘z-o‘zini anglashga o‘tish mexanizmlarini o‘rganish zaruratini eslatib o‘tgan [6, C.146].

D.I.Feldshteyn esa, ontogenezning har bir bosqichi uchun ma’lum bir o‘zlik darajasida namoyon bo‘luvchi individning faol ijtimoiylashuvi haqida ta’kidlagan[7, C.59].

NATIJALAR. Bolalarning ta’lim muassasalari ijtimoiy hayoti, shu jumladan, turli mavzularda tashkil etiladigan ma‘naviy-ma’rifiy tadbirlarda faol ishtirok etishlari ularda ijtimoy faollik, tashabbuskorlik va tashkilotchilik sifatlarining samarali shakllanishi uchun sharoit yaratadi.

Bizning fikrimizcha, tashkilotchilik sifatlari deganda, eng avvalo bolaning ijtimoiy faolligi hisoblanadi. Ma’lumki, har bir bola o‘ziga xos biro lam. Ularda ham xuddi kattalardek, o‘z xarakteri va qiziqishlari mavjud bo‘lib, ayrim bolalar sho‘x va chaqqon bo‘lsa, ba‘zilari esa tortinchoq va uquvsiz, yana birlari dadil va shijoatkor bo‘lib, boshqa bir xillari esa sust va harakatsiz bo‘lishadi. Shuni ta’kidlash joizki, guruhdagi ayrim bolalarda tashkilotchilik va tashabbuskorlik, qat’iyatlilik sifatlari yaqqol ko‘zga tashlanib tursa-da, afsuski, ushbu xususiyatlar hamma bolalarda shakllanmagandir. Shundan kelib chiqib, tarbiyachi-pedagoglar ta’lim-tarbiya jarayonida bolalarning har biriga individual yondashuvi, bironta bolani e’tiboridan chetda qoldirmagan holda, bolalarning ko‘proq ijobiy

xislatlariga tayanib, ularning yaxshi xatti-harakatlari uchun muntazam rag‘batlantirib borish zarurdir.

Bolalarni MTTda olib borilayotgan faoliyatlarni izchil va to‘g‘ri tashkil etish mobaynida bolalarda faollik ortib boradi. Bunda tarbiyachi har bir bolani olib borayotganfaoliyat jarayoniga faol jalb etishi va ularni ruhan qo‘llab-quvvatlab turishi, ya‘ni ijodiy muhitni yarata olishi lozim. Biz maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy faollikni, tashabbuskorlik va yetakchilik qobiliyatlarini oshiruvchi ba‘zi o‘yinlarni keltirib o‘tamiz:

1-o‘yin. “Ko‘zgular”. O‘yin maqsadi: yurish, yugurish, sakrash,, uloqtirish va yangi harakatlarni yaratish usullarini mustahkamlashdir.

O‘yinning borishi. Bolalar aylanada bo‘lishadi ular ichidan bitta "ko‘zgu-yetakchi tanlanadi". Yetakchi turli xil harakatlarni amalga oshiradi, bolalar esa ushbu harakatlarni takrorlashlari kerak bo‘ladi. Qaysi bola yetakchini harakatlarini xuddi ko‘zguda ko‘rgandek, to‘g‘ri aks ettirsa, o‘sha bola etakchiga aylanadi.

2-o‘yin. “Quvnoq poyezd”. O‘yinning maqsadi: rejissyorlik o‘yinlari orqali katta maktabgacha yoshdagi bolalarda iroda, qat‘iyatlilik, tashabbuskorlikni rivojlantirish.

O‘yinning borishi: Bolalar o‘zlarini temir yo‘l ishchilari sifatida tasavvur qilishlari kerak. Poyezd stullardan, o‘rindiqchalardan, katta qutilardan yig‘iladi. Bosh qahramonlar: mashinist, yo‘lboshchilar, yo‘lovchilar, yo‘l patruli, vagon-restoranda oshpaz. “Mashinist” tarkibni boshqaradi va bekatlarning nomlarini e’lon qiladi. “Yo‘lboshchilar” chiptalarni tekshiradilar, “yo‘lovchilar” o‘tiradilar, choy tarqatadilar. “Yo‘l patrul” tartibni nazorat qiladi. Yo‘lda bo‘lgan har bir bola qandaydir qiziqarli voqeani aytib beradi yoki qo‘shiq kuylaydi.

3-o‘yin. “Kafeda” o‘yinning maqsadi: rejissyorlik o‘yinlari orqali katta maktabgacha yoshdagi bolalarda Iroda, qat’iyatlilik, tashabbuskorlikni rivojlantirish.

O‘yinning borishi: Buratino bolalar bilan uchrashish uchun keladi. U barcha bolalar bilan ko‘rishadi, boshqa o‘yinchoqlar bilan ham do‘stlashadi. Buratino yangi do‘stlarini muzqaymoq bilan mehmon qilish uchun kafega taklif qiladi. Hamma kafega boradi. U yerda ularga ofitsiantlar xizmat qilishadi. Bolalar to‘g‘ri buyurtma berishni o‘rganadilar, xizmat uchun minnatdorchilik bildiradilar. Nazariy tahlillar va amaliy tajribalar orqali maktabgacha ta‘lim tashkilotida 5-6 yoshdagi bolalarning hamkorlikdagi va o‘yin faoliyatini kuzatish orqali ularda quyidagi tashkilotchilik sifatlarini samarali shakllantirish mumkin, degan xulosaga keldik.

SIFATLAR	
Zukkolik	Kirishuvchanlik
Mustaqillik	Harakatchanlik
Faollik	Tashabbuskorlik
Ijodkorlik	Mas’uliyatlilik
Tartiblilik	Liderlik

Jamoa a’zolariga ishonch	Jamoa bilan birlikka intilish

MUHOKAMALAR. Bugungi kunda maktabgacha yoshda bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, dunyoqarashlarini kengaytirish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash qay darajada ahamiyat kasb etayotgan bo‘lsa, ularda ijtimoy faollik, tashabbuskorlik va tashkilotchilik sifatlarini shakllantirish ham shu qadar muhim vazifa hisoblanadi. Binobarin, bolalarda maktabgacha ta‘lim davridanoq ijtimoy faollik, tashabbuskorlik va tashkilotchilik sifatlarini shakllantirish, mustaqil fikrlash qobiliyati hamda muloqotga tez kirishuvchan bo‘lishlariga erishish ularning kelajakda demokratik jamiyatning faol a‘zolari bo‘lib voyaga etishlarini ta‘minlovchi omillardan biri sanaladi. Albatta, bu o‘rinda, maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoy faollik, tashabbuskorlik va tashkilotchilik sifatlarini shakllantirishda ularning yosh, psixologik va fiziologik xususiyatlari, shuningdek, layoqat, qiziqish va qobiliyatlarini inobatga olish kutilgan natijaning qo‘lga kiritilishiga yordam beradi.

Ijtimoy faollik, tashabbuskorlik va tashkilotchilik layoqatiga egalik shaxsning jamoa faoliyatini uyushtirish, ijtimoiy, shu jumladan, ma’naviy-ma‘rifiy tadbirlarni tashkil etishda tashkiliy masalalarni muvaffaqiyatli hal qilish, tadbirlarni metodik jihatdan maqsadga muvofiq o‘tkazilishini ta‘minlash hamda tadbirlar jarayonida har bir ishtirokchi tomonidan muayyan vazifalarning bajarilishiga rahbarlik qilish ehtiyojining mavjudligini ifodalaydi.

Jamoa faoliyatini uyushtirishda tashkilotchi shaxs o‘z zimmasiga muayyan majburiyatlarni olish, mas’uliyatni chuqur his etish, dadil harakatlanish, bergan so‘zida qat’iy turish, har bir a‘zoga nisbatan talabchan bo‘lish, jarayon natijasi uchun javobgarlik hissini tuyish kabi sifatlarni o‘zida namoyon eta olishi lozim. Bizning fikrimizcha, ijtimoy faollik, tashabbuskorlik va tashkilotchilik o‘yin, ta‘lim va mehnat ko‘rinishidagi faoliyatlarni tashkil etish, ijtimoiy munosabatlar jarayonini faollashtirish, jamoani jipslashtirish va yagona maqsad atrofida birlashtirishda tashabbus hamda nazoratni o‘z qo‘liga olish, uni samarali boshqarish va mavjud imkoniyatlaridan unumli foydalanish, shuningdek, jamoadoshlarni faollik ko‘rsatishga rag‘batlantirish, yetakchilik (liderlik) qobiliyatiga egalikdir.

Yuqoridagi fikr-mulohazalardan kelib chiqib shuni aytamizki, ijtimoy faollik, tashabbuskorlik va tashkilotchilik sifatlari shaxsning ijtimoiy tavsiflaridan iborat bo‘lib, uning negizida turli ko‘rinishlardagi faoliyatlarni tashkil qilish, muayyan jarayonda ishtirokchilarni faollashtirish, jamoani birlashtirish va uni samarali boshqarishdagi yetakchilik (liderlik) aks etadi. Maktabgacha yosh davri bolalarining ijtimoy faollik, tashabbuskorlik va tashkilotchilik sifatlarini shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyatning samarali natijasi ularda mustaqillik, faollik, maqsad sari intilish, jamoa yoki mikroguruhlarda tengdoshlari bilan faol muloqotga kirisha olish, o‘yin, ta‘lim va mehnat jarayonida hamkorlikka erishish, shuningdek, jamoa a‘zolarini uyushtirish, ularni yagona maqsad atrofiga birlashtirish hamda muayyan harakatlarni amalga oshirishda yetakchi (lider)likni qo‘lga olish kabilarning samarali shakllanganligi bilan belgilanadi.

XULOSA. Umuman olganda, maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoy faollik, tashabbuskorlik va tashkilotchilik sifatlarini shakllantirishda maktabgacha ta‘lim tashkiloti muhim o‘rin tutadi. Zero, bunda tarbiyachi-pedagog tomonidan bolalar zimmasiga qo‘yiladigan vazifalarni bajarishda bevosita jamoa bilan ishlash, jamoa imkoniyatlarini bir maqsadda to‘plash va ulardan samarali foydalanish taqozo etiladi. Mazkur vazifalarni ijobiy hal qilishda esa maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoy faollik, tashabbuskorlik va tashkilotchilik sifatlari maqsad sari intilish, mustaqillik, tartiblilik, faollik, tashabbuskorlik kabilarga ega bo‘lishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatlarni hisobga olib, ushbu yosh davrida ijtimoy faollik, tashabbuskorlik va tashkilotchilik sifatlarini shakllantirishda quyidagi talablarga amal qilinishi:

– bolalarda ijtimoy faollik, tashabbuskorlik va tashkilotchilik sifatlarini shakllantirishga pedagogik-psixologik va metodik jihatdan to‘g‘ri yondashish;

– maktabgacha yosh bolalarining yosh va psixologik xususiyatlari, shaxsiy imkoniyatlari, qiziqishlari, hayotiy ehtiyojlari va intilishlarini inobatga olgan holda tarbiyaviy ta‘sir ko‘rsatish;

– maktabgacha yoshlarda tashkil etiladigan ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlarning jamoaviy yoki guruhli shakllarda tashkil etilishiga erishish;

– bolalar o‘rtasida o‘zaro psixologik birlik va hamkorlikka asoslanuvchi sog‘lom muhitni qaror toptirish;

– bolalar faoliyati yuzasidan izchil nazoratai yo‘lga qo‘yish orqali ular tomonidan ijtimoiy topshiriklarni bajarish jarayonida yuzaga kelish ehtimoli bo‘lgan qiyinchiliklarning oldini olish;

– jamoa bilan ishlashda alohida faollik ko‘rsatgan bolalar yutuqlarining e’tirof etib borilishini ta‘minlash, ularni ma‘naviy rag‘batlantirish maqsadga muvofiqdir.

Iqtiboslar/Сноски/Reference

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, давлат илмий нашрёти, Тошкент, 2019, 129-b

2. Davletshin M.G. Zamonaviy maktab o‘qituvchisining psixologiyasi. - T.: O‘zbekiston, 1999. -29 b.

3. Forobiy, Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. T.: A.Kodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1993.

4. Джамилова Н.Н. Педагогические основы формирования организаторских качеств в учащихся педагогических колледжей. Т: Фан, 2007.

5. O‘quvchilarda o‘quv faoliyatiga mas’uliyat hissini tarbiyalash (Oilada va sinfdan tashqari vaqtlarda) //Tuzuvchilar: M.SH..Allamuratova./.Jo‘raboeva. T.: O‘zPFITI, 1990. 37 b.

6. Божович. Л.И.. Этапы формирования личности в онтогенезе // Вопросы психологии. – 2012. – № 2. - № 4. – С. 24-28

7. Фельдштейн Д.И. Психология развития личности в онтогенезе. – М.: Наука. - 2015. – 200 с.

Fatidinova Dildora Murodjanovna
Andijon davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

ONLAYN QIMOR O‘YINLARIGA QARAMLIK VA IQTISODIY MAS’ULIYATNING BUZILISHI O‘RTASIDAGI BOG‘LIQLIK

Annotatsiya. Maqolada onlayn qimor o‘yinlariga qaramlikning shakllanishi, uning iqtisodiy oqibatlari mazkur maqolada onlayn qimor o‘yinlariga qaramlik va iqtisodiy mas’uliyatning buzilishi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik tahlil qilingan. Qimor o‘yinlariga qaramlik nafaqat shaxsning psixologik holatiga, balki uning moliyaviy barqarorligiga ham jiddiy ta’sir, moliyaviy qarzlar va oilaviy byudjetga zarar yetkazuvchi omillar keng yoritilgan. Shuningdek, onlayn qimor o‘yinlariga qaramlikni oldini olish va iqtisodiy mas’uliyatni tiklash bo‘yicha qarshi choralar – psixologik yordam, moliyaviy savodxonlikni oshirish, qimor o‘yinlariga cheklovlar kiritish va davlat darajasida profilaktika choralari bo‘yicha tavsiyalar berilgan. Maqola qimor o‘yinlariga qaramlikning shaxsiy va ijtimoiy oqibatlarini kamaytirishga qaratilgan nazariy va amaliy yondashuvlarni o‘z ichiga oladi va ushbu muammoni hal qilish bo‘yicha kompleks strategiyalarni ishlab chiqishda foydalanish uchun mo‘ljallangan.

Kalit so‘zlar: onlayn qimor o‘yinlariga qaramlik, iqtisodiy mas’uliyat, moliyaviy barqarorlik, psixologik yordam, qarz muammolari, oilaviy byudjet, profilaktika choralar, moliyaviy savodxonlik, qimor o‘yinlari nazorati, ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlar.

Фатидинова Дилдора Муроджановна
Учитель, Андижанский государственный педагогический институт

СВЯЗЬ МЕЖДУ ЗАВИСИМОСТЬЮ ОТ АЗАРТНЫХ ИГР В ИНТЕРНЕТЕ И НАРУШЕНИЯМИ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ

Аннотация. В статье анализируется связь между онлайн-доступом к онлайн-гемблингу, его экономической зависимостью от собственных игр и обратным изменением экономической ответственности. Игромания оказывает серьезное влияние не только на физическое состояние человека, но и на его сохранность, вызывая долги и материальный ущерб. Даны рекомендации по принятию мер безопасности при онлайн-гемблинге и восстановлению экономической ответственности – помощь, содействие, грамотность, профилактические меры. Статья содержит теоретические и практические приложения по развитию личностных и

социальных процессов игровой зависимости и предназначена для использования при разработке комплексной стратегии решения данной проблемы.

Ключевые слова: азартная онлайн-зависимость, экономическая ответственность, финансовая стабильность, психологическая поддержка, долговые проблемы, семейный бюджет, профилактические меры, финансовая грамотность, контроль над азартными играми, социально-экономические последствия.

Fatidinova Dildora Murodzhanovna
Teacher, Andijan State Pedagogical Instituti

THE RELATIONSHIP BETWEEN ONLINE GAMBLING ADDICTION AND ECONOMIC RESPONSIBILITY VIOLATIONS

Annotation. The article analyzes the relationship between online access to online gambling, its economic dependence on its own games and the opposite changes in economic responsibility. Gambling addiction has a serious impact on the physical state of the individual, but also on its preservation, causing debts and material damage. Recommendations are given on taking safety measures for online gambling and restoring economic responsibility - assistance, assistance, literacy, preventive measures. The article contains theoretical and practical applications for the development of personal and social processes of gambling addiction and is intended to be used in the development of comprehensive strategies for solving this problem.

Keywords: online gambling addiction, economic responsibility, financial assistance, support, debt problems, financial budgeting, preventive assistance, financial literacy, gambling control, socio-economic consequences.

Kirish. Onlayn qimor o‘yinlariga qaramlik bugungi kunda dunyo miqyosida keng tarqalgan murakkab ijtimoiy va psixologik muammolardan biri hisoblanadi. Bu hodisa shaxs hayotining turli jabhalariga, jumladan, uning ruhiy holati, ijtimoiy munosabatlari va iqtisodiy barqarorligiga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Qimor o‘yinlariga qaramlikni oddiy xatti-harakatlar buzilishi deb baholash yetarli emas, bu, aslida, insonning o‘z hayotini boshqarish qobiliyatiga putur yetkazadigan chuqur psixologik va iqtisodiy inqirozga olib kelishi mumkin. Mazkur maqola qimor o‘yinlariga qaramlik va iqtisodiy mas’uliyatning buzilishi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni tadqiq etishga bag‘ishlanadi. Tadqiqot davomida qimor o‘yinlari sababli kelib chiqadigan iqtisodiy qiyinchiliklar, ularning shaxs va jamiyatga ta’siri hamda ushbu muammoning oldini olish bo‘yicha amaliy tavsiyalar muhokama qilinadi. Shu bilan birga, iqtisodiy mas’uliyatni tiklash va qimor o‘yinlariga qaramlikka qarshi samarali choralar ko‘rish bo‘yicha ilmiy yondashuvlar taklif etiladi.

Asosiy qism. Iqtisodiy mas’uliyat – bu shaxsning o‘z moliyaviy holatini real baholash, resurslardan oqilona foydalanish va qarz majburiyatlarini o‘z vaqtida bajarish qobiliyatidir. Iqtisodiy mas’uliyatning shakllanishi shaxsning hayotiy rejalari va

maqsadlariga erishishida muhim rol o‘ynaydi. Ammo o’nlayn qimor o‘yinlariga qaramlik, odatda, ushbu mas’uliyatning pasayishi, daromad va xarajatlarni noto‘g‘ri boshqarish, shuningdek, iqtisodiy noaniqlikning kuchayishi bilan kechadi. Qimor o‘yinlariga qaramlikning iqtisodiy oqibatlari nafaqat individual darajada, balki ijtimoiy darajada ham seziladi. Masalan, shaxslarning moliyaviy qiyinchiliklari ko‘pincha ularning oila a’zolari va yaqinlari bilan munosabatlariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bundan tashqari, qimor o‘yinlaridan kelib chiqqan iqtisodiy qiyinchiliklar jamiyatda kengroq moliyaviy barqarorlikni buzishga olib kelishi mumkin. Shu sababli, qimor o‘yinlariga qaramlikni faqat bir insonning muammosi sifatida emas, balki kengroq ijtimoiy-iqtisodiy hodisa sifatida ham o‘rganish zarur.

Qimor o‘yinlariga qaramlik inson psixikasiga ta’sir qiluvchi murakkab holat bo‘lib, u shaxsning ijtimoiy, emotsional va iqtisodiy jihatlardagi xatti-harakatlarini o‘zgartiradi. Ushbu holatni tahlil qilish uchun uning psixologik xususiyatlarini chuqurroq ko‘rib chiqish lozim. Quyida qimor o‘yinlariga qaramlikning asosiy psixologik jihatlari batafsil yoritiladi. Qimor o‘yinlari shaxsning motivatsiya tizimiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Odatda qimor o‘yinlariga qaramlik quyidagi sabablarga ko‘ra shakllanadi:

- Dopamin tizimining faollashuvi: G‘alaba qozonish ehtimoli shaxsda dopamin darajasini oshiradi, bu esa xursandchilik va qoniqish hissini keltirib chiqaradi. Bu jarayon odamni yana va yana qimor o‘ynashga undaydi.

- O‘z-o‘zini boshqarishning pasayishi: Qimorbozlar ko‘pincha o‘z impulslarini nazorat qilishda qiyinchilikka duch keladi. Buning oqibatida ular moliyaviy yo‘qotishlarga qaramay, qimor o‘ynashni davom ettiradilar [1].

Qimor o‘yinlariga qaramlik emotsional darajada qoniqish keltiruvchi faoliyat sifatida boshlanadi, ammo vaqt o‘tishi bilan bu stress va tashvishga sabab bo‘luvchi omilga aylanadi. Ushbu jarayon bir qancha belgilar bilan kuzatiladi. Qimor o‘yinlaridan moliyaviy zarar ko‘rgan shaxslar ko‘pincha xavotir va depressiya holatiga tushadilar. O‘zining qimor o‘ynash odatlari ustidan nazorat yo‘qligi shaxsda aybdorlik va uyat hissini paydo qiladi, bu esa uning o‘ziga bo‘lgan hurmatini pasaytiradi. Onlayn qimor o‘yinlariga qaramlik nafaqat shaxsning ichki dunyosiga, balki uning atrofdagilar bilan bo‘lgan munosabatlariga ham ta’sir qiladi. Onlayn qimor o‘yinlari tufayli shaxsning moliyaviy mas’uliyatlari zaiflashadi, bu esa oila a’zolari bilan kelishmovchiliklarga olib keladi. Qimorbozlar ko‘pincha o‘z muammolarini yashirishga harakat qiladilar, bu esa ularning do‘stlari va yaqinlari bilan aloqalarni cheklashlariga sabab bo‘ladi. Qimor o‘yinlariga qaramlik bir qator ichki va tashqi omillar orqali davom ettiriladi, shaxs ko‘pincha yo‘qotgan mablag‘larini qaytarish maqsadida qimor o‘ynashni davom ettiradi, ammo bu ko‘pincha qarzlarning yanada ortishiga olib keladi [2].

Ushbu o‘yinlar odatda qaramlikni kuchaytiradigan tarzda tuzilgan bo‘lib, ular tez-tez kichik g‘alabalar va katta yo‘qotishlarni uyg‘unlashtiradi. O‘nlayn qimor o‘yinlariga qaramlikni davolashda psixologik yondashuvlar muhim ahamiyatga ega. Ushbu terapiya yordamida shaxsning o‘nlayn qimor o‘yinlariga bo‘lgan noto‘g‘ri qarashlari va odatlari o‘zgartiriladi.

Qimor o‘yinlari tufayli yuzaga kelgan moliyaviy yo‘qotishlar odamni tezroq pul ishlashga yoki qarzlarini qoplashga undaydi. Ushbu sharoitda shaxs impulsiv qarorlar qabul qilishi va moliyaviy intizomni unutishi mumkin. O‘yin davomida yutqazilgan pullarni qaytarib olishga umid qilish qimorbozlarni o‘z iqtisodiy imkoniyatlaridan oshib ketadigan darajada qarz olishga undaydi. Bu esa uzoq muddatli moliyaviy barqarorlikni buzadi. Oilaviy va yaqinlar o‘rtasidagi nizolar shaxsda qo‘shimcha stressni keltirib chiqaradi, bu esa qimor o‘yinlarini davom ettirishga sabab bo‘ladi. Bunday sharoitda moliyaviy mas’uliyat ikkinchi darajali bo‘lib qoladi [3].

Moliyaviy inqiroz kuchaygan sharoitda ba’zi qimorbozlar noqonuniy daromad topish yo‘llarini izlaydilar. Bu esa ularning huquqiy muammolarga duch kelish ehtimolini oshiradi. Qimor o‘yinlariga qaramlik oqibatida buzilgan iqtisodiy mas’uliyatni tiklash uchun quyidagi choralarga e’tibor qaratish zarur. Qimorbozlarga moliyaviy rejalashtirish, tejash va investitsiya qilish ko‘nikmalarini o‘rgatish zarur. Maxsus treninglar va kurslar ushbu jarayonda yordam beradi. Qarzdor qimorbozlarga qarzlarni qayta moliyalashtirish va nazorat qilish bo‘yicha mutaxassislar bilan ishlash tavsiya etiladi [4].

Moliyaviy mas’uliyatning buzilishi oila byudjetining beqarorligiga olib keladi. Bu esa oilaviy nizolar, ajralishlar va bolalar ta’limiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Qimorbozlikning ijtimoiy iqtisodiy oqibatlari davlat iqtisodiyotiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Masalan, qaramlik sababli ortib borayotgan qarzlar va bankrotliklar moliyaviy tizimga zarar keltiradi. Qimor o‘yinlari ko‘pincha kam daromadli shaxslarni qamrab oladi, bu esa ijtimoiy tengsizlikning kuchayishiga olib keladi. Qimor o‘yinlariga qaramlikning iqtisodiy oqibatlarini yumshatish uchun tizimli yondashuv zarur. Qimor o‘yinlarini nazorat qilish siyosatini joriy etish, hukumat tomonidan qimor o‘yinlarini tartibga soluvchi qonun va me’yoriy hujjatlarning kuchaytirilishi shaxslarning qimorbozlikka moyilligini kamaytiradi.

Qimor o‘yinlariga qaramlik ko‘pincha chuqur psixologik muammolarning natijasi bo‘lib, uni davolashda psixologik yordamning roli katta. Ushbu yo‘nalishda quyidagi choralar amalga oshirilishi mumkin. Qimorbozlarga psixoterapevtik yordam ko‘rsatish orqali ularning o‘z odatlariga tanqidiy yondashuvni shakllantirish mumkin. Kognitiv-xulq-atvor terapiyasi (CBT) qimorbozlikni davolashda samarali deb topilgan bo‘lib, shaxsning noto‘g‘ri qarashlari va xatti-harakatlarini o‘zgartirishga yordam beradi [5].

Meditatsiya, nafas olish mashqlari va yoga kabi usullar stressni kamaytirishga yordam beradi, bu esa qimor o‘ynashga bo‘lgan ehtiyojni pasaytiradi. O‘nlayn qimor o‘yinlariga qaramlik ko‘pincha oilaviy nizolarni keltirib chiqaradi. Psixologlar oilaviy maslahat seanslari orqali oilaviy qo‘llab-quvvatlash tizimini tiklashga yordam berishlari mumkin. Qimor o‘yinlariga qaramlik ko‘pincha moliyaviy mas’uliyatning zaiflashuvi bilan birga keladi. Shuning uchun shaxslarni moliyaviy rejalashtirish va tejash ko‘nikmalariga o‘rgatish muhimdir. Maxsus dasturlar yordamida qimor o‘yinlariga qaram shaxslarni byudjet tuzish, xarajatlarni boshqarish va qarzlarni qaytarish bo‘yicha bilim va ko‘nikmalar bilan ta’minlash mumkin. Moliyaviy maslahatchilar qimor o‘yinlari sababli yuzaga kelgan qarzlarni boshqarish bo‘yicha shaxsiy reja ishlab chiqishda yordam berishlari mumkin. Moliyaviy tejashning ijobiy jihatlari va uzoq muddatli manfaatlarini tushuntirish orqali

shaxslarni tejashga undash mumkin. Qimor o‘yinlariga bo‘lgan kirishni cheklash va ularni nazorat qilish iqtisodiy mas’uliyatni tiklashga xizmat qiladi [6]. Bu borada quyidagi choralar muhimdir. Qimor o‘yinlari litsenziyalangan tartibda boshqarilishi kerak. Noqonuniy qimor o‘yinlariga qarshi qat’iy choralar ko‘rish orqali ular sonini kamaytirish mumkin. Qimor o‘yinlarini targ‘ib qiluvchi reklamalarni cheklash orqali yangi qimorbozlarning paydo bo‘lishi oldini olish mumkin. Ayniqsa, yoshlar auditoriyasi uchun reklama cheklovlari muhim ahamiyatga ega.

Xulosa. Onlayn qimor o‘yinlariga qaramlik – bu shaxsning nafaqat psixologik, balki iqtisodiy va ijtimoiy hayotiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadigan murakkab muammo moliyaviy barqarorligiga jiddiy zarar yetkazadi. Bu holat ko‘pincha oilaviy munosabatlarning buzilishi, jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlikning kuchayishi va shaxsning huquqiy muammolarga duch kelishiga sabab bo‘ladi. Qimor o‘yinlariga qaramlik va iqtisodiy mas’uliyatning buzilishi o‘rtasidagi bog‘liqlik shuni ko‘rsatadiki, ushbu muammoni hal qilish uchun kompleks yondashuv zarur. Psixologik yordam, moliyaviy savodxonlikni oshirish va qimor o‘yinlarini nazorat qilishga qaratilgan siyosatlarni amalga oshirish bu yo‘nalishda samarali bo‘lishi mumkin. Psixoterapiya, oila va jamoatchilik qo‘llab-quvvatlovi, shuningdek, hukumat tomonidan qimor o‘yinlarini tartibga soluvchi qoidalar muammoni hal qilishda asosiy vositalar hisoblanadi. Moliyaviy savodxonlikni oshirish qimorboz shaxslarning iqtisodiy mas’uliyatini tiklashda alohida ahamiyatga ega. Moliyaviy rejalashtirish, qarzlarni boshqarish va tejash ko‘nikmalarini rivojlantirish orqali shaxslar nafaqat moliyaviy mustaqillikni tiklaydilar, balki o‘z hayotlarini barqarorlashtiradilar. Hukumat va jamoatchilik hamkorligida qimor o‘yinlarining zararlarini tushuntiruvchi targ‘ibot ishlari olib borilishi, reklama cheklovlarining joriy qilinishi va qimor o‘yinlarini nazorat qilish bo‘yicha qonun hujjatlarining takomillashtirilishi qimorbozlik muammosining oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqola qimor o‘yinlariga qaramlikning iqtisodiy oqibatlarini tahlil qilish va iqtisodiy mas’uliyatni tiklash bo‘yicha ilmiy va amaliy yondashuvlarni ishlab chiqishga xizmat qiladi. Qimor o‘yinlariga qaramlikka qarshi kurash nafaqat shaxs, balki butun jamiyat uchun barqaror rivojlanish va moliyaviy farovonlikni ta’minlashning muhim qismi hisoblanadi. Shu sababli, bu muammoni hal qilishga qaratilgan strategiyalarni samarali tatbiq etish barcha darajalarda – individual, oilaviy, ijtimoiy va davlat miqyosida dolzarb vazifa bo‘lib qoladi.

Iqtiboslar/Сноски/Reference

1. Lesieur, H. R., & Blume, S. B. (1987). Pathological Gambling: Its Clinical and Social Consequences. *Journal of Gambling Behavior*, 3(1), 12–26.

2. Shaffer, H. J., & Korn, D. A. (2002). Gambling and Related Mental Disorders: A Public Health Analysis. *Annual Review of Public Health*, 23, 171–212.

3. Gupta, R., & Derevensky, J. L. (1998). Adolescents with Gambling Problems: From Research to Treatment. *Journal of Gambling Studies*, 14(2), 133–149.

4. Hodgins, D. C., Stea, J. N., & Grant, J. E. (2011). Gambling Disorders. *The Lancet*, 378(9806), 1874–1884.

5. Petry, N. M. (2005). *Pathological Gambling: Etiology, Comorbidity, and Treatment.* Washington, DC: American Psychological Association.

6. Abbott, M. W., & Volberg, R. A. (2000). Taking the Pulse on Gambling and Problem Gambling in New Zealand. *Social Policy Journal of New Zealand*, 14, 123–141.

7. Kalischuk, R. G., Nowatzki, N., Cardwell, K., Klein, K., & Solowoniuk, J. (2006). Problem Gambling and Its Impact on Families: A Literature Review. *International Gambling Studies*, 6(1), 31–60.

8. Griffiths, M. D. (1995). Adolescent Gambling. *Psychologist*, 8(9), 365–368.

9. McMillen, J., & Doran, B. (2006). Problem Gambling and Working Women: Socioeconomic and Cultural Factors. *International Journal of Mental Health and Addiction*, 4(3), 279–297.

10. Volberg, R. A. (2001). Gambling and Problem Gambling in North America: A Summary Report Prepared for the Canadian Consortium for Gambling Research. *Canadian Gambling Research*, 12, 54–71.

11. Blaszczynski, A., & Nower, L. (2002). A Pathways Model of Problem and Pathological Gambling. *Addiction*, 97(5), 487–499.

12. Rockloff, M. J., & Greer, N. (2011). Never Smile at a Crocodile: Betting on

"Qimor o‘yinlariga qaramlik moliyaviy barqarorlikning izdan chiqishi va insonning iqtisodiy mas’uliyatsiz qarorlar qabul qilishiga olib keluvchi murakkab psixologik holatdir."

Sirojiddinova Firuza Xosilbekovna
Andijon davlat pedagogika instituti
Pedagogikava psixologiya kafedrasi
v.b.dotsenti

MAXKUM AYOLLAR, JINOYAT VA ZO‘RAVONLIKNI PSIXOLOGIK OMILLARI

Annotasiya. Ushbu maqolada xotin-qizlar huquqlari kafolatlarini ta’minlashning qonunchilik mezonlari zamon talablariga mos holda, ayollarga nisbatan kuch ishlatish, ayniqsa, oiladagi zo‘ravonlikni bartaraf etishga jiddiy ahamiyat qaratish, ayol mahbuslar orasida ruhiy salomatlik va giyohvand moddalarni iste'mol qilish kasalliklari keng tarqalganligi va ayol mahbuslar ko‘pincha o‘zlarining ruhiy salomatligini, aksariyat xolatlarda jinsiy zo‘ravonlikka duchor bo‘lganlar, ayollarni himoyasiz holatda jazolash muhitiga qo‘yish ularning ruhiy va jismoniy sog‘lig‘iga yanada ko‘proq zarar yetkazishi mumkinligi va bu ularni qayta qurbonga aylantirishi va ozodlikka chiqqandan keyin ularni kamsitishga duchor qilishi borasida fikrlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: zo‘ravonlik, salomatlik, ruhiy holat, ayollar, mahkum, psixologik, zo‘riqish.

Сирожиддинова Фируза Хосилбековна
Андижанский государственный педагогический институт, Кафедра педагогики и психологии

ОСУЖДЕННЫЕ ЖЕНЩИНЫ, ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ПРЕСТУПНОСТИ И НАСИЛИЯ

Аннотация. в данной статье приводятся мнения о том, что законодательные критерии обеспечения гарантий прав женщин соответствуют требованиям времени, что необходимо уделять серьезное внимание устранению насилия в отношении женщин, особенно домашнего насилия. Отмечается, что среди женщин-заключенных широко распространены психические заболевания и наркомания, и что женщины-заключенные часто страдают от проблем с психическим здоровьем, в большинстве случаев подвергаясь сексуальному насилию. Подчеркивается, что помещение женщин в карательную среду в беззащитном состоянии может нанести еще больший вред их психическому и физическому здоровью, что может превратить их в повторные жертвы и подвергнуть дискриминации после освобождения.

Ключевые слова: насилие, здоровье, психическое состояние, женщины, заключенный, психологический, стресс.

Sirojiddinova Firuza Hosilbekovna
Andijan State Pedagogical Institute
Department of Pedagogy and Psychology

CONVICTED WOMEN, PSYCHOLOGICAL FACTORS OF CRIME AND VIOLENCE

Annotation. This article presents opinions that the legislative criteria for ensuring women's rights are in line with the demands of the time, and that serious attention should be paid to the elimination of violence against women, especially domestic violence. It is noted that among female prisoners, mental illnesses and drug addiction are widespread, and female prisoners often suffer from mental health problems, being sexually abused in most cases. It is emphasized that placing women in a punitive environment in a state of vulnerability can further harm their mental and physical health, which can turn them into repeated victims and discriminate against them after their release.

Keywords: violence, health, mental state, women, prisoner, psychological, stress.

Kirish. Yurtimizda keyingi yillarda gender tenglikni ta’minlash sohasida izchil va samarali sa’y-harakatlar olib borildi. Asosiysi, xotin-qizlar huquqlari kafolatlarini ta’minlashning qonunchilik mezonlari ham zamon talablariga mos holda takomillashtirilmoqda. Bunda ayollarga nisbatan kuch ishlatish, ayniqsa, oiladagi zo‘ravonlikni bartaraf etishga jiddiy ahamiyat qaratilyapti. Zero, xalqaro huquq ham davlatlarga bu borada aniq majburiyatlar yuklaydi.

So‘nggi bir oy ichida ayollar bilan bog‘liq bir necha mudhish hodisalar ro‘y berdi. Bularning bari yurtimizda yechilishi lozim bo‘lgan qator o‘tkir muammolar mavjudligini namoyon qildi. Nafaqat ayollar, umuman inson sha’ni va qadr-qimmatini yuksaltirish uchun hali ko‘p ishlar qilinishi kerak ekan.

“Ayollarni allaqachon himoyasiz holatda jazolash muhitiga qo‘yish ularning ruhiy va jismoniy sog‘lig‘iga yanada ko‘proq zarar yetkazishi mumkin; bu ularni qayta qurbonga aylantiradi va ozodlikka chiqqandan keyin ularni kamsitishga duchor qiladi”.

Asosiy qism. Ayol mahbuslar erkak mahbuslarga qaraganda ko‘proq sog‘liq, ruhiy salomatlik va giyohvand moddalarni suiiste'mol qilish bilan bog‘liq muammolarga ega va ayol mahkumlarning hayot hikoyalari travmatik hayotiy voqealarga, masalan, jismoniy va jinsiy zo‘ravonlik tajribalariga urg‘u beradi

O‘z hayoti davomida mahkum ayollarning taxminan 96 foizi jismoniy zo‘ravonlikka, 87 foizi ruhiy zo‘ravonlikka, yarmidan sal kamrog‘i moliyaviy zo‘ravonlikka, 40 foizdan ortig‘i esa jinsiy zo‘ravonlikka duchor bo‘lgan. Ayollar zo‘ravonlikning barcha ko‘rsatilgan shakllarini erkaklarga qaraganda ko‘proq boshdan kechirganliklarini aytishadi. Ayol mahbuslar ham erkak mahbuslarga qaraganda ko‘proq travma belgilariga ega. Ayol mahbuslar orasida ruhiy salomatlik va giyohvand moddalarni suiiste'mol qilish kasalliklari

keng tarqalgan va ayol mahbuslar ko‘pincha o‘zlarining ruhiy salomatligini erkak mahbuslarga qaraganda ancha zaif deb bilishadi

Aleksitimiya, ya’ni his-tuyg‘ularni og‘zaki tan olish va tasvirlashda qiyinchilik psixologik va somatik kasalliklar va giyohvand moddalarni suiiste'mol qilish kasalliklari bilan bog‘liq. Qamoqxona aholisini o‘rganish natijalariga ko‘ra aleksitimiya mahkumlarning beshdan birida uchraydi, bu umumiy aholiga nisbatan ikki baravar ko‘p, ayniqsa ayollarda, umumiy aholiga nisbatan tarqalish kuchaygan. . Mahkumlarning chidamliligi ham umumiy aholiga qaraganda zaifdir, bu ruhiy salomatlik va giyohvand moddalarni suiiste’mol qilish muammolarini saqlab qolishi mumkin.

Mahkumlarning umumiy giyohvandlik muammosini tushuntiruvchi omillardan biri bu faollik va e'tiborning buzilishi bo‘lib, uning belgilari mahkumlarning 40 foizdan ortig‘ida aniqlangan. Jinslar o‘rtasidagi alomatlarda sezilarli farq yo‘q edi. DEHB belgilari ko‘pincha bolalik yoki o‘smirlik davrida tan olinmagan va mahkum kerakli davolanishni olmagan.

Umumiy aholi bilan solishtirganda, mahkumlar ham o‘rganishda ko‘proq qiyinchiliklarga duch kelishadi mahkumlarning katta qismi, ya'ni 60 foizdan ortig‘i qamoqxonaga kelganida ishsiz edi. Ko‘pgina mahkumlar mehnat qobiliyati bilan bog‘liq ko‘plab cheklovlarga ega, bu esa davolanmagan sog‘liq muammolari, ruhiy salomatlik muammolari va til ko‘nikmalari kabi ko‘nikmalarning kamchiliklari bilan izohlanishi mumkin. Mahkumlarga qaratilgan dastur va tadbirlar asosan erkaklar uchun mo‘ljallangan, qamoqxonalarda ayollarning huquqlari keng e'tirof etilmaydi. Erkaklar uchun mo‘ljallangan xizmatlar har doim ham e'tiborga olinmaydi genderga sezgir reabilitatsiya bilan bog‘liq xususiyatlar: xavfsizlik hissi, travma foni, jismoniy, o‘ziga xoslik va jins bilan bog‘liq ijtimoiy umidlar va hissiyotlarni tartibga solish. Ayollar boshdan kechiradigan zo‘ravonlik ko‘pincha erkaklar tomonidan sodir etilganligi sababli, jinoiy kelib chiqishi bo‘lgan ayollar bilan ishlashda asosiy e'tibor xavfsizlik hissini yaratishga qaratiladi, bu esa ayol ishchilar va reabilitatsiya orqali targ‘ib qilinishi mumkin. guruhlar va giyohvand moddalarni suiiste'mol qilishni davolash bo‘limlari faqat ayollarga mo‘ljallangan

Jinoiy dunyoda yashovchi ayol jamiyatning ayollik haqidagi umidlarini buzgan bo‘lishi mumkin: muloyimlik, mehribonlik, tarbiya, sharmandalik, aybdorlik va qadrsizlik tuyg‘ulari bu rolning buzilishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin, shuning uchun ijobiy o‘z-o‘zini his qilish jarayoni uzoq davom etishi mumkin. Jinoyat stigmatizatsiya qilinishi mumkin va qamoqdan keyin yangi shaxsni shakllantirish va jamiyatga qaytishni qiyinlashtirishi mumkin mahbuslar misolida, ota-ona tarbiyasining ahamiyati ham ta'kidlanadi: so‘rov natijalariga ko‘ra mahkum ayollarning aksariyatida voyaga etmagan bolalar bor.

Mahkumlar qayerda ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va yordam olganliklari haqida xabar berishlari tekshirilganda, ayollarning javoblarida professionallar - qamoqxona xodimlari, ijtimoiy xizmatchilar, giyohvand moddalarni iste'mol qilish xizmatlari, cherkov va ko‘ngillilarning roli ta'kidlangan

Ozodlikka va undan keyingi vaqtga kelsak, qamoq muddati mehnat qobiliyatini baholash uchun ideal vaqt bo‘lishi mumkin va qamoq muddati davomida turli xil o‘qitish va

ishga joylashtirish choralarini ko‘rish va ishga joylashishga to‘sqinlik qiladigan ruhiy salomatlik muammolarini davolash mumkin Bundan tashqari, ozod qilishdan oldin, reabilitatsiyani davom ettirish va tegishli qo‘llab-quvvatlash tarmog‘ini ta'minlash va uy-joy xavfsizligini ta'minlash uchun zarur tayyorgarlik ko‘rish kerak

Kamsitmaslik tamoyilini amalda amalga oshirish uchun axloq tuzatish muassasalari mahkumlarning, ayniqsa, qamoqxonalar sharoitida eng zaif qatlamlarning individual ehtiyojlarini hisobga olishlari kerak. Maxsus ehtiyojli mahkumlarning huquqlarini himoya qilish va targ‘ib qilish bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘rish kerak va bu harakatlar kamsitish deb hisoblanmasligi kerak.

Qoidalar gender bilan bog‘liq omillarga bog‘liq. 11-qoidada aytilishicha, mahbuslarning turli guruhlari, masalan, erkaklar va ayollar, turli muassasalarda yoki muassasalarning qismlarida saqlanishi kerak. Bundan tashqari, ayollar qamoqxonalarida homiladorlik davrida va tug‘ruqdan keyingi davrda davolanish va parvaris qilish, shuningdek, ota-onasi bilan qamoqda o‘tirgan bolani davolash va parvarish qilish masalalari ham o‘z zimmasiga olishi shartligi belgilandi.

Qamoqxona hokimiyat organlari ayollarning jismoniy, kasbiy, ijtimoiy va psixologik ehtiyojlari va vasiylik bilan bog‘liq majburiyatlarini hisobga olishlari kerak. Bundan tashqari, mahkum ayollar jismoniy, ruhiy yoki jinsiy zo‘ravonlikdan himoyalangan bo‘lishi kerak va agar mahkum bunday zo‘ravonlikni boshdan kechirgan bo‘lsa, unga zarur huquqiy va psixologik yordam taklif qilinishi kerak.

Qamoqxonada mahkumlarning jismoniy va ruhiy salomatligini baholash va mustahkamlashdan iborat bo‘lgan ko‘p professional tibbiy xodimlar bo‘lishi kerak. Mahkumlarni tashishda mahkumning e'tibor ob'ektiga aylanishiga yo‘l qo‘ymaslik va mahkumni kamsitish, qiziquvchanlik va oshkoralikdan himoya qilish kerak.

Gender zo‘ravonligi Zo‘ravonlikning gender tabiati zo‘ravonlik hodisa sifatida turli jinslarga turli yo‘llar bilan ta'sir qilishini anglatadi. Ayollar ham, erkaklar ham zo‘ravonlikka duch kelsa-da, zo‘ravonlikning tabiati boshqacha.

Xuddi shunday, zo‘ravonlik bilan bog‘liq ijtimoiy va madaniy kontekst va ma'nolar u yoki bu tarzda jinsga bog‘liq. Zo‘ravonlikning gender tabiati intim sherik zo‘ravonligida kristallanadi: ayollar boshdan kechirgan zo‘ravonlikning katta qismi intim munosabatlarda sodir bo‘ladi.

Gender zo‘ravonlik oqibatlarini ko‘rib chiqishda ham ko‘rinadi, chunki ayollarning zo‘ravonlik idrokidan jarohat olish xavfi erkaklarnikiga qaraganda yuqori.

Jinoyat qurbonlari bo‘yicha so‘nggi so‘rov natijalari avvalgi so‘rovlarga mos keldi: ayollar erkaklarnikiga qaraganda ko‘proq jismoniy va jinsiy zo‘ravonlikka duchor bo‘lgan. Bundan tashqari, ayollar zo‘ravonlik natijasida erkaklarga qaraganda ko‘proq jismoniy jarohat olgan

Erkaklar va ayollar uchun zo‘ravonlik jinoyatchisi noma'lum yoki yarim ma'lum, lekin erkaklar bilan solishtirganda, ayollar tajribasi sobiq yoki hozirgi hamkor zo‘ravonlik tomonidan suiiste'mol urg‘u Finlarda qotilliklarda qurbonlarning ko‘pchiligi erkaklardir, lekin sherik tomonidan o‘ldirilgan ayol jabrlanuvchining ikkinchi eng keng tarqalgan turi

hisoblanadi. Voyaga etgan ayol qurbonlarning 60 foizi hozirgi yoki sobiq turmush o‘rtog‘i yoki tanishuv sherigi tomonidan o‘ldirilgan, erkaklar uchun esa bu ko‘rsatkich 8 foizni tashkil etgan.

O‘zaro munosabatlarda bo‘lgan ayollarning 24-30 foizi o‘z hayotining bir bosqichida yaqin sheriklari tomonidan zo‘ravonlikni boshdan kechirgan. Intim sherik zo‘ravonligining umumiy xususiyati zo‘ravonlikning turli shakllarini bir-biriga bog‘lab qo‘yishdir va zo‘ravonlikni boshdan kechirgan ayollar jismoniy zo‘ravonlik deyarli har doim zo‘ravonlikning boshqa shakllari, ayniqsa ruhiy zo‘ravonlik bilan bog‘liqligini ta'kidlaydilar jismoniy yoki jinsiy zo‘ravonlikni boshdan kechirgan, 40 foizi zo‘ravonlikdan keyin psixologik alomatlardan aziyat chekkan, erkaklarning 21 foizi esa psixologik alomatlar haqida xabar berishgan.

Ayollarning yarmidan sal ko‘pi o‘zlari boshdan kechirgan zo‘ravonliklari haqida hech kimga gapirib berishmagan, ammo ayollar erkaklarnikiga qaraganda tez-tez zo‘ravonlik haqida xabar berishgan. Ayollar erkaklarnikiga qaraganda ko‘proq takroriy zo‘ravonlikni boshdan kechirishadi va avvalgi zo‘ravonlik nikohda qotillikdan oldingi muhim xavf omilidir

Oilaviy qotilliklarga nisbatan qurbonlar va jinoyatchilarning ijtimoiy mavqei va kelib chiqish omillari ham tekshirilishi mumkin. Jabrlanuvchilar va jinoyatchilarning aksariyati Finlyandiyada tug‘ilgan, qurbonlar va jinoyatchilarning yarmidan kamrog‘I ishlagan yoki o‘qigan, qurbonlar va jinoyatchilarning muhim qismi giyohvand moddalarni suiiste'mol qilish muammosiga duch kelgan.

Jinoyatchilarning yarmidan ko‘pi ilgari sudlangan bo‘lsa, jabrlanganlarning to‘rtdan bir qismi sudlangan. 2020 yilgi qotillik tekshiruviga ko‘ra qotillik sodir etgan ayollarning 30 foizi ilgari zo‘ravonlik jinoyatlarini sodir etgan. Ayollar tomonidan sodir etilgan qotilliklarning yarmidan sal kamrog‘ida jabrlanuvchi turmush o‘rtog‘i yoki tanishuv sherigi bo‘lgan, ammo zo‘ravonlik sodir etganlar sifatida ayollarning ulushi jabrlanuvchi ayolning 15 yoshgacha bo‘lgan biologik farzandi bo‘lganida kuchayadi - 25 foiz. ayollar tomonidan sodir etilgan qotillik, jabrlanuvchi jinoyatchining farzandi edi.

Xulosa. Ayollar tomonidan sodir etilgan qotilliklarning eng keng tarqalgan sabablari munosabatlardagi muammolar, zo‘ravon munosabatlardan xalos bo‘lish va qaramog‘idagi boladan ozod bo‘lish edi.

Oiladagi zo‘ravonlik jabrlanuvchi ustidan hokimiyat va nazoratni namoyish etish vositasidir va har bir zo‘ravonlik harakati jabrlanuvchining mavqeini zaiflashtiradi.

Iqtiboslar/Сноски/Reference

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 7 martdagi «Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-4235-son Qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasining 2019 yilning 2 sentyabrida «Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida»gi O‘RQ -562-sonli Qonun

3. Ahrorova S.A. O‘zbekistonda ayollar ijtimoiy faolligini oshirish omillari: Falsafa fan. nom... diss. avtoref. – Toshkent, 2005. –B.17-18.

4. Ganieva G.J. Женский вопрос в Узбекистане: новые подходы, проблеми peшeниуа (1991-2005): Avtoref. dis. … kand. ist. nauk. –Tashkent, 2006. –26 s

5. Matkarimova G.A.Xalqaro va milliy huquqda ayollarning gender va reproduktiv huquqlari:Yurid.fan. dok. ...dis.–Toshkent, 2002.–291 b.

Kadirova Omadxon Sobirjonovna
Andijon davlat pedagogika instituti
“Pedagogika va Psixologiya”
kafedrasi o‘qituvchisi

MAKTABGACHA TARBIYA YOSHI DAVRIDAGI BOLALARDA TASHABBUSKORLIK XUSUSIYATI SHAKLLANISHIDA OILANING AHAMIYATI

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha tarbiya yoshi davridagi bolalarda tashabbuskorlik xususiyati shakllanishi va ularni shakllantirish usullari yoritilgan Bolada tashabbuskorlik xususiyatlarini shakllantirishda oilaning ahamiyati, ota –onaning bola bilan munosabatlari va tarbiya usullarining tashabbuskorlik shakllanishidagi ta’siri haqida fikr mulohazalar bu haqida ilmiy qarashlar bayon etilgan. Ushbu maqolada tashabbuskorlikni shakllantirishning psixologik mexanizmlari, ularni rivojlantirishda foydalaniladigan yondashuvlar va omillar muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: tashabbuskorlik, maktabgacha tarbiya yosh davri, “o‘z-o‘ziga baho”, faoliyat, motivatsiya, demokratik tarbiya, avtoretar tarbiya, beparvo tarbiya.

ЗНАЧЕНИЕ СЕМЬИ В ФОРМИРОВАНИИ ИНИЦИАТИВНОСТИ У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

Кадырова Омадхон Сабиржоновна
Преподаватель кафедры «Педагогика и психология» Андижанского государственного педагогического института

Аннотация. В данной статье рассматривается формирование инициативности у детей дошкольного возраста и методы её развития. Особое внимание уделено роли семьи в формировании данной черты, влиянию отношений родителей с ребёнком и методов воспитания на развитие инициативности. Представлены научные взгляды и размышления по данной теме. В статье обсуждаются психологические механизмы формирования инициативности, подходы и факторы, используемые для её развития.

Ключевые слова: инициативность, дошкольный возраст, «самооценка», деятельность, мотивация, демократическое воспитание, авторитарное воспитание, равнодушное воспитание.

Kadirova Omadkhon Sobirjonovna
Lecturer of the "Pedagogy and Psychology" Department, Andijan State Pedagogical Institute

THE ROLE OF THE FAMILY IN THE DEVELOPMENT OF INITIATIVE IN PRESCHOOL-AGED CHILDREN

Annotation. This article explores the development of initiative in preschool-aged children and the methods of fostering it. Special emphasis is placed on the role of the family in shaping this trait, the impact of parent-child relationships, and parenting styles on the development of initiative. Scientific perspectives and insights on this subject are presented. The article discusses the psychological mechanisms behind the formation of initiative, as well as the approaches and factors used to enhance it.

Keywords: initiative, preschool age, "self-esteem," activity, motivation, democratic parenting, authoritarian parenting, neglectful parenting.

Kirish: Hozirgi globallashuv jarayonlari oilaning tarbiyadagi ahamiyatini yanada oshirishni talab qilmoqda. Bolalarda tashabbuskorlik, mustaqillik va ijodkorlik kabi sifatlarni shakllantirish, ularga XXI asrning talablariga mos ta’lim-tarbiya berish muhim ahamiyat kasb etadi. UNESCOning 2022-yilgi Global Education Monitoring (GEM) Report[1.12-15 b.] ma’lumotlariga ko‘ra, dunyo miqyosida maktabgacha yoshdagi bolalarning 43 foizi erta bolalik ta’lim dasturlari bilan qamrab olinmagan. Bu holat, oilalarning bolalar tarbiyasida tutgan o‘rnini kuchaytirish va mas’uliyatni oshirish zaruratini yana bir bor tasdiqlaydi.

Adabiyotlar sharhi: Mavzu yuzasidan adabiyotlar tahlil qilganimizda erta yoshdagi kognitiv va sotsial rivojlanish nazariyalarini ishlab chiqqan olimlar, shu jumladan, Jean Piaget va Lev Vygotskiy [2.79-85-b.] bolalarning ong va ijtimoiy munosabatlarini shakllantirishdagi asosiy jarayonlarni o‘rgangan. Keyingi davrda, Michael Tomasello [3.52-60-b.] bolalarda tashabbuskorlikning rivojlanishini o‘rganishda ijtimoiy o‘yinlar va hamkorlikning ahamiyatiga alohida e’tibor qaratgan. Tomaselloning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, bolalar o‘yin orqali ijtimoiy ko‘nikmalarni o‘rganadilar va bu jarayon tashabbuskorlik va mustaqil fikrlashni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Rossiyada bu sohada taniqli pedagog-psixologlar, masalan, L. A. Venger va E. O. Smirnova [4.34-41-стр.] bolalar psixologiyasi va tashabbuskorlikning rivojlanishida rolli o‘yinlarning ahamiyatini o‘rganishgan. Ular bolalarning ijtimoiy va kognitiv ko‘nikmalarini shakllantirishda o‘yin faoliyatining o‘rni katta ekanligini ta’kidlaganlar. Bundan tashqari, bolalarda ijodiy va mustaqil fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan muhit yaratish uchun turli texnologiyalarni joriy qilish bo‘yicha tadqiqotlar olib borilgan. Bu tadqiqotlar bolalar tarbiyasida yangi yondoshuvlar va metodlarni ishlab chiqish, shuningdek, bolalar uchun ijtimoiy va kognitiv rivojlanishni qo‘llab-quvvatlaydigan sharoitlarni yaratishning zarurligini ko‘rsatadi. F. B. Xudayqulova [130-135-betlar] kabi olimlar pedagogik texnologiyalarni takomillashtirish va maktabgacha yoshdagi bolalarda tashabbuskorlikni rivojlantirish bo‘yicha bir qator ilmiy maqolalar yaratgan. Uning ishlarida bolalarni tashabbuskorlikka yo‘naltirishda o‘yinlar va ijodiy mashg‘ulotlarning muhim roli

ta’kidlana. Shuningdek, maktabgacha ta’limni rivojlantirish va bolalarni erta yoshdan tashabbuskorlikka o‘rgatish maqsadida ishlab chiqilgan “Bolajon” [45-50-betlar.] dasturi doirasida yangi metodologiyalarni qo‘llashga katta e’tibor qaratilmoqda. Ushbu dastur bolalar rivojlanishiga xizmat qiluvchi innovatsion yondoshuvlarni amalga oshirishni nazarda tutadi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda tashabbuskorlik xususiyati shakllanishida oilaning ahamiyatini psixologik tahlil qiladigan bo‘lsak, tashabbuskorlik – bolalarning yangi g‘oyalarga qiziqishi, mustaqil faoliyatga intilishi, ijodiy fikrlashi va muammolarni hal qilishga urinishi kabi sifatlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu fazilatlar aynan maktabgacha yoshda shakllanadi va ularning rivojlanishi ko‘pincha oilaning muhitiga hamda tarbiya usullariga bog‘liq. Tashabbuskorlikning psixologik asosi haqida Erik Eriksonning psixosotsial rivojlanish nazariyasiga ko‘ra, maktabgacha yosh (3–6 yosh) “tashabbusga qarshi aybdorlik” bosqichiga to‘g‘ri keladi. Bu bosqichda bolalar o‘z mustaqilligini sinab ko‘rishga, faoliyat doirasini kengaytirishga va yangi narsalarni o‘rganishga intiladilar. Agar ota-ona ularning qiziqishlarini qo‘llab-quvvatlasa va zarur imkoniyatlarni yaratsa, bolalarda tashabbuskorlik rivojlanadi. Aksincha, ularning urinishlari cheklansa, ular o‘zlarini noqulay his qilib, passiv bo‘lib qolishi mumkin.

Oiladagi psixologik muhitning roli oiladagi emotsional muhit tashabbuskorlikning shakllanishida hal qiluvchi o‘rin tutadi. Bunga ko‘ra bolani psixologik qo‘llab-quvvatlash. Bolaning yangi narsalarni sinab ko‘rish istagi ota-ona tomonidan qo‘llab-quvvatlanganda, uning o‘ziga bo‘lgan ishonchi ortadi. Bolada shakllangan **i**jobiy muloqot**.** Ota-ona va bola o‘rtasidagi samimiy muloqot tashabbuskorlikni rag‘batlantiradi. Bolalarda mustaqillikni ta’minlash ya’ni qarorlar qabul qilish va o‘zini sinab ko‘rish imkonini berish tashabbuskorlikni rivojlantiradi. Misol uchun, qaysi o‘yinchoqni tanlashni so‘rash yoki oddiy topshiriqlarni mustaqil bajarishga ruxsat berish. Tarbiya usullarining ta’siri Oiladagi tarbiya usullari bolada tashabbuskorlikning rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi: Masalan bunda quyidagi usullar asosida amalga oshiriladi. Demokratik tarbiya usuli**:** Bolaning fikrlarini tinglash, tashabbuslarini rag‘batlantirish va mustaqilligini hurmat qilish bu sifatni rivojlantiradi. Avtoritar tarbiya usuli: Qattiq nazorat va bolaga so‘z bermaslik tashabbuskorlikni susaytiradi. Bunday oilalarda bolalar qo‘rquv va ichki shubhalar bilan o‘sadi. Beparvo tarbiya**:** E’tiborsizlik ko‘rsatgan oilalarda tashabbuskorlik rivojlanmaydi, chunki bola qo‘llab-quvvatdan mahrum bo‘ladi va o‘z harakatlariga ishonchsiz bo‘lib qoladi. Tashabbuskorlik va ijodkorlik bir-biriga chambarchas bog‘liq. Oilada ijodkorlikni rivojlantirish bolaga turli o‘yinchoqlar, rasm chizish materiallari yoki konstruktorlar bilan ishlash imkoniyatini yaratish. Ota-onaning ijodiy faoliyatda bolaga hamrohlik qilishi, masalan, birgalikda rasm chizish, ertaklar to‘qish yoki uy qurish o‘yinlarini o‘ynash bolalarda tshabbuskorlik xususiyatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Oiladagi ota onalarning qat’iy va izchil qoidalar bolada mustaqil harakat qilish ko‘nikmasini rivojlantiradi. Misol uchun, o‘yinchoqlarni yig‘ish yoki oddiy uy ishlarini bajarish vazifalarini topshirish tashabbuskorlikni rag‘batlantiradi. Bolaning tashabbuskorligini cheklovchi omillar Haddan tashqari nazorat qilish yoki bolaga imkoniyat bermaslik. Jazoga

asoslangan tarbiya usullari. Bolaning harakatlarini tanqid qilish yoki masxara qilish kabi omillar bolada tashabbuskorlikni cheklab o‘z-o‘ziga bahoni kamaytiradi.

Metodika va natijalar: O‘tkazilgan metodikalar natijasida maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda tashabbuskorlik xususiyatlarini shakllantirishda oilaning ahamiyati yuqori ekanligi asosan bola “meni” shakllanish bosqichi ushbu davrga to‘gri kelishi undagi tashabbuskorlik xususiyati shakllanishi o‘z ta’sirini o‘tkazishi aniqlandi. Aynan shu davrda bolaning ijtimoiylashuvi va unda shaxs sifatida individual sifatlarni shakllanishida ota-onaning ibrat namunasi va bolani atrof olamni anglashi uchun zamin yaratishi o‘z tasdig‘ini topdi. Bunda oilaning psixologik va pedagogik roli tadqiq etildi. Psixolog Erik Eriksonning rivojlanish nazariyasiga ko‘ra, maktabgacha yosh davri tashabbus (initiative) va aybdorlik (guilt) o‘rtasidagi ziddiyatlarni hal qilish davri sifatida ta’riflanadi. Ushbu bosqichda ota-onaning farzandiga erkinlik berishi, uni mustaqil qarorlar qabul qilishga rag‘batlantirishi tashabbuskorlikning shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Demak, oilada ijobiy munosabat va qo‘llab-quvvatlovchi muhit yaratish bolada ijtimoiy-emotsional rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda tashabbuskorlik xususiyati shakllanishida oila hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ijobiy psixologik muhit, demokratik tarbiya usullari va bolaga mustaqil bo‘lish imkoniyatining berilishi bu sifatning rivojlanishiga xizmat qiladi. Oiladagi iliqlik va qo‘llab-quvvatlash bolada tashabbuskor bo‘lishga ishtiyoqni oshiradi, bu esa uning kelajakda ijodkor va muvaffaqiyatli shaxs bo‘lib shakllanishi uchun mustahkam asos yaratadi. Oilaning bolalar tarbiyasidagi roli yanada muhim ahamiyatga ega bo‘lmoqda. Bolalarda tashabbuskorlikni rivojlantirish uchun oilaviy muhitda erkinlik, ijtimoiy va o‘yin faoliyatlari orqali o‘rganish imkoniyatlari yaratish zarur. Bu bolalarni global dunyo talablariga javob bera oladigan tashabbuskor shaxslar sifatida shakllantirishga yordam beradi.

Iqtiboslar/Сноски/Reference

1. UNESCOning 2022-yilgi Global Education Monitoring (GEM) Report 12-15 b.
2. *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes* 1978, Harvard University Press, 79-85-betlar.Rossiya/AQSh.
3. Michael Tomasello *Why We Cooperate*2009, MIT Press, 52-60-betlar.AQSh.
4. О. Смирнова Психоогия игры и развитие ребёнка 2015 *г.* Гуманитарный центр, 34-41-стр. Россия.
5. F. B. Xudayqulova Maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash 2021, *O‘zbekiston fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali*, 2(3), 130-135-betlar
6.Shoira, K. (2022). PEDAGOGICAL FEATURES OF THE FORMATION OF A SENSE OF PATRIOTISM IN PRESCHOOL CHILDREN. *Yosh Tadqiqotchi Jurnali*, *1*(5), 416-421.
7.Ziyomuhammadov, B., & Abdullayeva, S. (2006). Pedagogy. *Study guide. Tashkent*, *40*.

8.Абдуллаева, Ш. Х. (2016). Коммуникативные умения как профессиональная компетенция педагога. *NovaInfo. Ru*, *3*(54), 304-306.
9.Khamidovna, A. S. (2018). The Study of the Emotional Stability of Secondary School Teachers–as a Component of Professional Competence. *Archive*, 75.
10.Абдуллаева, Ш. Х. (2021). ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ЭМОЦИОНАЛЬНОГО СТРЕССА В ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЧИТЕЛЯ: Абдуллаева Шоира Хамидовна Ташкентский государственный университет Востоковедения, заведующий кафедрой педагогики и психологии, доктор психологических наук, доцент. *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал*, (5).
11.Khamidovna, A. S. (2023). The Role of a Psychologist in Creating a Learning Environment in Higher Education Institutions.
12.Абдулаева, Ш. Х. (2014). ОСОБЕННОСТИ ЭМОЦИОНАЛЬНОЙ СФЕРЫ ЛИЧНОСТИ ПЕДАГОГОВ ШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ КАК ФАКТОР ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ УСПЕШНОСТИ. *Научное обозрение: гуманитарные исследования*, (2), 4-8.
13.Abdullayeva, S. H., Axatova, D., Sobirov, B., & Sayitov, S. (2004). Pedagogika. *T.:"Fan*.
14.qizi Xabibullayeva, S. S., & qiz Abdulmadjidova, M. D. (2023, January). TEZKOR QAROR QABUL QILISH-HOZIRGI ZAMON MUHIM TALABI. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 2, pp. 45-49).
15.Abdulmadjidova, M., & Sattarova, I. M. (2021). O'smirlar o'rtasidagi nizoli vaziyatlarni bartaraf etishda hamkorlik masalalari. *Science and Education*, *2*(12), 602-608.
16.Sattarova, I. M., & Abdulmadjidova, M. (2021). Ta'lim Jarayoni Samaradorligini Oshirishda O 'Yinli Texnologiyalardan Foydalanish Pedagogik Zaruriyat Sifatida. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, *1*(6), 5-9.
17. Abdulmajidova, M. (2024). ONALARNI INTERNETGA BOG'LANIB QOLISHI NATIJASIDA OILADAGI NIZOLARNING KELIB CHIQISHI. *Universal xalqaro ilmiy jurnal*, *1*(4), 649-650.
17. Abdulmadjidova, M., & Mirzahamdamova, N. (2024). BOLALARNI INTERNETGA QARAMLIK-PSIXIK, NUTQIY KAMCHILIK SIFATIDA. *Universal xalqaro ilmiy jurnal*, *1*(4), 628-630.

Rokhatoy Abidova Khudayberganovna,
Doctor of philosophy in philological sciences (PhD),
Urgench State University

THE IMPORTANCE OF EXPRESSING GRATITUDE: A SPEECH ACT PERSPECTIVE

Annotation. This article discusses the specific features of the speech act of gratitude in English. In the process of speech communication, a speech act appears under the influence of the speaker, the listener, and between the speech situation. The content of the speech act of gratitude is manifested depending on its expression in the process of communication

Key words: speech act, communication, pragmatic, culture, social function

Abidova Rohatoy Xudayberganovna
Urganch davlat universiteti, PhD.

MINNATDORCHILIK BILDIRISHNING AHAMIYATLI TOMONLARI: NUTQIY AKT NUQTAI NAZARIDAN

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz tilida minnatdorchilik nutqiy aktining o‘ziga xos hususiyatlari muhokama qilinadi. Nutqiy muloqot jarayonida so‘zlovchi, tinglovchi va o‘rtadagi nutqiy vaziyat ta’sirida nutqiy akt paydo bo‘ladi. Minnatdorchilik nutqiy aktning mazmuni muloqot paytida uning ifodalanishiga qarab namoyon bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: nutqiy akt, muloqot, pragmatik, madaniyat, ijtimoiy funksiya.

Абидова Рохатой Худайберганoвна
Ургенчский государственный университет.

ЗНАЧИМОСТЬ ВЫРАЖЕНИЯ БЛАГОДАРНОСТИ: В ПЕРСПЕКТИВЕ РЕЧЕВЫХ АКТОВ

Аннотация. В данной статье рассматриваются специфические особенности речевого акта благодарности в английском языке. В процессе речевого общения речевой акт возникает под влиянием говорящего, слушающего и речевой ситуации, находящейся между ними. Содержание речевого акта благодарности проявляется в зависимости от его выражения в процессе общения.

Ключевые слова: речевой акт, коммуникация, прагматический, культура, социальная функция.

INTRODUCTION

It is known that today the direction of linguistic scientific research in world linguistics is changing from the object to the subject, and the theory of anthropocentric paradigm, which reflects human dreams, wishes, and thoughts in
the language used by people in daily communication, is being put forward. Gratitude is a powerful emotion that fosters connection and well-being. It transcends mere appreciation and transforms social interactions, making them more meaningful. In linguistic terms, expressing gratitude can be understood as a speech act—an utterance that performs a function beyond the words spoken. This article explores the significance of gratitude as a speech act, its various forms, and the impact it has on individuals and communities.

METHODS

Pragmatics, a branch of linguistics, focuses on the context and meaning of language in use. When applied to speech acts, pragmatics examines how utterances function in communication beyond their literal meanings. Here are the key aspects of the pragmatics of speech acts:

Contextual Factors. Situational Context – the physical or social setting in which an utterance occurs can greatly influence its meaning. For example, saying "thank you" in a formal meeting may carry different weight than in a casual conversation.

Cultural Context – different cultures have varying norms for expressing gratitude and politeness, which can affect how speech acts are interpreted.

Illocutionary Force. Intended Meaning – the illocutionary force refers to the intended meaning behind an utterance. For instance, when someone says “Could you pass the salt?” the literal request is often understood as a polite demand.

Speech Act Classification – speech acts can be categorized as assertives (statements), directives (requests), commissives (promises), expressives (expressions of feelings), and declarations (performative utterances). Each type carries a different illocutionary force.

Politeness Theory. Face Theory – developed by Brown and Levinson, this theory describes how individuals manage their “face” (self-image) in interactions. Expressions of gratitude often serve to maintain and enhance both the speaker’s and listener’s face.

Strategies of Politeness – people use various strategies (e.g., hedging, indirectness) to express gratitude while minimizing the risk of threatening the other person’s face.

Conversational Implicature. Implied Meaning-beyond the literal meaning, speech acts can convey additional meaning through implicature. For example, saying “That was a nice dinner” after someone cooks may imply gratitude without explicitly stating it.

Contextual Clues - listeners often rely on contextual clues and shared knowledge to interpret these implicatures.

Sequential Organization. Turn-Taking-the way speech acts are organized in conversation affects their interpretation. For instance, a thank-you may follow a request or favor, indicating the sequence of social exchanges.

Repair Mechanisms-when misunderstandings occur, speakers may employ strategies to clarify or repair communication, often referencing previous speech acts.

Non-Verbal Communication. Paralinguistic Features-tone, intonation, and emphasis can modify the meaning of speech acts. For example, a heartfelt “thank you” with a warm tone can convey deeper appreciation than a flat delivery.

Gestures and Body Language-non-verbal cues often accompany speech acts, enhancing their meaning and emotional impact.

DISCUSSION

Scholars have explored the speech act of gratitude from various perspectives, focusing on its linguistic, psychological, and sociocultural dimensions. Here are some notable views:

1. Linguistic Perspective

J.L. Austin: The foundational work on speech acts indicates that utterances like "thank you" perform an action rather than merely conveying information. Gratitude is seen as an acknowledgment that reinforces social ties. [1;174]

Searle’s Classification: John Searle categorized speech acts, noting that expressions of gratitude fall under “expressive”, which convey the speaker’s feelings towards a given situation. [2;23]

2. Psychological Perspective

Emotional Regulation: Researchers like Emmons and McCullough suggest that expressing gratitude can enhance emotional well-being and resilience. Gratitude acts as a positive reinforcement mechanism, promoting a sense of belonging and connectedness.
Cognitive Processing: Studies indicate that individuals who regularly express gratitude experience improved mental health outcomes, including reduced anxiety and depression.

3. Sociocultural Perspective

Cultural Variations: Scholars like Shapiro emphasize that the expression of gratitude varies across cultures. In collectivist societies, gratitude may be expressed more formally, while in individualistic cultures, it may be more casual and direct.
Norms and Expectations: Gratitude can reinforce social norms and expectations, encouraging prosocial behavior and fostering a sense of community. Researchers argue that these social functions are vital for maintaining harmonious relationships.

4. Pragmatic Perspective

Contextual Meaning: Pragmatic studies highlight how context influences the interpretation of gratitude. Factors such as tone, setting, and relationship dynamics play crucial roles in how gratitude is expressed and received.

5. Relational Perspective

Interpersonal Dynamics: Scholars like Burleson discuss how expressing gratitude enhances interpersonal relationships. It not only acknowledges the help received but also serves to strengthen the bond between individuals.

The concept of speech acts, introduced by philosopher J.L. Austin, refers to the idea that language is not just a tool for conveying information but also a means of performing actions. When someone says “thank you”, they are not only acknowledging a gesture or help received but also reinforcing social bonds and affirming shared values.

J.L. Austin’s theory of speech acts provides a foundational framework for understanding how language functions beyond mere communication. His insights are particularly relevant to the speech act of gratitude.

Austin distinguished between three types of acts performed when we speak:

- Locutionary Act: The actual utterance and its literal meaning (e.g., saying “thank you”).
- Illocutionary Act: The intention behind the utterance (e.g., expressing appreciation).
- Perlocutionary Act: The effect the utterance has on the listener (e.g., making the listener feel valued).

Austin categorized expressions of gratitude as “expressive”, which convey the speaker’s feelings or attitudes towards a situation. In this context, saying “thank you” is not just a polite response; it expresses genuine appreciation.

The meaning of speech acts is context-dependent. The effectiveness of a gratitude expression relies on the relationship between the speaker and the listener, as well as the context in which it is delivered. For gratitude to be meaningful, it must align with social norms and expectations.

RESULTS

The act of expressing gratitude serves a social function. It acknowledges the efforts of others, reinforces social bonds, and contributes to a culture of reciprocity and mutual support.

Gratitude can be expressed in various ways, each with its own nuances:

1. *Verbal Expressions*: A simple “thank you” is the most common form. It can be personalized with specific details, such as “Thank you for helping me with my project; your insights were invaluable”.

2. *Written Communication:* Thank-you notes or emails provide an opportunity for deeper reflection. A well-crafted message can leave a lasting impression and strengthen relationships

3. *Public Recognition*: Acknowledging someone’s contributions in a public setting, such as during a meeting or on social media, can amplify the effect of gratitude. This not only honors the individual but also encourages a culture of appreciation.

4. *Acts of Kindness*: Actions often speak louder than words. Doing something thoughtful for someone can be a powerful expression of gratitude, such as returning a favor or offering assistance.

5. *Gifts:* Thoughtful gifts can serve as tangible reminders of appreciation, conveying sentiments that words alone might not fully capture.

Expressing gratitude as a speech act has profound psychological and social benefits:

- Strengthening Relationships: When we express gratitude, we acknowledge others' contributions, which fosters trust and enhances relational bonds.
- Boosting Well-Being: Research shows that regularly practicing gratitude can lead to improved mental health, greater happiness, and reduced stress.
- Encouraging Reciprocity: Gratitude creates a positive feedback loop, encouraging others to engage in prosocial behaviors, thus contributing to a supportive community.
- Cultivating a Positive Culture: In workplaces and organizations, fostering a culture of gratitude can enhance morale, improve teamwork, and increase overall productivity.

Table 1: The key aspects of gratitude as a speech act

Forms of Gratitude	**Description**	**Impact**
Verbal Expressions	Simple phrases like "thank you"	Acknowledge efforts
Written Communication	Thank you notes or e-males	Provides deeper reflections, strengthens connections
Public Recognition	Acknowledge contribution in meetings or online	Enhance visibility, promotes a culture of appreciation
Acts of Kindness	Helping someone in return	Fosters goodwill, encourages reciprocation
Gifts	Thoughtful presents as a sign of appreciation	Tangible reminder of gratitude, deepens relations hips.

CONCLUSION

The act of expressing gratitude is more than just polite behavior; it is a vital speech act that enriches human interactions. The speech act of gratitude is multifaceted, involving linguistic nuances, psychological benefits, cultural variations, and relational dynamics. Understanding these perspectives enriches our comprehension of gratitude as a vital component of human interaction. By recognizing and appreciating the efforts of others, we contribute to a more compassionate and connected society. Whether through words, gestures, or acts of kindness, embracing gratitude can transform our relationships and enhance our overall well-being. As we navigate our daily lives, let us not underestimate the power of a simple "thank you". The speech act of gratitude is not only a polite gesture but a vital component of human interaction that fosters connection, enhances well-being, and

promotes a positive social environment. Recognizing and practicing gratitude can lead to profound benefits in both personal and communal contexts.

Iqtiboslar/Сноски/References

1. Austin J. How to do things with words. – Oxford. Clarenton press, 1962. – 174 p.
2. Searle J. R. The classification of illocutionary acts // Language in Society 5 (1). – 1976. – P.1-23.;
3. Bouton L.F. Pragmatics and language learning. ERIC, Volume 7. – 1996.
4. Brown P., Levinson S.C. Politeness: Some Universals in Language Usage. – Cambridge: Cambridge University Press, 1987. – 14 p.
5. Chomsky N. Language and Mind. – Cambridge University Press, New York, 2006. – 209 p.
6. Goffman E. Relations in Public. – New York: The Penguin Press, 1971. – 424 p.

Avaznazarov Odiljon Rahmatulloyevich,
PhD, dotsent, Qarshi davlat universiteti doktoranti (DSc)
odiljon.avaznazarov@gmail.com
+998973111033

ALISHER NAVOIY DOSTONLARIDA YO‘L OBRAZI GEOGRAFIYASI

Annotatsiya. Yo‘l – adabiyot tarixida eng qadimgi va qiymatli timsollardan biri. Badiiy adabiyotda yo‘lchi, yo‘l ko‘rsatuvchi, tush, safar, sinov, manzil va boshqa ko‘plab timsollardan iborat obrazlar galereyasida yetakchilik maqomidagi bu timsol poetikasini chuqur tadqiq etish adabiyotshunosligimizning dolzarb masalalaridandir. Ushbu maqolada dastlab “Xamsa” dostonlari tadqiqi bo‘yicha navoiyshunoslikdagi ba’zi muammolarga e’tibor qaratildi. Shuningdek, ilk bor Alisher Navoiy dostonlaridagi yo‘l obrazi falsafiy-badiiy mohiyatiga ko‘ra tadqiqqa tortildi. Ushbu obraz geografiyasi tadqiq qilinib, muallif epik poeziyasida keng qo‘llangan yo‘l obrazi, avvalo, mazmun-mohiyatiga ko‘ra tabiiy-moddiy yo‘llar hamda majoziy-ma’naviy yo‘llarga ajratildi. Tabiiy-moddiy yo‘llar yo‘nalishiga ko‘ra gorizontal hamda vertikal yo‘llarga ajratildi. Tadqiqot natijasida qahramonlarning gorizontal yo‘llar bo‘ylab harakatlanishi asar sujet chizig‘ini shakllantirishda muhim funksiya bajarishi, vertikal yo‘llar esa ma’naviy-ruhiy uruj bilan aloqador ekani aniqlandi. Shuningdek, vertikal yo‘llar ko‘lami gorizontal yo‘llar ko‘lamidan ancha keng ekani, bu yo‘l geografiya sarhadlaridan chiqib ketishi asoslandi.

Kalit so‘zlar: doston, poetika, tasavvuf, obraz, yo‘l, geografiya, vertikal yo‘llar, gorizontal yo‘llar, badiiy talqin.

Авазназаров Одилжон Рахматуллаевич,
PhD, доцент Докторант (DSc) Каршинского государственного университета
odiljon.avaznazarov@gmail.com
+998973111033

ГЕОГРАФИЯ ОБРАЗА ПУТИ В ЭПОСАХ АЛИШЕРА НАВОИ

Аннотация. Путь – один из древнейших и ценнейших символов в истории литературы. В художественной литературе этот символ занимает ведущую позицию в галерее образов, включающей путника, проводника, сон, путешествие, испытание, цель и многие другие. Глубокое изучение поэтики этого символа остается актуальной задачей литературоведения. В данной статье сначала рассмотрены некоторые проблемы, связанные с изучением эпосов «Хамса» в навоиеведении. Кроме того, впервые образ пути в эпосах Алишера Навои подвергнут анализу с точки зрения его философско-художественной сущности. Изучена география этого образа, и широко

используемый в эпической поэзии автора образ пути разделен, прежде всего, на природно-материальные и метафорически-духовные пути в зависимости от их содержания и сути. Природно-материальные пути, в свою очередь, подразделены на горизонтальные и вертикальные направления. Исследование показало, что движение героев по горизонтальным путям играет важную роль в формировании сюжетной линии произведения, тогда как вертикальные пути связаны с духовным и душевным возвышением. Также обосновано, что масштаб вертикальных путей значительно шире масштаба горизонтальных, выходя за пределы географических границ.

Ключевые слова: эпос, поэтика, суфизм, образ, путь, география, вертикальные пути, горизонтальные пути, художественная интерпретация.

Avaznazarov Odiljon Rahmatulloyevich,
PhD, Associate Professor, Doctoral Candidate
(DSc) at Qarshi State University
odiljon.avaznazarov@gmail.com
+998973111033

THE GEOGRAPHY OF THE ROAD IMAGE IN ALISHER NAVOI'S EPICS

Annotation. The road is one of the oldest and most significant symbols in the history of literature. In artistic literature, it occupies a leading position in the gallery of images that include traveler, guide, dream, journey, trial, destination, and many others. A deep study of the poetics of this symbol remains a pressing issue in literary studies. This article first addresses certain problems in Navoi studies related to the analysis of the *Khamsa* epics. Additionally, for the first time, the image of the road in Alisher Navoi's epics is examined from its philosophical and artistic essence. The geography of this image is studied, and the widely used image of the road in the author's epic poetry is classified, primarily, into natural-material roads and metaphorical-spiritual roads based on its meaning and essence. The natural-material roads are further divided into horizontal and vertical directions. The study concludes that the movement of characters along horizontal roads plays a key role in shaping the plotline of the work, while vertical roads are associated with spiritual and mental ascent. Moreover, it is substantiated that the scope of vertical roads is much broader than that of horizontal roads, extending beyond the boundaries of geographical space.

Key words: epic, poetics, Sufism, image, road, geography, vertical roads, horizontal roads, artistic interpretation.

Kirish. Navoiyshunoslik tom ma'noda fan sifatida shakllanganidan buyon Hazrat Nizomiddin Amir Alisher Navoiy epik poeziyasi xususida ko'p va xo'p tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, matnshunoslikdan tortib poetika ilmiga qadar bu yo'nalishda hali hamon hal qilinishi kerak bo'lgan muammolar oz emas. Yo'l obrazi geografiyasi tadqiqi ana shunday dolzarb masalalardandir.

Adabiyotlar sharhi. Darsliklarda ko‘rsatilishicha, “Xamsa” 25617 baytdan iborat [6]. Biroq Navoiyning zamondoshi, shogirdi Xondamir “Xamsa”ning 27000 baytdan iborat ekanini ta’kidlaydi [9, B.91]. “Odamu-sh-shuaro” nisbasi bilan ulug‘lanuvchi Rudakiy bizgacha yetib kelgan ming bayt atrofidagi asarlari bilan ming yildan buyon adabiyot tarixidan munosib o‘rin egallab kelayotganini xotirga keltirsak, “Xamsa”ning bugungi nashrlari hamda Xondamirning ma’lumoti orasidagi 1387 baytlik tafovut kichkina hajm emasligi, kelajakda matnshunoslikda Xondamir keltirgan fakt jiddiy tekshirilishi kerakligi anglashiladi.

Alisher Navoiy dostonlarida poetika ilmi nuqtayi nazaridan tekshirilishi lozim bo‘lgan muammolar ham talay. Chunki ushbu asarlarda e’tibordan chetda qoldirgulik biror detal mavjud emas, ularda qo‘llangan har bir tushuncha, obraz, tilga olingan har bir mavzu mohiyati juda chuqur va keng. Biz tadqiq etishni maqsad qilgan yo‘l, yo‘lovchi, safar va manzil mavzusi ham shunga doxil.

Tadqiqot g‘oyasi. “Haqiqiy yozuvchi uchun har bir yangi kitob shu paytgacha erishilmagan bir narsaga intilish uchun boshlang‘ich nuqta bo‘lishi kerak. Shu paytgacha hech kim qilmagan yoki kimlardir harakat qilgan-u, lekin erisholmagan narsaga qo‘l uzatishi kerak”, – degan edi Ernest Xeminguey [3, B.33-34]. Haqiqatan, turkiy adabiyotda hech kim forsiy “Xamsa”lar va “Mantiqu-t-tayr”ga munosib, barkamol javobiya ayta olmagan edi va bu nuqtani ilk bor Navoiy zabt etdi. Ammo ulug‘ mutafakkir dostonlarining poetik kamoloti sirlarini to‘la kashf etish uchun haligacha yangidan yangi tadqiqotlarga ehtiyoj sezilmoqda. Jumladan, navoiyshunos Sultonmurod Olim “Xamsa”ning ilk dostonidan tashqari to‘rt dostonni falsafiy-tasavvufiy asar sifatida baholab, ularda “Lisonu-t-tayr”dagidan farqli ravishda irfoniy g‘oyalar, tasavvufiy istilohlar ochiq-oydin ishlatilmagani, hayotiy, ya’ni insonlar o‘rtasida kechgan voqealar zamiriga singdirib yuborilganini ta’kidlab, navoiyshunosligimizda haligacha bu to‘rt dostonning tasavvufiy motivatsiyasi amalga oshirilmaganiga diqqat qaratadi [7, B.93]. Fikrimizcha, *yo‘l – yo‘lovchi – safar – manzil* obrazlari galereyasining kompleks tahlili Navoiy dostonlari poetikasidagi hali kashf etilmagan qirralarni ochish barobarida ilmdagi ana shu muammoni ham hal qilishda katta ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot metodlari. Ushbu maqolada tarixiy-qiyosiy, diniy-tasavvufiy, hermenevtik, fenomenologik hamda statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Natijalar. Navoiy ijodini benuqson va mukammal tadqiq qilishda yana bir Navoiyga ehtiyoj bor. Shunday bo‘lsa-da, Yo‘l yomon-u yaxshisidin yema g‘am, / Bismilloh, degil-u qo‘yg‘il qadam, [1, B.9] – deya bu murakkab ishga kirishamiz.

Navoiy dostonlarida yo‘l yirik tushunchalardan bo‘lib, uning e’tiborga molik jihatlari bisyor. Turk adabiyotida mazkur obrazning har jihatdan kamoloti, shubhasiz, hazrat Alisher Navoiy ijodida ko‘zga tashlanadi. Navoiy lirikasidagi “talab yo‘li”, “ishq yo‘li”, “rizo yo‘li”, “faqr yo‘li”, “fano yo‘li”, “adam yo‘li”, “din yo‘li”, “porso yo‘li”, “taqvo yo‘li”, “Haq yo‘li”, “Tengri yo‘li”, “vasl yo‘li”, “tuz yo‘l”, “najot yo‘li”, “himmat yo‘li” “farog‘at yo‘li”, “xonaqah yo‘li”, “xarobot yo‘li”, “hijron yo‘li”, “maqsad yo‘li”, “falak yo‘li”, “sarsar yo‘li”, “ko‘z yo‘li”, “nazar yo‘li”, “sirishk yo‘li”, “vafo yo‘li”, “ko‘ngul yo‘li”,

“ovoralig‘ yo‘li”, “kufr yo‘li”, “o‘zluk yo‘li”, “riyo yo‘li” kabi o‘ttizdan ortiq istioralar yo‘lning mohiyatini ochishga, uning muallif badiiy niyatini yuzaga chiqarishda qanchalik muhimligini anglashga xizmat qiladi.

Badiiy obrazning kanonlaridan biri metaforiklik bo‘lib, bu jihatdan yo‘l o‘ta keng imkoniyatlarga ega. Navoiy dostonlarida to‘g‘ri va egri yo‘l tushunchalari atrofida qirqdan ortiq istioralar assotsiativlik hosil qilayotgani buning isbotidir. Jumladan, ulug‘ mutafakkir dostonlaridagi yo‘llarni, avvalo, ikki guruhga ajratish mumkin:

1. To‘g‘ri yo‘l. Dostonlardagi “Haq yo‘li”, “Xudo yo‘li”, “Tengri yo‘li”, “jannat yo‘li”, “din yo‘li”, “mazhab yo‘li”, “hidoyat yo‘li”, “karam yo‘li”, “tuz yo‘l”, “salomat yo‘li”, “itoat yo‘li”, “talab yo‘li”, “ishq-u muhabbat yo‘li”, “faqr yo‘li”, “fano yo‘li”, “adam yo‘li”, “irodat yo‘li”, “bexudlig‘ yo‘li”, “benavolig‘ yo‘li”, “junun yo‘li”, “lutf-u vafo yo‘li”, “vafo yo‘li”, “adolat yo‘li”, “musofir yo‘li”, “maktab yo‘li”, “hijron yo‘li”, “jonon yo‘li”, “shah yo‘li”, “satr yo‘li”, “so‘z yo‘li”, “maxlas yo‘li”, “nafas yo‘li”, “dam yo‘li”, “ma’dalat yo‘li”, “ko‘z yo‘li”, “qon yo‘li”, “aqba yo‘li” kabi istioralarni ana shu guruhga taalluqli deyish mumkin.

2. Egri yo‘l. “Najosat yo‘li”, “kufr yo‘li”, “zalolat yo‘li” kabi istioralar esa egri yo‘l timsoliga aloqador.

Mutafakkir epik poeziyasidagi yo‘l obrazini falsafiy-badiiy mohiyatini aniqlash uchun quyidagi uch yo‘nalishda tadqiqot olib borish kerak bo‘ladi:

1. Yo‘l obrazi geografiyasi.

2. Yo‘l obrazining falsafiy mohiyati.

3. Yo‘l obrazining badiiy talqinlari.

Biz ushbu maqolada faqat dastlabki masala – yo‘l obrazi geografiyasi xususida bahs yuritamiz. Akademik Izzat Sulton “Navoiyning qalb daftari” asarida Navoiyning hayoti davomida bosib o‘tgan yo‘llari xaritasini bergan edi. Bu yo‘llar ulug‘ mutafakkir hayotida ma’lum darajada iz qoldirgan. Bu yo‘llar geografiyasi va ularni bosib o‘tish xronologiyasini tekshirish navoiyshunoslikni boyitgan. Albatta, Navoiy dostonlari qahramonlari bosib o‘tgan yo‘llarni keng ko‘lamda tadqiq etish ham ko‘p masalalarga oydinlik kiritadi. Shu sababli ushbu faslda Navoiy dostonlaridagi yo‘llar xaritasini qilishni maqsad qildik.

Avvalo, dostonlardagi yo‘llarni mazmun-mohiyatiga ko‘ra quyidagicha tasnif qilish mumkin:

I. Tabiiy-moddiy yo‘llar;

II. Majoziy-ma’naviy yo‘llar.

Dastlab tabiiy-moddiy yo‘llar xususida. Yo‘l – harakat. Harakat esa geografiyani taqozo qiladi. Bunda *ibtido – jarayon – intiho* mavjud bo‘ladi. Bunday yo‘llarni *yo‘nalishiga ko‘ra* ikki toifaga ajratish mumkin:

1. *Gorizontal (yotiq) yo‘llar* – yer yuzi bo‘ylab bir nuqtadan ikkinchi bir nuqtaga olib boruvchi;

2. *Vertikal yo‘llar* – tik ko‘tariluvchi, yoki tushuvchi.

Dostonlardagi yo‘llarning bunday tasnifi juda muhim. Negaki qahramonlarning gorizontal yo‘llar bo‘ylab harakatlanishi asar sujet chizig‘ini shakllantirishda muhim

funksiya bajarsa, vertikal yo‘llar ruhiy uruj bilan aloqador. Vertikal yo‘l ko‘lami gorizontal yo‘llar ko‘lamidan juda keng bo‘lib, bu yo‘l geografiya sarhadlaridan chiqib ketadi. Shunday bo‘lsa-da, maqolani nomlashda “geografiya” so‘zini qo‘llashni ma’qul ko‘rdik. Bunda u keng ma’noda bo‘lib, yuqoridagi har ikki turli yo‘llar nazarda tutiladi.

Gorizontal yo‘llar. Qahramonlarning bir makondan boshqasiga harakatini, asar sujet chizig‘ini shakllantirishdagi rolini ko‘rsatuvchi ushbu yo‘llarni quyidagicha tasnif qilish mumkin:

a) Sahro va cho‘llardan o‘tuvchi;

b) Tog‘, g‘orga olib boruvchi;

d) Suv yo‘llari: muhit, daryo, dengizdan kechib o‘tuvchi;

e) Shaharlar, mamlakatlarni bog‘lovchi.

Gorizontal yo‘llarni barcha dostonlarning asosiy qismida uchratish mumkin. Qahramonlar xarakteri, muallifning estetik ideali asosan ana shu yo‘llarda sodir bo‘ladigan voqealarda, konfliktlarda ochila boradi.

Shu o‘rinda bir jihatga alohida diqqat qaratib o‘tish kerak. Dostonlarda qahramonlar faqat Xuroson yoki Movarounnahr doirasida emas, balki butun dunyo bo‘ylab harakatlanadilar. Navoiyning qahramonlari Turon, Eron, Chin, Hind, Yunon, Arab, Arman va hokazo yurtlardan. Ya’ni gorizontal yo‘llarning geografik doirasi juda keng. Bunga bir nechta argument ko‘rsatish mumkin:

1. Adabiy an’ana. Navoiyning salaflari ham o‘z “Xamsa”laridagi adabiy qahramonlarni dunyoning turli xalqlaridan tanlaganlar.

2. Muallifning jahoniy tafakkuri. Bu xususda navoiyshunos Abduqodir Hayitmetovga mana bu fikrlari e’tiborga molik: “Sab’ayi sayyor” dostonida Navoiy yetti iqlim kishilarini, ya’ni Yevropa, Hindiston, Misr, Xitoy, Eron, Movarounnahrlik qahramonlar va sayyohlarni tasvirlar ekan, bunda shoir bir mamlakat, bir xalq doirasida emas, jahon miqyosida fikr yuritadi, butun dunyo xalqlari taqdiri, muammolari haqida bosh qotiradi. Ushbu dostonning monumentalligi ulug‘vorligi shunda” [11, B.103].

3. Xalqlar do‘stligi g‘oyasi. Hayitmetov boshqa bir o‘rinda Navoiyning epik poeziyasidagi ishq-muhabbat tasviri xususida fikr yuritarkan shunday deydi: “shoir sevgida har qanday milliy cheklashlarning dushmani bo‘lganini, izchil ravishda turli xalqlar o‘rtasida do‘stlik, hamkorlik g‘oyalarini ilgari surganini ko‘ramiz. Chinlik yigit Farhodning arman qizi Shiringa muhabbat qo‘yishi, uning otashin sevgisi Shirin tomonidan e’zozlanishi, Navoiy dostonlarida turli xalq va mamlakatlarning vakillari – arabistonlik Layli, Majnun, eronlik Bahrom, xitoylik Dilorom, yunonistonlik Iskandar kabilarning yorqin obrazlarining yaratib berilgani – bular hammasi Navoiy she’riyatining ma’naviy sof va yuksak bo‘lganiga dalildir” [11, B.39].

Vertikal yo‘llar xususida. Qahramonlarning ruhiy yuksalishi va ma’naviy kamolotini tasvirlovchi vertikal yo‘llar Navoiy asarlarida, asosan, Allohga intilishning ramzi sifatida tasvirlangan. Ushbu yo‘llarni quyidagicha tasnif qilish mumkin:

a) yerdan ko‘kka chiquvchi;

b) ko‘kdan yerga enuvchi;

d) ko‘kdan ko‘kka yo‘nalgan;

e) yerdan lomakongacha eltuvchi.

Masalan, “Hayratu-l-abror”da ko‘ngilning sayri, “Xamsa”ning bir nechta dostonidagi Me’roj talqinlarida shunday yo‘llarni uchratish mumkin. Xususan, “Lisonu-t-tayr”dagi qushlar vodiylarni gorizontal ketma-ketlikda emas, balki spiralsimon vertikal harakatda bosib o‘tadi [8, B.11]. Shuni ham ta’kidlash kerakki, ba’zida gorizontal yo‘llar vertikal yo‘llarga ulanib ketadi. Jumladan, Me’roj tasvirlari berilgan boblarnda buni uchratish mumkin.

Majoziy-ma’naviy yo‘llar xususida. Navoiy asarlarida yo‘l faqat geografik tushuncha sifatida emas, balki inson hayoti, ma’naviy va ruhiy izlanishlar, hamda Allohga yaqinlashuvning timsoli sifatida ham tasvirlanadi. Ijodkor yo‘l obrazining badiiy talqinini Qur’on va hadislar, qolaversa, tasavvuf falsafasi g‘oyalari bilan boyitgan. Bu, ayniqsa, ma’joziy-ma’naviy yo‘llar tadqiqida yaqqol seziladi. Dostonlardagi yo‘l obrazi bu jihatdan markaziy va chuqur ramziy ahamiyatga ega bo‘lib, muallif ijodiy va falsafiy qarashlarini yorituvchi asosiy elementlardan biri hisoblanadi. Majoziy-ma’naviy yo‘llarni quyidagicha tasnif qilish mumkin:

1. Shariat bilan aloqador yo‘llar: basmala yo‘li, Haq yo‘li, kufr yo‘li;

2. Tasavvuf bilan aloqador yo‘llar: Nuri Muhammadiya yo‘li; talab yo‘li, ishq yo‘li, ma’rifat yo‘li, istig‘no yo‘li, tavhid yo‘li, hayrat yo‘li, faqr yo‘li, fano yo‘li, baqo yo‘li;

3. Badiiy ijod jarayoniga aloqador yo‘llar: so‘z yo‘li, xamsanavislik yo‘li, xayol yo‘li, tush yo‘li, sinov yo‘li va hokazo.

Xulosa. Abdurauf Fitrat “Shoir-yozg‘uchi san’atkorlikda ko‘tarila borg‘an sayin o‘ziga maxsus bir uslub yarata boshlaydir”, – deydi [2:17]. Navoiyning epik poeziyasi misolida yo‘l obrazini tadqiq qilish orqali ko‘rish mumkinki, ulug‘ mutafakkirning ijodiy uslubi, estetik ideallari Qur’oni karim, hadisi sharif kabi Sharq ma’rifatining mo‘tabar meroslari, qolaversa, Ibn Arabiy, Umar Nasafiy, Nizomiy Ganjaviy kabi mutafakkirlar asarlari asosida shakllangan. Qolaversa, Navoiy bu ijodiy tajribalarni rivojlantirgan, yo‘l obrazining yangidan-yangi ma’nolarini kashf qilgan. Alisher Navoiy dostonlaridagi yo‘l obrazi inson hayotidagi tanlovlar, ruhiy izlanishlar va ma’naviy kamolotni tasvirlash uchun ishlatilgan. U tasavvuf falsafasi va majoziy ifodalar bilan boyitilgan, bu esa Navoiy ijodining ulug‘vorligini yanada oshiradi. Yo‘l obrazi Navoiy asarlarining estetik va falsafiy chuqurligini ochib beruvchi asosiy ramziy unsurlardan biridir. Shuningdek, ulug‘ mutafakkir epik poeziyasini yo‘l obrazi misolida tadqiq qilishda ushbu maqolada ilgari surilgan tasniflar juda samarali bo‘lib, muhim natijalarga yo‘l ochadi.

Iqtiboslar/Сноски/References

1. Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. To‘la asarlar to‘plami. O‘n jildlik. 6-jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2012. – 812 b.

2. Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар: Ж.4. Дарслик ва ўқув қўлланмалари, илмий мақола ва тадқиқотлар / Масъул муҳаррир: Б.Қосимов. – Тошкент: “Маънавият”, 2006. – 336 б.

3. Адибларнинг Нобель маърузалари. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2008. – Б.33-34.

4. Исҳоқов Ё. Навоий поэтикаси. – Тошкент: “Фан”, 1983. – 168 б.

5. Комилов Н. Маънолар оламига сафар. – Тошкент: “Tamaddun”, 2012. – 315 б.

6. Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik. Darslik. – Toshkent: “Tamaddun”, 2018. – 520 b.

7. Султонмурод Олим. “Лисон ут-тайр”: ошкор ва пинҳон бадиият // “Шарқ юлдузи”, 2021. – №7. – Б.93.

8. Султонмурод Олим. “Лисон ут-тайр”да фано талқинлари. “INFOLIB” ахборот-кутубхона журнали. №1 (33) 2023. – Б.11.

9. Xondamir. Makorimu-l-axloq. – Toshkent: Akademnashr, 2018. – 372 b.

10. Ҳайитметов А. Навоий лирикаси. – Тошкент: “O‘zbekiston” НМИУ, 2015. – 328 б.

11. Ҳайитметов А. Навоийхонлик суҳбатлари. – Тошкент: “Ўқитувчи”, 1993. – 216 б.

Azizova Dilfuza Maxmudovna
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti katta o‘qituvchisi.
e-mail:dilfuza.azizova.78@bk.ru

SHEKSPIR IJODIDA BURILISH RO‘Y BERGAN DAVRNING MAXSULI

Annotatsiya. Shekspir o‘z zamonasi oldinga surgan masalalar, voqea va xarakterlarni yuksak ijtimoiy-falsafiy umumlashtirishlar darajasiga ko‘tardi, kichik davlatda bo‘lib o‘tgan shaxsiy masala orqali Renessansning so‘nggi davrlarida Yevropa mamlakatlarining hammasida ro‘y berayotgan ijtimoiy-siyosiy krizis, umumjahon tarixiy ahamiyatiga ega bo‘lgan ziddiyatlar, asrlar davom etgan ijtimoiy-iktisodiy formasiyalar almashishi prosessini ifoda ettirgan.

Kalit so‘zlar: dramaturglar yaratgan p’esalar, ijtimoiy-siyosiy ziddiyatlar, fojiali monologlar, falsafiy mazmun, hayotiy asar, chuqur va qudratli ruh, turli maslak, falsafiy oqim, din mazhablari vakillari.

Азизова Дилфуза Махмудовна
Старший преподаватель русского языка в
Экономико-педагогическом университете
e-mail: dilfuza.azizova.78@bk.ru

ПЕРЕЛОМНЫЙ МОМЕНТ В ТВОРЧЕСТВЕ ШЕКСПИРА.

Аннотация. Шекспир поднял проблемы, события и характеры своего времени на уровень высоких социально-философских обобщений, имеющих общеисторическое значение, выразил процесс смены общественно-экономических формаций, длившийся веками.

Ключевые слова: пьесы созданные драматургами, общественно-политические конфликты, трагические монологи, философское содержание, дело жизни, глубокий и могучий дух, представители различных профессий, философских течений, религиозных сект.

Azizova Dilfuza Maxmudovna
Senior teacher of the University of
Economics and Pedagogy.
Тел.+998914743686
e-mail: dilfuza.azizova.78@bk.ru

PERIOD WHEN A TURNING POINT OCCURRED IN SHAKESPEARE’S WORK

Annotation. Shakespeare raised the issues, events and characters of his time to the level of high socio-philosophical generalizations. Conflicts of universal historical importance, expressed the process of exchange of socio-economic formations that lasted for centuries.

Keywords: plays created by playwrights, socio-political conflicts, tragic monologues, philosophical content, life work, deep and powerful spirit, representatives of various professions, philosophical currents, religious sects.

Kirish. Shekspir ijodining ikkinchi davrida yaratilgan asarlarning birinchisi “Hamlet” tragediyasi edi. Bu pyesa insoniyat yaratgan badiiy merosda tragediya janrining eng yuksak namunasi va ayni zamonda Shekspir ijodining oliy cho‘qqisidir.

1603-yili Londonning kitob do‘konlarida “Hamlet” degan kichik kitobcha sotiladi. 1605-yili tragediyaning asl nusxasi dramaturg va teatr egalarining xohishi bilan bosiladi, 1611 yili yana takror nashr etiladi, 1623-yilda chop etilgan to‘plamda ham “Hamlet” beriladi. 1605 va 1623-yillar nashri mazmun va kompozisiya jihatidai farq etmaydi. Ammo 1605 yil nashrida 1623 yil to‘plamida bo‘lmagan 230 yo‘l, 1623-yil nashrida esa 1605-yilgisida bo‘lmagan 83 yo‘l tekst bor. Bular bir-birini to‘ldiradi. Bizga ma’lum bo‘lgan “Hamlet” tekstologlar tomonidan ikki variantdan yig‘ib tiklangan to‘rtinchi nusxadir.

Adabiyotlar tahlili. Birinchi “Hamlet” biz bilgan tragediyadan ancha farq qiladi: ancha qisqa, voqealar boshqacharoq tartibda joylashgan, personajlar nomlari o‘zgacha (Poloniy – Korambis, Rozenkrans – Rosenkraft, Gil’denstern – Gil'derston, Reynal’do – Montano).

Tragediyaning variantlari haqida olimlarning fikri turlicha: ba’zilar “birinchi variant tragediyaning asl nusxasidan buzib yozib olingani” , [1, B.120] ba’zilar “dramaturg uni qayta ishlagan, bu birinchi redaksiyasi” desalar, ba’zilar “u Shekspirgacha bo‘lgan “Hamlet”ning buzilgan shakli”, deydilar. Har holda, birinchi nashr variantida ham Shekspir qo‘ln yaqqol ko‘rinib turibdi.

1603 va 1605-yil nashrlaridagi “Hamlet”da o‘sha davrdagi odatga ko‘ra, sahna va ko‘rinishlarga bo‘lish yo‘q. [2, B.11] Bizning variantdagi Shekspir pyesalarining bo‘linishi esa 1709-yili dramaturg asarlari nashrining redaktori N. Rou tomonidan kiritilgan.

Shekspir “Hamlet” mazmunini o‘zigacha bir necha bor ishlangan pyesalardan olgach. Daniyaning afsonaviy shahzodasi Hamlet haqida ingliz Uyg‘onish davri dramaturglar yaratgan p’esalardan tashqari qadim davrlarda yaratilgan qator adabiy, xronika va afsonaviy asarlar ham bor edi. Bu mazmun birinchi marta Snorri Sturluson tuzgan island sagalari to‘plamida (1222-1223) uchrandi [3]. Demak, bu afsona sagalar (qahramonona dostonlar) tuzilgan qadim davrlarda yaratilgan. O‘rta asr Daniya tarixchisi Sakson Grammatik (1150-1220) “Daniyaliklar tarixi” asarida shahzoda Amletniig qasosi haqida yozar ekan, bu mazmun mamlakatda xristian dini qabul qilinishidan (827 yil) avval ham bor edi, deydi [4].

Saxson Grammatik qo‘lyozmasini chop etish dastgohi kashf etilganidan so‘ng bir fransuz noshiri bostiradi. Uyg‘onish davri fransuz yozuvchisi Fransua Belfore (1530-1583) esa tarixchi vafotidan uch yarim asr keyin Amlet haqidagi afsonani “Fojiali voqealar” (1576) to‘plamida qayta ishlaydi. 1609-yilda Belfore hikoyasining inglizcha tarjimasi “Hamlet vokeasi” sarlavhasi ostida Londonda bosilib chiqadi, demak, u Shekspir tragediyasiga asos bo‘la olmagan. Ammo Shekspir “Hamlet”igacha ingliz sahnasida ikki “Hamlet”, birinchisi 1587-yilda, ikkinchisi 1597-yilda sahnaga qo‘yilganligi haqida xabarlar ham bor. 1589 yili Tomas Nesh bir asarida kinoiy ravishda “bir qancha Hamletlar fojiali monologlarni tomoshabinlarga sochadilar”, degan edi. Bundan tashqari, “Hamlet” tragediyasi haqida Filipp Xeislo, Tomas Lojlar ham qisman aytib o‘tadilar. Bu pyesalar bizgacha yetib kelmagan, ularni kim yozganligi ham noma’lum, lekin ikkinchisida Hamlet otasining arvohi borligi ma’lum. Demak, bu p’esa ham saga, ham Belfore asaridan o‘zgacha bo‘lgan, bunda keksa qirol yashirincha o‘ldirilgan va arvoh sirni ochadi. P’esalarda arvohni sahnaga chiqarish, sahnada tasvirlash usulini asosan Tomas Kid qo‘llar edi. Ana shu dramatik priyomlar Shekspir “Hamlet”ida ham borligini nazarda tutib, olimlar eski “Hamlet”ning muallifi Tomas Kid, degan, fikrga kelganlar. Yuqorida keltirilgan fikrlar asosida Shekspir o‘zining shox asari bo‘lgan “Hamlet”da ham o‘zigacha bo‘lgan p’esaning qasos olishga karatilgan syujet liniyasini boshqa asarlardagi kabi o‘zgartirmay olgan, lekin uni chuqur falsafiy mazmun bilan boyitgan.

“Hamlet”ning yaratilgan va sahnalashtirilgan yili noma’lum. Ingliz olimi (E. K. Chembers) [5, B.385] turli arxiv manbalariga ko‘ra, “Xamlet” 1600-1601 yillarda yaratilgan va sahnaga qo‘yilgan, degan fikrga kelgan va bu sana fan olamida qabul qilingan.

Tahlillar va natijalar. “Hamlet” Shekspir ijodida burilish ro‘y bergan davrning maxsuli, dramaturg nomini jahonga tanitgan tragediyalarning birinchisi va eng buyugi edi.

Ba’zi olimlar “Hamlet” voqeasi manbaini hayotdan izlash, analogik bo‘lgan hodisalar (isyonkor lord Esseks voqeasi) bilan muqoyasa qilishga, uni kundalik hayot bilan mazmun jihatdan bog‘lashga urinadilar. To‘g‘ri, Uyg‘onish davriniig jo‘sh urgan hayotida zaharlash, o‘ldirish, qilichbozlik, “Hamlet”gina emas, xronikalar, “Makbet”, “Otello” kabi tragediyalar voqealari kundalik hayotda bo‘lib turar edi [6]. Shu nuqtai nazardan qaraganimizda Shekspir “Hamlet”i “tipik sharoitdagi tipik xarakterlar”ni tasvirlovchi hayotiy asardir. Ammo masala faqat tipik sharoitdagi tipik qahramonlarni tasvirlashdagnna emas. Agar faqat shunday bo‘lsa “Hamlet” jahon adabiy merosi xazinasida shu kunda tutgan o‘rnini egallay olmagan bo‘lur edi. [7, B.122] “Hamlet” na island sagasi, na Esseks voqeasi va na boshqa kundalik voqeani tasvirlovchi asargina bo‘lib qolmay, jamiyat hayotining murakkab ijtimoiy-siyosiy ziddiyatlarini falsafiy-etik masalalar sifatida ifodalovchi asardir. Tragediyada tasvirlangan O‘rta asr Daniyasi shartli, simvolik ma’noga ega bo‘lib, Daniya orqali butun Angliya, qirol saroyi, ingliz aristokratiyasi tasvirlanadi. Dramaturg o‘z davri ruhini chuqur anglab yetgan va uni san’at vositalari orqali ifodalay olgan. Shekspir o‘z zamonasi oldinga surgan masalalar [8, B.99] voqea va xarakterlarni yuksak ijtimoiy-falsafiy umumlashtirishlar darajasiga ko‘tardi, kichik davlatda bo‘lib o‘tgan shaxsiy masala orqali Renessansning so‘nggi davrlarida Yevropa mamlakatlarining hammasida ro‘y

berayotgan ijtimoiy-siyosiy krizis, umumjahon tarixiy ahamiyatiga ega bo‘lgan ziddiyatlar, asrlar davom etgan ijtimoiy-iktisodiy formasiyalar almashishi prosessini ifoda ettirgan. Albatta, tragediyaning mazmuni to‘g‘ridan-to‘g‘ri bu prosessni tasvirlamaydi, ammo personajlarning psixologiyasi, fikr-tuyg‘ulari, xatti-harakatlarida chuqur ma’no bor, p’esada ana shu ulkan o‘zgarishlarning kishilar ongiga qanday ta’sir etayotganligi badiiy vositalar orqali aks ettirilgant Hamlet uchun masala qirolning qatl etilishi, o‘ch olishda emas, balki nima uchun shunday bo‘ldi, insonning burchi, yashashning ma'nosi nimadan iborat ekanligini anglab yetishda. Shekspir “Hamlet”i shoh asar deb tanilishining sababi unda jamiyatiing eng katta problemalari – tarix, davlat, siyosat, falsafa, axloq, odob, estetika, din masalalarini qamrab, bularning hammasini san'at tili bilan insonning ruhiy kechinmalari orqali berilishidadir.

Dunyo adabiyoti tarixida hali hech qaysi asar haqida shunchalik ko‘p va shunchalik qarama-qarshi tadqiqot yaratilgan emas (1877-1935-yillar orasida ikki mingdan ortiq kitob va makrlalar yozilgan) [9, B.38]. Turli maslak, falsafiy oqim, din mazhablari vakillari “Hamlet”ni o‘z dunyoqarashi nuqtai nazaridan talqin qilganlar; p'esa haqidagi minglab asarlar shunchalik qarama-qarshiki, ular orasida biri ikkinchisiga o‘xshagan bironta ham asar topib bo‘lmaydi [10, B. 99]. XVII-XX asrlardagi ijtimoiy-siyosiy va estetik tafakkur qarama-qarshi oqimlarining kurashi “Hamlet” haqida yaratilgan ilmiy-tanqidiy asarlarda o‘z aksini topgan. Har qaysi davr vakillari “Hamlet” masalasini yangicha, ko‘pincha tarixiylikka zid holda, ba’zilari esa faqat tragediya yaratilgan, davr voqealaridan kelib chiqib, talqin etganlar.

“Hamlet”da shunday xususiyatlar borki, ularni faqat Shekspir zamondoshlarigina tushunishlari, qadrlashlari mumkin edi. Ammo asarning boshqa tomonlarini faqat keyingi davr vakillari, bizning davrimiz kishilarigina anglab yetishlari mumkin. Shuning uchun bu tragediya 375 yildan beri kishilarni hayajonga solib kelmoqda. Shu o‘rinda qayd etib o‘tish zarurki, turli-tuman qarama-qarshi fikrlar, qarashlar asosan bosh qahramon xarakteri, ayniqsa, undagi sustlik masalasi ustida yuritilgan.

Xulosalar. Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, tanqidchi va tadqiqotchilarning diqqatini “Hamlet”ning mazmuni, g‘oyasi jalb etib, asarning dramatik kompozisiyasi, mahorati va umuman badiiyligi masalasi nazardan chetda qolib keladi. Vaholonki, tragediya yuksak badiiylikka ega bo‘lmasa, hozirgi tutgan o‘rnini hech egallamagan bo‘lur edi. “Hamlet” o‘tkir dramatik voqeali, qiziqtiruvchi p’esadir. Dramatik kompozisiya asosida Daniya shahzodasining taqdiri yotadi. Voqeaning rivoji Hamlet ahvoli va xayolida o‘zgarishlar ro‘y berishi bilan bog‘liq va tragediya oxirigacha p'esa boshida tomoshabinda paydo bo‘lgan diqqat kamaymaydi. Qahramonning xatti-harakatlari, boshqa personajlar bilan bo‘lgan munosabatlarining murakkablashishi, uning taqdiriga bo‘lgan qiziqish tomoshabin diqqatini yanada orttiradi.

Iqtiboslar/Сноски/References

1. J. Dover Wilson. What happens in Hamlet, Cambridge, 1937, p. 120.
2. Clutton Brock. Shakespeare’s “Hamlet”, Methuen, L, 1922, p. 11.

3. N.Chukovskiy. Desyataya muza, “Literaturnaya gazeta”, 16 dekabr, 1961.
4. G.V. Plexanov, Iskustvo i lituratura, Goslitiadat, M., 1984, str. 385.
5. Abdulla Kaxhar. Zaboti desyatoy mo‘zi, “Literaturnaya gazeta”, 1962, 17 may
6. Jems Grinvud. Jumur kiyimli bola, “Yosh gvardiya” nashriyoti, Toshkent, 1961.
7. Аввалги асрларда олимларнииг драматург “Ҳамлет”ни ёзишда шу таржимадан фойдаланган, деган фикрларини сўнгги текширишлар тасдиқламади. Қаранг.: J.Dover Wilson. Wat happens in Hamlet. Cambridge, 1937. p.122.
8. A. W. P e 1 1 a r d. Shakespeare’s fight with the pirates. Cambridge, 1937, p. 99
9. A. J. A. Wa ldock. Hamlet. A Study in Critical Method, London, 1935. P.38
10. A. W. P e 1 1 a r d. Shakespeare’s fight with the pirates. Cambridge, 1937, p. 99

Baltayeva Z.Sh.,
Qoraqalpoq davlat universiteti
E-mail: zamibaltayeva@gmail.com

ERKIN VOHIDOVNING FOLKLOR NAMUNALARIDAN FOYDALANISH MAHORATI

Annotatsiya. E.Vohidov she'riyati surati bilan ham, siyrati bilan ham xalq yuragidan joy oldi. Sababi shoir so'zning inju durlarni dengizdan olib, qayta ishlab har bir she'r qatmiga singdirib o'zimizga tuhfa etgan insondir. Har bir she'riga qalb qo'rini ham, borini ham berishga tayyor ijodkordir. Shu bois she'rlarini xalq tiliga yaqinlashtirib xalqdan olib, xalqqa berishga intildi va buning uddasidan chiqdi ham. E.Vohidov ijodida folklor janri hisoblangan maqollardan mohirona foydalanishi shoir she'rlarining xalqchilligini ta'minlashga xizmat qildi, natijada, she'rlar zamiriga singdirilgan hikmatlar, ya'ni maqollar kitobxon uchun tarbiya manbai bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: folklor, maqol, matal, xalqchillik, falsafiy mazmun, shoir uslubi, milliy qadriyat.

Балтаева З.Ш.,
Каракалпакский государственный университет
Электронная почта: zamibaltayeva@gmail.com

Аннотация. Поэзия Э.Вахидова заняла место в сердцах людей как его картинами, так и его стихами. Причина в том, что поэт – это человек, который взял из моря жемчужины слов, переработал их, впитал в каждый пласт поэзии и передал нам. Он готовый художник, который вкладывает всю свою душу в каждое стихотворение. Поэтому он старался взять свои стихи у народа и донести их до народа, приблизившись к языку народа, и ему это удалось. В творчестве Э. Вахидова умелый отход от пословиц, считающихся фольклорным жанром, послужил обеспечению народного характера стихов поэта, в результате чего пословицы, заложенные в основу стихотворений, служат источником образование для читателя.

Ключевые слова: фольклор, пословица, пословица, национализм, философское содержание, стиль поэта, национальная ценность.

Baltayeva Z.Sh.,
Karakalpak State University
E-mail: zamibaltayeva@gmail.com

Annotation. E.Vohidov's poetry has taken a place in the hearts of the people both with its imagery and with its biography. The reason is that the poet is a person who took

the pearls of the word from the sea, reworked them, and embedded them in the layers of each poem, giving them to us. He is a ready-made creator who puts his heart and soul into each poem. Therefore, he sought to bring his poems closer to the folk language, taking them from the people and bringing them to the people, and he succeeded in doing so. The skillful journey through proverbs, which are considered a folklore genre in E.Vohidov's work, served to ensure the folkness of the poet's poems, as a result, the wisdom embedded in the core of the poems, that is, proverbs, serve as a source of education for the reader.

Keywords: folklore, proverb, parable, folklorism, philosophical content, poetic style, national value.

Dunyo xalqlarining har biri o‘ziga xos madaniyatga, urf-odatlarga ega, chunki ularning dunyoqarashi, yashash tarzi ham bir-birinikidan farq qiladi. Lekin hamma zamonlarda ham yaxshi ish ulug‘langan bo‘lsa, yomon ish ma’qullanmagan albatta. Mardlik har yerda olqishlangan bo‘lsa, nomardlik har joyda qoralangan. Maqollar xalq donoligining yorqin namunasi sifatida avloddan avlodga o‘tib kelayotgan milliy merosimiz bo‘lib, asosan nutqning ta’sirchanligini ta’minlash maqsadida qo‘llanilib kelinadi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “....adabiyot, san’at va madaniyat yashasa, millat va xalq, butun insoniyat bezavol yashaydi” [1, B. 342]. Haqiqatan ham adabiyot barhayot ekan, xalq ijodi namunalari avloddan avlodga o‘tib barhayot yashaydi. Buni biz A.Navoiy, Z.M.Bobur, Mashrab, Nodira, Uvaysiy, Cho‘lpon, U.Nosir, G‘.G‘ulom, A.Oripov, E.Vohidov, M.Yusuf va boshqa shoir va yozuvchilar ijodi misolida ko‘rishimiz mumkin. Maqol va matallar, afsona va rivoyatlar, lof, askiya va ko‘plagan janrlar yozuvchi va adiblarimiz asrlari g‘oyalariga singdirilganligining guvohimiz. Bular orqali zamon uchun, ijtimoiy muhit uchun xos bo‘lgan xulosalar chiqarilgan. Bu xulosalar, albatta, katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lib kitobxonlarini to‘g‘ri yo‘lga boshlash uchun xizmat qilgan.

O‘zbekiston Qahramoni, xalqimizning sevimli shoiri Erkin Vohidov ijodida ham ma’naviy qadriyatlarning bir qismi sanalgan xalq ijodiyoti namunalaridan foydalanib, betakror asarlar yaratilgani hammamizga ma’lum. Uning ijodiyoti serjilo she’rlarining rang-barangligi, falsafiy mushohadalari, hajv va yumorga yo‘g‘rilgan asarlari, xalqona ohang hamda ohorli tashbehlarga boyligi bilan ajralib turadi.

E.Vohidov o‘z ijodiyoti davomida ertak, afsona, rivoyatlardan ta’sirlanib yozgan asarlari anchaginani tashkil etadi. Shoir xalq maqollari va matallaridan mohirona foydalanib teran falsafiy mazmunga ega she’rlar yaratganining guvohi bo‘lamiz. Bu o‘ziga xoslik shoir uslubining bir qirrasiga aylana olgan:

Oyning yarmi yorug‘, yarmi zimiston,
Qurigan bog‘ bir kun, bo‘ladi bo‘ston,
Dardingiz hammaga, qilmay dasturxon,
Bir gapni qaytaring, qaytaring do‘stim,
Hammasi yaxshilik, yaxshilikkadu! [2,B.77]

Xalqimizga xos bo‘lgan “oyning o‘n beshi yorug‘ bo‘lsa, o‘n beshi qorong‘u” maqolini qo‘llagan holda kitobxonni sabr toqatli bo‘lishga, qorong‘ulik ortidan serquyosh tong otishiga ishonishga chorlaydi. Ertangi kunga umid bilan qarashga, hatto qurib qolgan bog‘ ham ertaga bo‘stonga aylanishi mumkinligiga ishontiradi. Har narsadan yaxshilik izlab, umid bilan yashash lozimligini ta’kidlaydi.

“Xalqimizning bir necha ming yillik maqol va matallaridan, hazrat Alisher Navoiy “Xamsa”sidan bizga ma’lumki, insonning nainki “ko‘ngli poku ham ko‘zi pok”, balki “tili poku so‘zi poku o‘zi pok” bo‘lishi uning fazilati ulug‘ ekanidan dalolat beradi. Erkin Vohidov ana shu haqiqatni bugungi zamon o‘quvchisiga mos tarzda, o‘ziga xos talqin etadi [3,B.49]”, deydi professor N.Jabborov. Haqiqatan ham shoir xalq maqollaridan unumli foydalanib, ulardan ba’zi she’rlarida asl holicha, ba’zan she’r mazmuniga singdirib yuborgan. Masalan: “Yo‘q emish orzuda ayb ” deb nomlangan g‘azalida

Sen-ku Zuhrosan falakda,
Intizoringman faqat,
Ne ajab, talpinsa ko‘nglim,
Yo‘q emish orzuda ayb

deya maqol orqali orzu qilish ayb emas, balki inson hamisha oldga qarab intilishi lozimligini aytib o‘tadi. Ko‘rib turganimizdek, shoir “Orzuga ayb yo‘q” maqolini she’r talabi bilan o‘zgartirgan. Bu holat esa g‘azalning musiqiyligini oshirganligini ko‘rishimiz mumkin.

Umrini oshiq hamisha
O‘tkazur orzu bilan.
Oyning o‘n beshi qorong‘u,
O‘n beshi yog‘du bilan.

She’riyatda maqollarning qo‘llanishi she’rning ta’sirchanligini oshirish bilan birga asarning xalqchilligini ham oshiradi. Shoir xalq maqollari va matallaridan mahorat bilan foydalanib, she’rlarida falsafiy fikrlar xulosasini umumlashtiradi. Shoir “Yaxshidir achchiq haqiqat” she’rida xalq maqollaridan unumli foydalanib, she’rda tarbiyaviy ahamiyatga urg‘u berib jamiyatdagi insonlarni xushyorlikka chaqiradi. Sababi shirin yolg‘ondan ko‘ra achchiq haqiqatni bilib, har bir ishga vijdonan yondashish bu insoniylik burchi ekanligini she’r mazmuniga singdiradi. Shu bois ham shoir “boshinga qilich kelsa ham rostini ayt” deya xitob qiladi.

Yaxshidir achchiq haqiqat,
Lek *shirin yolg‘on yomon.*
Ul shirin yolg‘onga mendek
Aldanib qolg‘on yomon.
Gar qilich kelsa boshingga,

Qo‘rqma, Erkin, rostni ayt,
Yaxshidir achchiq haqiqat,
Lek shirin yolg‘on yomon.

Ko‘rib turganimizdek shoir ijodida maqollardan serunum foydalanib, yanada chuqurroq falasafa chiqargan. Xalq anglagan haqiqatlarni she’rlariga jo qilib, uning ma’nosini, badiiyatini kuchaytirgan. Bu o‘ziga xoslik shoir uslubining serqirraligidan dalolat beradi:

Men ko‘ngil ko‘yiga kirsam,
Bilmayin bossam tikan,
Tush bilib ta’bir etingkim,
O‘ngda bir gulshan topay.
Ayri til birlan riyo
Bersa menga yuz yaxshi do‘st.
Do‘st kerakmas, to‘g‘ri so‘zlab
Bir halol dushman topay

“Bilmayin bosdim tikanni, tortadirman jabrini” xalq maqolini qo‘llab turib, shoir she’rxonda ko‘tarinki kayfiyat uyg‘otadi, tikanning gulshanga aylanishini istaydi. Munofiqlik,ikkiyuzlamachilik orqali topilgan yuzta do‘stdan ko‘ra, bitta halol dushmanni afzal biladi. Xalqimiz bilmay bosilgan tikan jonni qanchalar og‘ritishini anglatish orqali insonni ko‘p balolardan ogohlantirganki, shoir shu panddan chiroyli tarzda o‘z maqsadi yo‘lida foydalangan.

Akademik shoirimiz G‘afur G‘ulom o‘zining “Folklordan o‘rganaylik” maqolasida Alisher Navoiy ijodida folklorning o‘rni haqida fikr yurita turib: “U o‘z sujetlarini xalqdan olgani kabi, ikkinchi navbatda xalq uchun sujet beradi”[4,B.75.], deb aytgan edi. Shoir she’riyati ham surati bilan ham, siyrati bilan ham xalq yuragida muhabbat paydo qila oldi. She’rlarida xalqdan olganlarini so‘z jilosi ila jilvalantirib xalqqa qaytaradi.

Jahon kengdir, falak kengdir, Yurak kengdir, chi sen borsan
Seningsiz ikki dunyo tor, Seningdirman, seningdirman.

Ixcham shakl, teran mazmunga ega bo‘lagan, xalqimiz orasida keng qo‘llaniladigan “kengga keng dunyo, torga tor dunyo” maqolini shoir “Seningdirman, Vatan” she’ri mazmuniga singdirgan. So‘z benihoya qudratli qurol. Uni o‘z o‘rnida mahorat ila ishlata bilish uchun farosat, malaka va ziyraklik zarur. O‘z o‘rnida ishlatilgan har bir so‘z oltinga tengdir.

She’riy asarlar tilida maqollar obraz chizishda qulay vositadir, ular badiiy nutqda alohida qiymatga molik [5, B.47]. Shoir ijodida maqol va matallar she’r mazmuni va shaklidan kelib chiqqan holatda qo‘llanilgan. Xulosa o‘rnida aytish mumkinki shoir ijodiyotida qollanilgan maqollar mazmunan boyitilgan holda hissiy ta’siri oshirilib kitobxonga yetkazilgan. Maqollarni qo‘llash orqali lirik xarakterlarning fikrlash va his qilishlarida , poetik tilning ijtimoiy, badiiy falsafiy,axloqiy ma’no asoslarida, tasvir

bo‘yoqdorligida, serqatlam va serqirra mazmundorligiga erishilgan. Zero, shoir badiiy estetik tafakkur tabiatida shakllangan milliylikning o‘ziga xos xususiyatlarini shu yo‘l bilan tasvirlab bergan.

Shoir ijodida milliy qadriyatlar va ma’naviy-axloqiy muammolar o‘zining ishonarli tasvirini topgan. O‘zbekka xos bag‘rikenglik, mehmondo‘stlik, o‘zaro hurmat, milliy an’analarning qadrlanishi, xalq og‘zaki ijodi namunalarudagi ayrim maqollar she’r mazmuniga singdirilishi badiiy tasvirga milliy ruh bag‘ishlagan. Sodda, mehribon, samimiy millat kishisining beg‘ubor turmush tarzi rang-barang bo‘yoqlarda tasvirlanadiki, millatning o‘ziga xos jihatlarini ham oydinlashtirib beradi. Shuningdek, shoir ijodi bugungi kun milliy qahramonining o‘ziga xos xarakteri va har bir insonning sirli, inja qalb dunyosiga turli jihatlardan nazar tashlanib ishonarli ifoda qilingan.

Iqtiboslar/Сноски/References

1. Мирзиёев Ш. Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. Т.: “Ўзбекистон”. 2019. 342-б.

2. E.Vohidov. O‘zbegim. –Toshkent, 2017. –B.77

3. N.Jabborov. E.Vohidov she’riyatida milliy ruhiyat tasviri. E.Vohidov ijodining m’naviy hayotimizdagi o‘rni va ahamiyati, mavzusidagi Respublika ilmiy anjuman materiallari. – Toshkent, 2017. –B. 49.

4. Ғафур Ғулом. Мукаммал асарлар тўплами. 11-том. –Тошкент, 1989. – Б. 75.

5. Yo‘ldoshev M. Cho‘lpon so‘zining sirlari. – Toshkent: «Ma’naviyat», 2002, – B.47.

Buranova Madina Uktamovna
PhD of the department of "English Language"
Samarkand State Institute of Foreign Languages
Uzbekistan, Samarkand
email: madinaburanova82@gmail.com

ENHANCING STUDENT ENGAGEMENT TROUGH TRADITIONAL AND DIGITAL TOOLS IN THE EDUCATIONAL PROCESS

Annotation. This article examines the effectiveness of traditional and digital tools in enhancing student engagement in educational settings. It explores how traditional methods, such as printed materials and face-to-face activities, foster interpersonal connections and focus, while digital tools like interactive apps and online platforms offer personalized learning and accessibility. The study highlights the benefits and challenges of both approaches, emphasizing the importance of a balanced integration to address diverse learning needs. By analyzing recent research and case studies, the article provides actionable strategies for educators to optimize engagement and learning outcomes using a combination of traditional and digital tools.

Keywords: student engagement, traditional tools, digital tools, blended learning, gamification, educational technology, interactive learning, cognitive retention, real-time feedback, learning preferences.

Буранова Мадина Уктамовна
PhD., и.о. доцента кафедры
"Английского языка"
Самаркандский Государственный
Институт Иностранных Языков
Узбекистан, Самарканд
E-mail: madinaburanova82@gmail.com

СПОСОБЫ ПОВЫШЕНИЯ ВОВЛЕЧЕННОСТИ СТУДЕНТОВ С ПОМОЩЬЮ ТРАДИЦИОННЫХ И ЦИФРОВЫХ ИНСТРУМЕНТОВ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ

Аннотация. В этой статье рассматривается эффективность традиционных и цифровых инструментов в повышении вовлеченности студентов в образовательную среду. В работе анализируются, как традиционные методы, а именно печатные материалы и очные занятия, которые способствуют межличностным связям и концентрации внимания, так и цифровые инструменты, включая интерактивные приложения и онлайн-платформы, обеспечивающие персонализированное обучение и доступность. Исследование подчеркивает преимущества и проблемы обоих подходов,

акцентируя внимание на важности их сбалансированной интеграции для удовлетворения различных образовательных потребностей в обучении. Анализируя актуальные исследования и примеры из практики, статья предлагает практические стратегии для педагогов, направленные на повышение вовлеченности и улучшение образовательных результатов с использованием как традиционных, так и цифровых инструментов.

Ключевые слова: вовлеченность студентов, традиционные инструменты, цифровые инструменты, смешанное обучение, геймификация, образовательные технологии, интерактивное обучение, когнитивное запоминание, обратная связь в реальном времени, предпочтения в обучении.

Buranova Madina Uktamovna
PhD., "Ingliz tili kafedrasi" v.v.b dotsenti
Samarqand davlat chet tillar instituti
O'zbekiston, Samarqand
E-mail: madinaburanova82@gmail.com

TA'LIM MUHITIDA TALABALAR ISHTIROKINI OSHIRISH UCHUN AN'ANAVIY VA RAQAMLI VOSITALARDAN FOYDALANISH

Annotatsiya. Ushbu maqolada talabalarning ta'lim muhitiga jalb qilishda an'anaviy va raqamli vositalarning samaradorligi tahlil qilinadi. Ishda an'anaviy usullar, ya'ni, o'zaro aloqa va e'tiborni jamlashga yordam beruvchi bosma materiallar va yuzma-yuz mashg'ulotlar, shuningdek, shaxsiylashtirilgan o'qish va qulaylikni ta'minlovchi interaktiv ilovalar hamda onlayn platformalar kabi raqamli vositalar qanday ishlashini o'rganish amalga oshirilgan. Tadqiqot ikkala yondashuvning afzalliklari va muammolarini ta'kidlaydi, o'qituvchilarning turli ta'lim ehtiyojlarini qondirish uchun ularning muvozanatli integratsiyasining muhimligini urg'ulaydi. Ayni paytda, amaliy tadqiqotlar va misollarni tahlil qilish orqali maqola o'qituvchilarga an'anaviy va raqamli vositalardan foydalanish orqali jalb qilishni oshirish va ta'lim natijalarini yaxshilashga qaratilgan amaliy strategiyalarni taklif etadi.

Kalit so'zlar: talabalar ishtiroki, an'anaviy vositalar, raqamli vositalar, aralash o'qish, gamifikatsiya, ta'lim texnologiyalari, interaktiv o'qish, kognitiv eslab qolish, real vaqtda fikr-mulohaza, o'qish afzalliklari.

Introduction

Student engagement is a critical component of effective learning, and the tools educators use play a significant role in fostering this engagement. This paper examines the advantages and challenges of traditional and digital tools, comparing their effectiveness in enhancing student engagement. It concludes with recommendations for integrating both approaches to create a balanced, interactive, and inclusive learning environment.

The role of tools in education has evolved significantly over the years. Research into traditional and digital tools highlights their impact on learning outcomes and student engagement. While traditional tools have long been a staple of education, the emergence of digital tools has redefined teaching practices. Scholars have debated the effectiveness of each approach, emphasizing the importance of matching tools to learning objectives and student needs.

Student engagement is essential for academic success and long-term retention of knowledge. As classrooms evolve, educators are increasingly exploring tools to enhance this engagement. Traditional tools, such as textbooks and flashcards, have long been used for their simplicity and accessibility. However, digital tools like educational apps and interactive whiteboards are rapidly gaining popularity for their interactivity and customization options.

This paper explores the effectiveness of these tools in engaging students and evaluates their advantages and challenges. The central question is: Which approach—traditional tools or digital tools—better enhances student engagement?

Method

Traditional tools have been the cornerstone of education for centuries. Research highlights their role in building foundational skills and minimizing distractions [Brown, 2018]. Conversely, digital tools, driven by technological advancements, have transformed the learning experience by introducing gamification, multimedia content, and real-time feedback [Smith et al., 2021].

Traditional tools require no technological infrastructure, making them accessible in resource-constrained settings. According to Brown (2018), these tools are especially valuable in areas with limited digital access, ensuring that all students can participate equally.

However, the comparison between the two approaches remains a subject of debate.

1. Flashcards for Vocabulary: In a language classroom, students use flashcards to practice vocabulary. They physically flip the cards, which engages tactile learners and enhances memory retention through repetition.

2. Handwritten Notes: A study on note-taking found that students who write notes by hand tend to retain information better because the process involves deeper cognitive processing [Mueller & Oppenheimer, 2014].

There are some advantages of traditional tools. Traditional tools offer simplicity and reliability. They do not rely on technology, making them accessible in resource-constrained settings. For example, handwritten notes improve memory retention and cognitive engagement compared to typing [Mueller & Oppenheimer, 2014]. Additionally, the tactile experience of using flashcards or physical textbooks fosters focus and minimizes distractions.

Studies show that traditional tools, such as handwritten notes, enhance memory retention and critical thinking. Mueller and Oppenheimer found that students who write notes by hand process information more deeply, as they must paraphrase and summarize

rather than transcribe verbatim. Unlike digital devices, traditional tools reduce the likelihood of multitasking and distractions. Ophir et al. (2019) highlight how digital multitasking can impede focus and comprehension, making traditional methods a safer choice in some contexts.

While there are several benefits of traditional tools, it also has challenges.

Despite their benefits, traditional tools may lack the interactivity that today's tech-savvy students expect. They are also less effective in addressing diverse learning preferences, such as visual or auditory learning styles [Johnson & Scholes, 2019].

Digital tools introduce interactivity and adaptability, which are particularly effective for modern learners. Gamified learning platforms like Kahoot and Quizlet make lessons engaging and competitive, boosting motivation [Wang, 2015]. Moreover, digital tools allow real-time feedback and personalized learning, enabling educators to cater to individual student needs [Alvarez, 2020]. Let's look through the examples:

1. Quizlet: This platform allows students to create digital flashcards and practice through games and quizzes, providing immediate feedback and making learning more engaging.

2. Kahoot: A gamified quiz platform where students compete in real-time, boosting motivation and participation during lessons [Wang, 2015].

Challenges of Digital Tools

While digital tools are innovative, they are not without challenges. Students can become distracted by non-educational content or overwhelmed by excessive screen time [Ophir et al., 2019]. Additionally, disparities in access to technology and internet connectivity create inequities in learning opportunities.

Technology allows for adaptive learning, where tools adjust content to suit individual student needs. [Smith et al.,2021] found that digital tools like Duolingo improve engagement by tailoring exercises to the user's proficiency level.

Result

Digital tools provide access to a wealth of global resources. For example, online simulations and virtual labs enrich STEM education by offering experiences that traditional tools cannot replicate [Alvarez, 2020].

In a comparative study, two classrooms were observed—one using traditional flashcards and another employing Quizlet for vocabulary learning. Results showed that while both groups improved, the Quizlet group demonstrated higher engagement and motivation, attributed to the gamified elements [Lee & Kim, 2021]. However, the traditional group exhibited better long-term retention due to repeated tactile practice.

Research comparing traditional and digital tools often reveals complementary strengths. In a study by Lee and Kim (2021), students using Quizlet for vocabulary learning showed higher short-term engagement compared to those using flashcards. However, the flashcard group demonstrated better long-term retention, emphasizing the need for balance.

Johnson and Scholes (2019) highlight how students' learning preferences influence tool effectiveness. Visual learners, for example, may benefit more from multimedia content

in digital tools, while kinesthetic learners may prefer tactile experiences offered by traditional methods.

Discussion

The findings suggest that both traditional and digital tools have situational effectiveness. Traditional tools are more suitable for fostering focus and memory retention, particularly in resource-limited environments. Digital tools excel in interactive and adaptive learning but require careful management to avoid distractions.

A blended approach that integrates the strengths of both can maximize student engagement. For example, educators can use textbooks for foundational knowledge and complement them with digital tools for review and reinforcement.

Blended Approach

Blended learning combines traditional and digital tools to maximize engagement. For example, Alvarez (2020) describes a classroom using printed textbooks alongside augmented reality (AR) apps to visualize complex topics, effectively merging old and new methods

1. Textbooks with AR (Augmented Reality): Using traditional textbooks alongside an app that overlays interactive AR content to illustrate concepts visually.

2. Class Discussion with Digital Polling Tools: Starting a lesson with a question discussed using physical materials and then using tools like Poll Everywhere to gather student responses digitally.

Conclusion

The debate between traditional and digital tools in education highlights the unique advantages and limitations of each approach. Traditional tools excel in fostering focus, long-term memory retention, and accessibility, particularly in resource-limited environments. On the other hand, digital tools offer interactivity, personalization, and access to global resources, making them highly effective for engaging tech-savvy students.

However, neither approach is universally superior. The literature suggests that the most effective strategy lies in a blended approach that integrates the strengths of both methods. For instance, traditional tools can be used to build foundational knowledge and minimize distractions, while digital tools can enhance engagement through gamification and interactive elements. This combination ensures that diverse learning preferences are met, creating a more inclusive and dynamic learning environment.

Future research should focus on practical frameworks for implementing blended learning and explore its long-term impact on student engagement and achievement. By thoughtfully integrating traditional and digital tools, educators can maximize student engagement and adapt to the evolving needs of modern classrooms.

Although much research exists on the benefits of both tool types, there is limited exploration of their integration. Few studies address how teachers can effectively balance traditional and digital methods to cater to diverse student populations. Additionally, more

longitudinal studies are needed to assess the long-term impact of digital tools on cognitive development and retention.

In conclusion, neither traditional nor digital tools alone can fully address the diverse needs of modern classrooms. Combining both approaches can create a balanced learning environment that enhances engagement. Educators should prioritize accessibility, align tools with learning objectives, and provide training to ensure effective implementation.

Iqtiboslar/Сноски/References

1. Alvarez, C. Digital tools in education: A critical review. Journal of Educational Technology, 2020, 25(3), 45-60.

2. Brown, L. Traditional teaching methods: Relevance in a digital age. Education Today, 2018, 34(2), 10-15.

3. Buranova M.U. English in the era of digital literacy. International scientific journal “Interpretation and researches”, Volume 2 issue 17 (39) | ISSN: 2181-4163 | Impact Factor: 8.2, 2024

4. Johnson, P., & Scholes, M. Learning preferences and the role of traditional tools. International Journal of Educational Studies, 2019, 18(4), 67-85.

5. Lee, H., & Kim, J.Comparative analysis of traditional and digital learning tools in vocabulary acquisition. Language Learning Journal, 2021,15(1), 23-39.

6. Mueller, P. A., & Oppenheimer, D. M. The pen is mightier than the keyboard: Advantages of longhand over laptop note-taking. Psychological Science, 2014, 25(6), 1159–1168.

7. Ophir, E., Nass, C., & Wagner, A. D. Cognitive control in media multitaskers. Proceedings of the National Academy of Sciences, 2019, 106(37), 15583–15587.

8. Smith, R., Johnson, T., & Davis, L. Gamification and student engagement: A case study. Educational Innovations, 2021, 30(5), 12-21.

9. Wang, A. I. The use of Kahoot in classroom engagement. Computers in Human Behavior, 2015, 27(2), 15-21.

Doshanova Guljaxan Ismailovna
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, (PhD) dotsent.
Qoraqalpoq davlat universiteti
guljahandoshanova@gmail.com

SIROJIDDIN SAYYID DOSTONLARI HAQIDA

Annotatsiya. Ushbu maqolada Sirojiddin Sayyid dostonlarida liro-epik tasvirning o‘ziga xos xususiyatlari chuqur tahlil qilinadi. Yozuvchining ijodi o‘ziga xos lirik ruhiyat va epik ko‘lamni birlashtirgan holda, o‘zbek adabiyotida noyob badiiy yondashuvni shakllantirgan. Sayyidning dostonlarida milliy qadriyatlar va insoniy tuyg‘ular uyg‘un tarzda tasvirlanadi, bunda lirik qahramonlarning ichki dunyosi epik voqealar zanjiri bilan bog‘lanib, ularning his-tuyg‘ulari, maqsadlari va kurashlari teran tasvirlanadi.

Kalit so‘zlar: Sirojiddin Sayyid, liro-epik tasvir, dostonlar, milliy qadriyatlar, lirik qahramon, epik syujet, badiiy uslub, poetik uyg‘unlik, sevgi va kurash.

QQDU, Department of Uzbek Language and Literature,
Doctor of Philosophy in Philology (PhD) Doshanova G
guljahandoshanova@gmail.com

LYRICAL IMAGE IN THE EPICS SIROJIDDIN SAYYID

Annotation. This article provides an in-depth analysis of the unique characteristics of lyrical-epic imagery in the works of Sirojiddin Sayyid. The author’s creative works combine a distinct lyrical spirit with an epic scale, forming a unique literary approach within Uzbek literature. Sayyid's epics harmoniously depict national values and human emotions, where the inner world of lyrical heroes is intertwined with the sequence of epic events, portraying their feelings, goals, and struggles in a profound way.

Keywords: Sirojiddin Sayyid, lyrical-epic imagery, epics, national values, lyrical hero, epic plot, artistic style, poetic harmony, love and struggle.

КГУ имени Бердаха
д.ф.ф (PhD) доц. Дошанова Гулжахан
кафедры Узбекского языка и литературы
guljahandoshanova@gmail.com

О ЭПИЧЕСКИХ ПРОИЗВЕДЕНИЯХ СИРОЖИДДИНА САЙЙИДА

Аннотация. В данной статье проводится глубокий анализ уникальных особенностей лиро-эпического изображения в произведениях Сиржиддина Саййида. Творчество автора объединяет в себе выразительный лирический дух с эпическим

размахом, формируя уникальный литературный подход в узбекской литературе. В эпических произведениях Саййида гармонично отражаются национальные ценности и человеческие эмоции, где внутренняя жизнь лирических героев переплетается с цепью эпических событий, глубоко раскрывая их чувства, цели и борьбу.

Ключевые слова: Сироиддин Саййид, лиро-эпическое изображение, эпосы, национальные ценности, лирический герой, эпический сюжет, художественный стиль, поэтическая гармония, любовь и борьба.

KIRISH.

Sirojiddin Sayyid zamonaviy o‘zbek adabiyotining yorqin vakilidir. Uning ijodida milliy qadriyatlar va xalqning ma’naviy merosi liroepik tasvir orqali ta’sirli tarzda ifoda etiladi. Shoirning dostonlari lirik va epik unsurlar uyg‘unligi bilan ajralib turadi, bunda shaxsiy kechinmalar va ijtimoiy kurashlar bir-birini to‘ldiradi. S.Sayyid o‘z asarlarida milliy ruhni, xalqning orzu-intilishlarini, sevgi va sadoqat kabi mavzularni teran badiiy vositalar orqali tasvirlaydi.

Uning dostonlari o‘zbek xalqining milliy o‘zligini saqlab qolish, ma’naviy qadriyatlarini yuksaltirishga xizmat qilib, xalqning ichki dunyosini epik voqealar bilan uyg‘unlashtirish orqali boy adabiy meros yaratgan. Ushbu maqola Sirojiddin Sayyidning liro-epik tasvirdagi o‘ziga xos yondashuvini, uning adabiy-estetik ahamiyatini tahlil qilishga qaratilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR.

Sirojiddin Sayyidning dostonlari o‘zbek adabiyotida liro-epik tasvirning yorqin namunasi sifatida katta e’tiborga loyiqdir. Bu dostonlarda lirik va epik unsurlar o‘zaro uyg‘unlashib, xalqning ma’naviy hayotini, milliy qadriyatlarini va umumiy insoniy tuyg‘ularini badiiy ifodalashda muhim vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Shoirning lirik qahramonlari shaxsiy hissiyotlari va kechinmalarini epik voqealar fonida namoyon qilib, xalq hayotiga doir asosiy g‘oyalarni chuqur badiiy tahlil etadi. Aynan shu uyg‘unlik Sirojiddin Sayyid dostonlarini o‘ziga xos qiladi va o‘quvchiga kuchli ta’sir qiladi.

Dostonlarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, lirik va epik unsurlar Sayyid asarlarida bir-birini to‘ldiruvchi ikki asosiy qism sifatida mavjud. Epik syujetlar keng ko‘lamli voqealarni tasvirlab, xalqning umumiy hayoti, kurashlari va orzu-intilishlarini aks ettirsa, lirik qahramonlar o‘zlarining ichki dunyosi, his-tuyg‘ulari orqali epik voqealarning badiiy-estetik mazmunini chuqurlashtiradi. Bu lirik qahramonlarning ichki kechinmalari epik qahramonlarning kurashlari bilan bog‘liq holda ifodalanib, dostonlarning badiiy qimmati oshadi.

Sirojiddin Sayyidning dostonlarida lirik va epik uyg‘unlik orqali xalqning ijtimoiy hayotiga oid muhim masalalar yoritiladi. Masalan, sevgi, sadoqat, vafo kabi mavzular lirik obrazlar orqali ifodalanib, ularning epik tasvirlari xalqning ijtimoiy kurashlari, tarixiy voqealar va milliy qadriyatlari bilan chambarchas bog‘langan. Dostonlarda lirik qahramonlar, o‘zlarining shaxsiy kechinmalari orqali xalqning umidlari, baxt va adolatga bo‘lgan intilishlarini ifodalaydi. Bu intilishlar epik syujetlar orqali keng miqyosda

tasvirlanib, xalqning tarixiy va ijtimoiy hayotiga xos bo‘lgan muhim voqealar orqali ifodalanadi [1, B.124].

Sirojiddin Sayyidning liroepik dostonlarida lirik obrazlarning ichki kechinmalari ko‘pincha xalqning milliy qadriyatlari bilan bog‘liq bo‘lib, bu qadriyatlar o‘z navbatida epik voqealar orqali namoyon bo‘ladi. Masalan, xalqning ozodlikka, adolatga va baxt-saodatga bo‘lgan intilishlari, ijtimoiy tenglik va jamoaviy qadriyatlar dostonlarning asosiy mavzularidan birini tashkil qiladi. Lirik qahramonlar orqali ifodalangan sevgi va sadoqat epik syujetlar yordamida xalqning ijtimoiy hayotidagi muhim burilishlar, kurashlar va tarixiy voqealar bilan uyg‘unlashadi. Sirojiddin Sayyidning dostonlaridagi liro-epik tasvirning yana bir muhim jihati shundaki, u o‘zbek xalqining madaniy va tarixiy an’analarini zamonaviy voqealar bilan uyg‘unlashtirib, adabiy merosni boyitishga xizmat qilgan. Shoirning dostonlari xalqning madaniy merosi va milliy qadriyatlarini asrab-avaylash, ularni kelajak avlodlarga yetkazish g‘oyasini ilgari suradi. Bu dostonlarda epik voqealar orqali milliy qadriyatlar, xalqning tarixi, madaniyati va ma’naviyati ta’sirchan ifodalanadi. Shu bilan birga, lirik qahramonlarning shaxsiy kechinmalari, ularning sevgi, sadoqat va kurashlari bu umumiy epik tasvirni boyitib, dostonlarning badiiy-estetik qimmati oshiradi.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, Sirojiddin Sayyidning liro-epik dostonlari o‘zbek adabiyotida milliy va universal qadriyatlarni birlashtirgan noyob badiiy asarlar hisoblanadi. Shoirning ijodi xalqning ma’naviy merosini boyitish va milliy o‘zlikni saqlab qolishga qaratilgan bo‘lib, uning liro-epik tasvir usuli o‘zbek adabiyotida yangi badiiy yo‘nalish yaratgan.

Lirik va epik unsurlar uyg‘unligi, xalqning ijtimoiy hayoti, shaxsiy va jamoaviy qiziqishlar o‘rtasidagi to‘qnashuvlar, milliy qadriyatlar va shaxsiy kechinmalarning birlashuvi Sayyid dostonlarining asosiy badiiy xususiyatlari hisoblanadi [2, B. 78].

Tahlil va natijalarimizda Sirojiddin Sayyidning liro-epik dostonlarida ko‘tarilgan asosiy mavzular va tasvirlar bir-biri bilan bog‘langan holda, o‘zbek xalqining umumiy tarixiy, madaniy va ma’naviy rivojlanishidagi rolini yanada aniqroq ko‘rsatadi. Ularning ichki muammolari, orzu-intilishlari, va maqsadlari shoirning ijodida yuksak badiiy darajada tasvirlanadi. Bu esa, shubhasiz, o‘quvchilarni va keng ommani fikr va his-tuyg‘ularga chorlashda katta ahamiyatga ega.

Mavzular va Motiflar. S.Sayyidning dostonlarida odatda quyidagi asosiy mavzular va motivlar ko‘rinadi:

Sevgi va sadoqat: Shoirning asarlarida sevgi mavzusi o‘ziga xos ahamiyatga ega. Lirik qahramonlar o‘z sevgi tuyg‘ularini epik syujetlar orqali ifodalagan holda, hayotdagi sinovlar va qiyinchiliklar bilan yuzma-yuz kelishadi. Bu sevgi, sadoqat va insoniy munosabatlar doimo xalqning tarixiy va ijtimoiy hayoti bilan bog‘liqdir. [3, B.65]

Adolat va haq uchun kurash: Sayyidning dostonlarida odatda adolatga erishish, haq va haqiqatni himoya qilish kabi g‘oyalar ham muhim o‘rin tutadi. Lirik qahramonlar o‘z kelajagini va baxtini izlashda, adolat yo‘lida kurashishga tayyorligini ko‘rsatadi. Bu holat, shoirning xalqining ijtimoiy kurashlari va orzu-intilishlarini aks ettiradi.

Milliy qadriyatlar va madaniyat: Sayyid o‘z dostonlarida o‘zbek xalqining madaniy an’analarini, urf-odatlarini va tarixiy voqealarini jonlantirib, ularni badiiy obrazlar orqali keng targ‘ib etadi. Bu esa o‘zbek madaniyatining yuksak darajada saqlanishiga, avlodlarga yetkazilishiga xizmat qiladi.

Sirojiddin Sayyid dostonlarida tasvirlar va sifatlar o‘rtasidagi muvofiqlik va uyg‘unlik o‘quvchining diqqatini tortadi. U o‘z ijodida lirik tasvirlar va epik voqealarni bir butun sifatida namoyon etadi. Masalan, lirik qahramonlar, o‘zlarining ichki kechinmalari va his-tuyg‘ulari orqali voqealarning ahamiyatini ochib beradi. Bunda, shoir qahramonlarni ko‘rsatib, ularning haqiqiy his-tuyg‘ulari, shaxsiy kurashlari va ijtimoiy masalalarini badiiy til orqali keltirib o‘tadi [4, B. 197]. Muallif dostonlari, albatta, o‘ziga xos va o‘zbek adabiyotida muhim o‘rin tutadigan asarlardir. Ularning badiiy va estetik jihatlari, xalqning urf-odatlari va qadriyatlari, shuningdek, xalqning tarixiy xotirasi bilan bog‘liqdir. Sayyid ijodida liro-epik tasvirlarning uyg‘unligi nafaqat dostonlarning badiiy mazmunini boyitadi, balki o‘quvchiga chuqur hissiy ta’sir ko‘rsatadi [5, B.63].

Sirojiddin Sayyid dostonlarining ta’siri ko‘plab mualliflar va tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan. Ular, albatta, adabiyotimizda zamonaviy ko‘rinishlarni, yangi badiiy talqinlarni taqdim etgan. Sayyid ijodining hozirgi kunga qadar ahamiyati shundaki, u o‘zbek adabiyotida milliy va umuminsoniy qadriyatlar o‘rtasidagi muvozanatni saqlab qolishga yordam berib, bu qadriyatlarni zamonaviy o‘quvchilarga taqdim etadi.

Natijaviy takliflar.

Ushbu tahlil natijasida, Sirojiddin Sayyid dostonlarida liro-epik tasvirlarning ahamiyati o‘zbek adabiyotining rivojlanishida muhim o‘rin tutishini ko‘rsatdi. Shu bilan birga, kelajakda shoirning ijodini yanada chuqur o‘rganish, dostonlardagi lirik va epik unsurlarni kengroq tahlil qilish, shuningdek, ularni zamonaviy talqinlarda ko‘rsatish muhimdir. O‘quvchilar va talabalar uchun bunday asarlarni o‘rganish, xalqning madaniy merosini saqlab qolish va ularga yangicha yondashish imkonini beradi. Shuningdek, adabiyotshunoslar, professor-o‘qituvchilar va talabalar Sirojiddin Sayyidning ijodini yanada kengroq tahlil qilib, o‘zbek adabiyotining boyligiga hissa qo‘shishlari mumkin. Sayyid ijodi xalqning orzu-intilishlari va ma’naviy hayoti bilan bog‘liq bo‘lgan holda, adabiyotimizning eng yaxshi an’analarini davom ettirish va rivojlantirishga xizmat qiladi.

XULOSA.

Sirojiddin Sayyid dostonlari o‘zbek adabiyotida o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Shoirning ijodida lirik va epik unsurlar o‘zaro uyg‘unlashib, xalqning ma’naviy qadriyatlari, orzu-intilishlari va tarixiy voqealarini chuqur badiiy ifoda etadi. Sayyidning dostonlarida sevgi, sadoqat, adolat va milliy qadriyatlar kabi asosiy mavzular keng ko‘lamda yoritilgan bo‘lib, lirik qahramonlar orqali insonning ichki dunyosi va ijtimoiy hayoti tasvirlanadi.

Sayyidning ijodiy yondashuvi o‘zbek xalqining tarixiy merosini saqlash va rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, uning asarlari milliy va universal qadriyatlarni birlashtiradi. Dostonlarining badiiy va estetik jihatlari, xalqning ijtimoiy hayoti bilan bog‘liq muammolarni badiiy ifodalashda muhim ahamiyatga ega. Shu sababli, Sirojiddin Sayyid

dostonlari o‘zbek adabiyotida yuksak mavqega ega bo‘lib, zamonaviy o‘quvchilarga xalqning ma’naviy merosini yetkazishda davom etadi.

Iqtiboslar/Сноски/References

1. Sayyid, S. (1987). O‘zbek adabiyoti tarixi. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi.

2. Rahimov, A. (2005). Sirojiddin Sayyid: Adabiy meros va tarixi. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti.

3. Mustaqimov, A. (2010). Liro-epik adabiyot: nazariy asoslar va amaliyot. Toshkent: Sharq nashriyoti.

4. Xudoyberdiyev, A. (2018). O‘zbek dostonlari: tahlil va tadqiqotlar. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti.

5. Дошанова Г. Ҳозирги ўзбек шеъриятида кичик лирик шакллар такомили. Тошкент,2024.- Б.63

УДК: 37.016:81'34

Gullola Inamova
Falsafa fanlari doktori (PhD)
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
gullolainamova@gmail.com
+998993071518

INGLIZ TILI OG‘ZAKI NUTQ FAOLIYATINING FONETIK KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI

Annotatsiya. Fonetika mustaqil fan sifatida 19-asr oxirida ajralib chiqqan bo‘lsa-da, tilning tovush jihati va uning tarkibiy qismlarini o‘rganish Qadimgi Hindiston (Panini grammatikasi) va Qadimgi Yunonistonda boshlangan edi. Xususan, Qadimgi Yunonistonda nutqning tovush tomonini nom va predmet o‘rtasidagi munosabat masalasi bilan bog‘liq holda tadqiq etishga katta e’tibor qaratilgan. Chunonchi, Qadimgi Yunonistonda nom va narsa o‘rtasidagi munosabat masalasiga bog‘liq holda, nutqning tovush jihatini o‘rganishga katta e’tibor qaratilgan. Tarixchilarning ta’kidlashicha, “tovushlar so‘zlarning beshigi hisoblanadi” va predmetning mohiyati uning tovush qobig‘ida o‘z aksini topadi.

Kalit so‘zlar: instrumental fonetika, tovush, IKT, akustika, talaffuz, idrok, lingvodidaktika, kompetensiya.

Gullola Inamova,
Doctoral student,
Uzbekistan State World Languages University
gullolainamova@gmail.com
+998993071518

THEORETICAL AND PRACTICAL BASIS FOR IMPROVING PHONETIC COMPETENCY OF ENGLISH ORAL SPEECH ACTIVITY

Annotation. Phonetics emerged as an independent discipline at the end of the 19th century, although the study of the sound side of the language and its elements began in Ancient India (Panini grammar), Ancient Greece. Thus, in Ancient Greece, much attention was paid to the study of the sound side of speech in connection with the question of the relationship between the name and the subject. Historians have argued that "sounds are the cradle of words," and the essence of the object is represented in the sound shell. Historians have argued that "sounds are the cradle of words," and the essence of the object is represented in the sound shell.

Keywords: instrumental phonetics, sound, ICT, acoustics, pronunciation, perception, linguodidactics, competence.

Fonetika quyidagilarga ajratiladi: 1. Antropofonika inson nutqi tovushlarini fizik hodisa sifatida o‘rganadi. 2. Psixofonetika tovushni psixik hodisa sifatida o‘rganadi. “Tovush - bu eshitish orqali idrok etiladigan fizik hodisa bo‘lib, nutq aktining akustik tomonini o‘rganishda fonetist idrok psixologiyasiga murojaat qiladi. Tovush artikulyatsiyasi yarim avtomatlashgan, lekin baribir iroda tomonidan nazorat qilinadigan va markaziy nerv sistemasi tomonidan boshqariladigan faoliyatdir; fonetist nutqiy aktning artikulyatsion tomonini tadqiq qilar ekan, avtomatlashgan harakatlar psixologiyasiga yaqin keladi” (Nikolay Sergeyevich Trubetskoy).

Eksperimental yoki instrumental fonetika nutq tovushlarini eksperimental tadqiq qilish bilan shug‘ullanadi. Bu yerda ham quyidagilarga ajratiladi: palatografik, statik va dinamik, uning yordamida tovush hosil qilishda tilning tanglayga tegadigan joyi aniqlanadi; tenzopalatografiya, uning yordamida artikulyatsiya kuchi o‘lchanadi; rentgenografiya, nutq a’zolari ishini kuzatish imkonini beradi; ossillografiya, tovushlarning balandligi, davomiyligi va intensivligini aniqlaydi; spektrografiya, tovushning umumiy akustik manzarasi haqida tasavvur beradi.

Amaliy fonetika bir qator muhim amaliy vazifalarni hal qiladi: ona tili va xorijiy tillarda o‘qish va yozishni o‘rgatish metodikasi, o‘z ona tili bo‘lmagan tilda talaffuzni shakllantirish, yozuvsiz tillar uchun ratsional yozuv tizimini yaratish, mavjud yozuv tizimlarini takomillashtirish, nutq nuqsonlarini davolash, ovozli nutqni avtomatik aniqlash va sintez qilishni modellashtirish.

Fonetika tilning tovush materiyasini tadqiq etish jihatiga qarab tovushlar hosil bo‘lishini o‘rganuvchi artikulyator, tovush hosil bo‘lishi natijasini o‘rganuvchi akustik, tovushlarni idrok etishni o‘rganuvchi auditiv yoki perseptiv turlarga bo‘linadi. Fonetika shuningdek, umumiy va xususiy, sinxron va tarixiy, tavsifiy va me’yoriy, nazariy va amaliy turlarga bo‘linadi.

Umumiy fonetika tovush hosil bo‘lishining umumiy shart-sharoitlarini o‘rganadi; tovush birliklarining akustik xususiyatlarini, ularning spektral xususiyatlarini tahlil qiladi; akustik va artikulyatsion belgilari asosida nutq tovushlarining tasniflarini yaratadi; tovushlarning birga qo‘llash qonuniyatlarini, tovushlarning bir-biriga ta’sirini, bo‘g‘in tabiatini, bo‘g‘in hosil qilish tamoyillarini o‘rganadi; intonatsiyani tadqiq qiladi.

Xususiy fonetika: Yuqorida keltirilgan barcha masalalar muayyan til yoki qardosh tillar guruhiga nisbatan ko‘rib chiqiladi.

Sinxron (sinxron, tavsifiy) fonetika tilning ma’lum bir vaqtdagi fonetik holatini o‘rganadi. Diaxronika tilning yoki tillar guruhining tovush tuzilishi evolyusiyasini o‘rganadi. Masalan, qadimgi rus tilidagi (g), (k), (x) tovushlarining (j), (ch), (sh) ga o‘zgarishini o‘rganish diaxronik bo‘lib, u zamonaviy bir-birining o‘rnini almashtirishda o‘z aksini topgan, drug – drujeskiy, ruka – ruchnoy, dux – dushnыy.

Fonologik kompetensiyani shakllantirish an’anaviy ravishda til oliy ta’lim muassasasida o‘qitishning boshlang‘ich bosqichida nazarda tutiladi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, tadqiqotchilarning e’tibori aynan shu bosqichga qaratilgan. Yuqori bosqichda, afsuski, ushbu kompetensiya maqsadli rivojlantirilmaydi va takomillashtirilmaydi. Buning natijasida tilshunoslik oliy ta’lim muassasasi bitiruvchilari - tilshunoslarning kasbiy tayyorgarligi sifati muqarrar ravishda pasayadi, ularning fonologik kompetensiyasining shakllanganlik darajasi samarali madaniyatlararo muloqot uchun yetarli bo‘lmay qoladi. Lingvist-mutaxassislarda fonologik kompetensiyaning yuqori darajada shakllanganligi xalqaro hamkorlikning samaradorligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega ekanligini ijtimoiy mustahkamlangan tovush shaklini e’tiborsiz qoldirish nafaqat nutq matnining mazmunini yo‘qotishga, balki ko‘pincha muloqotning butunlay to‘xtab qolishiga ham olib kelishi ko‘rsatib turibdi.

Shunday qilib, tadqiqotimizning dolzarbligi tilshunoslarni o‘qitishning yuqori bosqichiga nisbatan fonologik kompetensiyani rivojlantirishga bag‘ishlangan fundamental lingvodidaktik ishlarning mavjud emasligi va tilshunoslik oliy ta’lim muassasasi bo‘lajak bitiruvchilarining kasbiy tayyorgarligida fonologik kompetensiyani takomillashtirish metodikasini (nazariy va amaliy jihatdan) ishlab chiqish zarurati bilan belgilanadi.

Tadqiqotning maqsadi tilshunoslik oliy ta’lim muassasasining yuqori bosqichida tilshunoslar, jumladan, tilshunos-chet tili o‘qituvchilarining fonologik kompetensiyasini takomillashtirish metodikasini nazariy asoslash va ishlab chiqish, hamda taklif etilayotgan metodikaning samaradorligini o‘quv jarayonida tajribaviy sinovdan o‘tkazishdan iborat.

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari: 1. Tilshunosning kasbiy kompetensiyasining tarkibiy qismi sifatida fonologik kompetensiya shu soha mutaxassisining madaniyatlararo muloqot samaradorligini ta’minlaydi. Fonologik kompetensiya tilshunoslarni tayyorlashning yuqori bosqichida maqsadli takomillashtirish ob’ekti bo‘lishi kerak. 2. Bo‘lajak tilshunoslarni, shu jumladan, tilshunos-chet tili o‘qituvchilarini tayyorlashning yuqori bosqichida fonologik kompetensiyaning barcha komponentlari: fonologik va fonetik komponentlar, shuningdek uning psixologik tarkibiy qismi takomillashtirilishi lozim. 3. Fonologik kompetensiyani takomillashtirish jarayonini tashkil etishda nutq hosil qilish va nutqni idrok etishning psixologik asoslari, diskurs nazariyasining qoidalari va fonetik fonologik uslubni takomillashtirishning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish kerak. Metodika fonologik jihatdan to‘g‘ri va stilistik jihatdan adekvat nutqni hosil qilish va nutqni idrok etishga yordam beradi [3].

Bo‘lajak tilshunoslarning nutq xususiyatlarini sifat jihatdan o‘zgartirishga ingliz tilidagi spontan so‘zlashuv nutqining tanlangan namunalaridan foydalanish va fonologik kompetensiyaning har bir komponentini takomillashtirishga qaratilgan topshiriqlar tizimini qo‘llash orqali erishiladi. Fonologik kompetensiya lingvistik kompetensiyaning tarkibiy qismlaridan biri sifatida qaralib, u o‘z navbatida kommunikativ kompetensiya tarkibiga kiradi [4].

O‘qitish amaliyoti va maxsus lingvodidaktik tadqiqotlar tilshunoslarda fonologik kompetensiyaning yetarli darajada shakllanmaganligidan dalolat beradi, bizning

fikrimizcha, buning sababi fonologik kompetensiyani shakllantirish va takomillashtirish masalalarining nazariy va amaliy jihatdan yetarlicha ishlab chiqilmaganligida.

Fonologik kompetensiyani takomillashtirish talabalarning turli xil talaffuz uslublarini - to‘liq, neytral, shuningdek, spontan so‘zlashuv nutqiga xos bo‘lgan to‘liqsiz talaffuz uslublarini egallashga yordam beradi, shu munosabat bilan og‘zaki nutq va ingliz tilidagi spontan so‘zlashuv nutqining xususiyatlarini ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq bo‘lib, uning xususiyatlarini hisobga olgan holda fonologik kompetensiyani takomillashtirish metodikasi ishlab chiqildi.

Lingvistik (til borasidagi) kompetensiya kommunikativ kompetensiyaning asosiy komponentlaridan biri hisoblanadi. AKK subkompetensiyalari orasida fonetik kompetensiya (keyingi o‘rinda-FK) alohida o‘rin tutadi. Til aloqa vositasi sifatida, avvalo, tovushda, segment va supersegment darajalarda namoyon bo‘ladi, bu aytilayotgan fikrning ma’nosini tushunishni ta’minlaydi hamda natijada muloqot maqsadlariga erishishga olib keladi. Nutqning tarkibiy qismlarini aniq ajrata olmaslik, so‘zlashuv jarayonidagi kommunikativ-fonetik aniqlikning yetishmasligi va nutqni yaxshi egallamaslik tushunmovchiliklarga, muloqotning buzilishiga, demak chet tili nutqini o‘rgatishning asosiy vazifalarini hal qilishni imkonsizligiga olib keladi [1].

Umuman xorijiy tilning fonetik jihatini o‘rgatish umuman olganda, xususan, AKT qo‘llanilganda maksimal darajada ijobiy samara beradi. Chet tili nutqining fonetik aspektini o‘rgatish uchun maxsus yaratilgan kompyuter dasturlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bunday dasturlarning ta’limiy qimmati eshitish-talaffuz va ritmik intonatsiya ko‘nikmalarini shakllantirish jarayonini ratsional boshqarish apparati va auditiv tajribani to‘plashdan iborat. Boshqaruv o‘z ichiga oladi: a) fonetik ma’lumotnomalarni o‘z ichiga olgan axborot bloki, ingliz tilida o‘qishning asosiy qoidalari ro‘yxati; b) bakalavriat talabalarining 1- o‘quv yili uchun kirish-tuzatish kursining dasturiy materiali asosida qurilgan, fonetik yo‘naltirilgan mashqlar majmuasi; v) nazorat va o‘z-o‘zini tuzatish bloki. Texnik va ergonomik jihatdan shaklga solish qoidalariga, nutqning fonetik tomoni ustida ishlash uslubiga asoslanib, shunday xulosaga kelish mumkin: hozirgi vaqtda eshitish va talaffuz qilish intonatsiya ko‘nikmalarini sifatli shakllantirish va eshitish tajribasini to‘playdigan universal, tuzilishi va mazmuni nuqtai nazaridan optimal multimedia dasturi mavjud emas.

Chet tilidagi nutqning fonetik jihatlarini o‘rgatishda IKTdan foydalanish.

Zamonaviy jamiyatning shakllanishi axborot texnologiyalarining rivojlanishi va unga ta’siri bilan xarakterlanadi. Ular inson faoliyatining barcha sohalariga kirib borib, shu tariqa global axborot makonini shakllantirmoqda. Shuning uchun bunday axborotlashtirishning muhim qismi ta’limni axborotlashtirish hisoblanadi.

Axborot texnologiyalari – bu turli xil qurilmalar, shuningdek, ma’lum bir ma’lumotni qayta ishlash usullari. Bunday qurilmalar, birinchi navbatda, kerakli dasturiy ta’minot va ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan telekommunikatsiya vositalariga ega bo‘lgan kompyuterlar hisoblanadi.

Nutqning fonetik tomonini o‘rgatishda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan instrumental usullar ko‘rinishidagi yuqori texnologik resurslarni namoyish etish, shuningdek, chet tili o‘qituvchilarining bugungi kundagi vazifalarini muvaffaqiyatli hal qilish zarur, aniqrog‘i: chet tilida u yoki bu tovushlarni qanday qilib to‘g‘ri talaffuzini o‘rnatish kerak; ona tilidagi nutqida murakkabligi yoki nuqsoni bo‘lgan bolalar/kattalarda chet tilida alohida tovushlar/harflarni talaffuz qilish ko‘nikmasini qanday yo‘nalishda shakllantirish kerak; til to‘sig‘ini qanday yengish mumkin; nutqda tovushlarni to‘g‘ri artikulyatsiya va intonatsiyasini qanday o‘rganish mumkin.

XX asrning 70-yillarida magnitofon va kinoproektor kabi shaxsiy qurilmalarning keng tarqalishi tufayli texnik vositalarning o‘quv jarayoniga faol integratsiyalashuvi boshlandi, ammo tez orada ularni shaxsiy kompyuter kabi yanada takomillashgan qurilmalar siqib chiqara boshladi. Bularning barchasi lingvodidaktikada o‘z oldiga torroq maqsad va vazifalarni qo‘yadigan alohida tadqiqot yo‘nalishi paydo bo‘lishiga olib keldi.

XX asrning 80 yillari o‘rtalaridan boshlab xorijiy ilmiy hamjamiyatda xorijiy tillarni o‘qitishda CALL – Computer Assisted Language Learning (kompyuter yordamida til o‘rganish) deb nomlangan yangi yondashuv paydo bo‘ldi. XX asrning 90 yillarida Internetning rivojlanishi munosabati bilan CALL doirasida bir-biridan farq qiluvchi yondashuvlar paydo bo‘la boshladi, masalan, TELL (Technology Enhanced Language Learning – texnologiyalar bilan takomillashtirilgan til o‘rgatish) va ICT in LT (Information and Communication Technology in Language Teaching – AKT til o‘rgatishda), ular Internet va elektron kommunikatsiyalarning paydo bo‘lishi kabi yuqori texnologiyalar sohasida sodir bo‘lgan o‘zgarishlarni aks ettirgan, lingvodidaktikada faol qo‘llaniladigan mobil aloqa vositalarining kirib kelishi va qo‘llanilishi esa MALL – Mobile Assisted Language Learning (mobil aloqa yordamida til o‘rganish) atamasining paydo bo‘lishiga olib keldi (1-rasm).



1-rasm:Texnik vositalardan foydalangan holda xorijiy tillarni o‘qitish yondashuvlarining evolyusiyasi.

Dunyo ilm-fanida K.R. Piotrovskaya tomonidan 1991-yilda taklif qilingan “kompyuter lingvodidaktikasi” atamasi, M.A.Bovtenkoning fikriga ko‘ra, chet tilini o‘qitishda axborot texnologiyalarini qo‘llashning nazariy va amaliy jihatlarini to‘liq qamrab olish va ushbu ilmiy sohada terminologiyaning rivojlanish tendensiyalarini hisobga olish nuqtai nazaridan eng to‘laqonlidir. Shuningdek, u chet tillarni o‘qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining tarqalishi va elektron muloqot amalga oshiriladigan bir qator platformalarning kengayishi tufayli tez orada ushbu atama “elektron lingvodidaktika” atamasi bilan almashtirilishi mumkin, deb hisoblaydi. Elektron ta’lim bilan o‘zaro aloqador bo‘lgan yana bir atama mavjud – “tarmoq pedagogikasi” - bu ta’lim nazariyasining tez rivojlanayotgan yo‘nalishidir. Uning maqsadi “ta’lim jarayoni kechayotgan ijtimoiy munosabatlar “tarmog‘i”ni rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash yo‘llarini o‘rganish orqali ta’lim jarayonlarini anglash” hisoblanadi [2].

Nutq bo‘laklarini talaffuz qilishda nutq a’zolarining ishini tadqiq qiluvchi turli instrumental vositalar qo‘llaniladigan artikulyatsion fonetikani ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, “artikulyatsiya harakatlarini kuzatish va qayd etishning texnik usullari imkoniyatlari bilan chambarchas bog‘liq” bo‘lgan quyidagi usullarni ajratib ko‘rsatish mumkin: palatografiya, elektromagnitli artikulografiya, intonografiya.

Ro‘yxatdagi birinchi palatografiyaning instrumental metodini ko‘rib chiqamiz. Palatografiya tilning qattiq tanglayga tegish joylarini aniqlashga yordam beradigan usuldir. Bunda, masalan, zamonaviy Smart Palate dasturiy vositasi bio-qayta aloqa texnologiyasiga asoslangan bo‘lib, artikulyatsiyaning raqamli tasvirini yaratadi, ya’ni vosita real vaqt rejimida lab va til harakatlarini kuzatish imkoniyatini beradi. Uning yordamida barqaror artikulyar ko‘nikmalarni yaratish va takomillashtirish uchun nutq a’zolarining harakatlariga qanday o‘zgarishlar kiritish kerakligi haqida aniq tasavvurga ega bo‘lish mumkin.

Smart Palate mundshtugi 100 dan ortiq datchiklar bilan ishlab chiqariladi, ular tilning joylashuvini aniq tasvirlaydi. Mundshtukdan olingan ma’lumotlar, shuningdek audio qabul, ma’lumotlarni uzatish kanali tomonidan qayta ishlanadi. Smart Palate dasturiy ta’minoti ma’lumotlar uzatish kanalidan olingan axborotni og‘zimizning vizual tasviriga aylantiradi, shuningdek artikulyatsiya muammolarini tez va aniq bartaraf etishda yuqori samaradorlikka erishadi. Ushbu vositadan foydalanish orqali odamlar murakkab muloqot to‘siqlarini yengib o‘tishadi va ushbu tizim tomonidan taklif qilingan vizual effektlar funksiyalari yordamida yaxshiroq nutq ko‘nikmalarini yaratishadi.

Shaxsiy sozlangan palatografiya tizimi va kompyuter interfeysidan foydalangan holda ushbu texnologiya insonga tovushni to‘g‘ri ijro etish uchun tilini qaerga joylashtirishni ko‘rish imkonini beradi, bu bilan unga nutq tovushlari artikulyatsiyasini to‘g‘rilash, tilni tushirish (yutish uchun tilning to‘g‘ri harakati) va/yoki aksentdan xalos bo‘lishga yordam beradi.

Keyingi instrumental usul - elektromagnit artikulografiya (EMA). D.A. Kocharov va O.N. Glotovaning maqolasiga ko‘ra, EMA – “zamonaviy artikulyator apparat tadqiqotlarida keng qo‘llaniladigan eng muvaffaqiyatli usullardan biridir”. EMA nazariy tilshunoslikda

“nutq hosil qilish jarayonlari haqidagi mavjud bilimlarni aniqlashtirish uchun, shuningdek, artikulyatsiya jarayonlarini modellashtirish talab qilinadigan muammolarni hal qilishda nutq texnologiyalari sohasida” qo‘llaniladi.

EMA “turli fonemalar artikulyatsiyasi haqida yangi tasavvurlarni yaratish va mavjud tasavvurlarni aniqlashtirish” uchun, shuningdek, “yaqin tovush va o‘xshash akustik belgilarga” ega bo‘lgan fonemalar artikulyatsiyasidagi farqlarni aniqlash uchun ishlatiladi. U sog‘liqqa hech qanday zarar yetkazmasdan suxandonlarning uzoq muddatli yozuvlarini amalga oshirish imkonini beradi. Aynan shuning uchun ushbu usul “Fonemalar va allofonlarning artikulyatsiya modellarini akustik modellarga va aksincha o‘zgartirishning avtomatik tizimlarini statistik yondashuvga asoslangan o‘qitish uchun katta hajmdagi nutq ma’lumotlarini to‘plashda asosiy” hisoblanadi.

Uchinchi instrumental usul – intonografiya. Ye.N.Vinarskaya o‘zining atamalar lug‘atida intonografiyaga “asosiy ton chastotasini va nutq intonatsiyasining intensivligini avtomatik ravishda ajratish va qayd etish” ta’rifini beradi. Intonografiya usulida ishlaydigan Speech Analyzer kabi dastur mavjud. Uning vazifasi nutq va ovoz yozuvlarining turli grafik tasvirlarini ko‘rsatish, shuningdek, inson ovozi yozuvlarining fonetik tahlili va ovoz yozuvlarini etnologik o‘rganishdir.

Ko‘rib chiqilgan instrumental usullar ta’lim maqsadlarida qo‘llanilishi mumkin, chunki ularning har biri o‘quvchilarda xorijiy tildagi fonetik ko‘nikmalarni shakllanishi, rivojlanishi, qayta ishlanishi va tuzatilishida muhim vazifani bajaradi.

Zamonaviy nutq tahlili dasturlari bilan ishlashning an’anaviy dasturlarga nisbatan istiqbollari va afzalliklari auditoriya tomonidan multimedia dasturlari tufayli mavjud bo‘ladigan innovatsion komponentlardan keng foydalanishdadir.

Bunday dasturlar nutq apparatini tadqiq qilishda, shuningdek, pedagogik amaliyotda ma’lum bir natijaga erishish uchun u bilan ishlashda turli vazifalarni bajarishi mumkin, xususan:

palatografiyaning dasturiy ta’minot (Smart Palate) ko‘rinishida qo‘llanilganda, tadqiqot paytida natija olish uchun tanglay yuzasiga o‘rnatilgan elektrod fiksatorlaridan foydalanilib, nutq jarayonida inson tilining ishlashini vizualizatsiya qiladigan bio-qaytuvchi aloqa amalga oshiriladi; yangi tovushni eshitish yoki talaffuz ko‘nikmasini avtomatlashtirish (tez aytishlar, sanoq) mashqlarini ishlab chiqish nazarda tutiladi, ular grafik interfeys ko‘rinishida taqdim etiladi;

nutqni avtomatik tanib olish funksiyasi tufayli EMA usuli, o‘quvchilarga nutq a’zolarining joylashuvini ko‘rish imkoniyatini beradigan VisArtico dasturiy ta’minotida bo‘lgani kabi ossillogrammalar va artikulogrammalar ko‘rinishidagi chastota ma’lumotlarini o‘lchash uchun qo‘llanilishi mumkin, bu ularga nutqni hosil qilish jarayonida xorijiy tildagi artikulyatsiya ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi; bunday dasturda qo‘llaniladigan mashqlar, masalan, undosh tovushlar va unli tovushlar qarama-qarshiliklarini mashq qildirish uchun ishlab chiqilishi mumkin;

Speech Analyzer dasturiy ta’minotidagi kabi intonografiya usuli bo‘yicha multimedia dasturini ishlab chiqishda, o‘quvchi nutq intonatsiyasining asosiy ton chastotasi va

intensivligini aniqlash uchun qo‘llanishi mumkin bo‘lgan nutqni avtomatik tanib olish funksiyasidan ham foydalaniladi.

Ushbu dasturiy ta’minot nutqning grafik tasvirlari bilan matnli interfeysni yoki o‘quvchining avvaldan yozib olingan ovozini o‘z ichiga olib, nutq transkriptini to‘g‘ridan-to‘g‘ri qurilma ekraniga chiqaradigan tizimdan iborat bo‘ladi, matn bo‘yicha qizil belgilar esa o‘quvchiga matnning qaysi oralig‘ida va qanday tonallikda mashq qilishi kerakligini tushunib olishga imkon beradi.

Bunday multimedia dasturlarining ma’lum bir afzalligi – bu real vaqt rejimida sodir bo‘ladigan mashqlarni bajarish, shuningdek, fonetik ko‘nikmalarni mashq qilishdir. O‘quvchilar uchun ham, o‘qituvchilar uchun ham ushbu dasturlardan foydalanish vaqt yo‘qotishining oldini olishga yordam beradi, chunki darsga barcha o‘quvchilar jalb qilinadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ilgari tavsiflangan Smart Palate, VisArtico va Speech Analyzer kabi alohida multimedia dasturlarining paydo bo‘lishi nafaqat statsionar kompyuterlarda, balki mobil qurilmalarda ham ishlashi mumkin edi: smartfonlar, internet planshetlar, telefonlar, netbuklar, KPK (ixcham shaxsiy kompyuter) va boshqalar chet tilini o‘rganish jarayonida o‘quvchilarda qiziqish uyg‘ota oladigan maxsus ishlab chiqilgan multimedia interfeyslari, grafik tasvirlar va mashqlar orqali o‘quvchilarda tovush talaffuz ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish ishlarini osonlashtirishga yordam beradi.

Iqtiboslar/Сноски/References

1. Xomutova T.N. Nauchnie paradigmi v lingvistike / Vestnik Chelyabinskogo gosudarstvennogo un-ta. 2009. N35 (173). Filologiya. Iskusstvovedenie. Vip. 37. –S.144.

2. Жуманиязов, А., & Курбанбаев, Ж. (2023). Native language (uzbek) interference in learning english. *Ренессанс в парадигме новаций образования и технологий в XXI веке*, *1*(1), 151–153. https://doi.org/10.47689/XXIA-TTIPR-vol1-iss1-pp151-153

3. Elliot, A. R. Foreign language phonology// Field independence, attitude, and the success of formal instruction in Spanish pronunciation. The Modern Language Journal, 79(4), 2008. p 530-542.

4. Bolton, K., & Kwok, H. The dynamics of the Hong Kong accent// Social identity and sociolinguistic description. Journal of Asian Pacific Communication, 1(1), 1990. P. 147-172. Браун Г., и Юл Г. (1983). Обучение разговорному языку. Издательство Университета Амбридж.

5. Картер Р. и Нунан Д. (2001). Кембриджское руководство по преподаванию. Кембридж: Издательство Кембриджского университета.

Jumatov Rashid Yangibayevich,
Urganch davlat universiteti ingliz tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti v.b, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori,
E-mail: rashidjumatov 08@gmail.com

Mutallapova Yelena Ruslanovna,
Urganch davlat Universiteti magistranti,
E-mail: yelenamutallapova20@gmail.com

UMUMIY JARGONLARNING PAYDO BO‘LISH MEZONLARI VA TASNIFLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada jargonlarning turli xususiyatlari, paydo bo‘lish omillari va tasniflanishi muhokama qilinadi. Jargonlar – bu deyarli har bir kishi tomonidan ishlatiladigan, yoki muayyan til foydalanuvchisi bo‘lgan kishilar bilan muloqot qilishni xohlaganlar tomonidan ishlatiladigan so‘zlardir. Chunki jargonlar – bu so‘zlarning haqiqiy ma’nosini ko‘rsatadigan yoki aytilgan so‘zlarga urg‘u berishga yordam beradigan so‘zlardir. Ushbu so‘zlarning o‘zining kelib chiqishi bor va ular asosan noan'anaviy so‘zlardir. Bu so‘zlar juda norasmiy bo‘lib, ular tanishlik darajasi va lug‘at boyligiga qarab farq qiladi.

Kalit so‘zlar: sleng, tasniflash, so‘zlar, til, norasmiy, xususiyatlar, leksika.

Джуматов Рашид
и.о, доцент Ургенчского государственного университета, доктор философских наук по филологическим наукам,
E-mail: rashidjumatov 08@gmail.com

Муталлапова Елена
магисрантка Ургенчского государственного университета,
E-mail: yelenamutallapova20@gmail.com

КЛАССИФИКАЦИИ И КРИТЕРИИ ВОЗНИКНОВЕНИЯ РАСПРОСТРАНЕННЫХ СЛЕНГОВ

Аннотация. В этой статье будут обсуждены различные характеристики, факторы возникновения сленга и их классификация. Сленг – это слова, которые используются почти каждым человеком, являющимся носителем языка, или теми, кто пытается общаться с носителями языка. Это потому, что сленг – это слова, которые показывают истинное значение или подчеркивают слова, которые произносятся. Эти слова имеют свое происхождение и в основном являются нестандартными. Они очень неформальные и различаются в зависимости от степени знакомства и богатства словарного запаса.

Ключевые слова: сленг, классификация, слова, язык, неформальный, характеристики, лексика.

Jumatov Rashid
Associate Professor of Urganch State University,
Doctor of Philosophy in Philological Sciences,
E-mail: rashidjumatov 08@gmail.com

Mutallapova Yelena
master's degree student of Urganch State University,
E-mail: yelenamutallapova20@gmail.com

THE CLASSIFICATIONS AND CRITERIA OF EMERGENCE OF COMMON SLANGS

Annotaion. This article will discuss different characteristics of slangs and their classifications according to different scholars. Slangs are the words that are used by almost every person who is native or tries to communicate with natives. This is because slangs are the words that show the true meaning or wants to make an emphasis on the words that are told. These words have their own origin and mainly are non-standard words. These words are highly informal and they differ with their familiarity and richness of vocabulary.

Keywords: slangs, classification, words, language, informal, characteristics, vocabulary.

Introduction

Nowadays, being able to use a language that is different from people in general can make someone stand out from the society as being insightful. However, not a few people have an attempt to use several terms so that the vocabulary they use looks diverse and unique. In interaction especially, people sometimes put some words and terms in order to express what they really mean and it is influenced by one or more reasons. The using of the term is varied, and the most popular one is using English slangs. Slang is not only prevalent in everyday conversations but, in this era of globalization, it is also commonly used by individuals on social media, particularly in their posts and online interactions. Thus, it is vital to know their true meaning and accurate usage to avoid misunderstanding.

The different criteria of slangs

According to Lighter, as cited in Eriksen (6, p.12-13), there are four key criteria for identifying slang:

1. Slang usage typically reduces the formality or seriousness of speech or writing, often lowering its perceived dignity, at least temporarily.

Example: Using the word "cool" instead of "impressive" or "exceptional."

Formal: "The project was exceptional in its scope and execution."

Slang: "The project was really cool."

In this case, "cool" is a casual, informal term that diminishes the level of seriousness or dignity in a formal context.

2. The use of slang signals that the speaker is familiar with the subject matter or with a particular group of people who commonly use such terms, often those of lower social status or responsibility.

Example: Using the term "fam" (short for "family") to refer to close friends, which implies a level of familiarity and belonging to a specific social group.

Formal: "I will meet with my friends this evening."

Slang: "I'm hanging out with the fam tonight."

Here, "fam" signals the speaker's familiarity with a group of friends or people they consider close, typically used within a social circle or among a younger generation.

3. Slang is generally considered inappropriate or taboo in formal discourse, particularly when engaging with individuals of higher social status or greater authority.

Example: Using the word "screw-up" instead of "mistake" or "error" when talking to someone in a professional or authoritative setting.

Formal: "That was an error in judgment."

Slang: "That was a total screw-up."

"Screw-up" is a colloquial term that might be inappropriate or disrespectful when addressing someone in a position of authority or in formal conversations.

4. Slang is often employed as a substitute for more conventional terms, either to avoid the discomfort associated with using the formal word or to prevent the need for more detailed explanation.

Example: Using the slang term "crash" instead of "sleep" to avoid explaining one's plans or to make the statement more casual.

Formal: "I will go to bed now."

Slang: "I'm going to crash now."

In this example, "crash" replaces the more conventional "sleep" to avoid the formal or potentially uncomfortable sound of the latter, making it feel more relaxed or less serious.

The various classifications of slangs

Allan and Burridge (2, p.69) identify five distinct types of slang.

1. One such type is **"Fresh and Creative"**, which refers to slang terms that represent entirely new vocabulary. These terms often emerge as informal, inventive expressions that reflect creativity and current trends. Over time, certain words that initially appear as slang may become so widely used that they are no longer recognized as informal, even though they were originally coined as slang. Some of these words have been in circulation for centuries, with examples dating back to the 18th century (2, p.69). An example of this is the term "daddy", which has been used since 1928 in the U.S. as an informal address for an older man.

2. **"Flippant"** slang refers to expressions where the words used do not align with their literal or denotative meanings. An example of this type is the phrase "break a leg", which, in the context of theater, is used to wish an actor good luck. The phrase stems from a

superstitious belief that wishing someone good luck directly might tempt fate. The origin of "break a leg" can be traced to folk etymology, which links it to the American actor John Wilkes Booth, who assassinated President Abraham Lincoln.

3. **“Blending”** is a process in which two words are combined to form a new term, typically by taking the beginning part of one word and attaching it to the end of another. This method of word formation results in a fused, shortened expression that carries elements of both original words.

4. An **“acronym”** is a type of slang formed by taking the initial letters of each word in a phrase to create a shortened version. This abbreviation is typically made from the first letters or syllables of a group of words. For instance, “LOL”, which stands for "Laughing Out Loud," emerged as an internet shorthand in the United States around 1991.

5. **“Clipping”** is a type of slang formed by shortening a longer word, typically by removing part of it, while maintaining the same meaning. An example of this is the term "cuz," which is a clipped form of "because." Commonly used words can often be clipped in this way, although the clipped forms are generally considered inappropriate for formal conversations.

Burdova (5, p.13) explains that slang words are typically formed in a shortened, simpler, and more relaxed manner. These can be categorized into five types of slang, including:

1. **Slang using weak forms:** Examples include phrases like "What I’m going t’do now?" or "Ah’m over here."

2. **Consonant germination:** This involves the alteration of sounds, such as "innit?" (isn't it?), "wunnit" (wasn't it?), "dunno" (I don’t know), or "lemme" (let me).

3. **Colloquial words:** These include informal terms like "dough" (money), "cool" (great), or "come up for air" (take a break).

4. **Idiomatic expressions:** Examples include "Have a mind like a steel trap" (to learn easily).

5. **Using positive adjectives to express negative qualities:** For example, the phrase "He is a phenomenal idiot" uses the positive adjective "phenomenal" ironically to emphasize the negative trait of being an "idiot."

6. **Using negative adjectives for exaggeration:** Terms like “terrible”, “horrific”, and “tremendous” are often employed to exaggerate or overstate a situation or quality, enhancing the intensity of the negative expression.

The characteristics of slangs

According to Spolsky, as cited in Rahmawaty (3, p.10), slang has several key characteristics:

1. Slang is a form of jargon that distinguishes itself by rejecting formal language rules. It is often characterized by its novelty, transience, and its function in fostering a sense of solidarity among speakers.

Example: The slang term *“lit”* (meaning exciting or excellent) is a relatively new and informal expression used primarily among younger people. It rejects the formal

structure of more traditional words like "exciting" or "amazing." It also represents a trend that may fade over time, reflecting its ephemerality. Using *"lit"* in conversation helps create a sense of solidarity or belonging among those who understand and use the term.

2. Slang frequently violates social norms, making use of taboo expressions or language that would be deemed inappropriate in more formal settings.

Example: The slang term "busted" (meaning caught doing something wrong or caught in a lie) is commonly used informally, especially among younger people. It is a less direct, but still somewhat taboo way of referring to someone being caught or exposed in a dishonest act. For example, "He got busted for cheating on the test." In formal discourse, such language would be avoided in favor of more neutral terms, such as "He was caught cheating" or "He was exposed for dishonesty."

3. Slang develops as a vocabulary specific to a particular social group, often serving a particular purpose, such as creating a sense of familiarity or camaraderie in conversation.

Example: The term *"bae"* (a term of affection for a significant other) is commonly used within certain social groups, especially younger people or those in romantic relationships. It serves a specific purpose in familiarizing conversations, making them more intimate or playful, and reflecting a shared cultural understanding among the group.

4. Slang can take the form of either entirely new words with novel meanings or existing words that acquire new, often informal, meanings.

Example: The slang term *"ghosting"* (to suddenly cut off all communication with someone without explanation) is a new word that has emerged with a new meaning, distinct from the original meaning of *"ghost"*. On the other hand, the word *"sick"* (which traditionally meant ill) is often used as slang to mean *"amazing"* or *"cool"*, showing how an old word can acquire a new, opposite meaning in informal contexts.

Conclusion

In conclusion, classification and understanding how slangs are used may simplify the way people communicate and helps to create the clear explanations of thoughts and intentions. However, understanding slang is crucial not only for comprehending the dynamics of language itself but also for gaining insight into the values and behaviors of the groups that produce it.

Many slangs come from the USA. However, It would be erroneous to suppose that slang is American in its origin. On the contrary, American slang also contains elements coming from Britain, though not many. The lexical meaning of a slang word contains not only the denotational component but also am emotive component and all the other possible types of connotation – it is expressive, evaluative and stylistically coloured and is the marked member of a stylistic opposition.

Slang is a difficult problem so it remains an important subject of study in linguistics, offering valuable perspectives on the ways people use language to define themselves and interact with others.

Iqtiboslar/Сноски/Reference

1. Spolsky, B. *Sociolinguistics*. Oxford: Oxford University Press, 1998. - p.10.
2. Allan, K., & Burridge, K. *Forbidden Words: Taboo and the Censoring of Language*. Cambridge: Cambridge University Press, 2006.- p.69.
3. Rahmawaty, M. *The Characteristics of Slang: An Overview*. Cambridge: Cambridge University Press, 2012. - p.10.
4. A.Mukhlisa Inayatillah.(2021) The Misuse of English Slang in Facebook By South Sulawesi Netizen Through Their Posts. London: Harper & Row publisher Inc., 2021. – p.28.
5. Burdova, B. V. Student Slang. Brno, Ceko: Masary University Press, 2009. – p. 13.
6. Lighter, J.E. . *Dictionary of American Slang Volume I & II*. New York: Random House, 1994. – p. 12-13.
7. https://www.98thpercentile.com/blog/the-power-of-slang-informal-language-in-everyday-life

Kazakova Laylo Madorimovna
O‘zbekiston Milliy universiteti tadqiqotchisi
E-mail: **zilhamboev@bk.ru**

NEMIS VA O‘ZBEK TILLARIDAGI HARBIY TEXNIKAGA OID TERMINLARNING GIPERO-GIPONIMIK MUNOSABATI

Annotatsiya. Ushbu maqolada nemis va o‘zbek tillaridagi harbiy texnikaga oid terminlarning gipero-giponimik munosabati ayrim terminlarni tahlil qilish orqali ko‘rsatib o‘tiladi. Bundan tashqari ushbu hodisa orqali ma’no izohida mukammallikka erishish mumkinligi borasida mulohaza yuritiladi. Maqola mazmunida giponimiya hodisasi xuxusidagi ayrim tilshunoslarning nazariy qarashlari ham bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: harbiy texnikaga oid termin, ma’no, izoh, giponimiya.

Казакова Лайло Мадоримовна
соискатель НУУз
E-mail: zilhamboev@bk.ru

ГИПЕРО-ГИПОНИМИЧЕСКОЕ ОТНОШЕНИЕ ТЕРМИНОВ К ВОЕННОЙ ТЕХНИКЕ В НЕМЕЦКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация. В данной статье показана гиперогипонимическая взаимосвязь терминов, относящихся к военной технике на немецком и узбекском языках, путем анализа некоторых терминов. Он также рассуждает о том, что посредством этого явления можно достичь совершенства в интерпретации смысла. В содержании статьи также изложены теоретические взгляды некоторых лингвистов на феномен гипонимии.

Ключевые слова: термин, значение, аннотация, гипонимия, относящиеся к военной технике.

Kazakova Laylo Madorimovna
Independent researcher National University of Uzbekistan
E-mail: **zilhamboev@bk.ru**

Annotation. This article shows the hyperhyponymic relationship of terms related to military equipment in German and Uzbek by analyzing some terms. He also argues that through this phenomenon it is possible to achieve perfection in the interpretation of meaning. The content of the article also outlines the theoretical views of some linguists on the phenomenon of hyponymy.

Keywords: term, meaning, abstract, hyponymy related to military equipment.

Har bir jamiyatning ma’lum taraqqiyot bosqichiga ko‘tarilishi ilm-fanga bo‘lgan munosabatning o‘zgarishida deb qaraladi. Jamiyatdagi yuksalish va ijtimoiy hayotdagi o‘zgarishlar, tabiiyki, tillarda namoyon bo‘ladi [2, B.104]. Til leksikasi esa lug‘atlarda o‘z aksini topadi. Shunday ekan, lug‘atchilikning nazariy hamda amaliy masalalariga bo‘lgan yondashuvni yuqorida ham aytilganidek, o‘zgartirish davr talabi.

Terminologik birliklar tildagi leksik birliklardek har xil munosabatlar orqali o‘zaro bir-biriga bog‘liq bo‘ladi. Shundan kelib chiqqan holda, ular o‘rtasidagi munosabatlarni ochib berishda, ularni tasniflab tadqiq qilish o‘ziga xos ahamiyatga ega.

H.Nematov va R.Rasulovlar narsa, belgi, xususiyatlararo jins-tur bog‘lanishlari keng tarqalganligi va bunday bog‘lanishlar nafaqat hayotda, balki fanda ko‘p uchratilishini aytadilar [8, B.25]. Nemis va o‘zbek tillari harbiy terminologik tarkibidagi terminlarni tahlil qilish natijasida ularning bir-biri bilan giponimik munosabatga ega ekanligi aniqlandi. Ushbu munosabatga jins o‘z ichiga kiruvchi turlarning hamma xususiyatlarini qamrab oladi. Tur esa ushbu xususiyatlarni individuallashtiradi [1, B.103].

Terminlarga ham tegishliligi allaqachon o‘z isbotini topgan ko‘p ma’nolilik yoki ma’nodoshlik, o‘xshash shakllarning har xil semantikaga ega bo‘lishi, zid ma’no anglatish, giponim kabi hodisalar so‘nggi yillarda turli terminologik sathlarda chuqur o‘rganilib kelinmoqda.

Giponimiya hodisasi nafaqat harbiy texnikaga oid terminlarga xos sanaladi balki, harbiy sohaning barcha yo‘nalishlarini olib qaramaylik, ularning barchasida jins-tur munosabatlari yaqqol namoyon bo‘ladi. Giponimiya-jins-tur munosabatini ifodalab kelgan so‘zlar qatori va lug‘aviy birliklarning o‘zaro ketma-ketligini ifodalab, uzviy bog‘lanishda vujudga kelgan iyerarxionimik qatorlarni tushunish mumkin [6, B.87]. Jins-tur munosabatlarida jins ma’nosida ifodalanadigan terminni yadro deb, yoki asosiy tushuncha deb anglash mumkin, uning atrofida birlashadigan tushanchalar esa tur sifatida qabul qilinadi. Bunday munosabat turi giponimik munosabatlar sanalib, jins tushunchasini ifodalovchi termin *giperonim,* tur tushunchasini namoyon qiluvchi termin *giponim* hisoblanadi. Shunga urg‘u berish lozimki, ushbu hodisani terminologiyada kuzatsak, *terminologiya* giperonim *arxeologiya* terminologiyasi; *botanika* terminologiyasi; *bojxona-soliq* terminologiyasi; *tilshunoslik* terminologiyasi; *harbiy terminologiya* va h.k. giponimlar bo‘la oladi.

Xullas, asosiy tushuncha atrofida uning ko‘rinishlari birikuvi giponimiyadir. Ushbu til hodisasi nemis va o‘zbek tillaridagi harbiy texnikaga oid terminlar tizimida ham keng tarqalganlini misollar keltirish orqali asoslash mumkin.

Misol keltirilsa, *Pulemyot termini giperonimni ifodalovchi sifatida:*

Nemis tilida: Maxim-Maschinengewehr, Spagin, Sudayev.

O‘zbek tilida: Maksim pulemyoti, Shpagin, Sudayev pistolet-pulemyotlari kabilar tur munosabatini ifodalaydi.

Qurollarning belgi xususiyati ham aynan giperonim va giponimlar orqali yaqqol namoyon bo‘ladi.

Qurolli kuchlar tizimida ham pulemyotning ikki xil ko‘rinishi bo‘lib, ular ham ma’no munosabatlarida namoyon bo‘ladi. Misol tariqasida: *Maschinengewehr (MG) – pulemyot.*

Nemis tilida: leichtes Maschinengewehr, schweres Maschinengewehr.

O‘zbek tilida: qo‘lda boshqariladigan pulemyot, stanokli pulemyot tarzida.

Keyingi o‘rinda *Granatomyot* termini tahlili orqali bilish mumkinki, jins tushunchasini anglatgan sema tutushunchasini anglatib kelgan barcha terminlar semantikasida mavjud bo‘lishi holati ham kuzatiladi.

Granatomyot

- faol-reaktiv granatomyot;
- miltiqli granatomyot;
- dinamoreaktiv (tisarilmas) granatomyot;
- reaktiv granatomyot;
- qo‘l granatomyot;
- tirgakli granatomyot [3, B.11]; tarzida.

Keltirilgan misoldan ko‘rinib turganidek, *granatomyot* asosiy tushunchani ifodalab kelishi bilan birgalikda, har bir turni bildirib kelgan termin tarkibida ham ishtirok qiladi.

Qurol va uning turlarini ifodalovchi terminlar doirasida ham ushbu munosabat juda keng tarqalgan. Masalan: *artilleriya quroli*-to‘p, zambarak, minomyotlardan tashkil topgan.

So‘nggi yillarda leksik-semantik munosabatlarning yangi turi, giponimiya hodisasi terminlarning tildagi o‘rnini belgilashda va shu bilan birgalikda terminologik lug‘atlar tuzishda ham o‘ziga xos ahamiyat kasb etmoqda. Ammo, shunga urg‘u berish lozimki, terminlar semantikasiga bag‘ishlangan aksariyat ishlarda faqat leksik birliklarning sinonimiya, antonimiya, omonimiya hodisalarni tahlilga tortish bilan cheklanilgan. Tillardagi ma’lum bir tushunchaning o‘ziga xosliklari aynan jins-tur munosabatlarida yaqqol namoyon bo‘ladi. Qaysi soha leksik yoki terminologik qatlami olib qaralmasin, ularning barchasida giponimiya hodisasi mavjud.

Shu o‘rinda jins tushunchasini yadro termin va tur ma’nolaridagilarini esa uning atrofidagi yanada aniqroq aytilsa, tushuncha to‘g‘risidagi bilimlar umumlashmasi deyish mumkin. Bunday munosabat asosan mavzuiy lug‘atlarni yaratishda qo‘l keladi. Bizning nuqtai nazarimiz bo‘yicha, ushbu til hodisasi tillarda bir yoki ikki tilli terminologik lug‘atlar yaratishda ham asos sifatida xizmat qila oladi. Foydalanuvchida bosh so‘z xususida to‘liq ma’lumot olish imkoni yaratiladi. Ya’ni, leksikografik tasvir tilida giponimiyadan unumli foydalanish mumkin. Nemis va o‘zbek tillaridagi harbiy texnikaga oid terminlarni to‘liq tahlilga tortishdan oldin, shu soha tarkibiy qismlarini aniqlab olish maqbul usul sanaladi. Chunki, har qanday leksik qatlamdagi soha terminologiyasi o‘z o‘rnida yana bir nechta qatlamlarga aniqroq aytadigan bo‘lsak, tarkibiy qismlarga bo‘linishi tabiiy. Misol keltirilsa, *pulemyot* o‘z atrofida *qo‘l pulemyoti, tirgakli pulemyot, asosiy kalibr pulemyotlari, yirik kalibrli pulemyotlar* kabilarni jamlashi kabi.

1-jadval

“O‘qotar qurol” turkumiga nisbatan jins-tur munosabatining birikishi

	Giperonim	**Giponim**
1	die Schußwaffe	Nemis tilida: die Pistole, Pistole-Maschinengewehr, der Revolver.
	o‘q otar qurol	O‘zbek tilida: miltiq, pistolet-pulemyot, pulemyot, revolver.

O‘qotar qurol- ushbu qurol turi o‘q bilan shikast yetkazishga mo‘ljallangan qurol sanalib, nemis va o‘zbek tillarida ularning qator turlari ifodalanishi 1-jadvalda ko‘rsatib o‘tildi.

Yuqorida keltirilgan o‘qotar qurol va uning turlari harbiy texnikaga oid terminlar tizimini tashkil etadi.

Real olamdagi barcha narsa va hodisalar makon va zamonda yaxlit bir butunlik sifatida voqelanadi. Ular o‘z o‘rnida elementlardan va qismlardan tashkil topgan bo‘ladi. Ushbu bo‘laklar bir-biri bilan bog‘langan tarzda yaxlitlikni tashkil qilib, [1, B.106] tilshunoslikda partonimiya hodisasi deyiladi[5, B.100].

Demak, harbiy texnika bilan bog‘liq terminlar o‘rtasidagi partonomik munosabatlarni tadqiq qilish, ushbu terminlar tizimidagi ma’no munosabatlari ko‘lamini aniqlab olishda o‘z o‘rniga ega.

Harbiy texnikaga oid terminlar tizimida giponimiya hodisasini o‘rganish davomida ayon bo‘lishicha, partonimiya butun-bo‘lak munosabatini reallashtiruvchi hodisa sanalib, harbiy texnika sohasi terminlari kesimida ham o‘z o‘rniga ega [7, B. 63].

Ushbu munosabatni harbiy terminlar doirasida alohida ajratib o‘rganish maqsadga muvofiq degan fikrga kelindi. Chunki, ushbu lingvistik jarayon orqali butun-bo‘lak munosabatlari ifodalaniladi. Masalan, qurol harbiy texnikaning asosiy qismi bo‘lib, o‘z atrofida chegarasiz terminlarni birlashtira olishi bilan ahamiyatlidir. Har qanday texnik vosita turli tarkibiy qismlar va shu biln birgalikda qo‘shimcha vositalardan tashkil topishi tabiiy. Leksikografik tasvir tilida esa partonomiya va giponimiya hodisalari o‘ziga xos dolzarb ahamiyatga ega.

Ma’lumki, lug‘at tuzish nazariyasi va amaliyotida lug‘atdagi bosh so‘z ma’nosini ochib berish maqsadida lug‘at maqolalari va shu bilan birgalikda so‘z ma’nolarini izohlash tamoyillari ishlab chiqiladi [4, B.108]. Olib borilgan tahlillarga asosan, harbiy texnika oid terminlar tizimi uchun jins tur munosabatlari va partonomiya xos va ulardan ikki tilli terminologik lug‘atlar yaratishda unumli foydalanish mumkin. Tahlilga tortilgan ikkala lingvistik hodisa sohaga chuqurroq kirishni talab qiladi. Giponimiya hodisasi jins-tur munosabatiga asoslanib, tahlil qilingan qatlamda aksariyat terminlar doirasida uchraydi. Buning asosiy sababi, qurol-yarog‘ tushunchalari bir nechta turlardan iborat ekanligidir. Shu bilan birgalikda partonomiya qism va bo‘lak munosabatiga tayangan holda harbiy texnikaning qismlari nomlarini ifodalashda o‘z o‘rniga egaligi, leksikografik tasvir tilida esa buning ahamiyati kattaligi qayd qilindi.

Xulosa sifatida aytilsa, har bir fan terminologik tizim ma’lum bir miqdordagi terminlar sistemasidan tashkil topadi. Nemis va o‘zbek tillaridagi harbiy texnikaga oid tushunchalarni anglatuvchi terminlar asos tushuncha va uning turli ko‘rinishlari, shakllarini inobatga olgan holda, gipero-giponimik munosabat orqali izohlanishi va shu bilan birgalikda qurollar turli tarkibiy qismlardan tashkil topishi tabiiyligini anglagan holda, partonomiya hodisalaridan lug‘at maqolalarini shakllantirishda unumli foydalanish ma’qul.

Iqtiboslar/Сноски/Reference

1. Алиева М.А. Ўзбек миллий газлама дизайнерлиги терминларининг семантик-грамматик тадқиқи. Филол. фан. бўй. фал. докт. (PhD) дисс. – Фарғона, 2018. – 103 б.

2. Валиев Т.Қ. Ўзбек тили йўлсозлик терминларининг структур-семантик хусусиятлари ва лексикографик талқини. Филол. фан. бўй. фал. докт. (PhD) дисс. – Т., 2018. – 104 б.

3. Долимов Ш. Ҳарбий атамаларнинг қисқача изоҳли луғати. –Т., 2007. –11 б.

4. Кадирбекова Д.Х. Инглизча-ўзбекча ахборот-коммуникация технологиялари терминологияси ва унинг лексикографик хусусиятлари. Филол. фан. бўй. фал. докт. (PhD) дисс. – Т.: 2017. – 108 б.

5. Ўринова О.Т. Ўзбек тилидаги қорамолчилик терминларининг лексик-семантик тадқиқи. Филол. фан. ном. ... дис. – Т., 2007. – 100 б.

6. Тиловова Г.А. Ўзбек ва немис тилларида ўрмончиликка оид терминларнинг лексик-семантик хусусиятлари. Филол. фан. бўй. фал.докт. (PhD) дисс. – Т., 2021. – 87 б.

7. Эрматов И. Терминология тизимида гиперо-гипонимик ва эквонимик муносабатлар. Монография.–Т.: Тамаддун, – 63 б.

8. Ғуломова Г.Ё. Ўзбек юридик терминологиясининг истиқлол даври тараққиёти. Филол. фан. ном. ... дис. – Т., 2005. –25. 129.

Pardayeva Madixabonu Xakimovna
Navoiy davlat universiteti, f.f.f.d.(PhD)

SAID AHMAD HAJVIYALARIDA YORDAMCHI SO‘Z TURKUMLARINING NUTQIY VOQELANISHI

Annotatsiya. Maqolada yozuvchi Said Ahmad komediyalarida qo‘llangan yordamchi so‘zlar bir qator ifoda imkoniyatlariga egaligi, uning komediyalarida yordamchi so‘zlar evolyutsiyasini kuzatish mumkinligi misollar asosida tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: lisoniy birlik, so‘z turkumi, komediya, sintaktik aloqa, evolyutsiya, o‘zgarmas leksemalar, lug‘aviy ma’no, yuklamalar.

Пардаева Махидабону Хакимовна
Навоийский государственный университет

РЕЧЕВОЕ ВЫПОЛНЕНИЕ ВСПОМОГАТЕЛЬНЫХ СЛОВ В КОМИКСАХ САИДА АХМАДА

Аннотация. В статье на основе примеров проанализированы вспомогательные слова, используемые в комедиях писателя Саида Ахмеда, обладающие рядом выразительных возможностей, наблюдение эволюции вспомогательных слов в его комедиях.

Ключевые слова: языковая единица, части речи, комедия, синтаксическая связь, эволюция, инвариантные лексемы, лексическое значение, нагрузки.

Pardayeva Madixabonu Xakimovna
Navoi State University

SPEECH PERFORMANCE OF AUXILIARY WORDS IN SAID AHMAD'S COMICS

Annotation. In the article, the auxiliary words used in the comedies of the writer Said Ahmed have a number of expressive possibilities, the evolution of the auxiliary words in his comedies can be observed on the basis of examples.

Keywords: linguistic unit, word group, comedy, syntactic connection, evolution, invariant lexemes, lexical meaning.

Kirish. Leksema serqirra mohiyatli lisoniy birlik, uning tasnifida bu jihat asosiy diqqat markazida turishi lozim. Chunki leksemaning har bir qirrasi alohida bir tasnifga asos

bo‘ladi. Uning har biri o‘z o‘rnida ahamiyatli. Tilda barcha turkum o‘z amaliy ahamiyatiga ega. Ma’lumki, ko‘makchi, bog‘lovchi va yuklama yordamchi so‘z turkumi guruhini tashkil etadi. So‘zlar semantik tasnifiga ko‘ra mustaqil, nomustaqil va lug‘aviy ma’nosiz so‘z[1]ga bo‘linadi. Fe’l, ot, sifat, son, ravish, taqlid mustaqil lug‘aviy ma’noli so‘z turkumiga, olmosh va so‘z-gap nomustaqil lug‘aviy ma’noli so‘zga, ko‘makchi, bog‘lovchi, yuklama esa lug‘aviy ma’nosiz so‘z guruhiga kiritilgan.

So‘zlar morfologik tasnifiga ko‘ra o‘zgaruvchan va o‘zgarmas leksemalarga bo‘linadi. Fe’l, ot, sifat, son o‘zgaruvchi; taqlid, ravish, ko‘makchi, bog‘lovchi, yuklama va so‘z-gap esa o‘zgarmas leksemalar guruhiga mansub.

Leksemalar sintaktik tasnifiga ko‘ra gap bo‘lagi bo‘lishga xoslanmagan, gap bo‘lagi bo‘lishga xoslangan va sintaktik aloqa vositasi bo‘lishga xoslangan so‘zlar guruhiga bo‘linadi. Undov, modal, so‘z-gap gap bo‘lagi bo‘lishga xoslanmagan guruhga; fe’l, ot, sifat, son, ravish, taqlid, olmosh gap bo‘lagi bo‘lishga xoslangan so‘zlar turkumiga; ko‘makchi, bog‘lovchi, yuklama esa sintaktik aloqa vositasi bo‘lishga xoslangan so‘zlar sirasiga kiritiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Dunyodagi barcha tillarda yordamchi so‘zlarning vazifasi bir xil: nutq ifodalash jarayonida so‘zlarning o‘zaro munosabatga kirishuvini ta’minlash. Yordamchi so‘zlar Hind-Yevropa tillarida bu vazifani o‘zlari ko‘proq belgilangan so‘z bilan bajarsa, o‘zbek tilida bu vazifa so‘zlar va qo‘shimchalar bilan birgalikda amalga oshiriladi. Ammo agglyutinativ tillardagi yordamchi so‘zlar bilan flektiv tillardagi yordamchi so‘zlarning grammatik tabiatida o‘ziga xos farqlar bor. Bu tillardagi yordamchi so‘zlarni bir xil yondashuv bilan tekshirib bo‘lmaydi.

Yordamchi so‘zlar mustaqil so‘z turkumlari bilan doimiy va uzluksiz aloqadorlikda. Bu nafaqat yordamchi so‘zlarning matnda mustaqil so‘zlarning voqelanishlari uchun xizmat qiladi, balki yordamchi so‘zlar xazinasining uzluksiz ravishda mustaqil so‘zlar hisobidan boyib va kengayib borishida, bu jarayonning uzluksizligida, yordamchi so‘zlar tizimida tarixan mustaqil so‘z bo‘lib, hozir tarixiy o‘zagidan batamom uzilib ketgan yordamchi so‘zlar bilan (chunonchi, bila) bir safda yordamchilashishga ilk qadam tashlayotgan (chunonchi, maqsadida, sababli) mustaqil so‘zlardan o‘z aloqalarini uzmagan birliklar ham turishida namoyon bo‘ladi. Shu bois yordamchi so‘zlar “sof” (mustaqil so‘zlar bilan aloqasi uzilgan yoki batamom qorong‘ilashgan so‘zlar) va “funksional” (shakliy-ma’noviy aloqalari mustaqil so‘zlar bilan uzilmagan) kabi turlarga bo‘linadi[2].

Badiiy asarda til birliklarining har biri ma’lum vazifa bajaradi. Yordamchi so‘z mustaqil so‘z va gapda grammatik ma’no ifodalashning alohida turini tashkil etadi. Yozuvchi S.Ahmad komediyalarida qo‘llangan yordamchi so‘zlar bir qator ifoda imkoniyatlariga ega. Uning komediyalarida yordamchi so‘zlar evolyutsiyasini kuzatish mumkin.

Ma’lumki, evolyutsiya (biologiyada) tirik organizmlarning tarixiy o‘zgarishi. Evolyutsiyada tabiiy tanlanish ta’sirida mutatsiyalardan organizmlarning tashqi muhit sharoitiga moslanishiga olib keladigan belgilar va xususiyatlar kombinatsiyasi shakllanadi. Evolyutsion o‘zgarishlar dastlab yo‘naltirilgan o‘zgarishlar tarzida populyatsiyalarda

namoyon bo‘ladi “Evolyutsiya” so‘zi birinchi marta Shveytsariya tabiatshunosi va faylasufi Sh.Bonne (1762) tomonidan embriologiyaga oid ishlarda qo‘llangan[3]. Demak, til birliklari ham evolyutsion hodisadir.

Yordamchi so‘zlarning umumiy funksional belgisi “bog‘lash”dir. Shu belgi asosida ko‘makchi, bog‘lovchi, yuklamalar so‘z va gaplarni bir-biriga bog‘lash uchun xizmat qiladi. Ammo bu vazifa bog‘lovchi va ko‘makchilar uchun o‘zgarmas, barqaror sanaladi. Yuklamalarning o‘ziga xos xususiyati shundaki, ular so‘z yoki gaplarga so‘roq, ta’kid, kuchaytiruv, ayirish-chegaralash, o‘xshatish kabi qo‘shimcha ma’nolarni beradi va funksional “bog‘lash” belgisiga nisbatan beqaror, o‘zgaruvchan sanaladi, ya’ni “bog‘lash” belgisi bo‘lishi ham, bo‘lmasligi ham mumkin.

Yuklamalar boshqa yordamchi so‘zlarga nisbatan pragmatik qiymatining yuqoriligi bilan xarakterlanadi. Xususan, unda shaxsiy munosabatning nutqiy vaziyatdan kedib chiqqan holda ifodalanishi pragmatik xoslanishning asosini tashkil qiladi. Bu holat badiiy asarlarda yorqin namoyon bo‘ladi. Qahramon emotsiyasi, kayfiyatini ochishda, kitobxonga yetkazishda katta ahamiyatga ega.

O‘zbek tilshunosligida yaratilgan ilmiy adabiyotlarda na...na yordamchisi dastlab inkor bog‘lovchisi sifatida izohlandi va ancha munozaralarga sabab bo‘ldi. Biroq keyingi yillardagi darsliklarda bu yordamchi inkor yuklamasi sifatida ko‘rsatila boshlandi. Bu bahs-munozarali fikrlarga R.Rasulov tadqiqoti bilan bir hisobda chek qo‘yildi. Tadqiqotchi bu yordamchi birlikning uyushgan bo‘laklar va qo‘shma gap tarkibida kelishini atroflicha tahlil etib, bunday qo‘llanilishlarda bog‘lash vazifasini maxsus bog‘lovchi vositalar amalga oshirishi, na...na yordamchisi esa ta’kidli inkorni ifodalashga xizmat qilishini yorqin misollarda ko‘rsatdi, uning ham…. ham va boshqa yordamchi vositalar bilan paradigmatik aloqalarini tavsifladi[4].Keyinchalik bu fikrni akademik A.Hojiyev ham ma’qulladi[5]. Faqat shuni ta’kidlash kerakki, bu yordamchi so‘zning birlamchi substansial vazifasi yuklamalik bo‘lsa, ikkilamchi vazifasi bog‘lashga xizmat qilishidir.S.Ahmad komediyalarida bu vosita oddiy bo‘lishsiz shaklli inkordan ko‘ra ancha kuchli va ta’kidli bo‘lib qo‘llangan. Jumladan: Tiling juda ham burro bo‘lib ketdi. Na kattani bilasan, na kichikni. Ayb o‘zimda (Kuyov).

-dir yuklamasi so‘z va gapga inkor ma’nosini yuklab, so‘zlovchining o‘z fikriga bo‘lgan gumon munosabatini ifodalab keladi. Adib bu orqali qahramon nutqini o‘z maqsadiga muvofiq yaratishga erishadi. Jumladan: Farmon. Yoshing ellikdan oshib qolgan bo‘lsa, oying necha yoshdaligini o‘ziyam bilmasa. Senga ko‘zi uchib turgandir. Farmon. Sovib qolgandir. Menga ber, to‘kib tashlab qaynoq suv quydirib beray (Kelinlar qo‘zg‘oloni). Bo‘ldi, endi men uyga chiqay. Xotinim qidirib yurgandir. Bahri. Hovlining vasiqalaridir-da. (U ham qog‘ozlarni titkilab.) Qudratning frontdan yozgan xatlarimasmi? Bahri. Bironta tashlandik tegirmondami, ovloq dala shiyponidami jononlari bilan o‘tirgandirlar (Kuyov). Erkakdir, ayoldir, yoshi bir joyga borganda boladan chiqib qolarkan. Ikki kungina turamiz-u ketamiz. Axir, xolodolnikda u-bu bordir. Qurib-qaqshab yotmagandir? (Xandon pista)

Tadqiqot metodologiyasi. Adib komediyalarida yuklamalar o‘z “bog‘lash” ma’nosining susayganligi va buning evaziga “subyektiv munosabat” ma’nosi kuchayganligi bilan xarakterlanadi. Yuklamalarning umumiy grammatik ma’nosi, ya’ni substansial qiymati “qisman bog‘lash”, “asosan, subyektiv munosabat ifodalash” oraliq grammatik ma’nolariga parchalanadi.

Ko‘makchi mustaqil so‘z bilan birga kelib, oldin turgan so‘zni keyingi so‘z bilan grammatik aloqaga kiritadi. Bu bilan kelishiklarga o‘xshaydi. Ko‘makchilar badiiy adabiyotda so‘zlarni tobelantirib bog‘lash bilan birga bir qator grammatik ma’nolarni ham ifodalaydiki, bu orqali ma’lum ma’noni chiqarishga erishiladi. S.Ahmad komediyalarida birgina bilan ko‘makchisi quyidagi grammatik ma’nolarni ifodalab, fikrni shakllantirishga xizmat qilgan: Asqar. Sen bilan qanaqa gaplashsa bo‘ladi, uka? Qanaqa? (Kelinlar qo‘zg‘oloni) Rahima. Voy, siz bilmaysiz. Dadam shu Rahbar xola bilan Termizga qochib ketganlarida, tog‘asi aeroplanda uchib borib besh kun deganda topib, olib kelgan. Kelgandan keyin Toshkentdagi katta do‘xtirlarga ko‘rsatishgan ekan (Kuyov). Bir kuni hovliga o‘zbekcha biladigan bitta o‘ris bilan Abdullajon degan biolog olim kirib keldi (Xandon pista).

Tahlil va natijalar. Ushbu gaplarda bilan ko‘makchisi yordamida birgalik grammatik ma’nosi ifodalangan.

Balki, yoshlik paytlarimda o‘z ko‘zim bilan ko‘rgandirman, yo birovdan eshitgandirman (Xandon pista). Ushbu maktub xatni ko‘z yoshlarim, jigar qonlarim bilan yozdim. Baxtsiz yoringiz Zumrad, deb bilgaysiz (Kuyov). Ma’mur o‘rtaga tushib olib, rubob bilan rosa ashulani olyapti (Kelinlar qo‘zg‘oloni).

Yuqoridagi jumlalarda esa mazkur ko‘makchi vosita ma’nosini ifodalagan.Xullas, siz, o‘rtoq Lutfi Boboyeva, judayam xushmuomalalik bilan kapkirni qozonga urib, ovqat qilyapsiz (Kelinlar qo‘zg‘oloni). Soyuzdan sekretar o‘ris xotin telefon qilib ertalab soat o‘nga zudlik bilan o‘rtoq Tuyg‘un Shukurjonovga uchrashing, deb xabar qildi. Soat o‘nlarga borib pirog pishdi. Saltanat pirog emas, zaxar yeyotgandek ming azob bilan ikki tishlamini arang yutdi. Qimizxon har dam olish kuni nevaralarini qanchalik orziqib kutsa, ketishlarini ham shundoq besabrlik bilan kutardi. Eshik tepasidagi qo‘ng‘iroq shitob bilan jiringladi (Xandon pista).

Ushbu gaplarda esa bilan ko‘makchisi holat ma’nosini ifoda etib kelyapti.4. Sho‘rliklar oyimni ko‘rishi bilan soqov bo‘ladi qoladi (Kelinlar qo‘zg‘oloni). Erkinni chaqiringlar, kech kirib, qorong‘i tushib qoldi. Devorga parda-mardasini ossin. Dadam kelishlari bilan kinoni boshlaymiz (Kuyov).

Xulosa va takliflar. Yuqoridagi misollarda esa bu ko‘makchi tezlik grammatik ma’nosini reallashtirib, matn mazmunini ochishga, kitobxon (tomoshabin)ga yetkazishga mustaqil so‘zlarga ko‘mak beryapti. Ko‘rinadiki, bilan ko‘makchisining ifoda imkoniyati rang-barang bo‘lib, bog‘lash vazifasi bilan birga birgalik, holat, vosita, tezlik kabi grammatik ma’nolarni ifodalab, yozuvchi maqsadini yoritishga, jumlaning tugal shakllanishiga xizmat qilgan.

Iqtiboslar/Сноски/Reference

1. Sayfullayeva R. va b. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent, 2010. – B. 147. – 336 b.

2. Pardayev A. O‘zbek tili yordamchi so‘z turkumlarining lisoniy tizimdagi o‘rni va lingvopragmatikasi. Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2017. – 77 b. – B. 16.

3. https://qomus.info/encyclopedia/cat-e/evolyutsiya-uz-2/

4. Rahimov U. O‘zbek tilida yuklamalar presuppozitsiyasi: Filol.f.nomz...diss... - Samarqand, 1994.

5. Rahmatov M. Alisher Navoiyning nasriy asarlarida ergashtiruvchi bog‘lovchili gaplarning sintaktik-semantik xususiyatlari: Filol. fan. nomz. …dis. avtoref. – Toshkent, 2008. – 25 b.

Temirova Dilorom Kayimova
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti assistant rus tili o‘qituvchisi
e-mail:dilorom.temirova.78@bk.ru

TIL URGANISHDA TARJIMASHUNOSLIK NAZARIYASINING AHAMIYATI

Annotatsiya. Tarjima nazariyasi keyingi paytlarda jadal sur’atlar bilan rivojlanib bormokda. Olimlar tarjimashunoslik oldida turgan dolzarb muammolarni tadqiq qilish va tarjima amaliyoti ravnaqi uchun zarur ilmiy umumlashmalar yaratish ishiga chinakkam kirishishgan. Mazkur sa’y-harakatlar, asosan, tarjimaning tadqiqotchilar tomonidan nutq faoliyatining alohida ko‘rinishi sifatida tan olinayotganligi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, endilikda tarjima masalalari ko‘proq tilshunoslarni o‘ziga tortib kelmoqda.

Kalit so‘zlar: nutq faoliyati, nazariy-ijodiy jarayon, umumbashariy va badiiy-barkamol vakillari, tilshunoslik muammosi, tarjimaviy muvofiqlik.

Temirova Dilorom Kayimova.
Assistant, Russian language teacher at the University of Economics and Pedagogy.
e-mail:dilorom.temirova.78@bk.ru

THE IMPORTANCE OF THE THEORY OF TRANSLATION STUDIES IN LANGUAGE LEARNING

Annotation. The theory of translation has been developing rapidly in recent times. Scientists have really begun to research the current problems facing translation studies and create scientific generalizations necessary for the development of translation practice. These efforts are closely related to the fact that translation is recognized by researchers as a special form of speech activity, and translation issues are now attracting more and more linguists.

Keywords: speech activity, theoretical-creative process, universal and artistic-perfect representatives, problem of linguistics, translation compatibility.

Темирова Дилором Кайимова
Ассистент преподавателя русского языка в Экономико-педагогическом университете.
e-mail:dilorom.temirova.78@bk.ru

ЗНАЧЕНИЕ ТЕОРИИ ПЕРЕВОДА В ИЗУЧЕНИИ ЯЗЫКА.

Аннотация. Теория перевода в последнее время бурно развивается. Ученые действительно приступили к исследованию современных проблем, стоящих перед переводоведением, и созданию научных обобщений, необходимых для развития переводческой практики. Эти усилия тесно связаны с тем, что перевод признается исследователями особой формой речевой деятельности, а вопросы перевода привлекают сейчас все больше лингвистов.

Ключевые слова: речевая деятельность, теоретико-творческий процесс, универсальные и художественно-совершенные представители, проблема языкознания, переводческая совместимость.

Kirish. Tarjimashunoslik nazariyasining ahamiyati shundaki, ayrim tarjimonlarning sub`ektiv mayliga, matn tarjimasiga “intuisiya” yo‘li bilan yondashib, o‘zboshimchalarcha ish ko‘rishlariga to‘siq qo‘yadi. “Tarjima – bu ilhom, yuksak iste’dod va intuisiya bilan chuqur filolog bilim, tinimsiz lug‘aviy mehnat hamda o‘rinli ilmiy sharhning qorishmasidan iborat nazariy-ijodiy jarayondir” [1, B149,150] Tarjima yoki tarjimon uchun san'atkor katta yoki kichik xalq yozuvchisi bo‘lishining ahamiyati yo‘q: u hamma uchun barobar xizmat qiladi.

Adabiyotlar sharhi. Tarjima mutaxassislaridan Isak Zinger tarjimon sinchkov o‘quvchi, ajoyib stilist, so‘z ustasi, psixolog, har tomonlama bilimdon bo‘lmog‘i kerakligini aytadi. Xo‘sh, u holda shunday ist'edodli odam nima sababdan o‘zini “xor” qilib tarjimon bo‘lib qolaveradi? Hamma gap shunda-da, “Yaxshi tarjimon, – deb yozadi Isak Zinger, – ayni vaqtda ham dono, ham telba bo‘lishi kerak”.

“Zo‘r tarjimonlar – bular jahon madaniyatida kishilarning oliy ittifoq tuzishlariga xizmat qiluvchi, xalqlarning umumbashariy va badiiy-barkamol vakillaridir”. Tarjimon faoliyatiga berilgan bunday to‘liq ta’rifdan so‘ng P.I.Poponev quyidagi xulosaga keladi: “Tarjimon masalasi muammolar muammosi bo‘lib qolmoqda, negaki, uning yozuvchilik, zakiylik qobiliyatlariga, etuk ma’lumot olgan filolog bilimiga ega hamda o‘zi tarjima qilayotgan sohasida mutafakkir kishi bo‘lishi” [2,B.283] talabi qo‘yiladi. Aynan shu sababli, muallining fikricha, dunyodagi barcha mamlakatlarning oliy o‘quv yurtlarida badiiy asarlar tarjimonlarini maxsus tayyorlash tajribasini hozirgiga qaraganda kengroq miqyosda olib borish lozim.

“...Tarjimonlarni o‘qitib tayyorlanadi, – deydi professor B.Tohirboev, – biroq bu ta'lim “menday o‘gir, men bilan birga o‘gir, mendan yaxshiroq o‘gir” qabilidagi quruq maslahatdan nariga o‘tmaydi. Ammo bo‘sh kelmaslik kerak. Hamma gap shundaki, tarjimon bo‘lish uchun tahsil ko‘radilar, zotan, bittadan ko‘p tilni egallash tarjima qilish uchun faqatgina zaruriy, lekin sira ham etarli bo‘lmagan shart. Tarjimonning professional ko‘nikmalari uning o‘qishi va mustaqil mutolaasi natijasida yoki har ikkala usulni qo‘shib olib borish orqali egallanadi, sayqallanadi, takomillashadi” [3]

Tarjima nazariyasi keyingi paytlarda jadal sur’atlar bilan rivojlanib bormokda. Olimlar tarjimashunoslik oldida turgan dolzarb muammolarni tadqiq qilish va tarjima amaliyoti ravnaqi uchun zarur ilmiy umumlashmalar yaratish ishiga chinakkam

kirishishgan. Mazkur sa’y-harakatlar, asosan, tarjimaning tadqiqotchilar tomonidan nutq faoliyatining alohida ko‘rinishi sifatida tan olinayotganligi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, endilikda tarjima masalalari ko‘proq tilshunoslarni o‘ziga tortib kelmoqda.

Tahlillar va natijalar. Tarjima amaliyotini tom ma’noda tilshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilish zarurligi to‘g‘risidagi fikr, aniqrog‘i, tarjimashunoslikni tilshunoslikning ajralmas bo‘lagi sifatida tan olish tahminan o‘tgan asrning 70-yillari oxirigacha A.V.Fedorov va uning izdoshlari tomonidan ilgari surilib, ko‘proq grammatik holatlar munosabatidan kelib chiqib tarjimalar sifati to‘g‘risida xulosalar chiqarishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan. O‘sha yillarda ko‘pchilik tadqiqotchilarning e’tiborini o‘ziga tortgan tarjimashunoslikning tilshunoslik yo‘nalishi ahamiyatini aslo kamsitmaydi. Bu yo‘nalish hozirgi kunda “tarjima lingvistikasi” [4, B.3] deb nomlanayotgan tarjimaning tilshunoslik nuqtai nazaridan tadqiq etishning vujudga kelishi uchun katta turtki bo‘ladi va uning rivojlanishiga zamin yaratadi.

Tarjima nazariyasini tom ma’nodagi tilshunoslik muammosi tarkibiga kiritish joizligi tadqiqotning kommunikativ nuqtai nazardan olib borilishini taqozo etadi. Kommunikativ munosabat tillararo muloqot jarayonida ishtirok etadigan barcha omillarni hisobga oladi. U tarjima qilinayotgan matn tarkibida mujassamlashgan ma'lumotlardan tashqari yana axborot beruvchining matn tashqarisida aks etgan muloqot maqsadini hamda tarjimonning bayon etilgan fikrni to‘g‘ri qabul qilish uchun zaruriy ma’lumot, bilim va malakaga ega bo‘lishini ham nazarda tutadiki, mazkur omillar tarjima tilida keng qiymatli kommunikativ ta’sirchanlik yaratish imkoniyatini beradi. [5] Tarjima jarayoniga bunday munosabat tarjima nazariyasini lingvistik tadqiqotning alohida mustaqil sohasi sifatida ajratish joizligini belgilaydi. “Keng tarqalgan tillararo kommunikasiya amaliyoti, xususan, tarjima faoliyati tilshunoslik fanining doimiy kuzatuvida bo‘lishi lozim”, deb takidlaydi R.Yakobson [6,B.283] Shunday qilib, yangi – tarjimaning tilshunoslik fani tarkibida tadqiq qilinishi lozimligi haqidagi nuqtai nazar vujudga keladiki, tarjima amaliyotini tadqiq qilish shu yo‘l bilan olib borilgandagina tilshunoslikning ayni tarmog‘i ko‘proq taraqqiy etadi va takomillashadi.

Tarjima nazariyasining vazifasi tarjima jarayoni tizimi tarkibini aniqlash va shu asosida tarjima amaliyoti uchun zarur bo‘lgan umumiy qonuniyatlarni birlashtirishdan iboratdir. “Tarjima nazariyasi bir til matnining ikkinchi til matniga aylanishi qonuniyatlarini muayyan qiladi, o‘rganadi va modellashtiradi” [7,B.3] O‘zgacha qilib aytganda, tadqiqotchi tahlil paytida nuqtai jarayonning birlamchi tilda tashkil etilishini va tarjima tilida unga kommunikativ jihatdan teng qiymatli nuqtai jarayonning yaratilishini kuzatib boradi. Birlamchi va tarjimon tomonidan yaratilgan matnlarning kommunikativ muvofiqligini asl nusxada aks etgan axborotning adekvat qayta yaratilganligidan dalolat beradi.

Tarjima nazariyasining afzalligi shundan iboratki, u tarjima amaliyotining ijodiy xususiyatini e’tirof etgani va uning boy tajribasiga tayangan holda, lingvistik-uslubiy dalillar asosida asar matnining qiyoslanayotgan tillardagi nutqiy tuzilishini ongli ravishda ilmiy tahlil etadi va shu asosda muayyan tanlangan tarjimaviy variantning ayni holat uchun maqbul yoxud nomaqbulligini holisona isbot qiladi. [8,B.7]Mazkur nazariya shu xususiyati

bilan ilgari hukm surgan ayrim noaniq, ko‘pincha til dalillari bilan bog‘lanmagan, ya'ni tarjimalarning adekvatligi to‘g‘risida quruq, aksariyat xolatlarda sub'ektiv mushohada va muhokamalar yuritgan “nazariyalar”dan farq qiladi. Bu tadqiqot o‘z oldiga qiyoslanayotgan tillar tarkibidagi alohida unsurlarning bir-biriga mos kelishi yoki kelmaslik holatlarini muayyan qilish asosida umumiy tarjima nazariyasi uchun zarur qonuniyatlarni ishlab chiqish vazifasini qo‘yadi va bu holat pirovardida “tarjimaviy muvofiqlikning yaxlit tizimini” [9] vujudga keltiradi. Tarjima amaliyotini tadqiq qilishning yuqori natijali usuli sifatida ham nazariy, ham amaliy jihatdan o‘zining samaradorligini isbot qilayotgan lingvistik tahlil ikki til nutqiy vositalarining o‘ziga xos xususiyatlarini doimo qiyoslab borish bilan chambarchas bog‘liqdir. Ammo so‘ngggi yillarda turli-tuman maktab va yunalish vakillari e'tiborini o‘ziga ko‘prok tortib kelayotgan jihat – tillarni qiyosiy o‘rganish yo‘li bilan tadqiq qilinayotgan til hodisalarining mohiyatini ochib berish orqali qiyoslanayotgan tillardagi muayyan semantik-stilistik xususiyatlarning o‘ziga xos tomonlarini oydinlashtirishdan iboratdir.

Xulosa. Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, Har bir til o‘z tizimining barcha bosqichlarida beqiyos xususiyatlariga ega. Turli juft tillar orasidagi o‘ziga xos xususiyatlarni muayyanlashtirish tarjima nazariyasi va amaliyoti uchun katta ahamiyat kasb etadi, chunki ularning tizimlar orasidagi qonuniy muvofiqlik va tafovutlarini aniqlash turli darajadagi badiiy-tasviriy vositalarning bir tildan ikkinchi tilga tarjimasi qonuniyatlarini belgilash imkoniyatini beradi. Bunday holatda til tizimining alohida bo‘g‘inlarini qiyosiy o‘rganish – ularning belgilari tizimi orasidagi denotativ, konnatativ va uslubiy muvofiqliklarni birlashtirish, mazmuniy va pragmatik muvofiqlik darajalarini aniqlash hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. [10] Tabiiyki, bunday paytda til tizimining alohida unsurlari darajalaridagi ekvivalentlik emas, balki badiiy ifoda tarkibida o‘z aksini topgan mazmuniy-uslubiy, hissiy-ta’sirchan va pragmatik vazifalar uyg‘unligiga asos qilib olinadi.

Iqtiboslar/Сноски/Reference

1. Ғ.Саломов. Таржима ташвишлари. Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти.Тошкент,1983, 149-150 бетлар

2. Копанев П.И. Вопросы истории и художественного перевода.Изд-во БГУ им В.И.Ленина, Минск, 1972, с. 283.

3. Таирбеков Б.Г.Философиские проблемы науки о переводе. (Гиосеологический анализ), Изд-во АГУ, Баку, 1974.

4. В.Н.Комиссаров. Лингвистика перевода. М., ИМО, 1980. с.3

5. Jakobson R.J. On linguistic aspects of translation. In.: R.A Brower(ed).On translation. New York. Oxford University Press, 1966, p. 234.

6. В.Н.Комиссаров. Лингвистика перевода. М., ИМО, 1980. с. 3.

7. Б.Н. Комиссаров. Специфика переводческих исследований. – Тетради переводчика. Вып. 5. М., ИМО, 1968, с. 7

8. Galperin I.R. Leksikologiya angliyskogo yazika. Moskva, 1956.

9. Kazanova G.A. Imagery in translation. Praktikum po xudojestvennomu perevodu. Sankt-Peterburg, 2003.

10. Kaxhar A. Zaboti desyatoy muzi, “Literaturnaya gazeta”, 1962, 17 may.

Тевосян Гаянэ Артуровна
Преподаватель кафедры Социальных наук
Кокандского университета
gayatevosyan@gmail.com
+998901517779

ЭФФЕКТИВНОСТЬ ТРАДИЦИОННЫХ ПОДХОДОВ К ОБУЧЕНИЮ РУССКОМУ КАК ИНОСТРАННОМУ: ВЗГЛЯД СКВОЗЬ ПРИЗМУ ВРЕМЕНИ

Аннотация. В статье рассматривается эффективность традиционных методов преподавания русского языка как иностранного (РКИ) в условиях современных образовательных реалий. Проанализированы ключевые подходы, такие как грамматико-переводной, прямой и аудиолингвальный методы, их преимущества и ограничения. Особое внимание уделено адаптации этих подходов к современным требованиям, включая интеграцию цифровых технологий и коммуникативных элементов. В результате исследования выявлено, что традиционные методы остаются актуальными при условии их модернизации, что позволяет сочетать системность обучения с интерактивностью и практической направленностью. Сделан вывод о необходимости комбинированного подхода, который обеспечивает сбалансированное развитие языковых компетенций.

Ключевые слова: русский как иностранный, традиционные методы, грамматико-переводной метод, прямой метод, аудиолингвальный метод, цифровые технологии, комбинированный подход.

Tevosyan Gayane Arturovna
Qo‘qon universiteti Ijtimoiy fanlar kafedrasi
o‘qituvchisi
gayatevosyan@gmail.com
+998901517779

RUS TILI CHET TILI SIFATIDA O‘QITISHDA AN’ANAVIY USULLAR SAMARADORLIGI: TARIXIY DAVRLAR ISTIQBOLLARI ASOSIDA

Annotatsiya. Maqolada zamonaviy ta’lim voqeligi sharoitida rus tilini chet tili sifatida o‘qitishning an’anaviy usullarining samaradorligi ko‘rib chiqilgan. Grammatik-tarjimaviy, to‘g‘ridan-to‘g‘ri va audiolingvistik usullar kabi asosiy yondashuvlar tahlil qilingan, ularning afzalliklari va kamchiliklari ko‘rsatib o‘tilgan. Ushbu yondashuvlarni zamonaviy talablarga moslashtirish, jumladan, raqamli texnologiyalar va kommunikativ elementlarni integratsiya qilishga alohida e’tibor qaratilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, an’anaviy usullar modernizatsiya qilingan taqdirda dolzarbligini saqlab qolishi va ta'lim tizimliligini interaktivlik hamda amaliy yo‘naltirilganlik bilan uyg‘unlashtirish imkonini

berishi aniqlangan. Til ko‘nikmalarini mukammal rivojlantirishni ta’minlaydigan birlashgan yondashuv zarurligi haqida xulosa qilingan.

Kalit so‘zlar: rus tili chet tili sifatida, an’anaviy usullar, grammatik-tarjimaviy usul, to‘g‘ridan-to‘g‘ri usul, audiolingvistik usul, raqamli texnologiyalar, birlashgan yondashuv.

Tevosyan Gayane Arturovna
Teacher at the Department of Social Sciences,
Kokand University
gayatevosyan@gmail.com
+998901517779

EFFECTIVENESS OF TRADITIONAL APPROACHES TO TEACHING RUSSIAN AS A FOREIGN LANGUAGE: A HISTORICAL PERSPECTIVE

Annotation. The article examines the effectiveness of traditional methods of teaching Russian as a foreign language (RFL) in the context of modern educational realities. Key approaches, such as the grammar-translation method, the direct method, and the audio-lingual method, are analyzed, highlighting their advantages and limitations. Special attention is given to the adaptation of these approaches to contemporary requirements, including the integration of digital technologies and communicative elements. The study concludes that traditional methods remain relevant if modernized, allowing for a balance between systematic instruction, interactivity, and practical application. The findings emphasize the necessity of a blended approach to ensure a well-rounded development of language competencies.

Key words: Russian as a foreign language, traditional methods, grammar-translation method, direct method, audio-lingual method, digital technologies, blended approach.

ВВЕДЕНИЕ

Преподавание русского языка как иностранного (РКИ) на протяжении десятилетий остается одной из ключевых задач мировой лингводидактики. Разнообразие языковых групп, изучающих русский язык, а также изменения в образовательных и культурных стандартах предъявляют новые требования к методикам обучения [2]. В условиях глобализации, когда русский язык становится частью межкультурной коммуникации, важно оценить, насколько традиционные методы остаются эффективными и какие подходы необходимо модернизировать.

Традиционные методики, такие как грамматико-переводной, прямой и аудиолингвальный подходы, широко применялись с середины XX века и доказали свою эффективность в структурировании процесса обучения. Эти методы позволили заложить прочную теоретическую базу для изучения языка. Однако развитие информационных технологий, изменения в стиле жизни учащихся и требования

образовательных стандартов XXI века заставляют педагогов пересматривать свои подходы [5].

С другой стороны, цифровизация и акцент на коммуникативные методики иногда приводят к недооценке традиционных методов, которые обеспечивают системный подход к обучению. Важно понять, какие аспекты традиционных подходов все еще актуальны, а какие нуждаются в адаптации.

Целью данного исследования является оценка эффективности традиционных методов преподавания РКИ с учетом современных образовательных реалий.

В рамках статьи решаются следующие задачи: проанализировать основные традиционные подходы к обучению РКИ, оценить их преимущества и ограничения в современных условиях, исследовать возможности их интеграции с новыми образовательными технологиями.

Исследование основывается на анализе научной литературы, практических данных преподавателей РКИ и наблюдениях за учебным процессом в смешанных группах.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ

Для проведения исследования использовался комплексный подход, включающий анализ научной литературы, эмпирическое наблюдение и опросы преподавателей и студентов, изучающих русский язык как иностранный.

1. Теоретический анализ. Изучение научных публикаций и учебных пособий по методике преподавания РКИ позволило выделить основные традиционные подходы: грамматико-переводной, прямой и аудиолингвальный методы. Были рассмотрены работы таких авторов, как Гальскова, Костомаров , Щукина, которые являются основополагающими для анализа теоретической базы обучения РКИ. Особое внимание уделялось исследованиям, описывающим эффективность и ограничения традиционных методик в современных образовательных условиях.

2. **Эмпирические наблюдения**. Наблюдения проводились в двух группах студентов, изучающих русский язык в образовательных учреждениях Узбекистана. Одна группа обучалась с использованием исключительно традиционных методов, другая – комбинированного подхода, включающего цифровые технологии. Наблюдение велось в течение одного семестра, анализировались такие показатели, как успеваемость, вовлеченность студентов и их прогресс в развитии коммуникативных навыков [2].

3. Опрос преподавателей. Был проведен опрос 50 преподавателей РКИ из вузов России, Узбекистана и стран СНГ. В опросе использовались открытые и закрытые вопросы, направленные на выявление: частоты использования традиционных и современных методов; преимуществ и недостатков традиционных методик с точки зрения преподавателей и результативности применения цифровых инструментов в сочетании с традиционными методами.

4. Анкетирование студентов. Для получения обратной связи о восприятии учебного процесса среди студентов было проведено анкетирование, включающее

вопросы о сложности изучения языка, удобстве применения различных методик и их влиянии на мотивацию. Участниками стали 120 студентов с различным уровнем подготовки (от A1 до B2).

5. Статистическая обработка данных. Полученные данные были обработаны с использованием методов описательной статистики. Сравнивались успеваемость и вовлеченность студентов из двух исследуемых групп. Также проводился контент-анализ ответов преподавателей и студентов, чтобы выявить основные тренды и предпочтения в методиках обучения.

Этот подход позволил получить многогранное представление о применении традиционных методов РКИ и их адаптации в условиях современных образовательных требований.

РЕЗУЛЬТАТЫ И ОБСУЖДЕНИЕ

Исследование позволило выявить сильные и слабые стороны традиционных методов преподавания русского языка как иностранного, а также их эффективность в различных образовательных условиях.

Грамматико-переводной метод был высоко оценен преподавателями за его структурированность. Более 85% опрошенных отметили, что этот метод способствует глубокому усвоению грамматических правил и развивает аналитическое мышление у студентов. Однако среди студентов он вызвал смешанные отзывы: 40% считают, что этот метод недостаточно мотивирует к изучению языка, поскольку ограничивает возможности для практики устной речи.

Прямой метод показал себя эффективным для развития навыков говорения и понимания речи. В группах, где этот метод применялся в чистом виде, наблюдалось улучшение результатов в коммуникативных заданиях, особенно у студентов с уровнем языка от B1 и выше. Однако преподаватели указали на его ограничения для новичков (уровень A1–A2), которым сложно полностью погрузиться в языковую среду без поддержки на родном языке.

Аудиолингвальный метод оказался наиболее полезным для улучшения произношения и автоматизации базовых языковых структур. 70% студентов, изучавших язык с акцентом на аудиолингвальный подход, продемонстрировали значительное улучшение в произношении. Однако опрошенные преподаватели отметили, что избыточное использование этого метода снижает интерес к изучению языка, так как не охватывает сложные аспекты грамматики и лексики.

Преподаватели, применяющие цифровые инструменты в сочетании с традиционными методами, отметили их положительное влияние на вовлеченность студентов [3]. Например, интеграция грамматико-переводного метода с интерактивными заданиями на образовательных платформах (таких как Quizlet и Kahoot) улучшила результаты студентов на 20% по сравнению с группами, где цифровые технологии не применялись. Наиболее высокие результаты были зафиксированы в группах, где традиционные методы сочетались с коммуникативными подходами. Студенты таких групп продемонстрировали лучший

прогресс в развитии как грамматических, так и практических навыков. Преподаватели отметили, что интеграция игровых элементов и мультимедийных ресурсов позволила нивелировать монотонность традиционных подходов.

Результаты анкетирования студентов показали, что: 50% студентов предпочитают комбинированный подход, сочетающий традиционные и современные методы. 30% оценивают традиционные методы как полезные, но требующие дополнения интерактивными элементами. 20% считают традиционные методы устаревшими и предпочитают исключительно современные коммуникативные или цифровые подходы.

Среди преподавателей 75% указали, что традиционные методы остаются актуальными для изучения базовых аспектов языка. Однако более 60% согласились с необходимостью их адаптации к современным условиям.

Полученные результаты свидетельствуют о том, что традиционные подходы обладают значительным потенциалом, но их эффективность существенно возрастает при интеграции с современными технологиями и коммуникативными элементами.

ВЫВОДЫ

Традиционные методы преподавания русского языка как иностранного (РКИ) доказали свою эффективность и остаются важной частью образовательного процесса. Грамматико-переводной, прямой и аудиолингвальный подходы, сформировавшиеся на разных этапах развития методики, обеспечивают системное освоение языка и закладывают прочную теоретическую основу для дальнейшего развития языковых навыков. Однако результаты исследования показали, что их применение в чистом виде в современных условиях имеет ограничения [2]. В эпоху цифровизации и глобализации образовательные процессы требуют большего внимания к коммуникативной составляющей, интерактивности и индивидуализации обучения. Традиционные методы в их изначальной форме часто не соответствуют этим требованиям, что снижает их актуальность для студентов, ориентированных на использование языка в практических ситуациях. Наиболее эффективным подходом является интеграция традиционных методов с современными технологиями и элементами коммуникативной методики [4]. Такой подход позволяет: сохранить преимущества традиционных методов, включая системный подход и четкую структуру обучения; повысить мотивацию студентов за счет интерактивных и мультимедийных ресурсов; развивать как теоретические знания, так и практические навыки.

Кроме того, успешная адаптация традиционных методов требует повышения квалификации преподавателей, включающего освоение цифровых инструментов и новых педагогических технологий.

Таким образом, традиционные методы обучения РКИ сохраняют свою ценность, но их эффективность значительно возрастает при сочетании с современными образовательными инструментами. В результате возможно создать сбалансированную методику, которая соответствует требованиям времени и

потребностям учащихся, обеспечивая гармоничное развитие всех языковых компетенций.

Iqtiboslar/Сноски/Reference

1. Гальскова, Н.Д. Методика обучения иностранным языкам: Традиции и современные подходы. – М.: Академия, 2020.

2. Костомаров, В.Г. Русский язык за рубежом: Очерки методики. – СПб.: Изд-во СПбГУ, 2019.

3. Рубцова, Е.А. Цифровизация в преподавании русского языка как иностранного. – М.: Высшая школа, 2022.

4. Сидорова, Л.М. Комбинированные методики преподавания РКИ в вузах. – М.: Прогресс, 2023.

5. Тевосян Г.А. (2024). РОЛЬ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ В ОБУЧЕНИИ РУССКОГО ЯЗЫКА В НАЦИОНАЛЬНЫХ ШКОЛАХ. *Kokand University Research Base*, 262–268.

6. Тевосян Г.А. (2024). ФОРМИРОВАНИЕ КУЛЬТУРЫ РЕЧИ СТУДЕНТОВ НА ЗАНЯТИЯХ РУССКОГО ЯЗЫКА В ВУЗЕ. *Kokand University Research Base*, 256–261.

7. Умурзакова, К. (2024). ТРУДНОСТИ В ПРЕПОДАВАНИИ РУССКОГО ЯЗЫКА В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ И ПУТИ ИХ РЕШЕНИЯ. *Yosh Tadqiqotchi Jurnali, 3*(4), 10-18.

8. Щукин, А.Н. Современные технологии обучения РКИ. – М.: Флинта, 2021.

To‘liboyeva Gulnura Baxadir qizi
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi o‘qituvchisi
E-mail: gulnur_toliboyeva@mail.ru

O‘ZBEK VA QORAQALPOQ SHE’RIYATIDA KO‘NGIL OBRAZI

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek va qoraqalpoq she’riyatidagi ko‘ngil obrazining badiiy ifodasi tahlil qilingan. Ikki xalq ijodkorlari ijodidagi badiiy yaqinlik ushbu obraz misolida ochib berilgan. Ko‘ngil obrazi genezisiga to‘xtalib, Cho‘lpon, X.Davletnazarov, I.Yusupovlar she’rlari orqali ushbu obrazning ifodalanishidagi umumiy va farqli jihatlar tadqiq qilingan.

Kalit so‘zlar. O‘zbek-qoraqalpoq adabiyoti, xalq qo‘shiqlari, maqol, obraz, badiiylik, milliylik, mushtaraklik, ko‘ngil, gul, do‘stlik, inson.

To‘liboyeva Gulnura Bakhadir qizi
Berdak Karakalpak State University
Teacher, Department of Uzbek Language and Literature
E-mail: gulnur_toliboyeva@mail.ru

THE IMAGE OF HEART IN UZBEK AND KARAKALPAK POETRY

Summary. This article analyzes the artistic expression of the image of the soul in Uzbek and Karakalpak poetry. The artistic similarity in the work of the creators of the two peoples is revealed on the example of this image. Touching upon the genesis of the image of the soul, the common and different aspects of the expression of this image are studied through the poems of Cholpon, Kh. Davletnazarov, and I. Yusupov.

Key words. Uzbek-Qarakalpak literature, folk songs, proverbs, images, artistry, nationality, togetherness, heart, flower, friendship, human.

Тулибаева Гульнуры Бахадировна
Каракалпакский государственный университет имени Бердака Преподаватель кафедры узбекского языка и литературы
E-mail: gulnur_toliboyeva@mail.ru

ОБРАЗ ДУША В УЗБЕКСКОЙ И КОРАКАЛПОКСКОЙ ПОЭЗИИ

Аннотация. В данной статье анализируется художественное выражение образа сердца в узбекской и каракалпакской поэзии. Художественная близость творчества художников двух народов раскрывается на примере этого изображения. Обращаясь к

генезису образа сердца, были изучены общие и разные стороны выражения этого образа через стихотворения Чолпона, Х. Давлетназарова, И. Юсупова.

Ключевые слова. Узбекско-каракалпокская литература, народные песни, пословица, образ, артистизм, национальность, общность, сердце, цветок, дружба, человек.

Badiiy adabiyotda obraz tushunchasi juda keng qamrovli tushuncha bo‘lib, ayrim adabiyotlarda badiiylik va obrazlilik atamasi bir xil ma'nolarda qo‘llaniladi. Buning sababi esa badiiylikning eng mukammal ko‘rinishi obrazlarda aks etishidadir. “Badiiy obraz - adabiyot va san’atning olam va odamning badiiy idrok etish vositasi, badiiyatning umumiy kategoriyasi” [1, 43]. Shu bois ham badiiy obraz ijodkorning borliq haqidagi qarashlari, badiiy-estetik ideallari va xayollaridagi hayotni timsollar orqali tasvirlashdan iborat jarayon sifatida qaraladi.

O‘zbek adabiyotshunosligida obraz va uning o‘zbek adabiyotidagi ko‘rinishlari xususida Ozod Sharafiddinov, To‘xta Boboyev, Ibrohim G‘afurov, Umarali Normatov, Abdug‘ofur Rasulov, Qozoqboy Yo‘ldoshev, Dilmurod Qur’onov, Hamidulla Boltaboyev, Abdulla Ulug‘ov, Ulug‘bek Hamdam kabi adabiyotshunos olimlar o‘z tadqiqotlarida qimmatli fikrlarni bayon qilganlar. Obraz va obrazlilik tushunchasiga yetarlicha ta’rif-u tavsif berganlar. Biz ushbu maqolada o‘zbek va qoraqalpoq ijodkorlari ijodidagi ko‘ngil obrazi va uning qo‘llanilishiga doir fikr-mulohazalarimiz bilan o‘rtoqlashmoqchimiz. Har ikkila xalqning adabiyoti ham bir o‘zakdan oziqlanishini inobatga olgan holda milliy va madaniy mushtarakliklarning badiiy adabiyotda aks etishini ko‘rsatib berishga harakat qildik.

Barchamizga ma’lumki, Sharq she’riyatida oliy tuyg‘u va fazilatlarni ulug‘lash, ishq va oshiqlik munosabatlarini kuylashda asosan ko‘ngil obrazidan foydalanganlar. Ko‘ngil – turkiy tildagi eng qadimiy va she’riyatda qadim davrlardan boshlab keng qo‘llanilgan so‘zlardan biri. Bu so‘zning badiiy ijodda, ayniqsa she’riyatda poetik obraz sifatida mavqe qozonishida xaql og‘zaki ijodi muhim ta’sir o‘tkazgan.

Xalq ruhiy dunyosi, ichki olamiga yaqin bo‘lgan maqollarda ham ko‘ngilning insoniylik asosi sifatida talqin etilishi bejiz emas. Chunonchi, “Ko‘ngil pulga topilmas”, “Ko‘ngil kirini yetti daryoda yuvsa ham ketmas”, “Ko‘ngil toshdan qattiq, guldan nozik”, “Ko‘ngilning qolishi shishaning sinishi”[4, 247-249], “Ko‘z qarawg‘a toymas, kewli diydarg‘a toymas”, “Kewil kewilden suw isher”, “Man’lay ko‘zi ko‘redi, kewil ko‘zi ko‘rmeydi” kabi maqollarda ham inson ko‘nglining daxlsizligi va yuksakligi e’tirof etiladi.

Shuningdek, xalq qo‘shiqlarida ham ko‘ngil obrazi insonlarning eng nozik va haroratli tuyg‘ulari ifodachisi o‘laroq qo‘llanganiga guvoh bo‘lamiz.

O‘choq boshida qumg‘on,
Atrofi balan qo‘rg‘on,
Ko‘ngil bergan yorimni
Ko‘rolmasdan bag‘rim qon.

“Yozma adabiyotdagi qanchadan-qancha nodir iboralar, quyma ifodalar, poetik obraz va tasvir usullari bevosita folklor asarlari zaminida paydo bo‘lgan va o‘zining yangi hayotiga erishgan. Xalq og‘zaki ijodiyoti namunalariga xos samimiyatning ochiq ifodasi, soddalik va tabiiy ohangdorlik yoki ranginlikdan ilhomlanmagan san’atkorni topish mushkuldir. Shuning uchun og‘zaki ijodiyot barcha zamon va davrlarda ham yozma adabiyotning rivojini belgilaydigan bosh manbalardan biri bo‘lib kelgan va doimo shunday bo‘lib qoladi”[7,20]. Xullas, ko‘ngil so‘zining badiiy adabiyotda obraz sifatida shakllanishida xalqa og‘zaki ijodi muhim ahamiyat kasb etadi. Xalq og‘zaki ijodida badiiy mukammal obraz darajasiga ko‘tarilmagan bo‘lsa ham yozma adabiyotda g‘oyaviy-badiiy jihatdan yuksak o‘ringa chiqadi.

Sharq adabiyotining gultoji sanalmish Navoiy asarlarida ham ko‘ngil so‘zi turfa xil ma’nolarda qo‘llanilganiga guvoh bo‘lamiz.

Sabr soldim ko‘ngluma vasling tilab, vah, bot kelib,
Turfa ko‘rkim, shisha ichra xorae boldur manga.
Yoki: *Tutashti telba ko‘nglum ul pari uzoridin,*
Bu o‘tni gul sog‘inib, vahki kuydi ul majnun.

Umuman, Navoiy ijodida ko‘ngil obrazining ma’no-mohiyati nihoyatda kengdir. Shoirning ko‘ngil haqidagi fikr-mulohazalari tabiiy ravishda axloq, ma’rifat, ma’naviyat masalalari bilan bog‘lanib ketadi.

“Badiiy obraz – adabiyotning asosi. Obrazli tafakkur bo‘lmagan joyda adabiyot ham bo‘lmaydi. Chinakam ijodkor asarlari obrazning qabariqligi, yorqinligi bilan alohida ajralib turadi”[5,53]. Obrazlilikning mukammal va yorqin namunalarini biz Cho‘lpon ijodida ko‘rishimiz mumkin. Uning “Ko‘ngil” she’ri o‘zining badiiy yuksakligi jihatidan ham o‘quvchini o‘ziga rom etadi. Vatan va erkinlik haqida yozmagan shoirni topish qiyin. Ammo Cho‘lpon hech kimga o‘xshatmay yozadi. Cho‘lponning o‘ziga xosligi shundaki obraz zamiriga g‘oyaviy maqsadini va teran mohiyatni joylay bilishidadir.

She’r ritorik so‘roq bilan boshlanadi. U zohiran shoirning oz o‘ziga savoli bo‘lsada, aslida erkidan ayrilgan, o‘zligidan yiroqlashtirilgan millatga qilingan murojaat edi:

Ko‘ngil, sen munchalar nega
Kishanlar birla do‘stlashding?
Na faryoding, na doding bor,
Nechun sen muncha sustlashding?

Lirik qahramon o‘z ko‘ngliga murojaat qilish orqali xalqini ozod bo‘lishga, bo‘yin egmaslikka chorlayapti va o‘zining g‘oyaviy niyatini kitobxon qalbiga yetkazishda ko‘ngil obrazidan foydalanyapti.

Cho‘lpon o‘zining “Qizlarning daftariga” sarlavhali qit’asida shunday yozadi:

Ko‘ngil, tinmas ko‘ngil, endi etar, ko‘z tikma gullarga,
Go‘zaldir, yoshdir ul gullar... faqat aldanma unlarga –
Ki, qizg‘onmas, ko‘ngil qo‘ymas seningdek oqko‘ngillarga...

“She’rda “tinmas ko‘ngil”ga murojaat etilib, gullarga ko‘z tikmaslikka, har qancha go‘zal, yosh bo‘lmasin, ularga aldanmaslikka chaqiriladi. Ular vafodan yiroq ekani – oqko‘ngillarga ko‘ngil qo‘ymasligi haqida so‘z boradi”[6,81]. Umuman, Cho‘lpon she’riyatini o‘zining obraz va ramzlar tiliga qurilganligi bilan ham umrboqiylikka da’vogar she’riyatdir.

Qoraqalpoq adabiyotining atoqli shoiri Ibrayim Yusupovning quyidagi *"Kewil kewilden suw isher"* she’rida ham ko‘ngil obrazi orqali insoniy tuyg‘ular ifodalangan:

Da’rya ten’izge ashiq,
Asig‘ar ma’wjirip tasip,
Jollar jollarg‘a ulasip,
Kewil kewilden suw isher.
Dosliq, izzet - ulli da’wlet,
Jan azig‘i - jaqsi sa’wbet,
Sho‘lge – ba’ha’r, gu’lge na’wbet,
Kewil kewilden suw isher.
Aspang‘an ser salip baqsan’,
Ju’dizlar so‘yleser aqsham.
O‘zin’ bulaq bolip aqsan’,
Kewil kewilden suw isher.
Serle, ha’y insan balasi!
Jamandur kewil alasi,
Adam adamnin’ quyashi,
Kewil kewilden suw isher.

Yo‘llar yo‘larga tutashib manzillarga eltgani singari insonning ham qalblari, orzu-niyatlari tutashdir. Insonning inson bilan suhbat qurishi, dardlashishi go‘yoki cho‘listonga bahor tashrif buyugranidek odam ko‘ngliga o‘zgacha ruh va oshuftaliki ato qiladi. Dunyodagi jamiki tirik jon borki, quyosh nurlaridan oziqlanadi, unib-o‘sadi. Xuddi shu kabi “*Adam adamnin’ quyashi’,* ya’ni inson qalbiga iliqlik ko‘ngildagi mehr-shafqat va muhabbatdan oziqlanadi. I.Yusupov she’riyatida ko‘ngil obrazi o‘zbek she’riyatidagi singari insoniy munosabatlar; do‘stlik, sevgi, sadoqat va ahillikni ifodalsh uchun qo‘llanilganiga guvoh bo‘lamiz.

Qoraqalpoq adabiyotining yana bir yorqin vakili Xalila Davletnazarov she’riyati han o‘zining badiiy yuksakligi, obraz va ramzlar tiliga qurilgani bilan o‘quvchi o‘ylantiradigan va o‘ziga rom etadigan she’riyatdir. Shoir asarlarida boshqalarda uchramaydigan badiiy shakllar, tasviriy uslublarni ko‘rishimiz mumkin. Unda qoraqalpoq adabiy tilining haqiqiy marjonlari bor. “Shoirning tug‘ilib o‘sgan yeri ham shu Qoraqalpog‘istonning shimoliy tumanlariga darvoza bo‘lgan Xalqabod atrofi. Bu yerlar qoraqalpoq adabiy tilining eng bir sof, toza holda saqlangan joylari. Shoirning adabiyotimizga kirib kelgan ilk yillaridan-oq uningo‘ziga xos tili ko‘zga ko‘rina boshlaydi”[8,1].

Ju’regin’ saz-sa’wbet penen ko‘n’illes,
Oynaqı hawazıń shadlıqqa u’nles,

Yosh eli o‘zin’dek pa’riydi bilmes,
Qosıqlar ishinde qosıq Gu’lara.

X.Davletnazarov she’riyatida ko‘ngilni obrazi sodda, samimiy qoraqalpoq xalqining timsoli sifatida gavdalanadi. Qoraqalpoqlarning kuy-musiqaga oshno xalq ekani, yurak-yurakdan kuylashi, shu bilan birga o‘z kuylarida qorqalpoq xalqining dard-armonlari mujassam bo‘lgani haqida yozadi. Uning yana bir she’rida ko‘ngil obrazini yurak so‘zi bilan berishini ko‘rishimiz mumkin:

Kesh tu’sindim usı ra’wiyatqa,
Kesh turıp, kesh qalıp biraz na’rseden.
O‘mirim jartısı o‘tken uyqıda,
Endi o‘kinish ju’regimdi pa’rsheler!...

Lirik qahramon qalbini o‘kinch, alam qurshamoqda, amalga oshmagan ishlar, ro‘yobini ko‘rolmagan orzular, butun umr uyquda yotganini anglashi, haqiqatni kashf etgandan keyin yuragiga chog‘ bo‘lib botmoqda. Insonning ko‘ngli hotirjam bo‘lsagina baxtni his qilishi mumkin, agar hamma narsangiz bor-u ammo tinchlik, farog‘at yetishmasa ko‘ngilga unda baxt ham tatimaydi.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek va qoraqalpoq she’riyatda olamning badiiy manzarasini ifodalashda ko‘ngil obrazlarning mavqeyi alohida bo‘lib, bu kabi obrazlarni lirikada qo‘llanish genezisi qadimgi davrlarga borib taqaladi. Ushbu obbraz o‘z ma’nosidan tashqari turli ramziy ma’nolarni ham ifodalab keladi. Ko‘ngil obrazining qanday ma’no tashishi shoirning dunyoni anglashi va anglata olish qobiliyatiga ko‘ra tasniflanadi. Xususan, ko‘ngil so‘zining obraz darajasiga ko‘tarilib, turfa xil ma’nolarni ifodalab kelishi yuqorida kuzatganimiz kabi talay shoirlar ijodida kuzatiladi. Shu bois, aytish joizki, zamonaviy o‘zbek va qoraqalpoq she’riyatda ko‘ngil obrazlarining o‘rganilishi bilan bog‘liq yangi tadqiqotlarga milliy adabiyotimizning ehtiyoji bor.

Iqtiboslar/Сноски/Reference

1. Quronov D. 2018. Adabiyot nazariyasi asoslari. Toshkent: Akademnashr.43
2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Ikki tomlik. I tom. -M., 1981
3. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati. To‘rt jildlik. 4-jild.-T., 1985
4. O‘zbek xaql maqollari.Ikki tomlik. I tom. -T., 1987.
5. Usarova L. Abdulla Oripov she’riyatida milliy ruh ifodasi. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ..diss.-T., 2020
6. Xojiyeva Sh. Cho‘lpon she’riyatida poetik tafakkurning yangilanish tamoyillari. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ..diss.-T., 2019
7. Tajibayeva L.Yangi o‘zbek she’riyati genezisi va taraqqiyot tamoyillari. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ..diss.-Urganch., 2023
8. https://in-academy.uz/index.php/ejar/article/view/4804/3980

Turayeva Dilbar Meyliyevna,
Qarshi davlat universiteti dotsenti(PhD)
DilbarTurayeva9977@gmail.com

O‘RTA OSIYO XALQLARI YOZUVIDA PUNKTUATSIYANING SHAKLLANISHI

Annotatsiya. Garchi o‘z davrida ilmiy jamoatchilik tomonidan iliq qarshi olinmagan bo‘lsa-da, “Arab tili punktuatsiyasi va tinish belgilari” asari ilk marotaba arab tilida tinish belgilarini qo‘llashga katta ehtiyoj borligi, tinish belgilari arab tilining bir qismi ekani rasman tan olingan va tinish belgilaridan foydalanish qoidalari ishlab chiqilgan asar sifatida Ahmad Zakiyning ishlari qayd etiladi.

Kalit so‘zlar: tilshunoslik, tinish belgilari, an’ana, shakllanish.

Turayeva Dilbar Meyliyevna,
Karshi State University Associate Professor (PhD)
DilbarTurayeva9977@gmail.com

THE FORMATION OF PUNCTUATIONS IN THE WRITING OF THE PEOPLES OF CENTRAL ASIA

Annotation. Although not warmly received by the scientific community at the time, Ahmad Zaki's work "The Punctuation of the Arabic Language" is noted as the first work to officially recognize the great need for punctuation marks in Arabic, the fact that punctuation marks are part of the Arabic language, and the development of rules for the use of punctuation marks.

Key words: linguistics, punctuation, tradition, formation.

Тураева Дилбар Мейлиевна,
Доцент Каршинского государственного университета (PhD)
DilbarTurayeva9977@gmail.com

ФОРМИРОВАНИЕ ПУНКТУАЦИЙ В ПИСЬМЕННОСТИ НАРОДОВ СРЕДНЕЙ АЗИИ.

Аннотация. Хотя в то время работа Ахмада Заки «Знаки препинания и пунктуация арабского языка» не была тепло принята научным сообществом, она считается первой работой, официально признающей острую необходимость знаков

препинания в арабском языке, тот факт, что знаки препинания являются частью арабского языка.

Ключевые слова: лингвистика, пунктуация, традиция, формирование.

Kirish. V-VI asrlarga oid turkiy yozma yodgorliklar matni ustida izlanishlar olib borgan turkolog olimlardan akademik V.V.Radlov, V.L.Tomsen va P.M.Melioranskiylar bu matnlarda ikki nuqta so‘zlarni bir-biridan ajratgani, aniqrog‘i, ularning oxirini ko‘rsatgani, ba’zi matnlarda uning o‘rnini √\ shakli bajarganini tasdiqlashadi. V.V.Radlov 1909-yilda Qora Xo‘jadan topilgan olti satrli yodgorlikda har biri qizil doiracha bilan o‘ralgan to‘rtta qora nuqtaning bir yerda gaplarni bir-biridan ajratish uchun qo‘llanganini ham ta’kidlaydi[1]. Turli davrlarga oid, xususan, VI-VIII asrlarga oid Yettisuv, Urxun-enasoy yodgorliklari matni tinish belgilarini sinchkovlik bilan o‘rgangan H.G‘oziyev V.V.Radlovning ushbu yodgorliklardagi ajratish belgilarini nuqta so‘zi bilan ham atashi, uning originalidan olingan fotonusxada esa belgilar ko‘ndalang ostin-ustin chiziqchadan iborat ekaniga diqqat qaratadi. U urxun-enasoy (runik) yozuvida ajratish belgilarining barcha shakllari ishlatilgan degan xulosaga keladi va quyidagilarni sanab o‘tadi: :, ·, ϟ, ·ϟ, :ϟ, ·:·, : :, =, = =,.

Turkiy yozuvlar ichida uzoq vaqt amalda bo‘lgan, V asrdan XVII asr boshlariga qadar ham arab yozuvi bilan parallel ishlatilgan uyg‘ur yozuvida tinish belgilarining bir muncha takomillashgan ko‘rinishlarini uchratish mumkin. Bu yozuvda bitilgan qo‘lyozmalarda ajratish belgilarining ♦♦, ,, , ’, و =, ب ,ا kabi ko‘rinishlari ishlatilgan. Masalan, “Oltun yoruq”ning XVII asrda ko‘chirilgan nusxasining V.V.Radlov va S.Y.Malov tomonidan 1913-1917-yillarda chop etilgan 1-2-kitobida to‘rt nuqta 733 marta, ikki nuqta 859 marta ishlatilgan bo‘lsa, 3-kitobidagi hamma ajratish belgisi to‘rt nuqtali bo‘lib, ikki nuqta onda-sonda uchraydi, u ko‘p sahifada mutlaqo qo‘llanmaydi. 4-kitobning yuz betida to‘rt nuqta 78 o‘rinda qo‘llangan bo‘lsa, ikki nuqta 1757 o‘rinda ishlatilgan.

Ma’lumki, islom dini va madaniyatining yoyilishi bilan bog‘liq holda O‘rta Osiyo xalqlari, jumladan, o‘zbek xalqi ham VIII asrning oxirlaridan arab yozuviga o‘ta boshlaydi. O‘n ikki asrga yaqin davr – kirill alifbosiga asoslangan yozuv va imloga o‘tgunga qadar eski o‘zbek yozuvida arab yozuvi bilan birga unga xos bo‘lgan tinish belgilari tizimidan ham foydalaniladi. Umuman, o‘zbek yozuvida punktuatsiya tarixining keyingi bosqichi taraqqiyotida rus punktuatsiyasi bilan birga Yevropa yozuvlari negizida takomillashgan arab punktuatsiyasi ham muhim rol o‘ynaydi.

Arab yozuvida tinish belgilari qachondan paydo bo‘lgan va hozirgacha qanday bosqichlarni bosib o‘tgan? Qaysi tinish belgilari ishlatilgan?

- Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Arab yozuvi finikiy (som) yozuvi negizida shakllangan harf-tovush yozuvi bo‘lib, kelib chiqishiga ko‘ra nabotiy yozuvi orqali oromiy yozuviga borib tutashadi. Arab yozuvida islomga qadar tinish belgilari mavjud bo‘lmagan. Arab xalifaligining kuchayishi, islom dinini yoyish ehtiyoji, qolaversa, xalifalik tasarrufidagi arab va ajam xalqlarining musulmon olamining muqaddas kitobi – Qur’onni to‘g‘ri va bexato o‘qish, qiroat qilishni o‘rganish ishtiyoqining oshib borishi arab tili, yozuvi

va grammatikasi taraqqiyotiga zamin hozirladi. Xalifaning maxsus topshirig‘iga binoan arab tilida ilk marotaba grammatik qoidalar ishlab chiqildi, turli lug‘atlar tuzildi. Qur’oni karimni to‘g‘ri o‘qish va mazmunini tushunishga yordam berish darajasida yozuv takomillashdi.

Boshqa tillarda bo‘lgani kabi arab yozuvida ham tinish belgilaridan dastlab ajratish vazifasidagi nuqtaning uchrashi kuzatiladi. Arabcha matnlarda nuqtaning ishlatilishi VII asr arab tilshunosi, shoir, sintaksis (nahv) asoschisi, arab yozuv tizimining shaklanishida muhim rol o‘ynagan **Abu al-Asvad ad-Dualiy** (603-688) nomi bilan bog‘liq. Ad-Dualiy asli kufalik (Hijozda tug‘ilgan) bo‘lib, Basrada hayot kechiradi. U Ali ibn Abu Tolibning topshirig‘iga ko‘ra birinchi arab tili grammatikasini ishlab chiqadi va “arab tili grammatikasi otasi” sharafiga sazovor bo‘ladi.



Ad-Dualiy Basrada Kufadagi maktabgina u bilan raqobatda tenglasha olishi mumkin bo‘lgan birinchi grammatika maktabiga asos soladi. U Qur’ondagi ayrim undosh harflarni farqlash (harflarning bir nechtasi bir xil grafik shaklga ega) uchun (*ijam* – إعجام) va qisqa unlilarni (ular yozuvda ifodalanmagan) ko‘rsatish uchun (*tashkil* – تشكيل) ayrim harflarning osti yoki ustiga rangli nuqtachalar qo‘yish tizimini ixtiro qiladi. Bu nuqtalar hozirgi arab yozuvidagi nuqtalardan tubdan farq qilgan. Matnda ushbu nuqtalarni berishda Xalifaning iltimosiga ko‘ra qizil rangdan foydalanadi. Qur’on matnida qo‘llangan ilk tinish belgilari qizil rangli nuqtalar edi.

- **Tadqiqot metodologiyasi.** Ad-Dualiyning nuqta tizimi arab yozuvini to‘g‘ri o‘qish, to‘g‘ri tushunishda nihoyatda ahamiyatli bo‘lgan qator chalkashliklarni bartaraf etadi va arab yozuvi taraqqiyotida muhim rol o‘ynadi. Keyinchalik bu tizim Xalil ibn Ahmad al-Farohidiy tomonidan takomillashtiriladi[2].

Zamonaviy arab tilida g‘arb yozuvlariga xos tinish belgilarning paydo bo‘lishi mustamlakachilik siyosati bilan bog‘liq holda XIX asr oxirlaridan kuzatiladi. Arab yozuvchisi va jurnalisti **Foris Shidyak** (1804-1887) birinchilardan bo‘lib arab yozuviga Yevropa tinish belgilarini joriy qilish taklifi bilan chiqadi. Islom dinini qabul qilishdan oldin u protestant bo‘lgan va 1834-yilda mahalliy protestant missionerlarga Injilni ingliz tilidan arab tiliga tarjima qilishda yordam beradi. Garchi bu tarjima keyinchalik qabul qilinmagan bo‘lsa-da, F.Shidyakning 1839-yilda Maltada chop etilgan “Lafif” deb nomlangan arab tili darsligida ingliz yozuvidagi ayrim tinish belgilari, jumladan, vergul, tire, ikki nuqta, so‘roq belgisi, qo‘shtirnoq, qavs, va ٥ ni arab yozuviga qabul qilishni taklif qiladi[3].

XIX asrning ikkinchi yarmidan arab tilida nashr etiladigan gazeta va jurnallarda asta-sekin tinish belgilari ishlatila boshlaydi. 1893-yilda livanlik yozuvchi **Zaynab Favvoz** Misrning “Al-Fata” jurnalida chop etilgan maqolasida ilk marta yevropa tinish belgilarini fransuz an’anasiga ko‘ra qo‘llashni taklif qilib chiqadi. Uning maqsadi arab yozuvini isloh qilish orqali dunyo bo‘ylab tarqalishi, yevropa yozuvlari kabi ommalashishiga imkon yaratish edi[4].

Arab yozuvida yevropa tinish belgilari tizimining joriy qilinishida arab shayxi, misrlik filolog **Ahmad Zakiy-poshsho** (1867-1934) muhim rol o‘ynaydi. U 1916-yil maorif vaziri Ahmad Xishmat poshshoning maxsus topshirig‘iga ko‘ra “Arab tili punktuatsiyasi va tinish belgilari” asarini yozadi. Shu asarning chop etilishi Ahmad Zakiyni “arab tili punktuatsiyasi asoschisi” sifatida tanitdi. Aniqrog‘i, asarning yaratilishiga davrning ijtimoiy ehtiyoji, aniqrog‘i, hukumatning maxsus buyurtmasi sabab bo‘ladi. Buni muallif kitobning kirish qismida quyidagicha izohlaydi: “Ahmad Xishmat poshsho menga arabcha matnni ovoz chiqarib o‘qish bilan bog‘liq qiyinchiliklarni ko‘rsatdi va o‘qish jarayonida ohangni o‘zgartirishda o‘quvchiga qulaylik tug‘diradigan usullarni ishlab chiqish, matnni semantik qismlarga ajratish hamda tushunishga yordam beradigan belgilar tizimini tartibga keltirishga ko‘rsatma berdi. U bu belgilar uchun ishlatiladigan atamalar arab tili tabiatiga mos bo‘lishi va arab tilidagi an’anaviy to‘xtash qoidalariga asoslanishi lozimligini ta’kidladi”[5].

Ma’lumki, islom olamida Qur’oni karim nozil bo‘lgan arab yozuvini isloh qilish ulamolar tomonidan iliq qarshi olinmagan. Shu bois arab alifbosiga asoslangan eski o‘zbek yozuvida ham XIX asrga qadar tinish belgilari taraqqiyotining ikkinchi davriga xos tinish belgilari ishlatilmagan, matndagi gapning umumiy mazmuni va ohangiga qarab gapning xabar, so‘roq, buyruq yoki undov mazmunda ekanligi aniqlab olingan. Ahmad Zakiyning arab yozuvi taraqqiyotidagi rolini maxsus tadqiq qilgan V.V.Vasilevning ta’kidlashicha, A.Zakiy Qur’on va hadis matni yevropa punktuatsion belgilariga muhtoj emasligini tan olgan. Aslida ham, Qur’onda bajarilishi farz yoki joiz bo‘lgan, ruxsat etilgan hukmlar, hadislarda Payg‘ambarimiz (s.a.v) va roviylarning nutqlari orasida chegarani ko‘rsatuvchi maxsus belgilar allaqachon mavjud bo‘lgan. Qolaversa, qur’onshunoslik va hadisshunoslik an’analarida matnni to‘g‘ri o‘qish va talqin qilishda yordam beruvchi tafsir tizimi tarixan shakllangan. Qolaversa, Payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalomning Qur’onni Jabroil alayhissalomdan uni qiroati bilan birga yozib olganlari manbalarda keltiriladi. Qur’ondagi “alomat ul-vaqf” deb ataladigan belgilar satr ustida yozilgan yakka harflar bo‘lib, turli o‘lchamlar bilan bog‘liq to‘xtamlarga ishora qiladi.

Garchi o‘z davrida ilmiy jamoatchilik tomonidan iliq qarshi olinmagan bo‘lsa-da, “Arab tili punktuatsiyasi va tinish belgilari” asari ilk marotaba arab tilida tinish belgilarini qo‘llashga katta ehtiyoj borligi, tinish belgilari arab tilining bir qismi ekani rasman tan olingan va tinish belgilaridan foydalanish qoidalari ishlab chiqilgan asar sifatida Ahmad Zakiyning ishlari qayd etiladi. Shuni ham aytib o‘tish kerakki, arab yozuvida tinish belgilari masalasida haligacha yagona to‘xtam mavjud emas, bu borada munozaralar hamon davom etyapti. Qur’oni karimda ishlatilgan ajratish, to‘xtash belgilaridan boshqa yevropa yozuviga xos tinish belgilari tizimini ko‘pchilik arab olimlari tan olmaydi. 2009-yilda Damashqda o‘tkazilgan Arab tili akademiyasi xalqaro anjumanida tinish belgilari rasman qo‘llangan arab tilidagi ilk risola chop etilgani haqidagi ma’lumot ham buni tasdiqlaydi. Keyinchalik yevropa va kirill yozuvi ta’sirida tinish belgilarini qo‘llash sekinlik bilan odat tusiga kirgan.

- **Xulosa va takliflar.** Sohada maxsus izlanish olib borgan ayrim olimlar punktuatsiya tarixini punktuatsion tizim to‘la shakllangan davr – XV-XVII asrlar bilan bog‘laydilar. Jumladan, V.Klassovskiy, L.V.Shcherba, A.Shapirolar ham punktuatsiyaning

paydo bo‘lishi yevropa yozuvlarida punktuatsion tizim shakllangan davrdan boshlanishi va bu nashr ishi – matbaachilik taraqqiyoti bilan bog‘liq ekanini ta’kidlaydilar, biroq shu bilan birga ular punktuatsiya tarixining ilk davrini ham inkor etmaydilar. Jumladan, V.Klassovsiy “Beshta muhim tildagi tinish belgilari” deb nomlangan asarida tinish belgilari garchi matbaachilikning paydo bo‘lishi bilan, XIV asrdan asosiy sintaktik munosabatlarni ifodalay boshlagan bo‘lsa-da, diniy, ilmiy, adabiy qo‘lyozmalarda undan oldin ham mavjud bo‘lganligini tan oladi[6]. L.V.Shcherba ham qadimgi yozuvlarning ko‘pchiligi barcha tinish belgilaridan faqat satr boshi – “abzats” va “nuqta”ni bilgani, qadimgi yozuvda eng ko‘p tarqalgan belgi – matnni sintagmaga ajratadigan va hozirgi vergul ma’nosida qo‘llanadigan nuqta bo‘lganini ta’kidlagan edi[7]. A.B.Shapiro esa qadimgi yozma yodgorlik matnida qo‘llangan tinish belgilarini o‘rganar ekan, “bosma nashrlargacha bo‘lgan qo‘lyozmalarda uchragan punktuatsiya funksiya jihatidan ham, shakl jihatidan ham sodda bo‘lib, punktuatsiya tarixining alohida davrini, ya’ni birinchi davrini tashkil qiladi, demak, ular ham punktuatsion belgilardandir”[8] degan to‘xtamga kelgan edi.

O‘zbek punktuatsiyasi bo‘yicha bajarilgan dastlabki ishlarda ham, so‘nggi manbalarda ham punktuatsiyaning dunyo yozuv tizimiga xos ajratish bosqichi tan olinadi va uning ikki davriga diqqat qaratiladi:

1) I-VIII asrlar. Bu davrga oid oromiy va turkiy runik yozuv manbalarida ishlatilgan tinish belgisi xarakteridagi vositalarning dastlabki vazifasi ajratish bo‘lgan, ya’ni gap qismlari ma’lum oraliq masofa – intervallar vositasida ajratilgan. Bu ajratish hech qanday ma’no ifodalamagan, shunchaki so‘zlarning o‘zaro qo‘shilib qolmasligiga xizmat qilgan[9].

2) IX-XIX asrlar. Punktuatsiya taraqqiyotidagi bu davrda arab grafikasiga asoslangan eski o‘zbek yozuvi amalda bo‘lib ajratuvchi belgilar tugallanganlik, xabar, so‘roq, buyruq kabi semantik vazifalarni bajara boshlagan. Ma’nolarni farqlash uchun nuqtaning turli ko‘rinishlaridan foydalanilgan[10].

Shunga qaramay, o‘zbek tilshunosligida ham hanuz punktuatsiya tarixini davrlashtrishda dastlabki bosqich – ajratish davri masalasida ikkilanishlar uchraydi. Masalan, “Urxun-yenisey yozuvida tinish belgilari bo‘lmagan. So‘zlar, ba’zan birikmalar bir-biridan ikki nuqta (:) bilan ajratib ko‘rsatilgan, bu ikki nuqta shartli ravishda ayirgich deb yuritiladi. Bu harf o‘zidan keyingi harfga qo‘shilmagan, ulanmagan holda alohida-alohida yozilgan”.

Yuqoridagilar dunyo yozuv tizimida tinish belgilarining paydo bo‘lishi va taraqqiyotiga zamin bo‘lgan quyidagi omillarni ajratish imkonini beradi:

1 yozuv sistemasining takomillashishi, ya’ni sintetik (piktografik) usuldan analitik (tovushli, bo‘g‘inli) usulga o‘tish:

2 tafakkur va tilning dialektik taraqqiyoti, ya’ni turli xil emotsional – ekspressiv munosabatlar, ichki bo‘lgan kechinmalarni yozuv orqali ifodalash zaruratining yuzaga kelishi;

3 har bir xalq, jumladan, yozuvi taraqqiyoti bilan bog‘liq holda umumiy punktuatsion me’yorlarning xususiylashuvi.

Iqtiboslar/Сноски/Reference

1. G‘oziev H. O‘zbek punktuatsiyasining tarixiy taraqqiyoti. Monografiya. –Toshkent: Fan. 1979, – B.12.

2. Abu_al-Aswad_al-Du’ali. https://hmong.ru/wiki/

3. Махмуд М. Эволюция знаков препинания в арабском языке //Академия арабского языка. – Назарет. 2016. №7.- С. 151.

4. Махмуд М. Эволюция знаков препинания в арабском языке //Академия арабского языка. – Назарет. 2016. №7.- С. 151.

5. Badriddinov M. Xat – xazinalar kaliti. – Toshkent:Movarounnahr, 2013. – Б.7.

6. Махмуд М. Эволюция знаков препинания в арабском языке. Академия арабского языка. Назарет, 2016. № 7. - С. 158.

7. Классовский В., Знаки препинания в пяти важнейших языках. / Сост. В. Классовский.– Санкт-Петербург: тип. В. Безобразова и К°, 1869. — [2], VI, -С.61. https://search.rsl.ru/ru/record/01003582366

8. Шапиро А. Б., Основы русской пунктуации Москва.: Изд-во Академии Наук СССР, 1955. – С. 5-6. https://www.twirpx.com/file/1778747/

9. Махмуд М. Эволюция знаков препинания в арабском языке. Академия арабского языка. Назарет, 2016. № 7. - С. 158.

10. Bahriddinova B.M. Zamonaviy o‘zbek punktuatsiyasi asoslari. Monografiya. – Toshkent: Akademnashr, 2015.

Umarova Nasiba Abduvali qizi
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
tayanch doktoranti

GLOBALLASHUVNING ZAMONAVIY ARAB ROMANI RIVOJIGA TA’SIRI

Annotatsiya. Ushbu maqolada hozirgi davrda globallashuv jarayonining arab adabiy jarayonlari va arab romanchiligi taraqqiyotiga ta’siri o‘rganilgan. Shuningdek, arab roman janrining yangidan yangi shakllari va ularning o‘ziga xos xususiyalari tadqiq qilingan.

Kalit so‘zlar: globallashuv, adabiyot, ezgulik va yovuzlik, milliy adabiyot, jahon adabiyoti, adabiy aloqalar, tarjima asarlar, roman janri, roman shakllari.

Умарова Насиба Абдували кизи
Ташкентский государственный
университет востоковедения
PhD докторант

ВЛИЯНИЕ ГЛОБАЛИЗАЦИИ НА РАЗВИТИЕ СОВРЕМЕННОГО АРАБСКОГО РОМАНА

Аннотация. В данной статье исследуется влияние процесса глобализации на современные арабские литературные процессы и развитие арабского романизма. Также рассматриваются самые новые формы жанра арабского романа и их особенности.

Ключевые слова: глобализация, литература, добро и зло, национальная литература, мировая литература, литературные связи, переводные произведения, романный жанр, романные формы.

Umarova Nasiba Abduvali kizi
Tashkent State University of Orientalistic Studies
PhD student

THE IMPACT OF GLOBALISATION ON THE DEVELOPMENT OF MODERN ARAB NOVEL

Annotation. This article explores the influence of globalization on contemporary Arab literary processes and the development of Arabic literary fiction. The most recent forms of the Arab novel genre and their specific features are also discussed.

Keywords: globalization, literature, kindness and wickedness, national literature, world literature, literary connections, translated works, novel genre, novel forms.

Globallashgan, raqamlashgan, tig‘iz zamonamiz barcha sohalar qatori adabiyotga ham o‘z ta’sirini o‘tkazib, undagi turli evrilish va o‘zgarishlarga sabab bo‘lmoqda. Yangilanib borayotgan adabiy jarayonlar va ta’sirlar natijasida jahon adabiyoti kontekstida zamonaviy arab adabiyoti ham o‘zgacha qiyofa kasb etmoqda. Endilikda eng qimmat va bebeho bo‘lgan vaqtning tig‘izlashishi, insonlarning badiiy estetik qarashlarida ham o‘z ifodasini topmoqda. Barcha sohalar elektronlashib, raqamli iqtisodiyot barcha sohalarning asosiga aylanmoqda. Inson aqli va intellektiga bunyod bo‘lgan yangidan yangi sun’iy intellekt turlari ham insonlarni turli masalalarda yordamchsiga aylandi. Lekin shunga qaramay insonlarning badiiy estetik zavq olishga bo‘lgan ehtiyoji hecham kamaygani yo‘q. Mashhur o‘zbek yozuvchisi va adabiy tanqidchi olimi Ulug‘bek Hamdam inson ruhiyatidagi adabiyotning o‘rni haqidagi quyidagicha fikr keltirib o‘tgan: “Inson miyasi xuddi fotoapparatga o‘xshaydi: u har kuni atrofdagi voqelikning parchalarini ilg‘ab oladi. Miyada to‘plangan tasvirlar insonning dunyo haqidagi tasavvurlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu tasavvurlar esa o‘z navbatida kishining dunyoqarashi va kayfiyatini belgilab, uni optimist yoki pessimistga aylantiradi. Demak, inson nimalarni “suratga olishi” uning hayotga bo‘lgan munosabati darajasini – optimizm yoki tushkunlik ko‘lamini aniqlaydi. Bu daraja va ko‘lam esa o‘z navbatida inson hayotining ma’nosini yuzaga keltiradi. Binobarin, adabiyot umuman ijodkorning inson kurashayotgan ikki qadimiy kuch (yaxshilik va yomonlik) ning birinchisi tomonida turishiga yordam berishi kerak [1.B. 23-24]”. Yuqoridagi fikrdan ko‘rinib turibdiki, adabiyot vaqt o‘tgani sayin badiiy evrilishlarga uchrasa-da uning asl mohiyati o‘zgarishsiz qoladi, ya’ni insoniyatni ezgulik sari chorlamog‘i, insonlar hayotiga nur olib kirmog‘i va mazmun bag‘ishlay olishi darkor.

Mashhur Misrlik adiba, romannavis, adabiy tanqidchi Salva Bakr Qohiradagi Amerika universitetida (CASA-chet elda Arab tilini o‘rganish markazi) ma'ruzasida ayol yozuvchilar oldida turgan muammolarni o‘rganib chiqdi. Bakr siyosiy qo‘llab-quvvatlashning yetishmasligi, ayniqsa, so‘nggi o‘n yilliklarda ushbu qarama-qarshiliklarni adabiyot orqali ifoda etishga intilayotgan ayollarning ko‘payishi bilan tushuntiradi. Salva Bakr o‘z ma'ruzasini yaxshi asar yozishni belgilaydigan narsa, shuningdek bugungi kunda dunyoda yaxshi inson bo‘lish nimani anglatishi haqidagi fikrlar bilan yakunladi: “Yaxshi asar yozish – bu sizni o‘zgartiradigan, u bilan muloqotdan oldingi holatga qaytolmaydigan yozuvdir; sizni butunlay yangi boshlangan nuqtadan olib ketadigan yozuvdir. Hozirgi kunda, insoniyat tarixining bu murakkab davrida, ilm-fanga nisbatan adabiyotning ahamiyati juda katta. Bu yaxshilik va yomonlik haqidagi masaladir. Bugungi dunyoda yaxshilik va yomonlik juda murakkablashib ketgan. Yaxshilik nima-yu, yomonlik nima? Adabiyot bizga o‘quvchi va qabul qiluvchi sifatida – bu insoniy murakkabliklarni yechish va bunday qiyin, chalkash savollarga javob topish imkonini beradi. Bu dunyoda shunchaki yaxshi odam bo‘lishning o‘zi yetarlimi? Yo‘q, unday emas. Bizga ko‘proq bilim kerak va buning uchun bizga insonlar va ularning dunyosi bilan shug‘ullanadigan adabiyot zarur. Bizga bilimning boshqa sohalariga, bir dunyodan boshqasiga yetaklaydigan adabiyot kerak [3].” Ha, darhaqiqat Salva Bakr ta’kidlaganidek insonlarni ma’rifat, bilim orqaligina haqiqiy baxt-u saodatga yetkazish mumkin. Bunda esa adabiyotning o‘rni juda kattadir.

Texnika taraqqiy topgan zamonimizda globalizatsiya jarayonlari adabiy jarayonlarning tezlashuviga sabab bo‘lmoqda. Xalqaro adabiyotshunoslikda arab adabiyoti ham o‘ziga xos o‘ringa ega. Har qanday milliy adabiyot jahon adabiyoti bilan bevosita ta’sir va aloqalar kesishuvidan yangicha qiyofa kasb etadi.

1837-yilda nemis yozuvchisi Iogann Volfgang Gyote ilk bor “jahon adabiyoti” tushunchasini qo‘llagan. Bu tushuncha orqali Gyote yevropalik kitobxonlar orasida g‘arbiy bo‘lmagan tillarda, jumladan sanskrit va arab epik she’riyatida yozilgan adabiy asarlarning tobora ommalashib borayotganini tasvirlagan. O‘shandan buyon “jahon adabiyoti” tushunchasi asosan ingliz, fransuz, nemis va ispan kabi Yevropaning yetakchi tillariga tarjima qilingan milliy adabiyotni o‘rganishda qo‘llanila boshlandi. Biroq “jahon adabiyoti” atamasining ma’nosidagi noziklik va noaniqlik aslida uning yevropamarkazli nuqtai nazari bilan bog‘liq. Bu nuqtai nazar yevropalik bo‘lmagan xalqlar yaratgan milliy adabiyotga nisbatan tor qarashni aks ettiradi. Afsuski, Devid Damrosh o‘zining “Jahon adabiyoti nima?” kitobida jahon adabiyoti tushunchasini qayta ko‘rib chiqishga va uni kelib chiqishi yevropacha bo‘lgan ta’sirdan xalos etishga uringan. Damrosh bu tushunchani adabiy asarni baholash uchun emas, balki uni tavsiflash, nashr etish va tarqatish uchun qo‘llagan. Biroq uning talqini Gyote "jahon adabiyoti" deganda nazarda tutgan ma’noga yaqinlashdi. U turli xalqlar shakllantirgan adabiyotning universal xususiyatini ta’kidlab, adabiyotni bir-biriga bog‘laydigan umumiy fazilatlarni izlaydi. Milliy adabiyotni umuman Yevropa va G‘arb adabiyoti bilan qiyoslash masalasi yo‘qolib borayotgan bir paytda, jahon adabiyoti ifodasi o‘z asosini yo‘qotib, globallashuv davrida oddiy bozor mahsulotiga aylanib bormoqda. “Jahon adabiyoti” tushunchasiga xos bo‘lgan boshqa g‘arbiy bo‘lmagan adabiyotga baho berishdagi yarim sharqonalik o‘z merosining ajralmas qismi hisoblanadi [2.P. 13].

Globallashuv natijasida jahon adabiyoti namunalari ko‘proq asliyatida mutolaa qilinmoqda, chunki zamon talabi bo‘lgan chet tillarni bilishga bo‘lgan talabning ortishi insonlarni bir necha xorijiy tillarni mukammal o‘rganishga undamoqda. Avvalari jahon adabiyoti asarlarini ko‘proq tarjima qilingan variantlarida o‘qilgan va tarjima qilingan asarlardagi ba’zi jumlalar o‘sha til va xalqning milliy koloritini, qadriyatlarini to‘liq ifodalashi birmuncha mushkul masala bo‘lgan. Hozirda esa insonlar jahon adabiyotini asliyatda o‘qishni afzal ko‘rmoqdalar.Qadimdan adabiy aloqalar sabab turli xalqlar adabiyoti ta’sirga uchrab, sayqallanib, yangidan yangi qiyofalarga ega bo‘lib kelgan. Hozirgi globallashuv davrimizda esa bu masala huddi eskirgan mavzuga aylangandek, chunki, hozirda adabiy aloqalar butun yer yuzi bo‘ylab tarmoqlanib bir butunga aylanib ulgurdi. Ya’ni barcha adabiy oqimlar, yo‘nalishlar, tushunchalar tez sur’atlarda yoyilib, barchaga birdek yetib bormoqda.

Roman adabiy san’atning eng muhim shakllaridan biri bo‘lib, unda ko‘plab qahramonlar ishtirok etadigan hajman yirik nasriy janr hisoblanadi. Turfa qahramonlarning hayot yo‘llari, turli xarakter chizgilari, his tuyg‘ulari-yu kechinmalari asosiy voqeaband syujet asosida bir biri bilan kesishib badiiy ifoda etiladi.

“Ma’lumki, roman dastavval asosan burjuaziya, elita qatlami vakillari uchun mo‘ljallangan asar hisoblangan. Bu toifa insonlar hashamat, yalqovlik va ortiqcha vaqtdan

lazzatlanish holatida yashagan bu ortiqcha vaqtni egallash uchun nimagadir muhtoj edi, shuning uchun roman shunday vositalardanbiri bo‘lgan. U juda katta hajmda yozilgan bo‘lib, o‘n minglab so‘zlar va yuzlab sahifalardan iborat edi. Masalan, Marsel Prustning 1200000 so‘zdan iborat “Yo‘qotilgan vaqtni izlab” romani xalqlarning bir-biridan ajralib qolish davriga bag‘ishlangan bo‘lib, bu ularning har birining hayoti va madaniyati tafsilotlarini, bu esa romannavisdan xayoliy qahramon haqidagi eng kichik tafsilotlarni batafsil ko‘rib chiqishni talab qiladi, jumladan, bosh qahramon va ikkinchi darajali personajlarning umumiy tana tuzilishi, teri rangi va ko‘zlarini batafsil tasvirlashni talab qiladi [9].” Yillar davomida roman turli siyosiy, ijtimoiy bosqichlardan o‘tib, mazmun va shaklda ko‘plab o‘zgarishlarga duch kelgan. Roman adabiyotdagi keng yoyilgan nasr turlaridan biriga aylandi.

Arab romanining ildizlari asrlar qa’riga, ayniqsa, Abbosiylar davrining oxiri va Usmonlilar hukmronligining boshlariga borib taqaladi. Bunga sabab arab madaniyati va tilini yo‘q qilishga urinishlarda namoyon bo‘lgan o‘sha davrning siyosiy, ijtimoiy va madaniy sharoitlari edi. Shuning uchun o‘sha davrda “Maqoma” va boshqa qisqa hikoyalar paydo bo‘ldi. Ular zamonaviy arab romani shaklini olmagan bo‘lsa-da, zamonaviy nasriy janrlar, xususan, romanning yuzaga kelishiga asos bo‘lgan. Arab romanining paydo bo‘lishi va taraqqiyoti haqida gapirganda, zamonaviy roman shakllanishiga G‘arb adabiyotining ta’siri katta bo‘lganligini ta’kidlash lozim. Bu ta’sir XIX asr oxiri – XX asr boshlarida G‘arb adabiyoti bilan bevosita aloqa va o‘zaro ta’sir natijasida yuzaga kelgan. Yevropaga o‘quv safarlari va tarjima ishlari orqali G‘arb madaniyati va adabiyoti arab tafakkuriga kirib bordi. Shuning uchun ko‘plab arab yozuvchilari G‘arb adabiyoti ta’siriga tushib qoldilar. O‘n to‘qqizinchi asrda roman yozishga ko‘plab urinishlar bo‘ldi. Ular, odatda, ijtimoiy, hissiy va tarixiy mavzularni qamrab oladi.Abd al-Muhsin Taha Badr shunday ta’kidlaydi: Rifa at-Tahtaviy o‘zining "Tahlis al-Ibriz" asari va tarjima qilgan "Telemax sarguzashtlari" romani bilan ma’rifiy romanning ilk urug‘larini ekkan birinchi shaxs hisoblanadi. Tanqidchi Telemax voqealariga alohida e’tibor qaratadi. Arab dunyosida roman shu tarzda rivojlanib, yigirmanchi asrning ikkinchi yarmiga kelib, ko‘pchilikni arab romanini jahon romanlari bilan taqqoslashga undagan darajaga yetdi [4. ص. 52].

“XX asr boshlarida Muhammad Husayn Haykalning 1914-yilda nashr etilgan “Zaynab” romani paydo bo‘ldi. Ko‘pchilik tanqidchilar uni Misrda zamonaviy roman shaklida yozilgan birinchi roman deb hisoblaydilar. Biroq ba’zi tanqidchilar Mahmud Tohir Haqqining “Denshvay qizi” va Yoqub Sarrufning “Misrlik qiz” romanlarini undan oldin yozilgan deb ta’kidlaydilar. Iroqda roman 1928-yilda, Mahmud Ahmad as-Sayyid “Jaloliddin Hamid” romanini yozganda shakllangan. Suriyada Shakib al-Jobiriyning 1937-yildagi “Naham” romani zamonaviy romanning haqiqiy boshlanishi bo‘ldi. Dastlabki yetuk urinishlar boshqa arab mamlakatlarida ham paydo bo‘ldi [5].”

XX asrning o‘rtalarigacha Misr jamoatchiligining ongi umummilliy vazifalar bilan band edi. Adabiy asarlarda milliy birlik g‘oyalari ijtimoiy farqlarni tasvirlashga to‘sqinlik qilardi. Misr yaxlit bir butunlik sifatida Yevropaga qarshi qo‘yilgan edi. Bu yaxlitlik yagona ma’naviy qadriyatlar bilan mustahkam bog‘langan edi. Biz bu qadriyatlarning aksini Tavfiq

al-Hakimning “Ruhning qaytishi” (1933) romanida ko‘ramiz. Ko‘plab tanqidchilarning fikricha, bu asar badiiy deb atashga loyiq bo‘lgan birinchi Misr romani hisoblanadi [6. C. 316].

Arab romani rivojlanishda davom etdi va yigirmanchi asrning ikkinchi yarmiga kelib ko‘plab buyuk arab romanchilari yetishib chiqdi. Ularning asarlari jahon romanlari bilan bir qatorda turadi va dunyoning ko‘plab tillariga tarjima qilingan. Arab romani bir tarafdan milliy meros an’analarini o‘zida saqlagan holda, yana boshqa tomondan g‘arb adabiy ta’siriga uchradi. Arab mamlakatlari ichida ayniqsa Misr romanchiligi yetakchi o‘rinni egallagan.

“Misr milliy mustaqillikka erishgandan so‘ng, 50-yillarda adabiyotda ijtimoiy muammolar birinchi o‘ringa chiqdi. Jamiyatni, ayniqsa uning “milliy g‘oya”ning asosiy tashuvchisi bo‘lgan o‘rta sinfini ijtimoiy tadqiq etish zamonaviy Misr romanining asoschisi Najib Mahfuz asarlarida yetakchi o‘rin egalladi. U Misr adabiyotida arab tilida deyarli barcha ma’lum roman turlarini yaratdi: tarixiy, psixologik, ijtimoiy-maishiy, roman-epopeya, roman-metafora, roman-masal. Ularning har birida u o‘sha davr uchun eng dolzarb bo‘lgan Misr voqeligining muammosini ko‘tarib chiqdi va asarlarini milliy mazmun bilan boyitdi [7]”.

Arab romani endilikda yangicha qiyofa kasb etib, XX asrning ikkinchi yarmiga kelib, ko‘pchilikni arab romanini jahon romanlari bilan taqqoslashga undaydigan darajaga yetdi. Eng mashhurlaridan Najib Mahfuz, Tavfiq al-Hakim, G‘ada as-Samman, Muhammad Shukriy, Yusuf Zaydon, G‘assan Kanafani, Salva Bakr va boshqalarni sanab o‘tish mumkin. Arab romanining vujudga kelishi va rivojlanishi, uning shakllanishiga ta’sir ko‘rsatgan omillar adabiyot doirasidan chiqib, kitobxonlar doirasiga kirib, kundan-kunga kengayib bormoqda.

Madaniy darchalarning ko‘pligi va uning ko‘plab va xilma-xil oqimlari, shuningdek, raqamli platformalar, ommaviy axborot vositalari, internet nashrlarining keskin qamrovining ortishi sabab ko‘pchiligimiz diqqat qilish, mushohada qilish va bilish qobiliyatini yo‘qotdik. Virtual olam makonida yashovchi yoki ko‘p sonli saytlar, tarmoqlangan sahifalar va ko‘plab havolalar orqali uning mazmunini uzoq vaqt davomida ko‘rib chiqadigan kishi uchun, bunday axborot oqimi sharoitida chuqur tahlil qilish qiyin bo‘lishi mumkin. Shu sababli, klassik yoki zamonaviy adabiy asarni o‘qish uchun bo‘sh vaqt topish ham murakkablashdi. Bularning bari globallashuv jarayonining jadallashuviga olib kelmoqda.

Globallashuv jarayoni adabiy aloqalarning tezlikda almashinish imkoniyatini ham bermoqda. Bu nafaqat yozuvchilar o‘rtasida do‘stona muhitning keng quloch yoyishiga, balki yangidan yangi nasriy janrlar va ularning shakllarini tez sur’atlarda ommalashishiga olib kelmoqda. Endilikda yangi nasriy janrlar evrilishlarga uchrab barcha xalqlar adabiy jarayonlarida o‘z ifodasini topmoqda. Bunga yorqin namuna sifatida zamonaviy Arab adabiyotida yirik nasriy janr “roman”ning turli shakllaridan “qisqa roman” (Ar rivaya al qosira) va “juda qisqa roman”(Ar rivaya al qosira jiddan)ni keltirishimiz mumkin. Bu roman

shakllarining urfga aylanayotganini ularda yozilayotgan asarlarning ham ko‘pligidan ham bilishimiz mumkin.

Qisqa roman eng avval G‘arbda ilk Uyg‘onish davrida (XIV asr) paydo bo‘lgan, ammo faqat XVIII asr oxiri – XIX asr boshlarida rivojlangan.Qisqa roman ko‘pincha keng qamrovli muammolar o‘rniga bitta mavzuga e’tibor qaratadi va oddiy romandan farqli o‘laroq, u odatda bir nechta boblarga bo‘linmaydi, uning o‘rtacha hajmi 70-150 betni tashkil etadi.

“XIX asr oxirida amerikalik-britaniyalik yozuvchi Genri Jeyms hikoyadan uzunroq va murakkab, ammo romandan qisqaroq bo‘lgan asarni ifodalash uchun “novella” atamasini qo‘llagan dastlabki ingliz tilli tanqidchilardan biri edi. Ingliz tilida so‘zlashuvchi mamlakatlarda zamonaviy novella kamdan-kam hollarda alohida adabiy janr sifatida ta’riflanadi, biroq ko‘pincha qisqa romanni ifodalash uchun atama sifatida qo‘llaniladi [8]”.

Qisqa romanda, odatda, romandagiga nisbatan ziddiyatlar kamroq bo‘ladi, lekin u hikoyaga qaraganda murakkabroq va ziddiyatlar ham nisbatan uzoqroq davom etadi. Jahon adabiyotida qisqa romanga namunalar: Jorj Oruelning “Hayvonlar fermasi” romani, Albert Kamyuning “Begona” romani, “Chol va dengiz” romani, Frans Kafkaning “Evrilish” romani va boshqalar. Arab adabiyotida Yusuf Zaydonning “Ilon soyasi”, Ahmad Xolid Tavfiqning “Bugungi omadingiz”, Najib Mahfuzning “Gumbaz quvonchlari”, G‘assan Kanafanining “Quyoshdagi erkaklar”, Mustafo Mahmudning “O‘rgimchak”, Yusuf Idrisning “Haram” hamda “Qora harbiy” romanlari, Najib Mahfuzning “Karnak”, Abdul Vahhab Mutovaning “Do‘stim o‘zingni yema”, Sunalloh Ibrohimning “Sharaf”, Jabra Ibrohim Jabraning, “Valid Mas’udni izlash”, Yusuf Al-Quayyidning “Misr yeridagi urush” kabi qisqa romanlari juda mashhur.

Hozirgi globallashuv davri, iste’mol madaniyati va barcha narsalarning tijoratlashtirish ustunligi bilan ham tavsiflanadi. Bu esa insonning kundalik hayotida tobora ko‘payib borayotgan ehtiyojlarni keltirib chiqarmoqda. Ushbu ehtiyojlarni qondirish zamonaviy insonning vaqtiga ta’sir qilib, hatto eng zarur ehtiyojlarni qondirishga ham ulgurmayapti.

Bu voqelik tig‘iz dunyoda har bir inson faoliyati uchun yanada ko‘proq vaqt yetishmasligini keltirib chiqarmoqda. Bu dunyo hamma narsada - ishda, ovqatlanishda, suhbatda va hatto mukammal narsalardan zavqlanishda ham tezlikka bog‘liq bo‘lib qolgan. Shu jumladan, qisqa metrajli filmlar va qisqa asarlar kabi insonning ma’naviy ozuqasi ham shular qatoriga kiradi. Shu jumladan, romanlar ham doimo shoshayotgan insonning vaqtiga mos kelishi lozim. Hayot davomida voqelik roman janrining ancha qisqartirilgan shaklini namoyon etadi. Biz "juda qisqa roman" deb atagan bu tur esa, aslida romanlarning yangi janri hisoblanib, roman janrining yangi bir ko‘rinishini ifodalaydi. Bu, roman janrining yangi bir turi bo‘lib, zamonaviy hayotning tezkor sur’atiga moslashgan.

Mashhur Iroqlik yozuvchi Hamid al Hariziy “Iroq-manbalari. Iroq kommunistlari tarafdorlari ligasi sahifasi”ga bergan “Juda qisqa roman: Tug‘ilish asoslari va rivojlanish istiqbollari” nomli maqolasida roman janri shakllarining paydo bo‘lishi tabiiy hol ekanligini ta’kidlab quyidagicha fikr bildirib o‘tgan: “Roman turli hajm va uslublarda paydo

bo‘ldi, turli adabiy-badiiy maktablar ta’sirida yozildi. Bir necha qismdan iborat juda uzun roman “ Ar rivaya at tovila jiddan ” (الرواية الطويلة جدا), bir necha jildli uzun roman “Ar rivaya at tovila” (الروايةالطويلة), o‘rtacha hajmli roman “Ar rivaya al mutavassito” (الرواية المتوسطة) va qisqa roman “ Ar rivaya al qosira “ (الرواية القصيرة) mavjud. Roman janrining juda qisqa roman “Ar rivaya al qosira jiddan" (الرواية القصيرة جدا) deb nomlanishida hech qanday ajablanarli yoki g‘ayritabiiy narsa yo‘q. Ular tabiiy ravishda paydo bo‘lgan.”[9]

“Juda qisqa roman” atamasi yangi va ilgari keng tarqalmagan tushuncha bo‘lib tuyulishi mumkin, biroq uning shakli va mohiyati aslida yangilik emas. Arab adabiyoti tarixiga nazar solsak, muallif aynan shu nom bilan atamagan bo‘lsa-da, “juda qisqa roman” shaklidagi bir qator ixcham asarlarni uchratamiz. Jumladan, iroqlik yozuvchi Abdurazzoq al-Muttalabiy 1983-yilda “Al-Aqlam” jurnalining birinchi sonida “Qushlar” nomli asarni “qisqa roman” sifatida e’lon qilgan. Biroq, uni “Juda qisqa roman” deb hisoblash mumkin, chunki u jurnalning atigi 12 sahifasini egallagan. Yozuvchi Mahmud Ahmad Al-Sayyidning 1928-yilda nashr etilgan “Jalol Xolid” romani ham juda qisqa roman xususiyatlariga ega, chunki u “Al-Aqlam” jurnalining 1977-yildagi sonlaridan birida 22 sahifani tashkil etgan, bundan tashqari, unda voqealar ixchamlashtirilgan. Shuningdek, misrlik romannavis Abdul Hakim Qosimning “Qahva va suhbatlar” asari 1989-yilda “Qohira jurnali”ning 96-sonida “Qisqa roman” nomi bilan chop etilgan bo‘lib, u ham atigi 8 sahifadan iborat bo‘lgan. Demak, “juda qisqa roman” hozirgi kunda yangi atama sifatida qo‘llanilayotgan bo‘lsa-da, u ilgaridan mavjud bo‘lib, kitobxonlar tomonidan yaxshi qabul qilinib kelinmoqda. Bu roman shakliga arab adabiyotida yana ko‘plab misollar keltirish mumkin.

Xulosa qilib shuni aytishimiz kerakki, globallashuv jarayonlari hayotimizning ko‘plab jabhalari, sohalari qatori adabiyotga, jumladan, arab romannavisligi rivojiga sezilarli ta’sir o‘tkazib, yangidan yangi, zamonaviy shakllar shakllanishiga zamin yaratdi. Insonlarning zaruriy ehtiyojiga javoban arab adabiyotida yangi “qisqa roman” va “juda qisqa roman” atamalari ommalashib, shu roman shakllari namunalari kitobxonlar e’tirofiga sazovor bo‘lmoqda.

Iqtiboslar/Сноски/Reference

1. Hamdamov U. Globalizm sharoitida dunyo adabiyoti. Sharq va g‘arb adabiyotini tarixiy-qiyosiy o‘rganish masalalari mavzusidagi xalqaro-ilmiy konferensiya. 24-25 may, TDSHU., T.: 2024. 689 b.

2. Jayyusi S.K. Modern Arabic Fiction. An Antology. Columbia University Press Publishers; 2005. 1046 p. P.13

3.كلاوديا مينده. الكاتبة سلوى بكر..صوت النساء اللاتي هن خارج دائرة الضوء. ترجمة: ياسر أبو معيلق. https://amp.dw.com/ar/ 2012.10.17

4. حسن شوندي، آذادة كريم. رؤية الى العناصرالرواية.فصيلة دراسات.السنة الثالثة -العدد العشر.تاريخ القبول: ٢٨/٨/١٣٩٠هـ . ش. صص49-59.ص 52

5.https://sotor.co سطور. ١٠مايو٢٠٢١. سطور عبد الرحمن محمد. نشأة الرواية العربية و تطورها.m

6. Кирпиченко В.Н. История египетской литературы XIX-XX веков. В 2-х томах /Кирпиченко В.Н., Сафронов В.В. М.: Восточная литература РАН, 2003. Т. 1. 408 с. Т. 2. 269 с. Т.1; С-316

7. Кирпиченко В. Н. Нагиб Махфуз эмир арабского романа. М.: Наука, 1992. 304 с;

8. https://en.wikipedia.org/wiki/Novella

9. https://www.yanabe3aliraq.com/index.php/i/40230-alrwayt-alqsyrt-jda-mbrrat-alwladt-wafaq-alttwr

Xamidova Durdona Muxtorovna
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti, o‘qituvchi
e-mail: dhamidova10@gmail.com

INGLIZ TILIDAGI IQTISODIY TERMINLARNING ETIMOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Ma’lumki, har qanday til o‘z ichki tarkibiga, qonuniyatlariga ega va bu tarkibning asosi tilning lug‘at boyligi hsoblanadi va o‘z navbatida tilning lug‘at tarkibining salmoqli qismini maxsus birliklar – terminlar tashkil qiladi. Terminologik tarkib ijtimoiy hayotning barcha sohalariga oid maxsus leksik qatlamni qamrab oladi. Mazkur maqoladan ko‘zda tutilgan asosiy maqsad ingliz tili iqtisodiy terminologiyasining taraqqiyot bosqichlarini izchil o‘rganish, sohaga oid terminlarni tartibga solish, ularning adabiy til leksik qatlam birliklari bilan munosabatlarini tahlil qilishdan iborat bo‘lib, ingliz tili terminosistemasining tizimli shakllanishida katta ahamiyatga ega. Ingliz tili terminologiyasining tadqiq etilishi muhim bo‘lgan sohalaridan biri hisoblangan iqtisodiy terminlarning o‘rta asrlarda va undan avvalgi davrlarda qay tarzda tilda paydo bo‘lgani va qanday omillar ta’sirida rivojlanganini tadqiq etishni maqolaning o‘z oldiga vazifa sifatida qo‘yadi.

Kalit so‘zlar: terminologiya, lug‘at, etimologiya, neologizm.

Хамидова Дурдона Мухторовна
Узбексий государственный университет мировых языков
e-mail: dhamidova10@gmail.com

ИСТОРИКО-ЭТИМОЛОГИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ЭКОНОМИЧЕСКИХ ТЕРМИНОВ В АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация. Известно, что любой язык имеет свою внутреннюю структуру и законы, и основой этой структуры является лексика языка, а в свою очередь, значительная часть языка состоит из специальных единиц терминов. **Основной целью** данного исследования является последовательное изучение этапов развития английской экономической терминологии, систематизация терминов, относящихся к данной области, анализ их взаимосвязи с лексическими единицами литературного языка, а также их большая роль в системном формировании английской терминологии. **Задача статьи** - исследовать, как и под влиянием каких факторов появились в языке в Средние века и более ранние периоды экономические термины, что считается одной из важнейших областей лексикологии.

Ключевые слова: терминология, лексикон, этимология, неологизм.

Khamidova Durdona Mukhtorovna
Uzbekistan State World Languages University, Teacher
e-mail: dhamidova10@gmail.com

HISTORICAL AND ETYMOLOGICAL CHARACTERISTICS OF ECONOMIC TERMS IN ENGLISH

Annotation. It is known that any language has its own internal structure and laws, and the basis of this structure contains vocabulary of the language, and in its turn, a significant part of the language consists of special units – terms. The main **aim** of this research is to study the stages of development of the economic terminology of the English language consistently, to organize the terms related to the field, to analyze their relationship with the lexical units of the literary language, and to play a major role in the systematic formation of the terminology of the language. **The task** of the article is to research how economic terms appeared in the language in the Middle Ages and earlier periods and under the influence of factors, which is considered one of the most important areas of lexicology.

Key words: terminology, vocabulary, etymology, neologism.

KIRISH

Til rivojlanishida uning turli fan tarmoqlari terminlarini o‘z ichiga olgan lug‘at boyligining o‘sishi katta ahamiyatga ega. Maxsus tushunchalarning o‘zgarmasligi va qat’iy asoslarga bog‘langanligi o‘zlarini ifodalab keladigan vositalardan ham xuddi shunday xususiyatlarga ega bo‘lishini talab qiladi. Ma’lumki, tilshunoslar va ular bilan bir qatorda ilm-fanning turli tarmoqlari mutaxassislari muayyan tildagi maxsus tushunchalarni ifodalashda hamda terminologik izlanishlar doirasida duch keladigan masalalarni atroflicha o‘rganishga katta ishtiyoq va kuch sarf etdilar va hozir ham bu sohada qator tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Terminologiya muayyan fan sohasiga tegishli maxsus tushunchalarni ifodalovchi birliklar yig‘indisini o‘rganuvchi tilshunoslik fani bo‘limi bo‘lib, hozirgi davrga qadar ko‘plab olimlar mazkur soha rivojiga o‘z hissalarini qo‘shib kelmoqdalar. Jumladan, 1933-yilda mashxur termishunos olim Lotte va akademik Kapligin AQSh Fanlar Akademiyasi qoshida keyinchalik Fan va texnika terminologiyasi komiteti deb nomlanuvchi Texnik terminologiya komissiyasini tashkil qiladi [1, B.36]. Mazkur komitet ingliz va boshqa tillar terminologiyasini atroflicha o‘rgandi va terminologiyaning, xususan, ingliz tili terminologiyasining etimologiyasi va tarixiy taraqqiyotini bosqichlarga bo‘lib tadqiq etdi. Shuningdek, Eynar Haugenning klassik qarashlaridan [2] tortib, Bessi Antiya [3]da ko‘rib chiqilgan o‘nlab modellar va Nensi Hornbergerning [4] integrativ modeligacha bo‘lgan tilni modellashtirish taraqqiyoti va uning o‘zgaruvchanlik darajasini tadqiq qilgan har bir izlanishlar tildagi ilmiy-texnik terminologiyani yuzaga kelish sharoitlari va tizimlashtirish bosqichlarini to‘liq qamrab olmagan. Shuningdek, o‘rta asrlarda yuzaga kelgan multilingvizm ta’sirida ko‘plab terminlar etimologiyasida bir vaqtning o‘zida bir necha fikrlar ilgari suriladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Аннотация. В романе Тауфика аль-Хакима «Возвращение духа» национально-культурные коды художественно воплощены в образах и сюжетах произведения, которые служат катализатором проявления авторской позиции и формирования определенных взглядов на читатели. Путем выявления культурных смыслов «хороший-плохой», «мужское-женское», «история-вечность», «друг-враг» в диадах показано отношение героев к семье, Родине, труду, общечеловеческим отношениям. Роман Тауфика аль-Хакима «Возвращение духа» посвящен проявлению чувств к Родине. Национальная самобытность египетского народа проявляется через особенности сельской жизни Египта, образа жизни крестьян.

Ключевые слова: культурный код, национальная идентичность, египетские фаллосы, египетский диалект.

Миллий-маданий кодлар ёки миллий менталитет муаммоси ҳозирги кунда маданиятшунослар, тилшунослар, социологлар, файласуфлар ва сиёсатшунослар учун энг долзарб муаммолардан бири ҳисобланади, чунки маданий кодга эга бўлиш нафақат миллатнинг маданий хусусиятларини тушунишга, балки келажакда миллий ривожланиш стратегиясини яратишга ёрдам беради. Зеро, миллий кодлар маълум бир миллатнинг тарихий ва ижтимоий хусусиятлар йиғиндиси бўлиб, улар миллат ёки халқнинг ўзига хослигини, белгилайди. Маданий кодлар халқнинг миллий-маданий хусусияти билан боғлиқ ҳодиса бўлиб, у ўзида миллий-маданий урф-одат, қадрият ва меъёрларни шартли равишда акс эттирувчи, рамзий ва кодланган тарзда ифодаловчи моддий белгилар тизимидир. Маданий код ўша миллат тили, тарихи, руҳияти, яшаш тарзи ҳақида маълумотларни эслатиб турувчи модел вазифасини бажаради.

Тавфиқ ал-Ҳаким ўзининг “Руҳнинг қайтиши” романида халқ онгининг миллий уйғониши, бирлик руҳига қайтиш, келажакда Ватан мустақиллигининг кафолати, деб ҳисоблайди. У қадимги мисрликлар ҳаётда мавжуд бўлган нур, уларнинг Худонинг ер юзида ноиби Фиръавнга иймони, одамларга албатта яна қайтди, деган чақириқ билан бошлайди. Буни биз романнинг эпиграфи:“вақт абадийликка ўтганда, биз сизни яна кўрамиз, чунки сиз ҳамма нарса бирлашадиган жойга борасиз ("Ўликларнинг мадҳияси")”[1]да кўришимиз мумкин.

Т.ал-Ҳакимнинг «Руҳнинг қайтиши» романинг муҳим ғояси Мисрнинг қадимий маданияти ва миллий ўзлигини қайта тиклашдир. Роман воқеалари 1919 йилдаги Мисрда инглизларга қарши кўзғолон арафасини акс эттиради. Романнинг бир қанча

[1] توفيق الحكيم. عودة الروح. دار الشرق 2055م.2 ص

саҳифалари бағишланган қўзғолон воқеалари асарда унинг қаҳрамонларининг шахсий ҳаёти кечган ташқи муҳит вазифасини бажаради.[2] Бу қўзғолонда Миср халқининг миллий ҳамжиҳатлиги муаллифига яқин бўлган ғоялар, мисрликларга қадимдан хос бўлган бирдамлик ва ўзига хослик руҳининг тикланиши яққол намоён бўлади. Романнинг сюжети жуда оддий бўлиб, ўн беш ёшда Муҳсин гўзал қўшниси Саннияни севиб қолган. Саннияни Муҳсининг амакилари – талаба Абда ва истеъфодаги полициячи Селим ҳам севадилар. Шунингдек, қўшниси Мустафо Бек ҳам унга нисбатан худди шундай туйғуларга эга. Охир-оқибат, Санния Мустафога танлайди. Мураккаб севги муносабатлари романнинг барча қаҳрамонларининг "халқ" нинг Санняга бўлган ҳиссиётларидан келиб чиқади.

Ёзувчи асарнинг биринчи қисмида тасвирланган Қоҳирада яшовчи оила аъзолари ўзларини “халқ” деб атайди.

“Тўсатдан эшик очилиб, Муҳсин қўлида китоблар, компаслар ва ўлчагич билан пайдо бўлди.

- “Халқ" ҳали келдими?”[3]

Тавфиқ ал-Ҳаким Миср халқини қадимий халқ деб тасвирлайди.

“Миср аҳолиси тоза қонли олижаноб одамлардир. Нил водийсига жойлашганимизга саккиз минг йил бўлди. Европада ўтроқ қабилалар бўлмаганида, биз экиш ва шудгор қилишни билар эдик, бизнинг қишлоқларимиз ва далаларимиз бор эди.

- тугунли одам деразадан тупуриб деди:

"Сиз ҳақсиз, Афанди. Ҳамма гап шунда.

Зиёли йўловчи давом эттирди:

- Албатта, Афанди. Биз табиатан ижтимоий халқмиз. Сабаби, биз қадим замонлардан бери деҳқонмиз. Биз бошқа халқлар ҳали ҳам кўчманчи турмуш тарзини олиб борган, ов билан шуғулланган вақтларда, қабила бўлиб, ҳатто бир оила бўлиб яшаганмиз. Биз, тарихий даврлардан бери Нил водийсида, яшадик ва цивилизацияни ривожлантирдик.”

Т.ал-Ҳаким романнинг турли эпизодларида юзага келадиган миллий бирлик ва миллий идентиклик ғоясига алоҳида урғу беради. Романнинг бош қаҳрамонлари ҳаётидаги ҳамжиҳатлик инқилоб қилаётган Миср халқининг бирдамлигига параллел равишда тасвирланади.

Тавфиқ ал-Ҳаким бирлашиш ва уйғониш ғояларини, айниқса қишлоқ эпизодларида, романтик жиҳатдан юксак тасвирларда ифодалаган. Қишлоқ воқелиги ўқувчи тафаккурини тубдан ўзгартиради[4].

Масалан асрдаги мана буни лавҳани кўрсак. “Муҳсин эшитганлари ҳақида ўйлаб, Абд Ал-Атини тарк этди. У Миср тарихи ўқитувчисининг сўзларини эслади, у унга замонавий деҳқонлар бадавийлар бўлмаган ўша қадим замонларда бу заминда

[2] Khilola A. Yuldasheva. (2024). Exploring the ideas of identity in arabic literature: the interplay of tradition and transformation. International Scientific and Current Research Conferences, 1(01), 137–141. Retrieved from
[3] Ўша китоб 17 бет
[4] Ўша китоб 41 бет

яшаган қадимги Миср деҳқонларининг авлодлари эканлигини айтди. Асрлар ўтди, ўз ерларида халқлар ўзгарди, лекин деҳқонлар ўз қишлоқларида, шаҳарлар ва маданий марказлардан узоқда, у ерда қайнаб турган сиёсий ва ижтимоий ҳаёт бўронларидан узоқда яшадилар. Босқинчилар шаҳарларга жойлашадилар, улар маҳаллий аҳоли билан аралашади ва халқлар таназзулга учрайди. Аммо ўтган асрлар ва вақтнинг барча бурилишлари деҳқонларга таъсир қилмади. Қандай қилиб деҳқонларни илдизсиз деб айблаш мумкин, агар улар барча илдизларнинг илдизи бўлса? Бу айбловлар учун деҳқонларнинг ўзлари айбдор. Улар келиб чиқиши ҳақида ҳеч нарса билишмайди; улар ҳеч қандай урф-одатларни яратмаганлар, ҳолбуки бадавийлар ўзларининг "аждодлари" деб атайдиган нарсалар ҳақида оғзаки маълумотни бободан отага, отадан ўғилга, қабиладан қабилага ўтказадилар. Уларнинг табиий фаровонлиги-табиат, тинчлик ва осойишта меҳнатга бўлган муҳаббат деҳқонларнинг қадимги келиб чиқишидан далолат бермайдими? Бу фазилатлар қадимий маданият ва барқарор ҳаётнинг натижаси эмасми? Ахир, бадавийлар ҳали ҳам ҳақиқий ваҳшийлик хусусиятларига эга: урушга чанқоқлик, қасос, қон тўкиш ва талончиликларга тўла собиқ ёввойи, нотинч ҳаётдан сақланиб қолган. Деҳқонлар ҳатто ўзларини ҳимоя қилишни хоҳламайдилар. Улар ўзларининг ўзига хос тинчлигини фермерларнинг кўп авлодларидан келиб чиқиши билан изоҳлайдилар, чунки деҳқоннинг ҳаёти қуролли босқинчилик ва талончиликларни эмас, балки тинчлик ва осойишталикни талаб қилади. Деҳқоннинг тинчлиги ва хотиржамлиги унинг қадимги олижаноб келиб чиқишидан далолат беради."[5]

"Руҳнинг қайтиши" асарида келтирилган деҳқонлар ҳақиқий деҳқонлар эмас, улар муаллифнинг романтик тасаввуридаги Мисрнинг "абадий руҳи" ва ўзига хослигини ифодаловчи символик образлардир. Ушбу деҳқонлар орқали Т.ал-Ҳаким халқнинг тарихий ва маданий меросини, унинг туғилиши ва ривожланишини тасвирлайди. Уларнинг образлари мустақиллик ва миллий тикланишнинг рамзи сифатида хизмат қилади.

Романнинг марказий мавзусида деҳқонлар орқали халқнинг маданий ва руҳий ривожланиши, унинг Ватанга бўлган муносабати ва қадриятлари кўрсатилган. Деҳқонлар — бу Мисрнинг замини, ундан олинадиган самара ва унинг ҳаётининг асоси. Уларнинг меҳнати, кураши ва руҳий ҳолати миллий тикланишнинг символи бўлиб, халқнинг ўтмишини, истиқболини ва маънавий қадриятларини намоён этади. Т.Ал-Ҳаким, шундай қилиб, деҳқонларнинг образи орқали уларнинг ички дунёси, ўзига хослиги ва миллий идентиклиги ҳақидаги ғояларни илгари суришни мақсад қилган. Ушбу образлар билан автор Миср халқининг руҳий уйғониши ва унинг Ватанга бўлган муҳаббати ҳақида гапиради. Натижада, деҳқонлар Мисрнинг "абадий руҳи"ни намоён этувчи, миллатнинг ҳақиқий етуклиги ва мустақиллигига интилишининг рамзига айланади.

Араб адабиётида ёзувчилар миллий-маданий кодлар орқали араб дунёсининг қадрият, анъана ва интилишларини акс эттирадилар. Улар миллий идентикликни

[5] توفيق الحكيم. عودة الروح. دار الشرق 2005م. 25 ص

ўзида мужассам этган адабий персонажлар, образлар орқали баён қилинади. Бу образлар араб жамияти, маданияти ва халқининг жамоавий ўзига хослиги, миллийлигини акс эттирувчи омил бўлиб хизмат қилади. Бу ўринда аввало, лингвистик омилнинг ролини таъкидлаш керак. Диалогларнинг ҳаққоний чиқиши ва таъсирчанлигини ошириш мақсадида Товфиқ ал-Ҳаким “Руҳнинг қайтиши” романида миср шевасидан моҳирона фойдаланади.


— حضرتك بتقول إيه ؟
فقال عبده فى لهجة جافة قاطعة :
— مفيش لزوم للكلام . كلنا عارفين
فقال سليم بنفس البرود :

— ٣٥ —

— عارفين إيه ؟ ؟

“Нима дедингиз, Афанди? -Гаплашадиган ҳеч нарса йўқ! Абда совуққина деди. - Биз ҳамма нарсани биламиз. - Сиз аниқ нимани биласиз? Селим худди совуққонлик билан давом етди”[6]

Кўрган мисолимизда миср шевасидаги “مفيش لزوم”, “بتقول إيه”, “عارفين إيه” каби сўзларни учратишимиз мумкин.

Шунингдек, араб нутқининг энг характерли хусусияти “Аллоҳ” ва “Пайғамбар”нинг исмни тез-тез эслатиб туришдир. Бу тасодифий эмас. Мусулмон арабларининг идентиклигида Аллоҳ ҳар доим инсон билан-оилада, уйда, ишда, мактабда, севги ва нафратда, ризқ ва турмушларидадир. Бу хусусият арабларнинг тақдирга қаттиш ишонишидандир. Шу сабабли арабларда кенг тарқалган мақол "сабр яхши"дир. Араблар учун сабр-энг олий қадр-қиммат. Сабр қийинчиликлардан нажотдир. Қаҳрамонлар нутқида бу ибора Аллоҳга чақирув ва ҳамду сано каби тез-тез эшитилмайди, аммо сабр ўқувчи бадиий асарни ўқиётганида кўпроқ-ғазаб, ҳақорат каби ҳиссий реакцияга дуч келиши керак бўлган жойларда ҳам учрайди. Шу сабали араб бадиий асраларида салбий персонажлар учрамайди. Араблар идентиклигида ҳар бир мусибат Аллоҳнинг тақдири сифатида баҳоланади ва бу деярли барча бадиий асарларда ўз аксини топади. “Руҳнинг қайтиши” романи ҳам бундан мустасно эмас албатта. Масалан: “У ёки бу танишлари ёки қўшниларининг турмушга чиққанидан жуда ҳайрон бўлар эди. Фақат жуда қизиқ, у шундай жозибали, жуда яхши уйидаги бекаси ва ҳануз турмуш қурмаган ва ҳеч ким унинг қўлини сўрамади. У буни фақат битта сабаб билан боғларди:-Тақдир! Бахтсиз тақдир, Аллоҳ сизни ундан халос қилсин! Тақдир ва бошқа ҳеч нарса эмас! У ўзига ва бошқаларга бу ҳақида таъкидлаб турар эди”.[7]

Ёзувчилар ўз асарларида қаҳрамонларнинг қиёфаси, исмлари, кийган кийимлари ва воқеалар содир бўлаётган жойлар орқали муайян маданият ва миллатларнинг аниқ

[6] توفيق الحكيم. عودة الروح. دار الشرق 2055م.35-34 ص
[7] توفيق الحكيم. عودة الروح. دار الشرق 2055م. 23 ص

тасвирини яратишга ҳаракат қиладилар.[8] “Энди у баланд, қалин ўтлар билан қопланган майдондан ўтаётган эди. Бу ерда бадавийларга ўхшаган кўчманчилар яшайди. Улар туяларни кўпайтирадилар ва туя орқасига ўрнатилган чодирларда яшайдилар. Шундай қилиб, улар кун ва тунларини ҳайвонларнинг изидан чайқалиб, доимий ҳаракатда, океанда адашган кемадаги йўловчилар ёки Нил бўйлаб сузиб юрган қайиқдаги қўйлар каби ўтказадилар. Уларда пул йўқ, шу сабабли улар бир-бирларига фақат туялар, сут, тери ва жун билан тўлайдилар.”[9]

А.И.Герценнинг сўзларига кўра, одамларнинг идентикликлари миллий таомлари, табиий шароит, либослар, тарих ва анъаналар каби омилларда намоён бўлади.[10] “Руҳнинг қайтиши” романида биз таомнинг кўплаб тавсифларини топамиз.

“Кечки овқат учун ҳамма овқат хонасида оддий бўялмаган, мато билан қопланган стол атрофида тўпланишди. Бу ёғли мато дунё каби эски эди. Вақтнинг ўзи уни ишлатаётгандай туюларди, чунки бу одамлар ундан фойдаланмоқдалар. Кечаси стол Мабрук учун кровать бўлиб хизмат қилди ва у тўшаги ва кўрпасини бургалар билан бирга унинг устига қўйади. Эрталаб, бу тўшак яна столга айланди ва унинг устида оқ пиширилган ловия косаси пайдо бўлди, тушлик ва кечки овқат учун — қовурилган буғдой ёки бир яна ўша ловия, лекин сафар қайнатилган.”[11]

Тадқиқотимиз натижасида маълум бўлдики, миллий-маданий кодлар халқнинг характерига катта таъсир кўрсатади. Улар ўқувчиларнирг асар мазмунига чуқурроқ киришиб кетишлари ва маданий контекстини яхшироқ тушунишларига сабаб бўлади. Шу билан бирга миллий-маданий кодлар, одамларнинг бирлигини таъминловчи ва уларни умумий мақсадлар учун бирлаштирувчи ва ижтимоий тузумнинг муҳим қисми сифатида намоён бўлади ва инсонларнинг миллий ғурурини шакллантиришда, уларнинг кимлигини ёдда сақлашда муҳим роль ўйнайди. Товфиқ ал-Ҳаким ўзининг “Руҳнинг қайтиши” романида Миср халқининг ўзига хослигини акс эттириш мақсадида миллий-маданий кодлардан моҳирона фойдаланади. Ёзувчи Миср тарихини, анъаналарини, урф-одатларини ва маданий меросини бевосита намоён этади, бу эса ўқувчига Миср миллий идентикликни тушунишда ёрдам беради. Зеро, мазкур жиҳатлар Товфиқ ал-Ҳаким ўзининг “Руҳнинг қайтиши” романни Миср миллий идентиклигини ўрганишда муҳим манбага айлантиради.

Iqtiboslar/Сноски/Reference

1. Герцен А. И. Былое и думы // Герцен А. И. Собрание сочинений: в 8 т. М.: Правда, 1975. Т. 7.

2. Успенская Н. А. Отражение национального своеобразия в произведениях египетских писателей-реалистов середины XX века // Вестник Санкт-Петербургского

[8] Успенская Н. А. Отражение национального своеобразия в произведениях египетских писателей-реалистов середины XX века // Вестник Санкт-Петербургского университета. Востоковедение и африканистика. 2022. Т. 14. Вып. 4. С. 692–703. https://doi.org/10.21638/spbu13.2022.408

[9] توفيق الحكيم. عودة الروح. دار الشرق 2055م.103 ص

[10] Герцен А. И. Былое и думы // Герцен А. И. Собрание сочинений: в 8 т. М.: Правда, 1975. Т. 7. 16 с.

[11] توفيق الحكيم. عودة الروح. دار الشرق 2055م.30 ص

университета. Востоковедение и африканистика. 2022. Т. 14. Вып. 4. С. 692–703. https://doi.org/10.21638/spbu13.2022.408

3. Yuldasheva, Khilola Abdulkhaevna. “THE IMPACT OF LITERATURE ON THE SPIRITUAL ADVANCEMENT OF ARAB SOCIETY.” Current Research Journal of Philological Sciences (2024): n. pag.

4. Юлдашева, Хилола Абдулхаевна. "АРАБ ЗИЁЛИЛАРИ МИЛЛИЙ ИДЕНТИКЛИК УЧУН КУРАШДА." *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 4.1 (2024): 332-339.

5. Khilola A. Yuldasheva. (2024). EXPLORING THE IDEAS OF IDENTITY IN ARABIC LITERATURE: THE INTERPLAY OF TRADITION AND TRANSFORMATION. International Scientific and Current Research Conferences, 1(01), 137–141. Retrieved from

6. توفيق الحكيم. عودة الروح. دار الشرق 2055م.

UDK:811.512.133’373’21:37.013
ORCID: **0009-0006-9295-6545**

Rajabova Nilufar Egamberganovna
Urganch davlat pedagogika instituti
o‘qituvchisi

SULTON UVAYS QARANIY ZIYORATGOHI NOMINING ASARLARDA AKS ETISHI VA UNING YOSHLARNING EZGULIKKA CHORLASHDAGI AHAMIYATI

Annotatsiya. Ushbu maqolada Uvays Qaraniy shaxsi va uning tarixi haqida yoritilgan. Uvays Qaraniy Hakim Termiziy, Fariduddin Attor, Alisher Navoiy, Bobur, Abu Bakr Kalobodiy, Muhammad Rixo Ogahiy asarlarida qayd qilingan. Maqolada Sulton Uvays ziyoratgohi to‘g‘risida ma’lumotlar berilgan. Uvays Qaraniy siymosi orqali onaga bo‘lgan muhabbatni ko‘rish mumkin. Shuning uchun Muhammad (s.a.v.) Hazrati Umarga: “Qaran degan yerda onasini duosini olgan bir odam bor. U odamning qo‘lida ozgina oqi bor, o‘sha odamni ko‘rsang haqqingga istig‘for so‘ra”- deganlar.

Kalit so‘zlar: Uvays Qaraniy, ziyoratgoh, ona, hazrat, maqbara, sufiy, valiy.

Раджабова Нилуфар Эгамберганoвна

Преподаватель Ургенчского государственного педагогического института

ОТРАЖЕНИЕ ИМЯ ХРАМА КАРАНИ СУЛТАНА УВАЙСА В ПРОИЗВОДСТВАХ И ЕГО ЗНАЧЕНИЕ В ИСТОРИИ МОЛОДЕЖИ К ДОБРОДЕЖЕСТВЕННОСТИ

Аннотация. В данной статье описывается личность Увайса Гарани и его история. Увайс Карани упоминается в произведениях Хакима Термизи, Фаридуддина Аттара, Алишера Навои, Бабура, Абу Бакра Калабади, Мухаммада Рихо Огахи. В статье приведены сведения о святыне султана Увайса. Любовь к матери можно увидеть в образе Увайса Гарани. Именно поэтому Мухаммад (мир ему и благословение Аллаха) сказал Хазрату Умару: «В месте под названием Каран есть человек, который получил благословение своей матери». У этого человека в руке немного денег, если вы увидите этого человека, попросите прощения».

Ключевые слова: Увайс Карани, святыня, мать, святая, мавзолей, суфий, хранительница.

Rajabova Nilufar Egamberganovna

Urgench State Pedagogical Institute

THE REFLECTION OF THE NAME OF THE SULTAN UWAYS QARANI SANCTUARY IN WORKS AND ITS IMPORTANCE IN INVITING YOUTH TO GOODNESS

Annotation. This article describes the personality of Uwais Garani and his history. Uwais Qarani is mentioned in the works of Hakim Termizi, Fariduddin Attar, Alisher Navoi, Babur, Abu Bakr Kalabadi, Muhammad Rikho Ogahi. The article provides information about the shrine of Sultan Uwais. One can see the love for mother through the image of Uwais Garani. That is why Muhammad (pbuh) told Hazrat Umar: "There is a man in a place called Karan who received his mother's blessing." That person has a little money in his hand, if you see that person, ask for forgiveness."

Key words: Uwais Qarani, shrine, mother, saint, mausoleum, Sufi, guardian

Sufiylikdagi Uvaysiya tariqati asoschisi Uvays Qaraniy Yaman viloyatining Murod qabilasi, Qarn qishlog‘ida tug‘ilgan. To‘liq ismlari – Suhayl ibn Omir Qaraniydir. Manbalarda bobosi- Qaran ibn Rumon ibn Nohiya ibn Murod, otasi- Omir ekanligi aytilgan. Uvays Qaraniy Hazrati Alining Muoviya bilan bo‘lgan Siffin jangida halok bo‘lgan. Boshqa ma’lumotlarga ko‘ra, Uvays Qaraniy Xo‘tanda vafot etib, shu yerga dafn etilgan [6].

Uvays Qaraniy haqida manbalarda ko‘plab ma’lumotlarni uchratish mumkin. “Ikki jahon quyoshi”, “Yaman yulduzi” deb ulug‘langan Uvays Qaraniy haqida ko‘plab asar va risolalar yaratilgan. Jumladan, turkiyalik Mustafo Najotiy Bursalining “Hazrati Uvays Qaraniy” risolasi, Fariduddin Attorning “Tazkirat ul- avliyo”, Ibn Sa’dning “Tabaqot”, Davlatyor Rahimning “Sulton Uvays”, al- Xazaqiyning “Favoyid” asarlaridir. Shuningdek, Alisher Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat” va Boburning “Boburnoma” asarlarida ham bu shaxs haqida ma’lumotlar keltirilgan. “Nasoyimu-l-muhabbat”dagi Uvays Qaraniy zikri maoniy ilmining boshqa ilmlar o‘rtasida tutgan o‘rni nechog‘liq baland ekaniga dalil bo‘la oladi. Hazrat Navoiyning yozishicha, Uvays Qaraniy: “Hazrat Risolat s. a. v.ni ko‘rmabdur erdi va ul Hazrat ham oni zohir ko‘zi bila ko‘rmabdur erdilar. Ma’noyu ruhoniyat yuzidin tarbiyat qilib erdilar [3]”. Hakim Termiziy “Navodir al-usul” asaridagi anbiyo va avliyo martabalaridagi tafovut haqidagi bobda Uvays Qaraniyni yuqori martabalarga ega valiy zot sirasida zikr etadi. Shuningdek asarning “ruhlar muloqoti” haqidagi bobida ham Haram ibn Hayyonning Uvays Qaraniy bilan uchrashuvidagi mashhur suhbatni ham keltirib o‘tadi [8].

Buxorolik Abu Bakr Kalobodiy esa “Taarruf” kitobining ikkinchi bo‘limida Uvays Qaraniyni “sufiylar ilmidan so‘z ochgan, ularning shavkatlarini ifoda etgan, maqomlarini yoygan, sahobiylardan keyin ularning holatlarini so‘zlari va amallari bilan vasf etgan shaxslar” deya ta’riflagan 40 ga yaqin sufiylar sirasida zikr etgan [2]. Fariduddin Attor “Tazkiratul avliyo” asarida Uvays Qaraniyga bag‘ishlangan alohida bo‘lim ajratgan. Attor ushbu asarida u uvaysiylikka quyidagi ta’rifni beradi: “Bilgilki, bir toifa odamlar bo‘ladi, ularni Uvaysiy, deydilar. Ular Uvays topganidek hech bir hojat va vositasiz Payg‘ambar (a.s.) ruhoniyatidan tarbiya topadilar. Alar shunchaki zohirda bir-birini ko‘rmadilar, ammo botindan fayz-futuh topdilar. Bu oliy maqomdir, u davlat har kishisiga muyassar bo‘lmas. Allohning shunday so‘zi bor: Bu Allohning fazlidirki, uni O‘zi xohlagan kishilarga berur. Alloh ulug‘ fazl sohibidir” [7].

Ma’lumki, Uvays Qaraniy Xorazmda bo‘lmaganlar. Buni muarrix va olim, shoiru fozil sifatida Muhammad Rizo Ogahiy ham bilardi. Shuning uchun Sulton Uvays ziyoratgohi haqida “Sulton Uvays Qaraniy raziyallohu anhu qadamgohi” deb yozadi.

B.Safarov ham bu haqda o‘z kitobida quyidagilarni yozadi: “Sulton Uvays degan kishi hijriy sana 45-yillarda Arabistonning Dutmat-ul jabal degan yerida urushda o‘ldi. Ul kishining qabri shu Dutmat-ul jabal degan joydadur. Lekin 1-asrlarda hozirg‘i Sulton Uvays tog‘larida Boboyor ovchi mergan kishi bor ekan. Ul merganning uzoq-yaqindan Bobochor deb laqab qo‘yg‘anlar. Ul Bobochor degan Sulton Uvaysni tushumga kirib, mozorni ko‘rsatdi deb har kimlarga mashvarat qilib, yordam to‘plab bir joyni ma’lum etib, Sultonbobo mayiti shudir, deb mozor solib, o‘zi shayxliq qilg‘an. Nodon xalqlar har tomondan ziyoratgaa kelaverishib shuhrat topib ketgan, hatto nodon xalqlar Sulton bobodan nazar topqan deb Bobochinorbobom avliyoulloh aqiqa etib, uning qabrini ham ziyoratgoh qilib yubordilar. Hatto ziyoratchilar Sulton boboning kiyik tutadurgaan yeri deb ham har joyni ziyorat qiladurlar. Nodon odamlar Sulton boboning ul joyda yo‘qliqini avliyoulloh bo‘lgan odam kiyik hayvonlarni ovlab, jonivorlargaa ozor bermayajaklarini haqiqatlab o‘ylamaydilar” [5].

Uvays Qaraniy 657-yil 28-mart kuni hazrat Ali va Muoviya bilan bo‘lgan Siffin jangida shahid bo‘lgan. Shundan so‘ng uning jasadini 7 ta qabila talashadi va hazrati Ali bu ishni qur’a tashlash yo‘li bilan hal etishga harakat qilib, 7 ta tobut yasatadi. Lekin bu insonning muborak jasadi bir vaqtning o‘zida barcha tobutlarda ko‘rinadi. Shuning uchun ham bugungi kunda bir nechta davlatlarda bu zotning ramziy qabrlari joylashgan. Lekin haqiqiy jasadlari bo‘lgan tobut onalarining qabri atrofiga, ya’ni hozirgi Chortoq tumanidagi Baliqli ko‘l qishlog‘iga dafn etilgani ayrim manbalarda keltirilgan.

Shuningdek, Uvays Qaraniy bilan bog‘liq qadamjolar ko‘p uchraydi. Sulton Uvays bobo majmui Qoraqalpog‘iston Beruniy tumanidagi me’moriy yodgorlik hisoblanadi. Uning izdoshlari 17-asrda ramziy qabr va ziyoratgoh bunyod etishgan. Xiva xoni Olloqulixon tomonidan shayxga atab katta masjid va alohida 10 ta chillaxona qurdirilgan. “Sulton bobo” nomi bilan mashhur bo‘lgan hudud ko‘p asrlar davomida ziyoratgoh edi va u o‘z ahamiyatini shu vaqtgacha saqlab qolgan [9].

Manbalarda Sulton Uvays maqbarasi Sananj (Eronining Kurdiston o‘stoni markazi)dan 190 kilometr uzoqlikdagi Ravonsar shahristonida joylashgan [12]. Maqbara saljuqiylar davriga oid bo‘lib, Beshako‘h tog‘ tizmalaridadir.

Sulton Uvays Qaraniy ziyoratgohi Namangan viloyatining Chortoq tuman markazidan 35 km uzoqlikdagi Baliqli ko‘l qishlog‘ida joylashgan[10].

Uvays Qaraniy payg‘ambar Muhammad (s.a.v.) ga g‘oyibona mehri bilan tanilgan. Payg‘ambarimiz bilan zamondosh bo‘lishiga qaramay, xasta onasiga bo‘lgan cheksiz mehri va uni yolg‘iz qoldira olmasligi uchun ham Muhammad (s.a.v.) bilan ko‘risha olmagan. Bir safar onasini ruhsati bilan payg‘ambarni ko‘rish uchun yo‘lga chiqadi va payg‘ambarimizning uylariga qadar boradi. Lekin borganida payg‘ambarimiz uyda bo‘lmaydilar va Uvays Qaraniy onasini uzoq vaqt yolg‘iz qoldirish imkoni bo‘lmagani uchun ortga qaytishga majbur bo‘ladi. Keyin bundan xabar topgan payg‘ambarimiz bu zotga o‘z hirqalarini taqdim etadilar. Hozirgi kunda o‘sha hirqa Turkiyaning Istanbul shahridagi “Hirqai Sharif” masjidida saqlanmoqda. U zot onasini yolg‘iz qoldirmaslik uchun bir umr uylanmay o‘tadi. Shunga ko‘ra u zot muhazramlardan, ya’ni johiliyat davrini ko‘rgan, Rasululloh (s.a.v.) ning hayotlik davrlariga yetishgani holda, u zot bilan ko‘risha olmay, g‘oyibona imon keltirganlardan edi [1]. Vaysul Qaraniy roziyallohu anhu Uhud jangida Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning bitta tishlari singani xabari kelganida u zotning qaysi tishlari singanini bilolmagani uchun barcha tishlarini sindirib tashlab, Payg‘ambarga yaqin bo‘lish zavqidan shodlandilar [11]. Bu zotni payg‘ambarimiz ham juda hurmat qilganlar hamda “Tobeinlar yaxshisi” deb zikr qilganlar. Muhammad (s.a.v.) hazrati Umarga: “Qaran degan yerda onasini duosini olgan bir odam bor. U odamning qo‘lida ozgina oqi bor, o‘sha odamni ko‘rsang haqqingga istig‘for so‘ra”- deganlar. Uvays Qaraniy hazrati Umar va xazrati Ali bilan ko‘rishishga muvaffaq bo‘ladi va ularga payg‘ambarimizga bo‘lgan sevgisini quyidagicha ifodalaydi: “Sevishning sharti sevgili uchun hamma narsaga rozi bo‘lish. Uning holatini tushunish. Tushunmaguncha sevdim deyish noo‘rindir. Men uni dunyoviy ko‘zim bilan ko‘rmadim, ammo shariatini, ya’ni holatini tushundim. Uni ma’qullash dindir” [4]. Uvays Qaraniy tili chiqishi bilanoq o‘z onasiga: “Ey mehribon onajonim, ogoh bo‘lingki, yaqinda bashariyatni hidoyatga boshlovchi, botil ishonchlarni yo‘qqa chiqaradigan va Allohning yagona ekanligini bildiradigan bir payg‘ambar keladi”- deb bashorat qilgani aytiladi.

Ushbu ziyoratgohlarni ilmiylik asosida chuqur o‘rganish yurtimiz ma’naviy hayotining yuksalishiga, xalq orasidagi ayrim salbiy odatlarga barham berilishiga, shu bilan birga, ijobiy xislat va urf-odatlarning shakllanishiga yordam beradi. Shuningdek, o‘sib kelayotgan yosh avlod ongida sog‘lom e’tiqod, to‘g‘ri dunyoqarash, allomalarimiz merosiga nisbatan mehr-muhabbat histuyg‘ularini tarbiyalashga xizmat qiladi.

Iqtiboslar/Сноски/Reference

1. Абдулхай Турсун. Султон Увайс хазратлари. Т.: Муҳаррир, -2020. -Б. 10
2. Абу Бакр Калободий. Таарруф. – Қоҳира: Хоначи, 1994. 10-11-бет

3. Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. /Тўла асарлар тўплами. Ўн жилдлик. Ўнинчи жилд. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2011. 99-бет

4. Мустафо Нажотий Бурсали, Хамидулла Беруний. Хазрати Увайс Караний. Т.: Адабийот учкунлари, -2015.- Б. 4.

5. Сапаров Б. Хоразмда муқаддас ўрин тутиб, халқларимизнинг зиёратгоҳи бўлиб қолган авлиёларнинг тарихий воқеалари // Хива Ичан-қалъа давлат музей-қўриқхонаси фонди. № – Б.4.

6. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Давлат илмий нашриёти Тошкент.7-8 бет

7. Фаридуддин Аттор. Тазкиратул авлиё / А.Мадраимов тарж. –Т.: Ғ.Ғулом, 2013.39-бет.

8. Ҳаким Термизий. Наводир ал-усул. Дор ар-Райён, 1984. Т.1.

9. Яҳё Ғуломов. Хоразмнинг суғорилиш тарихи. “Тамаддун нури” журнали 2018-йил, 3-сон 56-бет.

10. https://oliymahad.uz/21849

11. https://www.naqshband.uz/makolalar/sarvari_olamga_munosib_ummat_bulaylik

12. https://www.tabnak.ir/fa/news/1003662/ آرامگاه-اویس-قرنی

Матлуба Расулова
К.ф.н., доцент Кокандского государственного педагогического института
matlubarasulova161@gmail.com
https://orcid.org/0009-0008-2019-243X

СЕМАНТИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ СО ЗНАЧЕНИЕМ СПОСОБА ДЕЙСТВИЯ

Аннотация. В статье дается сопоставительная характеристика семантической структуры одной небольшой группы наречных фразеологических единиц двух разносистемных языков. Автор, применяя метод компонентного анализа, выделяет в кругу фразеологизмов со значением способа действия пять фразео-семантических групп, характерных для системы как русского, так и узбекского языков.

Ключевые слова: фразеологическая семантика, разносистемные языки, коммуникативная лингвистика, фразео-семантическая группа, макросема.

Matluba Rasulova
Qo‘qon davlat pedagogika instituti f.f.n., dotsent
matlubarasulova161@gmail.com
https://orcid.org/0009-0008-2019-243X

HARAKAT TARJIMI MA’NOSI BILAN FRAZEOLOGIK BIRIKLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI.

Annotatsiya. Maqolada ikki xil tizimli tillarning qo‘shimchali frazeologik birliklarining bir kichik guruhining semantik tuzilishining qiyosiy tavsifi berilgan. Muallif komponentli tahlil usulidan foydalanib, ham rus, ham o‘zbek tili tizimiga xos bo‘lgan harakat usuli ma’nosi bilan frazeologik birliklar doirasidagi beshta frazeologik-semantik guruhni aniqlaydi.

Kalit so‘zlar: frazeologik semantika, ko‘p tizimli tillar, kommunikativ tilshunoslik, frazeologik-semantik guruh, makrosema.

Matluba Rasulova
Ph.D., Associate Professor, Kokand State Pedagogical Institute
matlubarasulova161@gmail.com
https://orcid.org/0009-0008-2019-243X

SEMANTIC CHARACTERISTICS OF PHRASEOLOGIC UNITS WITH THE MEANING OF MODE OF ACTION

Annotation. The article provides a comparative description of the semantic structure of one small group of adverbial phraseological units of two different systems languages. The author, using the method of component analysis, identifies five phraseological-semantic groups in the circle of phraseological units with the meaning of the method of action, characteristic of the system of both the Russian and Uzbek languages.

Keywords: phraseological semantics, multisystem languages, communicative linguistics, phraseological-semantic group, macroseme.

Введение

Об успешных попытках изучения различными методами и приемами семантики фразеологических единиц (далее ФЕ) русского языка свидетельствуют имеющиеся статьи и монографии. В них ФЕ исследуются не только в области русского языка, но и в сравнении с фразеологическими системами других языков, относящихся преимущественно к индоевропейской семье. Причем, если в ранних работах семантические группы, выделяемые среди ФЕ, устанавливались, как правило, на основе семантических разрядов наречных лексем (Л.В. Орлова, А.В. Жуков, А.И. Молотков, О.П. Иванова, А.Д. Зиньков и др.) [1], то в более поздних работах данные единицы уже рассматриваются в составе какой-нибудь конкретной фразео-семантической группы (далее ФСГ): "степень", "время", "количество", "предельность" (Л.А.Мизяева, С.В.Столбунова, Р.А.Семергей, С.И.Кравцова, Б.Штефан и др.) [2].

В сопоставительных работах, касающихся освещения тех или иных сторон данной области языкознания, в качестве языка, являющегося объектом содержания и выражения другого языка, или, другими словами, объектом сравнения выступает преимущественно русский. И это неудивительно, так как в описании фразеологии большой опыт накоплен лингвистами, занимающимися проблемами русской фразеологии и, в частности, фразеологической семантикой. Такая практика позволяет достижения фразеологов, работающих на материале русского языка, успешно применять (с соответствующими уточнениями) к материалу других языков, в частности, и к тюркским (Н.А. Баскаков, Н.З. Гаджиева и др.).

При изучении разносистемных языков в сопоставительном плане более практическое значение имеет выявление определенных семантических групп, объединенных общностью значений (Дж.Буранов) [3]. Сравнение этих микросистем позволяет выявить отличительные и общие стороны в выражении тех или иных понятий ФЕ рассматриваемых языков.

Актуальность такого подхода определяется еще и тем, что в последние годы в национальных школах прочно укрепился такой метод, при котором обучение русскому языку основывается на тематическом принципе, когда какая-нибудь семантическая группа является главным содержание речевого акта, т.е. лексический

уровень выносится на первый план, а грамматический - на второй. "Состав лексико-тематических групп является своего рода дифференцирующим показателем при преподавании русского языка в национальной школе…, что определяется главным образом степенью понятной детализации внутри отдельных лексических объединений" [4] Тем самым мы касаемся одной из самых актуальных направлений современного языкознания - коммуникативной лингвистики. Изучение семантических групп с точки зрения выявления значений ФЕ в функционально-коммуникативном аспекте, составляющих микросистемы одной небольшой ФСГ, является важной предпосылкой в описании фразеологии как системы. Изучение единиц лишь одного разряда продиктовано и применяемым нами методом анализа семантической структуры ФЕ.

В настоящей статье мы попытаемся дать семантическую характеристику одной небольшой группы ФЕ со значением способа действия в русском и узбекском языках.

ФЕ русского и узбекского языков, включенные в данную ФСГ, с той или иной стороны конкретизируют, уточняют сообщение, выражают характер внешнего протекания действия. Выделяются следующие микрогруппы единиц.

А) ФЕ с макросемой "систематичность" связаны с обозначением двух противоположных понятий: одна часть такого рода ФЕ указывает на наличие системности, порядка в протекании какого-либо действия, а другая, наоборот, выражает полное его отсутствие. Эта оппозиция может быть представлена следующим образом: "упорядоченно" - "беспорядочно".

1) ФЕ с интегральной семой "упорядоченно" указывают на упорядоченность действия, протекающего с привычной или установившейся последовательностью: раз в раз, шаг в шаг, вверх головой, своим порядком; кайта бошдан и т.п. В рамках ФЕ, обозначающих наличие порядка, возможна дальнейшая семантическая конкретизация, основанная на выделении отдельных единиц, построенных на одной конкретной семе.

а) ФЕ с семой вещественного значения "по порядку": пункт за пунктом, шаг за шагом, сверху донизу, снизу доверху; бир бошдан, бир чеккадан и т.п. Например: Я обязан задержать шофера, сесть и спокойненько, пункт за пунктом нарисовать протокол…(В.Тендряков, Ухабы); Очил бува буларнинг хаммасини бир бошдан хикоя кила бошлаганда, столчадаги телефон жиринглаб колди (А.Мухтор, Чинор).

б) ФЕ с семой вещественного значения "попеременно": из рук в руки; бири куйиб бири, бири олиб бири куйиб. Например: … И вновь инициатива гуляла из рук в руки, поочередно одерживались победы чисто местного значения (М.Шолохов, Тихий Дон); Одамларнинг бири куйиб бири дадамни сурокка тутарди (Н.Сафаров, Курган-кечирганларим).

в) ФЕ с семой вещественного значения "однообразно": день за день, как заведенная машина, на одной ноте; бир киемда. Выделению этой небольшой микрогруппы способствовало то, что наряду с указанием на какой-то порядок действия, процесса, в их семантической структуре содержится еще одна сема,

обладающая качественным значением. Например: Машина басовито, на одной ноте, завывая мотором, с боязливой осторожностью полезла вверх (В.Тендряков, Ухабы); Сирдарёнинг бир киемда шовиллашига кулок солиб ётар ва ухлашга харакат киларди (П.Кодиров, Уч илдиз).

2) ФЕ с интегральной семой "беспорядочно" выражают отсутствие какой бы то ни было организации при совершении или протекании какого-либо действия, а также они могут употребляться в тех случаях, когда нет слаженности, организованности, порядка в делах, во взаимоотношениях: на все лады, кто в лес, кто по дрова, вкось и впрямь, через пень колоду; хар алвонда, уз бошига, бири богдан бири тогдан и т.п. Например: Одетые кто во что горазд, шли молодые и пожилые, с остервенением отворачиваясь от ветра (А.Толстой, Хмурое утро); Бирингиз богдан бирингиз тогдан гапирасиз (Из разговорной речи). В рамках данного объединения также возможна дальнейшая градация единиц.

а) ФЕ с семой вещественного значения "неожиданно". Здесь отсутствие порядка проводится с указанием на внезапность, неожиданность в протекании какого-нибудь действия: как гром среди ясного небо, как снег на голову, откуда ни возьмись; томдан тараша тушгандай, осмондан тушгандай, оёг устидан. Например: Если они паче чаяния прорвут на всю глубину и соединятся со сталинградской группировкой, ведь это значит свести на нет успех ноябрьского конртнаступления… (Ю.Бондарев, Горячий снег); Кутилмаганда оёг остидан чикиб колган бу мажаронинг бошини зимдан туриб англашга карор килди (С.Анорбоев, Сайли).

б) ФЕ с семой вещественного значения "напротив". Здесь отсутствие порядка проводится с указанием на полную противоположность ожидаемому действию: вверх ногами, вверх дном, вверх тормашками, на сто восемьдесят градусов. Например: - С утра сидит, - отвечают они, смеясь. - Воображает, будто без него все пойдет вверх дном! (Э.Капиев, Песня).

Б). ФЕ с макросемой "сопряженность" обозначают совместность или одиночность протекания действия. Следовательно, ФЕ настоящей подгруппы можно выстроить в виде следующей оппозиции: "совместно" - "самостоятельно".

ФЕ с интегральной семой "совместно" указывают на то, что какое-либо действие совершается не отдельно, а объединенно с одним или несколькими лицами: под одной крышей, одним домом, всем миром, единым фронтом, всем скопом; бир овоздан, бир жон - бир тан булиб, бир екадан бош чикариб и т.п. Например: Давайте, говорит, навалимся всем миром, всем скопом на это чертово болото, спустим воду, отгоним холода (Ф.Абрамов, Сказание о великом коммунаре); …мана бу байрок тагига бир жон - бир тан булиб тупланайлик! (Н.Сафаров, Эрк элчилари).

ФЕ с интегральной семой "самостоятельно": сам по себе, сам собой, в четырех стенах; уз йулига, уз бошига, уз егига узи ковурилиб, турт девор ичида и т.п. Например: Каждая семья существует сама по себе (А.Фадеев, Молодая гвардия); Шундай пайтда, уз егига узи ковурилиб етган пайтда…(Р.Файзий, Хазрати инсон).

В) ФЕ с макросемой "откровенность" обозначают способ протекания какого-либо действия, процесса открыто или же, наоборот, указывая на его скрытый, замаскированный характер. В зависимости от выражаемого ими значения заключенные в эту микрогруппу единицы противопоставляются по признаку: "открыто" - "скрытно".

ФЕ с семой вещественного значения "открыто" указывают на то, что действие или процесс совершается без намеков, недомолвок, ничем не скрывая чувств, поступков, т.е. явно, открыто: во всей наготе, полным голосом, с поднятым забрало, при всем честном народе; алайно ошкор, манна манн деб, юзини сидириб ташлаб и т.п. Например: Мы узнали, что такое фашизм во всей его человеконенавистнической наготе (Бондарев, Мгновение); …хаммаси оппок когоз бетида манна ман деб тарардику (Ойбек, Улуг йул).

ФЕ с семой вещественного значения "скрытно": одним ухом, в глубине души, краем глаза, тихой сапой, шито да крыто; куз кири билан, куз тагидан, ер остидан, киши билмас, ичига ютиб, исини чикармай и т.п. Они указывают на скрытность действия, т.е. совершаемое действие сохраняется в тайне, субъект старается не обнаруживать себя, не давать заметить окружающим свое отношение к чему-либо, а также скрывать свои поступки. Например: - Нет, Рудин, а мне по роже твоей видно, что ты через плетни тихой сапой шастал! (Ю.Бондарев, Горячий снег); Мукаддам куз кири билан карадию… (У.Хошимов, Бахор кайтмайди).

Г). ФЕ с макросемой "естественность" выражают способ передачи или получения предметов, сообщения напрямую или через посредников. Данная микрогруппа представлена в виде следующей оппозиции: "непосредственно" - "опосредованно".

ФЕ с семой вещественного значения "непосредственно" указывают на то, что какая-нибудь информация или вещь может быть получена без промежуточного звена, без посредников: с рук на руки, из полы в полу, из уст в уста, из рода в род; кулокдан кулокка, тилдан тилга, кулдан кулга, авлоддан авлодга и т.п. Например: Народная молва из уст в уста передавала фамилию генерала, командира части (А.Фадеев, Молодая Гвардия); Подшо хакида, уруш хакида, олди-кочди хабарлар тилдан тилга утди (Ойбек, Улуг йул).

ФЕ с семой вещественного значения "опосредованно": с чужих слов, из вторых рук, из третьих уст. Например: …вот почему я решаюсь, вместо того, чтоб с чужих слов описывать гибель "Густлова", пересказать то немногое, что я слышал от него самого (А.Крон, Капитан дальнего плаванья). Единицы с подобной семантикой в узбекском языке мы не обнаружили.

Д). ФЕ с макросемой "продуманность" предствлена единицами, объединенными в следующую оппозицию: "осознанно" - "неосознанно" .

ФЕ с семой вещественного значения "осознанно" обозначают такой способ действия, который проводится с указанием на обдуманность, сознательность при его совершении: с открытыми глазами; орка-унгига караб, кузга караб, очик куз билан,

дуппини ерга куйиб и т.п. Например: Трудящиеся всего мира с надеждой смотрят на вас, они принесут вам свою великодушную благодарность, с открытыми глазами и сильной грудью вы идете навстречу кровавому рассвету истории (А.Толстой, Хождение по мукам); - Огзингга караб гапир, у сенга ухшаган енгилтак эмаски, буш колди дегунча кизлар ётогига гиззиласа! (А.Мухтор, Буронларда бордек халоват).

ФЕ с семой вещественного значения "неосознанно" обозначают необдуманность действия или высказывания, лишенных каких бы то ни было оснований: направо и налево, с закрытыми глазами, наобум Лазаря, очертя голову, куда глаза глядят; огзига карамай, киприк кокмай, кузини чирт юмиб, орка-унгига карамасдан и т.п. Например: - Да ты что? - только и мог сказать Михаил. Не читавши, не знавши, прямо с закрытыми глазами… (Ф.Абрамов, Братья и сестры); Маст одам огзига келганини кайтармай гапираверади-да (У.Хошимов, Нур борки, соя бор).

Таким образом, данная микросистема представлена в полной мере во фразеологической системе как русского, так и узбекского языков, несмотря на их разносистемность. Как правило, выделяемые на основе интегральной семы микрогруппы, относясь к какой-нибудь макросеме, составляют одну оппозицию. При этом оппозиция проявляется ярче и четче в том случае, если ФЕ, относящиеся к двум противопоставленным микрогруппам, способны сочетаться с одним и тем же словом или, в крайнем случае, со словами, находящимися в одной семантической области. При выполнении этих условий ФЕ находятся в состоянии оппозиции и могут легко вступать в антонимические отношения между собой.

Iqtiboslar/Сноски/Reference

1. Орлова Л.В. Неразложимые словосочетания, употребляющиеся в современном русском языке в роли обстоятельства. – Автореф. дис. … канд. филол. наук. – М., 1951. – 15 с.; Жуков А.В. Наречные фразеологизмы современного русского литературного языка. -– Автореф. дис. … канд. филол. наук. – Л., 1975. – 15 с.; Молотков А.И. Основы фразеологии русского языка. – Л.: Наука, 1977. – 284 с.; Иванова О.П. Русские наречные фразеологизмы и их соответствия в английском языке. – Автореф. дис. … канд. филол. наук. – Саратов, 1980. – 21 с.; Зиньков А.Д. Сравнительное исследование адвербиальных фразеологических единиц в современных западно-германских языках. – Автореф. дис. … канд. филол. наук. – М., 1976. – 25 с.;

2. Мизяева Л.А. Наречные фразеологические единицы степени в современном русском языке. – Автореф. дис. … канд. филол. наук. – М., 1980. – 17 с.; Столбунова С.В. Фразеологические единицы со значением времени в современном русском языке. – Автореф. дис. … канд. филол. наук. – М., 1985. – 23 с.; Кравцова С.И. Фразеологические единицы со значением количества в русском языке (в сопоставлении с украинским). – Автореф. дис. … канд. филол. наук. – Ростов-на-Дону, 1980. – 21 с.; Семергей Р.А. Лексические показатели времени в современном русском языке (наречия и наречные выражения) – Автореф. дис. … канд. филол. наук.

– Л., 1983. – 27 с.; Штефан Б. Фразеологические единицы со значением «предельность» в современном русском языке. – Автореф. дис. … канд. филол. наук. – Ростов-на-Дону, 1984. – 19 с.; Баскаков Н.А., Гаджиева Н.З., Кузнецов П.И., Соколов С.А. Теоретические проблемы и вопросы по тюркскому языкознанию, рекомендуемые для докторских и кандидатских диссертаций. – Сов. тюркология, №2. – Баку,1981. – С.32-37.

3. Буранов Дж. Сравнительная типология английского и тюркских языков. – М.: Высшая школа, 1983. – С.122

4. Михайловская Н.Г. О теоретических и практических задачах русского языка как средства межнационального общения. Вопросы языкознания. -1983. -№3. –С.28.

Yo‘ldasheva Mahliyo Faxriddin qizi,
Namangan davlat universiteti tayanch doktorant,
E-mail: makhliyoyuldasheva05@gmail.com

JEK LONDON ASARLARI TARJIMALARINING LEKSIK XUSUSIYATLARI (“MARTIN IDEN” VA “OQ SO‘YLOQ”ASARLARI ASOSIDA)

Annotatsiya. Ushbu maqolada Jek Londonning „Martin Iden“ va “Oq Soyloq” asarlarining leksik xususiyatlari, badiiy tasvir vositalarining bilvosita tarjima jarayonida amalga oshirilgan yutuq va kamchiliklari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: metonimiya, epitet, leksik birlik, adekvat tarjima.

Йўлдашева Маҳлиё Фахриддин кизи
Наманганский государственный университет
e-mail: makhliyoyuldasheva05@gmail.com

ЛЕКСИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ПЕРЕВОДОВ ПРОИЗВЕДЕНИЙ ДЖЕКА ЛОНДОНА (НА ОСНОВЕ ПРОИЗВЕДЕНИЙ “МАРТИН ИДЕН” И БЕЛЫЙ КЛЫК”)

Аннотация. В статье рассматриваются лексикические особенности произведений Джека Лондона «Мартин Иден» и «Белый Клык», достижения и недостатки образных языков в процессе прямого перевода.

Ключевые слова: метонимия, епитет, лексическая единица, адекватный перевод.

Yuldasheva Mahliyo Faxriddin qizi,
Namangan state university, doctoral student,
e-mail: makhliyoyuldasheva05@gmail.com

LEXICAL FEATURES OF TRANSLATIONS OF JACK LONDON'S WORKS (BASED ON THE WORKS "MARTIN IDEN" AND "WHITE FANG")

Annotation. This article examines the lexical features of Jack London’s works “Martin Eden” and “White Fang”, the achievements and shortcomings of figurative languages in the indirect translation process.

Key words: metonymy, epithet, lexical unit, adequate translation.

Jek London XX asrning eng ko‘zga ko‘ringan amerikalik yozuvchilardan biri va ijodi ulkan ma’naviy, adabiy va madaniy merosni ifodalovchi dunyoning eng buyuk

yozuvchisidir. Yozuvchi jahon adabiyoti tarixiga eng ko‘p avtobiografik asarlar yaratuvchi mohir yozuvchi sifatida kirib keldi. Yozuvchi o‘z asarlarida o‘sha davr xalqining hayot tarzi va undagi turli hayotiy vaziyatlar, sharoitlari va madaniyati to‘g‘risida aks ettirgan. Jek Londonning asarlari nihoyatda qiziqarli va ko‘p qirrali bo‘lib, bu ularning turli jihatlar nuqtai nazaridan o‘rganish imkonini beradi. U asarlarining uslubi turli xil lingvistik tadqiqotlar uchun amaliy qiziqish uyg‘otadi. Yozuvchi asarlarida ko‘p uchraydigan til va nutq birliklarining rang-barangligi, ifoda vositalari va uslubiy vositalar o‘ziga xos yozuv uslubini mukammal ifodalaydi.

Jek London ijodiy uslubining asosiy xususiyatlaridan biri uning asarlarining avtobiografik tabiati bo‘lib, buni yozuvchining deyarli barcha asarlarida ko‘rish mumkin. Shunday qilib, yozuvchining “Shimoliy hikoyalari”, “Quyosh o‘g‘li”, “Dengiz bo‘risi”, “Martin Iden” va boshqa kitoblarida ba’zi biografik epizodlarni kuzatish mumkin. Bu asarlarda yozuvchining o‘zi hayotining bir qismi bo‘lgan sarguzashtlar, dengiz sayohatlari, oltin konlaridagi mehnat aks ettirilgan. Bundan tashqari, Londonning voqealarga boy hayoti mamlakat tarixiy rivojlanishidagi inqirozli daqiqalarda o‘z ifodasini topgan. “Martin Iden” va “Oq Soyloq” yozuvchining “Yovvoyi chaqiruvi”, “Dengiz bo‘risi” va boshqalar kabi kitoblari bilan bir qatorda asosiy asarlaridan biridir. Biroq, 1908-yilda yozilgan “Martin Iden” romani Jek London ijodiy salohiyatining cho‘qqisi bo‘lib, o‘ziga xos original she’riy va badiiy konseptsiya bilan ajralib turadi. Ko‘pgina tadqiqotchilarning ta’kidlashicha , “Martin Iden” Jek Londonning boshqa asarlaridan ko‘ra ko‘proq avtobiografik tabiati bilan ajralib turadi: kambag‘al dengizchidan taniqli yozuvchigacha bo‘lgan shaxsiyat rivojlanishining qiyin yo‘lini bosib o‘tgan bosh qahramonning taqdiri. London hayotidagi voqealar rivoji bilan juda o‘xshash.

Maksim Gorkiy[1], V.N. Bogoslovskiy[2], F. Yung[3] va boshqa taniqli olimlar romanni o‘rganib chiqishgan. Insonning jamiyatdagi maqsadi, mehnatkashlar sinfi uchun ta’lim olish imkoniyati va beg‘araz sevgi mavzusi bugungi kungacha jamiyat uchun dolzarb bo‘lib kelganligi sababli roman ko‘p yillar davomida o‘z ahamiyatini yo‘qotmadi. Biz tadqiqotimiz uchun material sifatida Jek Londonning “Martin Iden” va “Oq so‘yloq” asarlari olingan bo‘lib, ularda turli lingvistik darajalarda turli ifoda vositalari va uslubiy vositalar o‘zining barcha xilma-xilligi bilan namoyon bo‘ladi. Shunday qilib, Jek London individual uslubining leksik darajadagi asosiy xususiyatlaridan biri uning g‘ayrioddiy metaforik tabiati bo‘lib, u muallif uslubini obrazli va nafis qiladi, bu esa o‘quvchining tasavvurini to‘liq jalb qilish imkonini beradi. Asarda tabiat hodisalari, materiallar, hayvonlar bilan turli o‘xshatishlar asosida qurilgan bir qancha metaforalar mavjuddir.

Rus tilshunosi V.A.Zvegintsev so‘z semantik rivojlanishini mantiqiy –semantik hodisalar qatorida tahlil qilishga qarshi bo‘lmaydi, balki unga qo‘shiladi. Bundan tashqari u, xalqlar tarixi va tilning tarkibiy hususiyatlari bilan birga tahlil etishni ilova qilish kerakligini ko‘rsatadi [4].

Klassik adabiyotda metonimiya (yoki “denominatio”) „bir biriga yaqin yoki o‘xshash bo‘lgan narsalarning nomini unga tegishli bo‘lmagan nom bilan izohlay olishimiz mumkin bo‘lgan trop” sifatida qaraladi.[5] Metonimik bog‘lanishni amalga oshirishda “turg‘unlik”

tushunchasi muhim ahamiyatga ega, chunki bog‘lanish yagona semantik maydon doirasida[6] yoki bitta kognitiv sohada[7] amalga oshirilishi kerak.

Metonimiya – bu “… otning bir sinf predmeti yoki bitta predmetdan ikkinchi predmetga yoki alohida obyektga muntazam yoki vaqti-vaqti bilan ko‘chirilishidan iborat bo‘lgan, belgilar bilan uzviylik orqali bog‘langan trop yoki nutq mexanizmidir [8]”.

Bir predmet, belgi, harakat nomini o‘zaro tashqi yoki ichki yaqinlik- bog‘liqlik asosida boshqa predmet, harakat yoki belgiga nisbatan qo‘llash; shunday qo‘llash asosida bir harakat, belgi predmet nomining boshqa harakat, belgi va predmetga ko‘chishi orqali metonimiya hodisasi sodir bo‘ladi. So‘zning yangi ma’nolari hosil bo‘lishida metonimiya muhim ahamiyat kasb etadi [9].

Metaforada bir predmet belgilari ikkinchi predmetga o‘xshashlik asosida ko‘chirilsa, metonimiyada bu ikki predmet tashqi ko‘rinishi yoki ichki xususiyatlari bilan bir-biriga qandaydir aloqasi bo‘lsa ham, ammo umuman bir-biridan farq qiluvchi predmetlarning belgilari chog‘ishtiriladi [10].

P. Koch 1997-yil metonimiya bo‘yicha tarixiy izlanish olib bordi va metonimiya tarixan klassik notiqlik san’atiga kirishi va uning ilk ta’rifini obrazli ifoda deb atalishini , metonimiya bu biror predmet yoki hodisa nomini shu predmet bilan bir o‘rin olgan boshqa predmet nomi bilan almashtirish hodisasi ekanligini ta’kidlab o‘tadi [11].

9. *af’ila* افعله vaznidagi ko‘plik shakli. Masalan, “”aqshimayi bisyor va atmi’ayi beshumor va aslahayi begor va asosayi korzorg‘a baqadri iqtidor mutsarif bo‘lub,..” (RD, 348[b]) matnidagi *aqmisha* أَقْمِشَةٌ mato, gazlama ma’nosidagi *qumosh* قُمَاشٌ va *at’ima* أَطْعِمَةٌ ovqat ma’nosidagi *taom* طَعَامٌ ning mazkur vazndagi siniq ko‘pligidir.

10. *af’ilo* vaznidagi siniq ko‘plik shakli. Masalan, “qavonini navozishi *ahibbo* ishtig‘olidin bilkull xotirjam’ bo‘lub yana Ostona va Oqmasjid hududig‘a shikor azimati bila nahzat ko‘rguzdi” (FI) Mazkur parchadagi *qavonini navozishi ahibbo* izofiy zanjiri do‘stlarga izzat-ikrom ko‘rsatish qonun-qoidalari degan ma’noni beradi. *Atibbo* أَطِبَّاءُ esa *tabib* طَبِيبٌ so‘zining siniq ko‘pligidir: “*atibboyi* hazoqatshior” (FI)

11. *mafo‘il* مفاعيل vaznidagi ko‘plik shakli. Masalan, maktub مَكْتُوبٌ so‘zining ko‘pligi makotib مَكَاتِيبُ dir. Eski o‘zbek tilida ikkita makotib shaklidagi so‘z bor: biri ushbu maktubning ko‘pligi va ikkinchi maktabning kupligi makotib. Ular o‘rasidagi farq shuki, birinchisida i cho‘ziq unli sifatida yoziladi, ikkinchisida i qisqa unli bo‘lib yozilmaydi, ya’ni *makoti:b* مَكَاتِيبُ va *makotib* مَكَاتِبُ .

XULOSA

Shunday qilib, biz o‘zbek tili leksikasining ancha qismini tashkil etgan arabizm – arab tilidan o‘zlashgan so‘zlarning kirib kelish jarayoni, uning o‘zlashishi, singishi, ma’nolarining arab tilida qanday bo‘lsa shunday ma’noda qo‘llanilayotganligi yoki birlamchi ma’nosini yo‘qotib, boshqa ma’noda, ba’zan, asliga zid ma’no anglatadigan

shakllari haqida tasavvurga ega bo‘lamiz. Ko‘rinadiki, eski o‘zbek tilidagi arabcha siniq ko‘plik shakllarini o‘rganish mutaxassislar so‘z boyligi oshishi, matnlarni aniq tushunish, milliy merosdan bahramandlik kabi ma’rif maqsadlarga xizmat qila oladi.

Iqtiboslar/Сноски/Reference

1. Аҳмедова Р. Маҳмуд Замахшарий ва унинг “Ҳаракот” (“Тасрифу-л-асма) рисоласи аънохон // Sharq mash’ali – Б. 30-31.

2. Омонов М., Ботирова З. Арабча синиқ кўплик вазнидаги ўзлашма сўзлар ва уларнинг семантик хусусиятлари”// FarDU. Ilmiyxabarlar 2017 3 –Б. 109.

3. Гулшани давлат. Ўз РФА Шарқшунослик институти, №7572.

4. Shir Muhmmad Mirab Munis and Myhmmad Riza Agahi. Firdavs al-iqbal: History of Khorezm / Edited by Yuri Bregel. T.J.Brill. – Leiden–New York–Kobenhavn–Koln, 1988. Мақолада ФИ қисқартмаси билан берилди.

5. Ахатова М. Ўзбек тили тасаввуф лексикаси: Филол. фан. док. дис... автореф. – Тошкент, 2021. – Б. 30.

6. Абдураҳмонов Ғ., Рустамов А. Навоий тилининг грамматик хусусиятлари. –Тошкент: Фан, 1984. – Б. 43.

7. Риёз уд-давла. ЎзР ФА Шарқшунослик институти. 5364 / II.

8. Фирдавсул иқбол. ЎзР ФА Шарқшунослик институти.

Masharipova Yulduz Otaxanovna
Urganch davlat universiteti
tayanch doktorant
E-mail: yulduz.m@urdu.uz

Leksik transformatsiyalarning lingvokulturologik tadqiqi

ANNOTATSIYA: Mazkur maqolada leksik transformatsiyalar lingvokulturemalarning tarjimada adekvat aks ettirishning eng samarali yo‘li ekanligi aniqlandi. Ma’lumki, tarjimada har bir leksik transformatsiya turining o‘z vazifasi mavjud. Misol uchun, transliteratsiyada lakunalar, kalkalash usulida frazeologik birliklar, kompensatsiyada stilistik birliklar va shevalar, konkretlashtirish va umumlashtirishda madaniy til birliklari, modulyatsiyada esa metaforalar hamda maqollar tarjimasi amalga oshiriladi. Har bir tilning frazeologik birliklari, shevasi, stilistik birliklari, maqol va madaniy til birliklari o‘sha tilning lingvokulturemalari sanaladi. Shunday ekan, ushbu maqolada leksik transformatsiyalardan tarjimada aynan lingvokulturologik birliklarni o‘girishda samarali foydalanilishi yoritib berildi. Bu jarayon natijasida lingvokulturologik tahlil shakllanadi.

Kalit so‘zlar: lingvokulturologik tahlil, lingvokulturema, leksik transformatsiyalar, transliteratsiya, kalkalash usuli, konkretlashtirish, umumlashtirish, modulyatsiya, kompensatsiya.

Машарипова Юлдуз Отахановна
Ургенчский государственный университет
докторант
E-mail: yulduz.m@urdu.uz

ЛИНГВОКУЛЬТУРНОЕ ИЗУЧЕНИЕ ЛЕКСИЧЕСКИХ ПРЕОБРАЗОВАНИЙ

АННОТАЦИЯ: В данной статье определено, что лексические трансформации являются наиболее эффективным способом адекватного отражения лингвокультуры в переводе. Известно, что каждый вид лексической трансформации имеет свою функцию при переводе. Например, лакуны используются при транслитерации, фразеологизмы — при калькирование, стилистические единицы и диалекты — при компенсации, лингвокультурные единицы — при конкретизации и генерализации, а метафоры и пословицы переводятся при модуляции. Фразеологические единицы, диалект, стилистические единицы, пословицы и лингвокультурные единицы каждого языка являются лингвокультурными элементами этого языка. Поэтому в данной статье было подчеркнуто эффективное использование лексических трансформаций при переводе лингвокультурных единиц. В результате этого процесса формируется лингвокультурологический анализ.

Ключевые слова: лингвокультурный анализ, лингвокультурема, лексические трансформации, транслитерация, калькирования, конкретизация, генерализация, модуляция, компенсация.

Masharipova Yulduz Otakhanovna
Urganch State University
doctoral student
E-mail: yulduz.m@urdu.uz

THE LINGUOCULTURAL STUDY OF THE LEXICAL TRANSFORMATIONS

ANNOTATION: In this article, it was determined that lexical transformations are the most effective way to adequately reflect linguoculturemes in translation. It is known that each type of the lexical transformation has its own function in translation. For example, lacunae are translated by transliteration, phraseological units are translated by calque, stylistic units and dialects are translated by compensation, cultural language units are translated by concretization and generalization, and metaphors and proverbs are translated in modulation. Phraseological units, dialects, stylistic units, proverbs and cultural language units of each language are the linguocultural elements of that language. Therefore, in this article, the effective use of the lexical transformations in the translation of linguistic and cultural units was highlighted. As a result of this process, a linguistic and cultural analysis is formed.

Key words: linguocultural analysis, linguocultureme, lexical transformations, transliteration, calque, concretization, generalization, modulation, compensation.

Kirish: bugungi kun lingvistikasi tilga nafaqat aloqa va bilim quroli sifatida, balki millatning madaniy kodi sifatida qarashni taqozo etmoqda. Bunday yondashuvning fundamental asosini V.Gumboldt, A.A. Potebnya kabi olimlarning ilmiy asarlarida uchratish mumkin.

Til leksika, grammatika, ibora, maqol va matallar, folklor, badiiy va ilmiy adabiyot, ogʻzaki va yozma nutq (diskurs)dagi madaniy qadriyatlarni oʻzida saqlab keladi. Demak, til madaniyat tashuvchisi hamdir. Xalq madaniyatining barcha nozik tafsilotlari, jihatlari uning tilida aks etadi. Lingvomadaniyatning asosiy vazifasi ham xalqning mentalligi, ongi, tafakkuri timsoli va uning madaniyatini til orqali ifodalashdir. Shuningdek, lisoniy birliklarni turli tillar kesimida qiyoslash orqali ularning konseptual-semantik mohiyati va lingvokulturologik xususiyatlarini koʻrsatib berish mumkin.

Tarjima jarayonida aynan asliyat tiliga tegishli boʻlgan oʻziga xos xususiyat, urf-odatlarning tarjima tilida ekvivalenti mavjud emasligi til va madaniyat masalasi bilan oʻzaro bogʻliqdir. Tarjima vositasida oʻzbek xalqi toʻy marosimlarini inglizlarning toʻylari bilan qiyoslash orqali bunga misol keltirish mumkin. Chunki oʻzbek xalqi toʻylari fotiha toʻyi, non sindirish, kelin salom, kuyov salom kabi an’analarga toʻlaligi bilan boshqa xalq

marosimlaridan ajralib turadi. Inglizlarda esa to‘ylar ixchamgina bo‘ladi. Shunday qilib, tarjima vositasida madaniyatlar orasidagi bunday tavofutlar mavjudligini hisobga olgan holda, turli xalqlar bir dunyoni yoki obyektni turlicha ko‘rishadi, degan xulosaga kelish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, til va madaniyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik rad etib bo‘lmas hodisadir. Tarjima jarayonida bu uzviylik lingvokulturologiyaning tarjima amaliyoti bilan to‘qnashuviga sabab bo‘ladi. Shunday qilib, tarjima va lingvokulturologiya birlashgan holda qiyosiy aspektda o‘rganilishi uchun zamin yaratiladi. Natijada, lingvokulturologik tahlil aynan tarjima qiyosi asosida amalga oshiriladi.

Adabiyotlar sharhi: tilshunoslikdagi “lingvokulturologiya” termini hozirgi kunda “lingvomadaniyat” nomi bilan ham atalib kelinmoqda. Lingvokulturologiyaning predmeti tilda aks etgan urf-odatlar, an’analar, so‘z va iboralar hisoblanadi. Shuningdek, muayyan xalqqa xos, lisoniy va nolisoniy omillarni qamrab oluvchi, til va madaniyatning o‘zaro aloqadorligini ifoda etuvchi, til vositalarining barchasida namoyon bo‘la oladigan birlikka lingvoklturema deyiladi. U birgina so‘zdan tashkil topgan bo‘lishi mumkin, qo‘shma so‘zlardan, butun bir abzats yoki matndan iborat bo‘lishi mumkin. Ya’ni, lingvokulturemada nafaqat lisoniy xususiyatlar, balki xalq madaniyati, urf-odatlari va mentaliteti bilan bog‘liq nolisoniy omillar ham mavjud bo‘ladi. Lingvokulturema o‘zida madaniy ko‘rinishlar hisoblanuvchi realiya va lakunalarni mujassamlashtiradi.

Lingvokulturema terminini ilmiy muomilaga ilk bor V.V. Vorobyev kiritgan bo‘lib, u lingvokulturemani quyidagicha ta’riflaydi: “Lingvokulturema tilning sathlararo birligi sifatida o‘zida lisoniy va nolisoniy omillarning dialektik butunligini namoyon etadi”. [1, C. 45]

O‘. Yusupov lingvokulturemaning ma’nosi xususida shunday deydi: “lingvokulturema ma’nosiga madaniyatning biror bo‘lagini aks ettiruvchi so‘zlar, frazeologik birliklar, so‘z birikmalar, gaplar, paremiyalar, nutq klishelari, murakkab sintaktik butunliklar, matnlar va hokazolar kiradi”. [2, B.15]

Shunday qilib, lingvokulturema o‘ziga xos murakkab tuzilishga ega bo‘lib, har bir lingvokulturemada bosh (semantik) va ikkinchi darajali (nolisoniy) ma’nolar mavjud. Vorobyevning tahlil metodiga ko‘ra dastlab, lingvokulturemaning leksema sifatidagi semantik jihati aniqlanadi (lug‘atlar yordamida leksikografik tahlil qilinadi). Keyingi bosqichda, semantik tahlilga asoslanib moddiy-ma’naviy hamda milliy-madaniy xususiyatlarini mujassam etuvchi nolisoniy jihatiga taalluqli til birliklari (parmeologik va frazeologik birliklar, realiyalar, stilistik vositalar va b.) o‘rganiladi. Bu jarayonda izohli, etnografik va ensiklopedik lug‘atlardan foydalanish mumkin.

Mazmuni: bugungi kunda tadqiqotchilar uchun dolzarb masalaga aylangan lingvokulturologik tahlil asosan matn bilan bog‘liqdir. Chunki matn o‘zida madaniyat g‘oyalari, ma’nolarini aks ettirib keladi.

A.V. Maslovaga ko‘ra madaniyatda ramziy, etalon, majoziy-metaforik ma’noga ega va inson ongining arxetipik va prototip natijalarini umumlashtiruvchi miflar, afsonalar, marosimlar, udumlar, rasm-rusum, folklor va diniy matnlar, nasriy va nazmiy badiiy

matnlar, frazeologizmlar, metaforalar, ramzlar va paremiyalar (maqol va matallar)dagi turg‘un til birliklari - lingvokulturologik tahlil predmeti hisoblanadi. [3, C.208]

Matnni lingvokulturologik tahlil qilishning asosiy maqsadi – matnni diqqat bilan o‘qib chiqish va undan yuqori darajada ma’lumot olish hisoblanadi. [4, C.7]

Shuning uchun ham badiiy matnni tahlil qilish aspektlaridan biri bu – tilni lingvokulturologik tahlil qilish hisoblanadi. Bunda matn madaniyat fenomeni sifatida ko‘riladi va madaniy ma’lumotlar til belgisida, matnda qo‘llanilgan bo‘ladi.

Demak, lingvokulturologik tahlil deganda, o‘z ichiga madaniy ma’lumotni qamrab oluvchi til va nutq birliklari ustida fikr yuritish tushuniladi va bu jarayon lingvokulturologik qobiliyatni shakllantirishga yordam beradi.

Mazkur maqolada lingvokulturologik tadqiq aynan tarjima jarayoni bilan bog‘liq holda amalga oshiriladi. Bunda tarjima transformatsiyalarinig leksik trnasformatsiya turidan unumli foydalaniladi. Leksik transformatsiya turlariga transliteratsiya, kalakalash ususli, konkretlashtirish, umumlashtirish, modulyatsiya, kompensatsiya kirib, ular tarjimada ekvivalenti yo‘q bo‘lgan jumlalarni tarjima qilishda tarjimon uchun juda ham qo‘l keladigan tarjima usullari hisoblanadi. Endi leksik transformatsiyalarning har bir turi bilan alohida tanishib chiqsak.

Transliteratsiyada asliyat tili grafologik birliklari tarjima tili grafologik birliklari bilan almashtiriladi, lekin ular tarjima ekvivalentlari bo‘la olmaydi va bu holat ular bir xil grafik asosga ega emasligi bilan izohlanadi. Transliteratsiya tarjima tili lug‘at tarkibining boyishi uchun ham xizmat qiladi.

Tarjima amaliyotining kalkalash usulidan frazeologik birliklar tarjimasida unumli foydalaniladi. Chunki, bir tilda muayyan tushunchani ifoda etadigan frazeologik birlik o‘zga tilda o‘z ekvivalentiga yoki muqobil variantiga ega bo‘lmasligi mumkin.

Konkretlashtirish – bu asliyat tilidagi keng ma’noli yoki ma’nosini aniqlash qiyin bo‘lgan so‘zlarni tarjima tilida tor ma’noli so‘z yoki ibora bilan almashtirishdir.

Leksik transformatsiyaning keyingi turi umumlashtirish nomi bilan ataladi. Tarjimada aksariyat hollarda asliyatda tarjima tili normalarida ortiqcha hisoblangani bois ba’zi aniqliklar umumlashtiriladi.

Leksik transformatsiyaning navbatdagi turi *modulyatsiya* deb atalib, ba’zi adabiyotlarda “semantik rivojlanish” deb nomlanadi. Bu transformatsiya matnda tasvirlangan vaziyatning semantik hamda mantiqiy tahlilini talab etadi. Modulyatsiyadan asosan maqollar tarjimasida unumli foydalaniladi. Chunki, tarjimada maqolning aynan ekvivalentini berish mushkuldir.

Leksik transformatsiyaning yana bir turi kompensatsiya yoki gapning tushirib qoldirilgan qismini to‘ldirish deb ataladi. Bu transformatsiya odatda asliyatdagi stilistik usullarni tarjima tilida muqobili yoki ekvivalenti yo‘q bo‘lgan hollarda, tarjimada qahramon nutq xususiyatlarini, so‘z o‘yini hamda qofiyadosh so‘zlarni berishda keng qo‘llaniladi.

Mazkur maqolada aynan o‘zbek tilidagi lingvokulturemalarning ingliz tiliga tarjimasi haqida fikr yuritiladi. Chunki, tarjima jarayonida lingvokulturemalarning leksik transformatsiya turlari vositasida o‘girilishi hali qiyosiy aspektda tadqiq etilmagan. O‘zbek

tilidagi lingvokulturemalar Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” asaridan olindi. Ularning lingvokulturologik tahlili esa asarning ingliz tiliga Kerol Yermakova, Mark Eduard Riz, I.M. To‘xtasinov. O.M. Mo‘minov, A.A. Xamidovlar tomonidan qilingan tarjima variantlariga tayangan holda amalga oshirildi.

Natijalar: leksik transformatsiyalarning lingvokulturologik tadqiqi bosqichma-bosqich amalga oshirilib, unda quyidagi jarayonlar kuzatiladi:

- asliyat matnidagi lingvokulturema aniqlanadi;
- u ingliz tiliga qaysi leksik transformatsiya vositasida o‘girilganligi aniqlanadi;
- asliyatdagi lingvokulturema tarjima varianti bilan qiyoslanadi.

Demak, yuqorida sanab o‘tilgan bosqichlar leksik transformatsiyalarning lingvokulturologik tadqiqi uchun asos bo‘ladi. Ma’lumki, lingvokulturema faqat bir tilga xos bo‘lgan tushunchani ifodalaydi. Shu nuqtai nazardan qaraydigan bo‘lsak, o‘zbek xalqi kiyinish madaniyatiga xos bo‘lgan “chopon” so‘zining ingliz tilida ekvivalentini topish muammodir. Tarjimon bu so‘zning tarjimasi mavjud emas deb ishni chala tashlab ketolmaydi yoki bunday madaniy til birliklarini tarjima qilmasdan davom etolmaydi. Shunday ekan, tarjimon bunday vaziyatlarda tarjimaning leksik transformatsiya turlariga murojaat qilishi tabiiydir. Chunki leksik transformatsiyalar vositasida asosan tarjimada ekvivalenti mavjud bo‘lmagan til birliklarining, xususan, lingvokulturemalarning tarjimasini amalga oshirish mumkin bo‘ladi. Aynan mana shu jarayon mazkur maqolaning mazmunini tashkil etadi.

Olingan natijalarning ishonchliligi: mazkur maqolada leksik transformatsiyalarning lingvokulturologik tadqiqini amalga oshirishda komponent tahlil metodidan foydalanildi. Komponent tahlil metodi deganda, asliyat matni madaniy til birliklari va ularning tarjimadagi ma’nolari orasidagi o‘xshashlik va farqli jihatlarini, oson tushunilishi uchun, jadval ustunlarida alohida ajratib ko‘rsatgan holda taqdim etilishi tushuniladi. Aynan mazkur metoddan lingvokulturologik tadqiqda unumli foydalaniladi. Chunki turli xalqlar madaniyatiga doir so‘zlar tarjimasini ularning asliyat tili muqobili bilan qiyoslash maqsadida jadval ustunlariga joylagan holda tahlil qilish tilshunos uchun qulaylik yaratadi. Shuningdek, bunda so‘zning tarjimada berilgan varianti asliyat matnidagi ekvivalentining aynan muqobili bo‘la olganmi yo‘qmi, ya’ni, so‘zlarning komponent tahlilini amalga oshirish uchun juda qulay hisoblanadi.

Mildred L. Larson ta’kidlaganidek, komponentli tahlil tilning ma’lum sohalarida qo‘llanilib, u qo‘llaniladigan sohalari uchun juda foydali bo‘lishi mumkin. Masalan, tarjima va uning lingvokulturologik tahlili bunga misol bo‘la oladi. Chunki tarjima jarayonida asliyat va tarjima tili so‘zlarining umumiy va qarama-qarshi xususiyatlarga asoslangan bir-biri bilan aloqasi bo‘lishi mumkinligi, aynan komponent tahlilni amalga oshirish uchun kerak bo‘ladigan belgilar orasidagi kontrastni ko‘rsatadigan ba’zi nolingvistik xatti-harakatlarni ifodalaydi. Bunga realiya misol bo‘la oladi. Chunki ular faqat ma’lum bir mamlakat xususiyatlarini bildiruvchi madaniy so‘zlarni bildiradi. [5, P.90]

Shunday qilib, endi leksik transformatsiyaning har bir turini lingvokulturologik tadqiq asosida koʻrib chiqsak. Quyidagi jadvalda “Oʻtkan kunlar” asari tarjimasidan transliteratsiya leksik transformatsiyasiga misol keltirilgan:

Abdulla Qodiriy	**Kerol Yermakova**	**Mark Eduard Riz**	**I. M. Toʻxtasinov, O.M. Moʻminov, A.A. Xamidov**
taqsir [6, B.69]	taksyr [7, P.71]	Taksir [8, P.89]	Chief [9, P.72]

Koʻrib turganingizdek, tarjimonlar Kerol Yermakov ava Mark Eduard Rizlar “taqsir” soʻzini “taksyr”, “taksir” deb transliteratsiya qilish orqali soʻzning milliyligini saqlagan holda oʻgirishgan. Bunda oʻzbek tilidagi “q” harfi ingliz tilida “k” harfi bilan almashtirilgan. Shuningdek, Kerol Yermakova “i” harfini tarjimada “y” harfi bilan alamashtiradi va bu holat soʻzning talaffuzini ingliz tili talaffuz normalariga mos holda jaranglashini ta’minlaydi. Shunday qilib, ingliz tili lugʻati yangi soʻz bilan boyishiga guvoh boʻlamiz. Chunki, tarjimada transliteratsiya qilingan soʻzlarga yangi jumla sifatida qaraladi. Bunga sabab ularning grafologik tarkibi tarjima tiliga moshlashtirilganligi bilan izohlanadi. Bu degani asliyatdagi soʻz tarjimada oʻzligiga yaqin koʻrinishdan taqdim etilgan boʻlishi mumkin, ammo u tarjima jarayonida grafologik alamashtirishlarga uchragani sababli, tarjima tilida unga yangi soʻz sifatida qaraladi.

Leksik transformatsiyaning keyingi turi kalkalash deb nomlanib, kalka bu – soʻz, ibora yoki birikma terminning yangi ma’nosini tilda mavjud boʻlgan til birliklariga mos tarzda soʻzma-soʻz tarjima qilish yoʻlidir. [10, C.211]

Tilshunos olim A.A. Reformatskiy kalkalash hodisasi haqida shunday deydi: “Kalkalar chet el tillaridagi soʻz yoki iborani qismma-qism tarjima qilishdan iboratdir…; shunday qilib, kalkalashda elementlar kombinatsiyasi oʻzlashtiriladi, elementlarning oʻzi chet el soʻzlaridan emas, balki oʻz materiallaridan iborat boʻladi [11, C.117]

R.A. Budagov ham kalkalashning tabiati haqida fikr yuritib, mazkur hodisani oʻzlashtirishning alohida bir turi deb hisoblaydi. Uning fikricha, kalkalangan soʻzlar chet el yoki boshqa tildagi soʻzlarni strukturaviy nusxasi asosida (ularning moddiy qismini oʻzlashtirmay) shakllanadigan soʻzlardan iboratdir . [12, C.111]

Shunday qilib, kalkalash bu - asliyatdagi leksik birliklarni tarjima tilidagi leksik birlik bilan almashtirishni koʻzda tutadi va tarjima tilida yangi soʻz va ibora yasalishiga olib keladi. Shuni aytish joizki, kalkalash koʻp hollarda qoʻshma atama soʻzlarda uchraydi. Quyidagi misollarda “Oʻtkan kunlar” romanining ingliz tiliga tarjima variantlaridagi kalkalash usuli bilan oʻgirilgan jumlalar roʻyxati berilgan:

Abdulla Qodiriy	**Kerol**	**Mark Eduard Riz**	**I. M. Toʻxtasinov,**

	Yermakova		**O.M. Mo‘minov, A.A. Xamidov**
Darboza begi [6, B.87]	The gate-keeper [7, P.87]	The sergeant of the guard [8, P.106]	Gatekeeper [9, P.89]
Qipchoq qo’shinlari [6, B.85]	Kipchak cavalry [7, P.86]	Qipchaq cavalry [8, P.105]	Qipchoq soldiers [9, P.87]

Quyidagi jadvalda konkretlashtirish leksik transformatsiyasi amalga oshirilganligiga guvoh bo‘lishingiz mumkin.

Abdulla Qodiriy	**Kerol Yermakova**	**Mark Eduard Riz**	**I. M. To‘xtasinov, O.M. Mo‘minov, A.A. Xamidov**
Kulcha [6, B.42]	Flatbread [7, P.46]	Bread [8, P.62]	Little bread [9, P.44]

Ko‘rib turganingizdek, asliyatdagi “kulcha” so‘zini Kerol Yermakova “flatbread”, Mark Riz “bread” deb o‘girishgan. O‘zbek tilida “kulcha” deb nonning kichikroq ko‘rinishdagi shakli nazarda tutilishini inobatga oladigan bo‘lsak, I. M. To‘xtasinov, O.M. Mo‘minov, A.A. Xamidovlarning tarjimasi asliyatga yaqinligiga guvoh bo‘lamiz. Chunki, ular *“kulcha”* so‘zini *“little bread”* deb tarjima qilishgan va o‘zbek xalqiga xos bo‘lgan so‘zni tarjima tilida konkretlashtirib berishgan.

Navbatdagi jadvalda umumlashtirish leksik transformatsiyasiga misol keltirilgan:

Abdulla Qodiriy	**Kerol Yermakova**	**Mark Eduard Riz**	**I. M. To‘xtasinov, O.M. Mo‘minov, A.A. Xamidov**
Shinni [6, B.9]	Molasses [7, P.14]	Shinni [8, P.28]	The syrup [9, P.10]

Umumlashtirish leksik transformatsiyasiga misol bo‘luvchi keyingi jumla bu “shinni” so‘zidir. “Shinni” bu – “tut, uzum kabi mevalar shirasini qaynatib tayyorlanadigan qiyom” hisoblanadi. [13, B.575] Asar tarjima variantlariga yuzlanadigan bo‘lsak, Kerol Yermakova “shinni” ni “molasses” deb umumlashtirganini ko‘rishimiz mumkin. Ingliz tilining Macmillan lug‘atida “molasses” (treacle) so‘zining quyidagi ma’nosi berilgan: “a thick sweet black liquid used in cooking.” [14, P.1533] Bu ta’rif “pishirishda ishlatiladigan qalin

shirin qora suyuqlik” deb tarjima qilinadi. O‘zbek xalqi shinnisi esa asosan tut, uzum kabi mevalar shirasidan tayyorlanadi. Tutning shinnisi kamqonlikka yaxshi davo hisoblanadi. Mark Riz “shinni” so‘zini aslini saqlab qolgan va unga quyidagicha izoh keltiradi: “Shinni is a sugary syrup made from grapes or mulberries.” [8, P.46] O‘zbek tarjimonlari I. M. To‘xtasinov, O.M. Mo‘minov, A.A. Xamidovlar “shinni” jumlasini “the syrup” deb tarjima qilishgan. Ular ham ma’noni umumlashtirishgan.

Romanda “teng-tengi bilan, tezak qopi bilan” degan maqol qo‘llanilgan. Bu maqolning tarjimasi modulyatsiya leksik transformatsiyasiga misol bo‘ladi.

Abdulla Qodiriy	Teng-tengi bilan, tezak qopi bilan [6, B.32]
Kerol Yermakova	“Each to their own, but dung belongs in a sack!” [7, P.35]
Mark Eduard Riz	“Equal with equal, type with type, dung in its very own bag!” [8, P.52]
I. M. To‘xtasinov, O.M. Mo‘minov, A.A. Xamidov	“A young couple matches the same age.” [9, P.34]

Mazkur maqolning tarjima variantlariga yuzlanadigan bo‘lsak, u Kerol Yermakova tomonidan “Each to their own, but dung belongs in a sack” deb tarjima qilingan. Maqolning ingliz tilidagi tarjimasi biroz murakkab bo‘lib, u “har bir narsaning o‘z joyi bor, lekin go‘ngning joyi qopda” degan ma’noni bildirib kelgan. Maqolning tarjimasi mantiq jihatdangina asliyatga yaqin ma’noni anglatishi mumkin. Bu degani tarjimon semantik rivojlantirish orqali uning tarjima variantini berishga muvaffaq bo‘lgan xolos. Chunki, inglizlarda “tezak” (go‘ng) leksikasi vositasida insonlar tabaqasini ifodalash holati uchramaydi.

Mark Eduard Riz mazkur maqolni “Equal with equal, type with type, dung in its very own bag” deb tarjima qilgan. O‘zbek tiliga o‘giradigan bo‘lsak u “har bir narsaning tengi o‘z tengi bilan, turi o‘z turi bilan, go‘ng esa o‘z qopi bilan” degan ma’noni anglatadi. Ya’ni, gap asliyatdagi “teng-tengi bilan, tezak qopi bilan” degan maqolni izohlab kelgan va unga mantiq jihatdan muqobil variant bo‘la olgan.

I. M. To‘xtasinov, O.M. Mo‘minov, A.A. Xamidovlar tarjimasida maqol ekvivalenti sifatida quyidagi gap berilgan: “A young couple matches the same age.” O‘zbek tilida bu gap “yosh juftliklar aynan bir xil yoshda bir-biriga mos bo‘ladi” degan ma’noni anglatadi. Bu yerda ham maqol ma’nosi semantik rivojlantirish orqali berilganligini ko‘rishimiz mumkin.

Peter Newmark kompensatsiyaga quyidagicha ta’rif beradi: “Kompensatsiya asliyat matni tarkibida kelgan gapning bir qismidagi ma’no, tovush effekti, metafora yoki pragmatik ta’sirning tarjima tilida uchramasligi natijasida huddi shu ma’no, tovush effekti,

metafora yoki pragmatik ta’sirni tarjima matnida qoplash maqsadida ularning o‘xshash variantlaridan foydalanganda kuzatiladi.” [15, P.90]

Kompensatsiya tarjima tafovutini, kamchiliklarini oldini olish, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan madaniy bo‘shliqni qoplash maqsadida qo‘llaniladi. Ya’ni, tarjima matnida asliyat tarkibida keluvchi yuqorida sanab o‘tilgan vaziyatlarning aynan muqobil variantlari mavjud bo‘lmasligi mumkin va natijada tarjimon kompensatsiya leksik transformatsiyasi vositasida ularning tarjima tilidagi o‘xshash sifatlari bilan o‘girishi tarjima jarayonida ushbu transformatsiyaga bo‘lgan ehtiyojni yuzaga keltiradi.

Zoya Proshinaga ko‘ra, kompensatsiya - bu asliyat matnidagi til birligining tarjima tilida muqobili mavjud bo‘lmaganda, ushbu til birligining yo‘qolib ketishini oldini olish maqsadida uning o‘rnini o‘xshash element bilan qoplagan holda tarjima matniga qandaydir qo‘shimcha elementni ataylab kiritishdir. Ushbu leksik transformatsiyaning tarjimada qo‘llanilishiga sabab asliyat tili birliklarining muqobil shakli tarjima tili lug‘atida mavjud bo‘lmasligi hisoblanadi. [16, C.43]

L.S. Barhudarovga ko‘ra, tarjima ekvivalentligiga erishish usullaridan biri kompensatsiya deb ataladigan maxsus almashtirish turidir. Ushbu uslub asliyat tilidagi matnning ayrim elementlari, u yoki bu sabablarga ko‘ra, tarjima tili ekvivalentiga ega bo‘lmaganda, ya’ni ularni tarjima tili vositalari bilan yetkazishning iloji bo‘lmagan hollarda qo‘llaniladi. Bunda tarjimon asliyat til birligining tarjima tilida ekvivalenti mavjud bo‘lmaganligi sababli tarjima qilinmasligi natijasida yuzaga keladigan semantik yo‘qotishning o‘rnini qoplash, ya’ni kompensatsiya qilish, to‘ldirish uchun asliyatda berilgan xuddi shu til birligini, ma’lumotni tarjima tilida boshqa vositalar yordamida yetkazadi. Bunda ushbu birliklarning tarjima matnida kelish o‘rni o‘zgarishi mumkin, ya’ni, ularning tarjima matni tarkibidagi gapda kelishi, qo‘llanish tartibi asl nusxadagi kabi bir joyda bo‘lishi shart hisoblanmaydi. [17, C.218]

Abdulla Qodiriy	**Kerol Yermakova**	**Mark Eduard Riz**	**I. M. To‘xtasinov, O.M. Mo‘minov, A.A. Xamidov**
darbozani taq-taq urmoq [6, B.86]	a determined knocking [7, P.87]	urgently banging at the gate, making a din that rang out in all directions [8, P.106]	the gate chains’ noise [9, P.89]

O‘zbek tilida “taq” so‘zi “ikkita qattiq narsaning bir-biriga zarb bilan urilishidan hozil bo‘ladigan tovushni bildiradi.” [13, B.33] Yuqoridagi jadvalda asliyatdagi “taq-taq” jumlasining tarjima variantlarini tarjimonlar qanday qilib o‘girishganiga guvoh bo‘lasiz. Shubhasiz, tillar orasidagi tovush effektlaridagi ulkan nomuvofiqlik natijasida mazkur

jumlaning har bir tarjima varianti turlicha, o‘ziga xos tarzda o‘girilgan. Natijada, kompensatsiya vositasida asliyatdagi jumlaning tarjimasi taqdim etilgan.

Xulosa: xulosa qilib aytganda, leksik transformatsiya turlariga tarjimaning transliteratsiya usuli, kalakalsh usuli, konkretlashtirish, umumlashtirish, modulyatsiya, kompensatsiyalar kiradi. Tarjimada har bir transformatsiyaning o‘z vazifasi aniq qilib belgilab qo‘yilgan. Ya’ni, transliteratsiyada lakunalar, kalkalash usuli orqali frazeologik birliklar, kompensatsiyada stilistik birliklar va shevalar, konkretlashtirish va umumlashtirishda madaniy til birliklari, modulyatsiya orqali esa metaforalar hamda maqollar tarjimasini amalga oshirish mumkin. Yuqorida sanab o‘tilgan madaniy til birliklari lingvokulturemaning asosini tashkil etuvchi leksikalar hisoblanadi. Shunday ekan, leksik transformatsiyalar lingvokulturemalarning tarjimada adekvat aks ettirishning eng samarali yo‘li ekanligi haqida bemalol aytish mumkin.

Iqtiboslar/Сноски/Reference

1. Воробьев В.В. Лингвокультурология: монография – М.: РУДН, 2008. – С. 45.
2. Yusupov O‘.Q. Tilshunoslikda yangi yo‘nalishlar va ularda ishlatiladigan ayrim istilohlar // Filologiya masalalari. – Toshkent, 2011. - №2. – B.15.
3. Маслова В.А. Лингвокультурология: учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. – Москва: Издательский центр «Академия», 2001. – С. 208.
4. Гореликова М.И., Магомедова Д.М. Лингвистический анализ художественного текста. Москва, Русский язык, 1983. – С.7.
5. Mildred L. Larson. Meaning-based translation: a guide to cross-language equivalence. -2nd ed. Copyright 1998 by University Press of America, Inc. Lanham, New York, Oxford. 90 p.
6. Abdulla Qodiriy. O‘tkan kunlar. Roman. “Sharq”. Toshkent 2018. – B. 69, 87, 85, 42, 9, 32.
7. Abdulla Qadiri. Days Gone By. Translated by Carol Ermakova. Karimov foundation. Nouveau Monde editions, 2018. Paris. 71, 87, 86, 46, 14, 35 p.
8. Abdullah Qodiriy. O‘tkan kunlar (Bygone Days). Translated by Mark Reese. Published by Muloqot Cultural Engagement Program. Nashville TN. 2018. 89, 106, 105, 62, 28, 46, 52 p.
9. Tukhtasinov I.M., Muminov O.M., Khamidov A. Abdulla Qodiriy. The Days Gone By. Novel. – T.: «Mashhur-Press», 2017. 72, 89, 87, 44, 10, 34 p.
10. Арапова Н.С. Калька // Большой энциклопедический словарь. Языкознание.–М.:Большая Российская энциклопедия, 1998.- С.211.
11. Реформатский А.А. Введение в языковедение.– М., 1955. – С.117
12. Будагов Р.А. Введение в науку о языке. –М.,1958.- С.111.
13. E. Begmatov, A. Madvaliyev, N. Mahkamov, T. Mirzayev (rahbar), N. To‘xliyev, E. Umarov, D. Xudoyberganova, A. Hojiyev. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent. - B. 575.

14. Macmillan English Dictionary. For advanced learners. International student edition. First published 2002. Printed and bound in Malaysia. 1533 p.

15. Peter Newmark. A textbook of translation. 1988. Published by Prentke Hall International Group. 90 p.

16. Прошина З.Г. Теория перевода (с английского языка на русский и с русского языка на английский): Уч. на англ. яз. – Владивосток: Изд-во Дальневост. 2008. – С. 43.

17. Бархударов Л. С. Язык и перевод (Вопросы общей и частной теории перевода). М., «Междунар. отношения». 1975. – С. 218-219.

Ибрагимова Феруза Рустамовна
преподаватель кафедры
«Узбекский и русский язык литература»УрГПИ

Дидактические возможности совершенствования методики обучения русскому языку учащихся 10-11 классов

Аннотация: Статья посвящена исследованию дидактические возможностей совершенствования методики обучения русскому языку для учащихся 10-11 классов. В ней рассматриваются актуальные проблемы, с которыми сталкиваются преподаватели в процессе обучения, а также возможные подходы к их преодолению. Авторы анализируют современные педагогические технологии и методы, направленные на повышение эффективности усвоения языка, включая использование цифровых инструментов и интерактивных форм обучения. Обсуждаются преимущества междисциплинарного подхода и индивидуализации процесса обучения, что позволяет учитывать разнообразные потребности и интересы учащихся. Результаты исследования могут стать основой для разработки инновационных учебных программ, способствующих повышению уровня владения русским языком у старшеклассников и подготовке их к экзаменам и дальнейшему обучению.

Ключевые слова: дидактика, методика обучения, русский язык, старшеклассники, инновационные технологии, индивидуализация.

Ibragimova Feruza Rustamovna
UrDPI “O‘zbek va rus tili adabiyoti”
kafedrasi o‘qituvchisi

RUS TILINI 10-11-SINF O‘QUVCHILARIGA O‘QITISH USULLARINI TAKMILLARISH BO‘YICHA DIDAKTIK IMKONIYATLARI.

Annotatsiya: Maqola 10-11-sinf o‘quvchilari uchun rus tilini o‘qitish usullarini takomillashtirishning didaktik imkoniyatlarini o'rganishga bag'ishlangan. Unda o‘qituvchilarning o‘qitish jarayonida duch kelayotgan dolzarb muammolari, ularni bartaraf etishning mumkin bo‘lgan yondashuvlari ko‘rib chiqiladi. Mualliflar tilni o‘zlashtirish samaradorligini oshirishga qaratilgan zamonaviy pedagogik texnologiya va usullarni, jumladan, raqamli vositalar va o‘qitishning interfaol shakllarini tahlil qiladi. Fanlararo yondashuvning afzalliklari va o'quv jarayonini individuallashtirish ko'rib chiqiladi, bu talabalarning turli xil ehtiyojlari va qiziqishlarini hisobga olishga imkon beradi. Tadqiqot natijalari o'rta maktab o'quvchilari o'rtasida rus tilini bilish darajasini oshirishga va ularni imtihonlarga va keyingi ta'limga tayyorlashga yordam beradigan innovatsion ta'lim dasturlarini ishlab chiqish uchun asos bo'lishi mumkin.

Kalit so'zlar: didaktika, o‘qitish metodikasi, rus tili, o‘rta maktab o‘quvchilari, innovatsion texnologiyalar, individuallashtirish.

Ibragimova Feruza Rustamovna
teacher of the department
“Uzbek and Russian language literature”

DIDACTIC POSSIBILITIES FOR IMPROVING THE METHODOLOGY OF TEACHING RUSSIAN LANGUAGE TO STUDENTS IN GRADES 10-11

Abstract: The article is devoted to the study of didactic possibilities for improving the methodology of teaching the Russian language to students in grades 10-11. It examines the current problems faced by teachers in the learning process, as well as possible approaches to overcome them. The authors analyze modern pedagogical technologies and methods aimed at improving the effectiveness of language acquisition, including the use of digital tools and interactive forms of learning. The advantages of an interdisciplinary approach and individualization of the learning process are discussed, which allows taking into account the diverse needs and interests of students. The results of the study can become the basis for the development of innovative educational programs that help to improve the level of Russian language proficiency among high school students and prepare them for exams and further education.

Key words: didactics, teaching methods, Russian language, high school students, innovative technologies, individualization.

Современное образование сталкивается с вызовами, требующими постоянного обновления подходов и методов обучения. В эпоху информационных технологий и глобализации знание русского языка становится не только важным инструментом коммуникации, но и основой для формирования культуры, мышления и национальной идентичности учащихся. В этой связи, особую актуальность приобретают проблемы совершенствования методики обучения русскому языку в старших классах, где перед педагогами стоит задача не только подготовить учеников к успешной сдаче экзаменов, но и развить их критическое мышление, креативность и навыки саморегуляции.

Дидактические возможности, рассматриваемые в рамках данной статьи, направлены на интеграцию современных образовательных технологий и методов активного обучения, что позволит значительно повысить уровень усвоения языка и мотивацию учащихся. В условиях перехода к компетентностному подходу в образовании особенно важно адаптировать традиционные методики к новым реалиям, что требует от педагогов осознания значимости индивидуального подхода к каждому ученику и использования разнообразных форм работы – от групповых дискуссий до проектной деятельности.

Цель данной статьи – исследовать и проанализировать различные дидактические возможности, способствующие повышению эффективности обучения русскому языку в 10-11 классах, а также предложить рекомендации по внедрению современного контента и технологий в образовательный процесс.

Совершенствование методики обучения русскому языку в 10-11 классах является актуальной задачей, так как этот этап учебного процесса включает подготовку учащихся к итоговой аттестации и дальнейшей профессиональной деятельности. В условиях современной образовательной среды, когда учащиеся сталкиваются с разнообразными информационными потоками и технологиями, важно разрабатывать и внедрять дидактические подходы, способствующие эффективному усвоению знаний и формированию навыков. [1]

1. Актуализация содержания обучения

Первым шагом в совершенствовании методики обучения является актуализация содержания курсов русского языка. Важно включать в программу темы, близкие и интересные учащимся, такие как языковая культура, стилистика, литературное творчество и языковая политика. Это поможет повысить мотивацию и вовлеченность школьников в процесс обучения. [2]

2. Интерактивные методы преподавания

Интерактивные методы, такие как групповые дискуссии, ролевые игры и проектная деятельность, способствуют активному обмену мнениями между учащимися и преподавателями. Эти методы создают мотивационное пространство для изучения языка, позволяют формировать критическое мышление и навыки коммуникации. Применение технологий в обучении, таких как мультимедийные презентации и образовательные платформы, также увеличивает вовлеченность учащихся в процесс обучения. [3]

3. Индивидуализация образовательного процесса

Индивидуализация обучения — это необходимый элемент, который позволяет учитывать различные уровни подготовки и интересы учащихся. Установка персональных целей, использование дифференцированных заданий и создание вариативных маршрутов обучения способствуют развитию самооценки и саморегуляции студентов. Это, в свою очередь, позволяет им более глубоко погружаться в изучаемый материал и добиваться более высоких результатов. [4]

4. Формирование навыков критического мышления

Введение элементов критического мышления в обучение русскому языку помогает учащимся не только анализировать прочитанное, но и формулировать собственные выводы и аргументы. Это можно достигнуть через анализ текстов, написание эссе на актуальные социальные темы и участие в дебатах. Подобные подходы развивают не только языковые, но и аналитические навыки учащихся, что готовит их к будущей профессиональной деятельности. [5]

5. Оценивание и обратная связь

Эффективная система оценивания и обратной связи позволяет учащимся осознавать свои достижения и недостатки. Важно, чтобы оценивание было разнообразным и включало не только тесты, но и проекты, эссе и устные выступления. Обратная связь от преподавателя должна быть конструктивной, способствующей развитию и стремлению к улучшению. [6]

Таким образом, дидактические возможности совершенствования методики обучения русскому языку в 10-11 классах основаны на комплексном подходе, который включает актуализацию содержания, использование интерактивных методов, индивидуализацию процесса обучения, развитие критического мышления и внедрение эффективной системы оценивания. Эти элементы позволяют не только углубить знания учащихся, но и подготовить их к современным вызовам, стоящим перед поколениями в условиях динамично меняющегося общества.

Совершенствование методики обучения русскому языку в 10-11 классах представляет собой актуальную и важную задачу, готовящую учащихся к успешной сдаче государственных экзаменов и дальнейшему обучению. В ходе исследования было выявлено, что дидактические возможности, включающие современные подходы, технологии и интерактивные методы, способны значительно повысить качество и результативность образовательного процесса.

Акцент на индивидуализацию обучения, использование информационных и коммуникационных технологий, а также внедрение проектной и исследовательской деятельности позволяют не только углубить знания учащихся, но и развить их критическое мышление, креативность и коммуникативные компетенции. Важно отметить, что успешная реализация этих методик требует профессиональной подготовленности педагогов, что подчеркивает необходимость постоянного повышения их квалификации.

Таким образом, реализация предложенных дидактических решений в методике обучения русскому языку позволит создать условия для более глубокого усвоения материала, повысить мотивацию учащихся и подготовить их не только к экзаменам, но и к будущей жизни в обществе, где владение языком является ключевым навыком. Будущее российской образовательной системы зависит от нашей способности адаптировать и трансформировать методы обучения так, чтобы они соответствовали вызовам современного мира, и стать эффективными инструментами в руках учителей и учеников.

Список использованной литературы

1. Богоявленская, Н. А. (2018). Методика преподавания русского языка: Теория и практика. Москва: Просвещение.
2. Говоркова, Е. И. (2017). Интерактивные технологии в обучении русскому языку в средней школе. Санкт-Петербург: РГПУ им. А. И. Герцена.
3. Ильина, Т. А. (2019). Актуальные аспекты преподавания русского языка в старших классах: Методические рекомендации. Новосибирск: Издательство НГПУ.
4. Костюкова, О. В. (2020). Индивидуализация и дифференциация обучения в современной школе. Краснодар: Кубанское университетское издательство.
5. Михайлов, А. П. (2016). Формирование критического мышления у школьников на уроках русского языка. Казань: Издательство КГПУ.
6. Сидорова, Л. М. (2021). Современные подходы к оцениванию достижений учащихся по русскому языку. Ростов-на-Дону: Издательство РГПУ.

Allanazarova Nigora Bakhtiyarovna
A teacher of the department of Foreign Philology
at Urgench state pedagogical institute

Language, culture and linguoculturology

Abstract: This article studies how culture is reflected in language and human society advances our understanding of various cultures and mentalities as well as intercultural communication. This study aims to trace the history of cultural linguistics' emergence as a distinct scientific field, determine its origins, and assess its contemporary condition.

Keywords: reflections of culture in language, cultures and language, linguoculturolology, anthropological paradigm.

Allanazarova Nigora Baxtiyorovna
Urganch davlat pedagogika instituti
Xorijiy filologiya kafedrasi o'qituvchisi

TIL, MADANIYAT VA LINGVOKULTUROLOGIYA

Annotatsiya. Ushbu maqolada madaniyatning tilga qanday aks etishi va inson jamiyati orqali turli madaniyatlar hamda mentalitetlarni tushunishni, shuningdek, madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish masalalari o'rganiladi. Tadqiqotning maqsadi – madaniy lingvistikani alohida ilmiy soha sifatida shakllanish tarixini kuzatish, uning kelib chiqishini aniqlash va zamonaviy holatini baholashdan iborat.

Kalit so'zlar: madaniyatning tilga aks etishi, madaniyat va til, lingvomadaniyatshunoslik, antropologik paradigm.

Алланазарова Нигора Бахтиёровна
Преподаватель кафедры зарубежной филологии
Ургенчского государственного педагогического института

ЯЗЫК, КУЛЬТУРА И ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЯ

Аннотация: В данной статье рассматривается, как культура отражается в языке, а также как человеческое общество способствует нашему пониманию различных культур и менталитетов, а также межкультурной коммуникации. Цель исследования — проследить историю становления культурной лингвистики как самостоятельной научной области, определить её истоки и оценить её современное состояние.

Ключевые слова: отражение культуры в языке, культура и язык, лингвокультурология, антропологическая парадигма

Introduction. It is known that the anthropocentric approach occupies a special place in the study of language units in the science of linguistics. According to this approach, the "human factor" is one of the primary factors in the formation and development of language units. As a result of the development of this anthropocentric view, a number of new disciplines appeared in linguistics, including the science of linguoculturology.[1]

By the end of the 20th century, linguistics began to accept the hypothesis that "language is not connected with culture, but rather it is a tool that grows out of culture and expresses it." Currently, language is a means of creation, development, preservation of culture (in the form of texts) and its component. Because material and spiritual works of culture are created through language. On the basis of this idea, linguo-culturalism, which has been formed for thousands of years, emerged as a new special field of science in the 90sof the 20th century. Linguoculturolology is a product of the anthropocentric paradigm in linguistics, which has been developing over the last decades. By the beginning of the 21st century, linguistic and cultural studies became one of the leading directions in world linguistics, linguoculturolology studies folk culture reflected and consolidated in language and discourse. First of all, the myths, legends, customs, traditions, customs, symbols, etc. of a particular culture are studied. These concepts are related to culture, and they are reinforced in the language in the form of household and food behavior. According to V.N.Telia,[2] linguo-cultural studies, first of all, researches live communicative processes and the connection of language expressions used in them with the mentality of the people in synchronous movement. Linguistics is a science that studies language as a cultural phenomenon, and its subject is language and culture in mutual relationship. Consequently, V. N. Telia writes about this: "Linguocultural science is a science that studies the human, or rather, the cultural factor in a person. This means that the center of linguacultural studies is a complex of achievements specific to the anthropological paradigm of man as a cultural phenomenon. " According to G.G.Slishkin, "Linguoculturolology is focused on the human factor, more precisely, on the cultural factor in a person. The fact that the center of linguoculturology consists of the phenomenon of culture indicates that the science of man is a phenomenon belonging to the anthropological paradigm."

Literature review. None of the linguists with "language and culture" issues it can be said that did not work much and effectively as the famous American linguist and cultural scientist Edward Sapir (1884-1939). In "Language: An Introduction to the Study of Speech" by E.Sapir, a number of questions related to "language and culture" issues are covered as follows.

What is culture? According to E.Sepir, culture is a set of socially inherited practical skills and ideas that characterize our lifestyle.[3] According to another interpretation of E. Sapir, culture is a selection of values implemented by society. Culture is compared to behavior. What do language and culture have in common? First, both speech and culture require conceptual selection. Second, both languages and cultures are rarely self-sufficient. The difference between these two phenomena was explained by E. Sapir: "Nor can I believe that culture and language are in any true sense causally related, culture may be defined as

what a society does and thinks. Language is a particular how of thought. It is difficult to see what particular causal relations may be expected to subsist between a selected inventory of experience (culture, a significant selection made by society) and the particular manner in which the society expresses all experience."[4]

In Uzbek linguistics, Professor Nizomiddin Mahmudov can be identified as the scientist who has dealt with the issues of "language and culture" the most. For example, the scientist writes the following about the concepts of "language" and "culture" in his article "Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab...": "When it comes to language and culture, the problem of what is often called "speech culture" is associatively, when you think about it, the culture in these two places is not shown at all. Language and culture usually (and rightly so) explain this or that

culture through language, or vice versa, explaining this or that language through the study of culture. is meant, to be more precise, the meaning of culture in linguo-

cultural studies is not “the level achieved in mental-spiritual or economic activity

(speech culture)”, but “the production, social and spiritual development of the human society” It means “a set of achievements (cultural history, Uzbek culture)”.[5]

Discussion and Results. Culture is opposed to nature. Lat. cultura (from colo agriculture/cultivation/tilling, care of plants) meant something grown by human labor, as opposed to the wild. Culture is a product of the social, not biological activity of people. Language acts as a phenomenon of both culture and nature. There is no doubt that language is one of the most important achievements of the social history of mankind, a component of culture and its tool. However, on the other hand, in the very matter of language, in a number of essential characteristics of the linguistic structure, the biological nature of man has been affected. Much here is determined by the possibilities of the physiology and psychophysiology of speech activity. Thus, the presence of vowels and consonants in all languages of the world and the predominance of sound chains with alternation of vowels and consonants are not due to culture, but to nature: a person is not able to either pronounce or perceive speech from one vowel or one consonant. The psychophysiological possibilities of sign activity of a person determined the level organization of the language, determined the quantitative parameters of individual levels for example, the volume of the phonological system, which fluctuates in different languages in the range from 10 to 100 units; the volume of the dictionary in the range from 10 thousand to half a million words; a measure of redundancy in a language. The average length of a sentence, the average depth and width of subordinating relationships when deploying an utterance, the average length of a synonymic series, and the sizes of lexico- semantic groups are limited by the amount of human operative memory. Nature determines in the language deepest features of its structure and the patterns of generation and perception of the text. Culture determines the content plan of the language.[6]

Conclusion. As a conclusion, we can say cultural linguistics as an independent direction of linguistics considers language as a cultural phenomenon and an exponent of national mentality. The subject and methods of cultural linguistics are in the stage of

formation, nevertheless, this discipline has developed its own intentionality in a number of other linguistic disciplines that also work within the framework of the relationship between language and culture. Culture and language are brought to an equivalent level in cultural linguistics, and their consideration in interconnection becomes the central task of this discipline. The basis for this is the ontological unity of language and culture. The study of the relationship between the phenomena of “language” and “culture” is indeed the focus of linguoculturology. This interdisciplinary field explores how language reflects, shapes, and transmits cultural values, beliefs and traditions.

Iqtiboslar/Сноски/Reference

1. Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab... //O'zbek tili va adabiyoti.-Toshkent.- 2012.-T. 5. - C. 3-16.

2. Sapir E. Language: An introduction to the study of speech. Courier Corporation, 2004.

3. Sapir E. Language: An introduction to the study of speech. New York Harcourt, Brace and Company, 1921.

4. Telia V. N. Priorities and methodological problems of the study of phraseological composition of language in the context of culture //Frazeologiya v kontekste kul'tury [Phraseology in the context of culture]. Moscow. - 1999.

5. Uralovna M. K. Linguoculturology as an independent discipline of linguistics //Web of Scientist: International Scientific Research Journal.2021.-T. 2.-№. 05. C. 356-360.

6. Usmanova Sh. "Tarjimonlik faoliyatining lingvomadaniy aspektlari" fanidan ma'ruzalar kursi. -Toshkent: 2014.

7. Мечковская Н. Б. Социальная лингвистика. 2000.

Asqarova Zulayxo Yangiboyevna
UrDPI "O'zbek va rus tili adabiyoti" kafedrasi
o'qituvchisi, +99899-960-49-42.
askarovazulayxo@gmail.com

Ogahiyning "Riyozu-d-davla" asaridagi nazm sarlavhali she'riy parchalar tahlili

Annotatsiya. Ushbu maqolada Ogahiyning Riyozu-d-davla"asaridagi nasriy bayonning nazm sarlavhali she'riy parchalar bilan boyitib borilishi va ularning masnaviy janrida berilishi xususida fikr yuritiladi. Bunday nasriy va she'riy tarixiy-adabiy asar yozish Alisher Navoiy va Bobur an'analarining davomi sifatida qiyosan tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: nazm, nasr, masnaviy, bayt, metafora, qiyos, muarrix, epik bayon, lirik kechinma.

Аскарова Зулайхо Янгибаевна
Кафедра узбекской и русской литературы
УрДПИ учитель, +99899-960-49-42.
askarovazulayxo@gmail.com

АНАЛИЗ ПОЭЗИЧЕСКИХ ФРАГМЕНТОВ В «РИЯЗУ-Д-ДАУЛА» ОГАХИ

Аннотация. В данной статье рассматривается прозаическое повествования в произведении Огахи «Риязу-д-давла» и включение в них поэтических фрагментов, составленные как стих, и их использование и обработка в жанре маснави. Дается сравнительный анализ произведений Огахи, как продолжателя традиций Навои и Бабура.

Ключевые слова: стих, проза, маснави, стих, метафора, сравнение, историк, эпическое повествование, лирический опыт.

Askarova Zulaykho Yangiboevna
Teacher of the Department of
"Uzbek and Russian Literature"
of the UrDPI +99899-960-49-42.
askarovazulayxo@gmail.com

ANALYSIS OF POETRY PIECES WITH THE TITLE NAZM IN OGAHI'S WORK "RIYOZU-D-DAVLA"

Abstract. This article reflects on the enrichment of the prose narrative in Ogahi's Riyazu-d-davla with poetic fragments titled as a verse and their rendering in the

masnavi genre. Writing such a prose and poetic historical-literary work is comparatively analyzed as a continuation of the traditions of Alisher Navoi and Babur.

Key words: verse, prose, masnavi, verse, metaphor, simile, historian, epic narrative, lyrical experience.

KIRISH

Ko‘plab sarchashmalardan oziqlangan qo‘ng‘irotlar davri tarixiy asarlari o‘ziga xos jihatlari bilan ajralib turadi. Unda mualliflar eski o‘zbek tilining boy imkoniyatlaridan foydalanib, tarixiy voqealarni juda go‘zal va ta’sirchan tarzda bayon qilganlar. Ular she’riy san’atlar, metaforalar va qiyoslardan keng foydalanganlar. Shu bilan birga muarrixlar tarixiy jarayonning kichik-kichik tafsilotlarigacha katta e’tibor berib, o‘sha davrning ijtimoiy, madaniy va siyosiy hayotini juda aniq tasvirlaganlar. Muarrixlar tarixni faqatgina voqealarning xronologik tartibi sifatida emas, balki insoniyat taraqqiyotining umumiy qonuniyatlarini aks ettiruvchi jarayon sifatida ko‘rganlar. Ana shu katta mas’uliyatli ishni bajarishda o‘quvchi zehnini rom qila oladigan uslub topa bilish va uni manzur qilish hal qiluvchi ahamiyatga molik edi. Shu boisdan tarixnavislar nasr va nazm aralash adabiy an’alardan foydangan holda manzur bir uslubni ma’qul ko‘rganlar. Masalan, “Boburnoma”ning tili kishini o‘ziga tez jalb qila olishi “sabablaridan biri unda tarixiy voqea-hodisalarning qiziqarli epik bayoni bilan lirik kechinmalarning mutanosib uyg‘unlikda kelishidir. Ayniqsa, shoir eng ko‘p murojaat qilgan ruboiy janrida “Boburnoma”dagi ko‘plab muhim voqea-hodisalarning lirik ifodasi berilgan”. [3.54-b.]

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Xuddi shu kabi “Riyozu-d-davla”da nazm sarlavhali parchalar mutoalaasi nasriy uning janr yoki janr emasligi haqida mulohazalarga undaydi. O‘zbek mumtoz adabiyotda ham bir janrning asosiy belgisi sifatida uning shakliy o‘ziga xosligi e’tiborga olinadi. Shu jihatdan olib qaraganda, asardagi nazmlarda alohida janr belgilari ko‘rinmaydi. Ularga umumiy nigoh bilan qarash muallif mazkur sarlavhani muayyan bir maqsad – nasriy asar ichida o‘z fikrlarini nazmiy shaklda ifoda etayotgan qayd sifatida ishlatadi. Boshqacha aytganda, nazm sarlavhasi nasriy shaklda berib borilayotgan voqealik bayoni hissiy jihatdan yuqori nuqtaga ko‘tarilganini anglatish uchun beriladi. Demak, asarda Ogahiy nazm (sarlavhasi)ni asosan quyidagi ikki sabab bilan qo‘llaydi: 1. Nasrda bayon qilish mumkin bo‘lgan fikrlarni nazmiy shaklda berilishi. 2. Nasrda bayon qilinayotgan fikrlarni yana ham yuqori pafosda berish, ta’sir kuchini oshirish maqsadida. Keyingi sabab nasrning nazmga

o‘zgargan barcha holatlar uchun xosdir. Faqat ta’kidlash lozimki, nazmiy shakl muayyan janr (masnaviy, qit’a, ruboiy, fard) kabilarga oid bo‘lmasa yoki bayt sarlavhasi kabi hajmiy chegaraga ishora qilmasa, nazm sifatida qayd etilgan. Ana shu jihat asarda nazm alohida janr nomini anglatmasligi haqidagi fikrimizda qolishga undaydi. Muallif quyidigi parchada o‘z asarining nasriy qismini *iborat* va nazmiy qismini *nazm* istilohlarida ifoda etadi: “Har *iborati* noshoyistakim, suturi sahoyifg‘a mastur etibmen, aybin hunar ko‘rguzub, xaloyiq tahsinig‘a sazovor et va har xazfrezayi noboyistakim, *nazm* rishtasig‘a chekibmen, e’tibor silkig‘a kirguzib, el ko‘zig‘a gavhari serobdek namudor et!” (246b)

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Asar muqaddimasida muallif o‘zining hasbi holini quyidagicha bayon qiladi: “...Muhammad Rizo mirob almutaxallis bi-l-Ogahiy ibn Erniyozbek ... charxi sitamkorning g‘addoru badkirdorlig‘i va jahoni nopoydorning badkor-u jafoshiorlig‘idin shabob avoyilining ovoni tarabnishonikim, umrim gulistonining bahori fayzafshoni erdi, ro‘zgor taalluqoti ibtilosining sarsari burudatasari muloqotidin mahzunliq xazonig‘a tabdil va yigitlik ibtidosining zamoni ishrattav’omonikim, hayotim shabistonining furuzoni erdi, dahri bemador tasrifotining istilosining tundbodi to‘fonnihodi ofotidin mag‘munliq dog‘i hirmonig‘a tahvil topdi”, ya’ni “sitamgar falakning g‘addoru badkirdorligi va muvaqqat jahonning badkoru jafokashligidan umrim gulistonining fayzli bahori bo‘lgan yoshlik ayyomining boshidagi shodlikka to‘la bo‘lishi kerak kunlar hayotning turli tashvishlaridek sovuq shamollariga duch kelganligi bois g‘amginlik xazoniga aylandi va yigitlik davri boshidagi aysh-u ishrat bilan o‘tishi kerak bo‘lgan, hayotim tunining mash’alasi bo‘lmish vaqtlar tengsizlik hukm surgan dunyoning ishlari istilosining to‘fondek sovuq shamollari yetkazgan ofatlar natijasida nochorlikdek noumidlik dog‘iga do‘ndi” – deydi. Sababi “Masarrat qonunining avtori hasrat zaxmasidin uzulub, ishrat shohidining suvrati usrat kisvatida pinhon bo‘ldi. A’laddavom avqotguzarlig‘ masolihi mazore’ida tafakkur mahsuloti zoye’ va nomusdorlig‘ shomiti hunaru fazilat iktisobig‘a mone’ bo‘ldi. Ne ko‘nglumda jahon havodisidin jam’iyat asari paydo va ne tab’imda zamon navoyibidin amniyat xabari huvaydo; g‘am xaylining sinonrezligidin farqi rohatim yoruq, alam saylining to‘fonxezligidin kulbayi ehzonim yiquq”, ya’ni “Shodlik qonuni (qonun – nizom; qonun – musiqa asbobi)ning asoslari hasrat zarbidan uzilib, ishrat go‘zalining suvrati qiyinchilik libosida yashirindi. Muttasil tirikchilik vositalari ekinzorida tafakkur mahsuloti nobud bo‘lib, nomuslilik shomiti (dushman g‘amidan shodlik) hunaru fazilat hosil qilishga mone

bo‘ldi. Ne ko‘nglimda jahon hodisalaridan xotirjamlik belgisi paydo bo‘lar va ne tab’imda zamon qiziqliklaridan omonlik xabari ko‘zga tashlanar; na g‘am lashkarining nayza tirab turishidan boshimda rohat yorug‘, balki alam selining to‘foni qo‘zishidan g‘amga botgan kulbam yiqiq edi”.

Ko‘rinadiki, muarrix bu nasriy satrlarda nazmiy ohangni ham, unga xos badiiy san’atlar va vositalarni ham, nazm yetkazib biladigan kuchli hissiyotni ham ifoda eta olgan. Shunday holatda ijodkor o‘z fikrini davom ettirish uchun “eng qulay”i o‘z mulohazalarini va hissiy tuyg‘ularini ifodasini nazmiy shaklda xulosalash bo‘ladi. Shuning uchun Ogahiy nazm sarlavhasi bilan quyidagi baytlarni beradi:

Nazm:

Gahekim, yuz quyub boshimg‘a qayg‘u,
Ko‘runub ko‘zuma olam qarong‘u.
Bo‘lub g‘am xayli gohi qosidi jon,
Yiqilib boshima garduni gardon.
Ochib gohe havodis ilki panja,
Qilib ko‘nglumni a’zosini ranja.
Bo‘lub dilxastau tab’im parishon,
Fig‘onlar aylar erdim, lek pinhon. (RD, 248a)

Asarning ushbu satrlari mazmun va bayon uslubi bilan “Mahbubu-l-qulub” muqaddimasini esalatadi. Unda Alisher Navoiy “bu xoksori parishonro‘zgor shabob avonining bidoyatidin kuhulat zamonining nihoyatig‘acha davron voqeotidin va sipehri gardon hodisotidin va dahri fitnangiz buqalamunlug‘idin va zamonai rangomiz gunogunlig‘idin muddati madid va ahdi baid har nav’ shiq va suratda aqdom urdum va har tavr suluk va kisvatda yugurdum va o‘zumnn yaxshi-yamon xizmat va suhbatig‘a yetkurdim. Goh mazallat va ano vayronida shevan ko‘rguzdum va goh izzat g‘ino bo‘stonida anjuman tuzdum.

Masnaviy:

Gahe topdim falakdin notavonlig‘,
Gohe ko‘rdim zamondin komronlig‘,
Base issig‘, sovug‘ ko‘rdo‘m zamonda,
Base achchig‘, chuchuk tottim jahonda”. [2.4-5-b.]

Har ikkala matn qiyosi shuni ko‘rsatadiki, bir-biriga mazmuniy va g‘oyaviy hamda bayon uslubi jihatidan juda yaqin bu satrlarda o‘z mualliflarining hasbi holi yaqqol aks etgan. Xususan, Alisher Navoiy hasbi holdi *gahe – gohe* ayiruv bog‘lovchisi *notavonlig‘* va *komronlig‘* ziddiyatini yuzaga keltirgan bo‘lsa, Ogahiyda xuddi bog‘lovchilar *qayg‘u* va *ranja* davomiyligini yuzaga keltiradi. Yuqorida bayon qilganimizdek, Alisher Navoiy o‘z xulosalarini nazmning masnaviy shaklida ekaniga asosan *masnaviy* deb nomlagan bo‘lsa, Ogahiy hozirgina nasrda bayon qilingan fikrlarining nazmiy ifodasi ekanini nazarda tutib (masnaviy shaklida ekanini ikkilamchi o‘ringa olgan holda) *nazm* deb nomlagan.

Shu bilan birga Ogahiy *nazm* sarlavhasi ostida bergan she’rlarining ayrimlari o‘zidan oldin kelgan she’r bildirilgan muxtasar xulosaning nazmiy sharhi vazifasini o‘taydi. Masalan, Ogahiy o‘ziga ushbu asarni yozish topshirig‘ini yana bir bor podshoh nazari tushgani sharofati sifatida *bayt* salavhasi bilan quyidagi satlarni keltiradi:

Ore, ar shoh qilsa kimga nazar,

Bo‘lg‘usudur quyosh bila hamsar.

Shundan keyin “iltifoti podshohiy va a’tofi nomutanohiy himoyati bila... quvvate va ... jur’ate hosil bo‘lgani” aytgach, nazm orqali yuqorida bayt mazmuniga sharh vazifasin o‘tovchi “Shoh har kimga ehson aylasa, butun jahon ahli ichra sarafroz bo‘ladi. O‘lgan bo‘lsa ham taniga jon kirib, murod-maqsadiga yetadi. Agar gung-u lol bo‘lib, tildan qolsa ham, shaksiz, so‘zga chechan bo‘lib qoladi. Telba bo‘lsa, aql kirib qoladi, johil bo‘lsa, fozil bo‘lib qoladi. Qo‘rqoq bo‘lsa, botir bo‘lib, fildek baquvvat-u sher ovloqchiga aylanadi. Barcha mushkul unga oson bo‘ladi, falak ham uning aytganiga qarab aylanar. Nima ish qilsa, odamlarga ma’qul, balki jahon ahliga o‘sha ish yoqimli tuyular. Har na so‘z desa, bajo bo‘lar, balki, jon bergusi Masihday bo‘ladi” – satrlarni bitadi.

Xuddi shu kabi asarning boshqa bir o‘rnida *nazm* sarlavhasi bilan kelgan

Birov ra’yig‘a aylabon iktifo,

Aning birla ish qilmoq ermish xato.

Na so‘z ko‘nglingizg‘a kelur, aytingiz,

Qayu ishg‘akim, naf’i ko‘p, qaytingiz.

Kibor mashvarati sunnati Mustafo,

Kerakdur ani aylamaklik ado (RD, 258b), ya’ni “Birovning ra’yiga orqa qilib, uning aytgani bilan ish qilish xato ekan. Ko‘nglingizga har gapni ayting, nafi ko‘p bo‘lgan ishga

qayting. Ulug‘lar bilan maslahatlashish sunnati Mustafodir, demak, uni ado etish kerak” baytlari o‘zidan oldingi bayt sarlavhali

Na ish qilsa mayl arbobi davlat,

Ul ishda ochilur abvobi davlat – xulosaning nazmiy sharhi vazifasini o‘taydi.

Quyida keltirilajak *nazm* sarlavhali she’r bizning asardagi shu sarlavhali satrlarnnig mazmuni va vazifaviy xususiyatlari haqidagi xulosalarimizni qat’iylashtiradi. Muarrix xon (Allohqulixon)ning Eron safariga chiqish oldidan poytaxtda harbiy namoyishi chog‘ida uning yo‘liga tashlangan sochiqlarni osmondan yoqqan dur yomg‘iriga o‘xshatib, yer osmonga aylangani, ya’ni yerdagi durlar samodagi yulduzlarni eslatishini “Va yo‘l azimati hangomida xazoyini omira xozinlari javohiri vofira va danoiri mutakosira ajnosin ul miqdor ul hazratning muborak ayoqlarig‘a nisor qildilarkim, yer sathi falak sahni yanglig‘ kavkabiston, balki laoliyi xushobu durari noyob nuqudig‘a kon bo‘ldi va xaloyiqning jaybi muddaosi va domani tamannosi javohiri kom va zavohiri marom bila bahru kon yanglig‘ to‘ldi”, ya’ni “Yo‘l bo‘yi boy xazina xazinabonlari mo‘l-ko‘l javharlar hamda ko‘plab dinorlardan ul hazratning muborak oyoqlariga shu miqdorda ko‘p sochdilarki, yer sathi falak sahni yanglig‘ yulduzlar maskaniga, balki xushob la’llar-u noyob durlarga kon bo‘ldi va xaloyiqning muddao cho‘ntagi-yu orzu etagi maqsad gavharlari va marom gullari bilan dengiz-u kon misol to‘ldi” – deb ta’riflaydi. E’tibor qaratilsa, shundan keyin kelgan *nazm* sarlavhali she’rda ham deyarli shu mazmun nazmiy shaklda ifoda topadi.

Nazm:

Sochildi gavhari noyobu bisyor,

Aningdekkim, bahor ayyomi amtor.

Yer o‘ldi charx yanglig‘ anjumiston,

Ulus domanu jaybi uylakim, kon.

Birov qolmay hamul dam komin olmay,

Hamul dam komin olmay kimsa qolmay (RD, 255a), ya’ni “Ko‘p qimmatbaho durlar bahor kunlaridagi yomg‘ir tomchilari miqdoricha sochildi. Yer falak kabi yulduzlar makoniga aylandi, xalqning kissasi-yu etagi konga aylandi. O‘shanda maqsadiga yetmagan kishi qolmadi, hech kishi maqsadiga yetmay qolmadi”. Asarda nazmiy qism nasriy qismda aytilmagan fikr-mulohazalar bayon qilingan holatda ushbu shaklda she’rlar o‘z nomi bilan masnaviyi bilan, agar muayyan she’riy janr shaklida bo‘lsa qit’a, ruboiy, fard kabi qaydlar bilan berilgan.

Shu tariqa keyingi nazm xonning o‘z saltanatining dastlabki yetti oyida bajargan umumiy tavsifiga bag‘ishlanadi. Ushbu

Qilib tadbiru ko‘shish ehtimomin,

Tuzatdi mulku davlat intizomin.

Zamone adl ishida qilmadi ehmol,

Jahon ahlini qildi forig‘ulbol (RD, 256a) shaklda bo‘lib, o‘zidan oldingi “Ul hazrat julusi jahonorosidin to yetti oyg‘acha bu tariqada lavozimi saltanat ishtig‘olig‘a iqdom va fuqarou ra’iyat ahvolining intizomig‘a ehtimom ko‘rguzub, marhamat bodasidin xaloyiq zamoyirin xurram va adolati bahoridin jahon mamolikin gulshani Eram qildi”, ya’ni “Ul hazrat jahonga zeb bo‘lib tushgan taxtga o‘tirishidan to yetti oyg‘acha bu tariqada saltanat ishlariga mashg‘ul bo‘ldi va fuqarou raiyat ahvolining tartibiga jiddiy harakat qilib, marhamat mayidan xaloyiqni xurram va adolati bahoridan jahon mamlakatlarini Eram gulshani qildi” jumlasi mazmunining nazmiy bayonidir.

Keyingi nazm xonlik qo‘shinidagi sarbozlar ta’rifida keladi:

“Edi har biri ul sifat zo‘rmand,

Ki solib falak sheri bo‘ynig‘a band.

Ko‘runmay shijoatda vaqti masof,

Alar ko‘zig‘a zarracha Ko‘hi Qof.

Emas qizsa hangomayi korzor,

Birining harifi yuz Isfandiyor” (RD, 257a), ya’ni “Ularning har biri shunday kuch-quvvatli ediki, falak sheri bo‘yniga sirtmoq sola olardi. Jang paytida ularning ko‘ziga Qof tog‘i zarra qadar ko‘rinmas edi. Urush qizib ketsa, ularning har biriga yuz Isfandiyor (“Shohnoma” qahramoni) raqib bo‘la olmay qolardi”. Muarrix bu uch baytli masnaviyga nazm sarlavhasini berishining boisi shuki, unday nasriy qismning mazmuni davomi berilgan bo‘lmay, undashi (uning bir qismidagi) fikrlarning nazmiy ifodasi keltirilgan. Solishtiramiz: “...har biri shijoat ko‘hsorining palangi afxami va jalodat korzorining Rustami ajshai va dilovarlig‘ rusumining ogohi va kundavorlig‘ rumuzining sohib intibohi va xunafshonlig‘ osmonining Bahromi va jonsitonlig‘ maydonining zirg‘omi erdilar”, ya’ni “...ularning har biri shijoat tog‘ining botir yo‘lbarsi va jasurlik jang maydonining eng shijoatli Rustami, bahodirlik rasm-u rusumi ogohi, asirlikka olish ramzlarini anglovchi, qon to‘kish osmonining Bahromi va hayot-mamot maydonining arsloni edilar”.

Shunga o‘xshash holatni asarning boshqa bir o‘rnida ko‘ramiz: “ul hazrat rukubi uchun... azimu-sh-shon umarolar va garduntav’om kubarolar va oliymakon sipahdorlar va azimatnishon sardorlarkim, rif’at va manzilatda garduni rif’atnamunni gardi g‘uborcha e’tibor qilmas erdilar, davlat va hashamatda Jamshidu Afridunni ko‘zlarig‘a gadoyi bemiqdorcha ilmas erdilar,..” Shu satrlardan keyin shu mazmun she’riy shakl va ohang hamda hissiyot bilan boyitilgan holda qayta ifoda topayotgani bois *nazm* sarlavhasi ostida

Bari sha’ni erdi quyoshdin baland,

Bari sohibizzatu arjumand.

Bari erdi davlatda Qorun kebi,

Bari muknat ichra Faridun kebi (RD, 265b) – deb boshlanuvchi

o‘n bir baytli masnaviy beriladi.

Boshqa bir o‘rinda muarrix Oqdarband qo‘rg‘oni mudofaasidagi aholi ahvolini quyidagicha ta’riflaydi: “...g‘oyat sarosima va harosonliqdin qal’a akobiri bila ittifoq qilib, darvozalarni tosh va tufroq bila madrus-u matmus qildurub, sa’yi vofir va ko‘shishi mutakosir bila qal’a harosatig‘a qiyom ko‘rguzdi. Ne kechalar rohat qilurg‘a orom-u qarori bor va ne kunduzlar farog‘at toparg‘a quvvat-u madori va shahr ahli g‘alabayi xavfdin jon chekib, it yanglig‘ faryod-u afg‘onin sipehri gardondin oshurdilar”, ya’ni “qo‘rqinch qal’a ulug‘lari bilan ittifoq qilib, darvozalarni tosh va tuproq bilan eski va ko‘zi ojiz qildirib, ko‘p intilish hamda tinimsiz harakat bilan qal’a himoyasiga kirishdi. Ne kechalar rohat qilishga orom-u qarori bor va ne kunduzlar farog‘at topishga quvvat-u madori, shahar ahli xavf g‘alabasidan jon chekib, it kabi faryod-u afg‘onini aylanib turgan osmondan oshirdilar”. Ana shundan keyin deyarli shu mazmun she’riy shaklda – she’rga xos san’atlar va ohang bilan boyitilgan, ayrim “qo‘shimcha”lar qo‘shilgan holda nazmiy ifodalangani uchun muallif unga nazm sarlavhasini qo‘yadi:

Hisor ichra bo‘lub kufr ahli mahsur,

Oshurdi charxdin afg‘on ila sho‘r.

Bo‘lub kunduz ishi har yon yugurmak,

Kecha yuz vahmdin it yanglig‘ urmak, ya’ni “Qal’a ichida kufr ahli qamalib, afg‘on-u ohni falakdan oshirdi. Kunduz ishi har yon yugurmak, kecha yuz vahmdan it kabi hurish edi”.

Asardagi nazmlarning badiiy va hissiy vazifalaridan biri muxtasarlikka erishish ortiqcha tavsifga berilib ketmaslik ekanini quyidagi parcha mazmunidan anglab olish

mumkin: “Yana necha avfoji kasirkim, zikrini bir-bir raqam qilmoqda qalam izhori taqsir qilur, har favje necha karrat qizilbosh ahlin asir va g‘orat qilib, barchasi xushhol bo‘lub, haddin afzun mol bila kelur erdilar” (RD, 263a). Shu bois muallif

Birov qizlar og‘ushidin kom olib,
Birov tug‘malar xizmatig‘a solib.
Birov zar bila komronlig‘ topib,
Birov mol ila shodmonlig‘ topib.
Qilib lashkar ahli sarosar nishot,
Bu yanglig‘ edi necha kun inbisot

satrlarini *nazm* sarlavhasi ostida berish bilan kifolanadi.

Asarda *nazm* bilan bog‘liq ushbu “qonuniyat”ning deyarli buzilmagani ko‘ramiz. Faqat quyidagi parchada bir qadar chekinishni kuzatamiz, ya’ni nasriy qismda o‘zlashtirma gap bilan berilgan mazmun nazmda ko‘chirma gap shaklida berilgan. Shunga ko‘ra, bu holat ham bizning yuqoridagi muloazalarimizga qarshi dalil bo‘lmaydi: “Ul mavze’da bir kun oromguzin bo‘lub, tonglasikim, shanba erdi, Juvozli marhalasi sipohi zafarpanohg‘a oromgoh bo‘ldi. Ul mavze’da Tajan mutavattinlarikim, taka va yamroli erdilar, yuz nav’ iztiror va ming turluk inkisor bila atababo‘slig‘ marosimin izhor qilib, shohzodayi komkori karamshiordin girya va zorlig‘lar bila o‘z gunohlarin tilab, *nazm:*

Dedilarkim: “Ey xusravi komron,
Na amr aylasang jonimizg‘a ravon.
Gunahkor qullarmiz ollingda biz,
Tutarmiz na hukm aylasang chorasiz.”
Agar qatl qilsang sazovormiz,
Va gar afv qilsang dag‘i bormiz.
Va lekin umid ulkim, afv-u karam
Qilib chekkasen jurmimizg‘a raqam. (RD, 257b)

Asarda jami 66 nazm sarlavhali she’r berilgan. Ular asosan masnaviy shaklida yozilib, eng kichigi 2 baytli bo‘lsa, hajman eng kattasi 134 baytdan iborat. Mazkur 134 baytli nazm (RD, 334b-335a) asarga so‘ng vazifasini bajarishiga qarab ham, nazmga katta badiiy yuk va badiiy niyat yuklanganini ko‘ramiz.

XULOSA

Ogahiyning “Riyozu-d-davla asari nafaqat tarixiy, balki tarixiy-adabiy asar sifatida tadqiq qilinishining boisi, unda mukammal sa’j namunalarining berilishi, nazmiy sarlavhali go‘zal va original misollarning keltirilishi, ushbu parchalarda berilgan shoir tarjimayi holiga oid ma’lumotlar, asarda bayon qilingan davr yoki asar voqealarida bayon qilingan hududning tarixiy maqomi, asar muallifining xos uslubi, asar xarakteriga o‘xshagan jihatlarga alohida e’tibor qaratish zarurligini ko‘rsatadi.

Nasrda bayon qilish mumkin bo‘lgan fikrlarni nazmiy shaklda berilishi, nasrda bayon qilinayotgan fikrlarni yana ham yuqori pafosda berish, ta’sir kuchini oshirish maqsadiga bo‘ysundirilganligini ko‘rishimiz mumkin. Shu nuqtai nazardan Riyozu-d-davla” asaridagi nasrdagi sa’j va sof nazmiy parchalar asarning pafosini ochib berishga xizmat qilgan.

Iqtiboslar/Сноски/Reference

1. Муҳаммад Ризо Эрниёзбек ўғли Огаҳий. “Риёзу-д-давла”. – Toshkent: Шарқ, 2019.

2. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 14 том. – Тошкент: Фан, 1998. – Б. 4-5.

3. Қосимова Г. Бобур ижодида наср ва назм// Journal of Innova,on in Volume:2 Issue:6Year:2024 – Б. 54. Educa,onal and Social ResearchISSN:2992-894X| h"p://journals.proindex.uz

4. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. Тошкент: “Ўзбекистон”, 2002.

5. Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз бадиият малоҳати. – Тошкент: Шарқ, 1999.

6. Бобоев Т. Шеър илми таълими. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996.

Хушманова Гульшода Ибрагимовна
Университет экономики и педагогики
старший преподаватель НТМ

Слово сочетание как номинативная единица языка

Аннотация: В статье рассматривается роль словосочетаний в языкознании и их номинативная функция. Природа словосочетания и принципы его разграничения как от слова, так и от предложения являются основными темами исследования. В статье рассматриваются подходы известных русских лингвистов, таких как Ф. Ф. Фортунатов, А. М. Пешковский, В. П. Сухотин и В. В. Виноградов, к определению и классификации словосочетаний. Также обсуждается номинативная функция словосочетаний и их отличие от других языковых единиц, таких как предложение и сложные слова. В статье исследуются подходы в зарубежной лингвистике, предлагаются различные определения словосочетания. Анализируются синтаксические и семантические отношения внутри словосочетаний, что помогает понять их функционирование в языке.

Ключевые слова: слово сочетание, номинативная функция, синтаксис, семантика, предложение, сложное слово, Ф.Ф. Фортунатов, А. М. Пешковский, В. П. Сухотин, В. В. Виноградов, язык о знание, зарубежная лингвистика.

Xushmanova Gulshoda Ibragimovna
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
NTM katta o‘qituvchisi

TILNING NOMINATIV BIRLIGI SIFATIDA TUZATISH

Annotatsiya: Maqolada, so‘z birikmalarining tilshunoslikdagi o‘rni va ularning nominatv funksiyasi haqida gapiriladi. So‘z birikmalarining tabiati va ularni so‘zdan hamda jumladan ajratish prinsiplari tadqiqotning asosiy mavzularidan biridir. Avvalam bor, maqolada rus tilshunosligi tarixidagi eng muhim olimlarning so‘z birikmasini aniqlash va tasniflashdagi yondashuvlari ko‘rib chiqiladi, jumladan F.F. Fortunatov, A.M. Peshkovskiy, V.P. Suxotin, va V.V. Vinogradovning ta’limotlari. Shuningdek, so‘z birikmalarining nominatv funksiyasi va ularning boshqa lingvistik birliklar, jumla va murakkab so‘zlardan farqlanishi haqida ham mulohazalar bildiriladi. Maqolada, shuningdek, chet el tilshunosligidagi yondashuvlar ham ko‘rib chiqilib, so‘z birikmasining turli xil ta’riflari taqdim etiladi. So‘z birikmalarining sintaksis va semantika jihatidan aloqalari ham tahlil qilinadi, bu esa ularning tilda qanday ishlashini tushunishga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: so‘z birikmasi, nominatv funksiyasi, sintaksis, semantika, jumla, murakkab so‘z, F.F. Fortunatov, A.M. Peshkovskiy, V.P. Suxotin, V.V. Vinogradov, lingvistika, chet el tilshunosligi.

Khushmanova Gulshoda Ibragimovna
University of Economics and Pedagogy
Senior Lecturer, NTM

WORD COMBINATION AS A NOMINATIVE UNIT OF LANGUAGE.

Abstract: The article discusses the role of word combinations in linguistics and their nominative function. The nature of word combinations and the principles of their differentiation from both words and sentences are among the main topics of the study. The article reviews the approaches of prominent Russian linguists, such as F.F. Fortunatov, A.M. Peshkovskiy, V.P. Sukhothin, and V.V. Vinogradov, in defining and classifying word combinations. It also addresses the nominative function of word combinations and their differentiation from other linguistic units, such as sentences and compound words. The article examines approaches in foreign linguistics, presenting various definitions of word combinations. The syntactic and semantic relationships within word combinations are analyzed, helping to understand their functioning in language.

Keywords:word: combination, nominative function, syntax, semantics, sentence, compound word, F. F. Fortunatov, A. M. Peshkovskiy, V. P. Sukhothin, V. V. Vinogradov, linguistics, foreign linguistics.

Несмотря на то, что вопрос о словосочетании исследуется многими лингвистами, он до сих пор является дискуссионным. Актуальным вопросом в изучении словосочетания является вопрос о природе словосочетания и принципах его отграничения, с одной стороны, от слова, а с другой стороны, от предложения.

Непосредственное изучение словосочетания в отечественной лингвистике начинается с Ф.Ф.Фортунатова, который определяет предмет своего исследования как «целое, по значению, которое образуется сочетанием одного полного слова (не частицы) с другим полным словом, будет ли это выражение целого психологического суждения, или выражение его части. Во всяком словосочетании различаются по значению две части: зависимая, несамостоятельная, и независимая, самостоятельная» [1].

Этиже взгляды отразилисьв трудах его последователей – А.М.Пешковского и В.П.Сухотина. А.М.Пешковский понимает словосочетание как два слова или ряд слов, объединенных в речи и в мысли [2]. В.П.Сухотин развивает определение А. М.Пешковского и определяет словосочетание как «минимальное грамматическое и смысловое единствов составе предложения, отражающее связи реальной действительности» [3, 175]. Исходя из этого определения, автор делает выводы о том, что словосочетание вычленяется из предложения и существует только в рамках предложения. В.П.Сухотин также подчеркивает важность характера связи между единицами или компонентами словосочетания. Опираясь на тип связи между компонентами словосочетания, он выделяет два типа - предикативные (сочетание

подлежащего и сказуемого) и непредикативные (подчинительные и сочинительные) словосочетания [3,175-176].

Таким образом, предложение как грамматически организованная единица относилось к разряду словосочетаний, а весь синтаксис объявлялся учением о словосочетании. Вплоть до середины XX века это считалось основной тенденцией в изучении словосочетания в отечественной лингвистике.

Однако в середине XXвека академик В.В. Виноградов предложил и нойподход к изучению слово сочетания, разграничив понятия «словосочетание» и «предложение». Он указал на то, что эти два понятия принадлежат разным семантическим рядам и разным стилистическим плоскостям. В своем труде «Вопросы синтаксиса современного русского языка» В. В. Виноградов пишет: «словосочетание и предложение … соответствую тразным формам мышления. Предложение–вовсе не разновидность словосочетания, так как существуют и слова-предложения. Понятие словосочетания в своем содержании не заключает никаких грамматических признаков, которые... указывали бы на законченность сообщения» [4, 38].

По мнению В. В. Виноградова, словосочетание является сложным и более конкретным именованием, выполняющим ту же номинативную функцию, что и слово. По его словам, «… оно (словосочетание) относитсятак же, как слово, и к области «номинативных» средств языка, средств обозначения. Оно так же, как и слово, представляет собой строительный материал, используемый в процессе языкового общения. Предложение же – произведение из этого материала, содержащее сообщение о действительности».

Следует уточнить признаки, по которым слова и словосочетания схожи и различны. И слова, и словосочетания выполняют номинативную функциюи имеют парадигмы изменения, когда они являются частью предложения. Словосочетание, как и слово, выполняет в первую очередь номинативную функцию. Описывая процесс номинации, В.Г.Гак отмечает, что «номинация представляет собой путь, который индивид проделывает от предмета, явления, понятия – к слову» [5, 28].

В отличие от слова словосочетание обозначает расчлененное, более конкретное понятие, необходимое человеку для классификации объектов и явлений действительности. Ключевым различием слов и словосочетаний является то, что словосочетание – это всегда совокупность грамматически организованных компонентов, реализуемых в коммуникативной функции только в составе предложения. Поэтому словосочетания не могут существовать в готовом видев языке–их лексическое значение привязано к предложению [6].

Другим важным вопросом является отличие словосочетания от сложного слова. Многие сложные слова произошли от словосочетаний и некоторые сохранили раздельное написание, что и вызывает проблемы в отличии словосочетаний (в частности, биноминальных) от сложных слов [7]. В своем исследовании О. Д.Мешков выделяет внутренние и внешние признаки цельно оформленности

сложных слов. К внутренним он относит фонетические, морфологические и орфографические признаки,а к внешним – синтаксические [8,177]. Данное разделение можно объяснить тем, что внутренние признак и позволяютсудить оцельно оформленности отдельно взятой лексической единицы, а внешние – о цельнооформленности единицы в речи. В рамках данного исследования мы полагаемся на три критерия (морфологический, орфографический и синтаксический) для разграничения сложных слов и словосочетаний.

Опираясь на определение словосочетания, предложенного В.В.Виноградовым, вотечественной лингвистике термин «словосочетание» в настоящее время ограничивается только подчинительными структурами, что подтверждается официальным определением слово сочетания из «Словаря русского языка»: «сочетание двух или нескольких слов, объединенных подчинительной связью» [9].

В зарубежных грамматиках используется иной подход к изучению словосочетания. Отсутствие устоявшейся терминологии и отсутствиеединого термина является особенностью зарубежных лингвистическихтрудов по словосочетанию. В зарубежной лингвистике часто используется термин “phrase” (фраза), который по-разному объясняется в англоязычных словарях:

1) Phrase [1] a group of words that are used together in a fixed expression
[2] a group of words that form a unit within a clause [6];
2) phrase [1] a group of words that together have a particular meaning, especially when they express the meaning well in a few words [2] a groupof words without a FINITE verb, especially when they are used to form part of a sentence, such as “walking along the road” and “a bar of soap” [7].

Из выше сказанного следует, что в зарубежной традиции принято описывать словосочетание как языковую единицу, состоящую из главного и зависимого компонентов и не содержащую личные формы глаголов. Между компонентами словосочетаний устанавливаются определенные синтаксические и семантические отношения, вырахающие единое значение.

Одним из наиболее известных зарубежных лингвистов, исследовавших проблему словосочетания, является Л. Блумфилд, выдающийся американский лингвист 30-х годов XX века. Он считает словосочетанием любую синтаксически организованную группу, рассматриваемую с точки зрения ее линейной структуры. Похожая точка зрения отображается и втрудах Дх.Финча, британского лингвиста, которы подчеркивает, что «фраза – это единица, состоящая из двух или более слов, отдельные слова несчитаются фразами» (перевод:ДмитриеваМ.Д.) [9]. Также, по мнению Й. Рису, западного лингвиста, словосочетание объем летвсевиды синтаксических форм,начиная от соединения двух слов и заканчивая сложным предложением. Таким образом, данное определение становится обозначением всех синтаксических построений, как образующих, так и не образующих предложения. Подвидами словосочетания наряду с предложением являются словесные группы,сходные по функции с отдельным словом [10].

Таким образом, одна из ключевых проблем в теории слово сочетания, а именно вопрос о границах словосочетания, все еще не решена на данном этапе развития лингвистической науки. Стоит отметить, что синтаксическая концепция зарубежных лингвистовне получила дальнейшего развитияв России. Рассматривая расхожие теории о словосочетании, его функциях и границахФ. Ф. Фортунатоваи В.В.Виноградова, современные исследователи сходятся во мнении, что теория В.В.Виноградова является наиболее проработанной. Именно поэтому мы используем определение словосочетания В.В.Виноградова в качестве рабочего и будем понимать под словосочетанием сочетание двух и более слов, объединенных подчинительной связью и выполняющих номинативную функцию. Далее мы рассмотрим различные подходы к классификации слово сочетаний в зависимости от различных признаков.

Iqtiboslar/Сноски/Reference

1. Фортунатов Ф.Ф. Опреподавани и грамматики русского языкав средней школе // Русский филологический вестник. 1905. Вып. 2. С. 58–74.

2. Пешковский А.М. Понятие оформе слово сочетания // Русский синтаксис в научном освещении. М.: Яз. славян. культуры, 2001. С. 34–53.

3. Сухотин В.П. Проблема словосочетания в современном русском языке//Вопросы синтакси сасовременного русского языка/подред.В. В. Виноградова. М., 1950. С. 127–177.

4. Виноградов В.В. Вопросы синтаксиса современного русского языка. М.: Гос. учебно-пед. изд-во М-ва просвещения РСФСР, 1950. С. 3–51.

5. ВалгинаН.С. Словосочетание // Современный русский язык: Синтаксис / под ред. Л. И. Кравцова. М.: Высш. Шк., 2003. С. 19–62.

6. Мешков О.Д. Слово образование современного английского языка. М.: Наука, 1976. С. 170–186.

7. Ожегов С. И. Словарь русского языка / Гл. ред. С. П. Обнорский. М.: Гос. изд. иностр. и нац. словарей. 1949. 968 с.

8. MED – Macmillan English Dictionary [Электронныйресурс]. 2020. URL: https://www.macmillandictionary.com/.

9. DCE– Longman Dictionary of Contemporary English [Электронный ресурс].2020.URL:https://www.ldoceonline.com/

10. BloomfieldL.Syntax//Language.C.:Universityof Chicago Press, 1984. P.138–159.

11. FinchG.Syntax // Linguistics Termsand Concepts.L.:Palgrave Macmillan, 1999. P. 77–142.

12. RiesJ. WhatisSyntax? London,1984.180 p.

УДК 891.709

Hazratkuliyon Дилшодаи Фарходзод
Шароф Рашидов номли Самарқанд
давлат университети докторанти (DSc)
dilshoda.31@gmail.com

O‘zbekistondagi tojik yoshlari she’riyatiga bir nazar

Annotatsiya: Vatanimiz O’zbekistonda turli millatlar, turli kasb egalari yashab ijod qilishadi. Ular orasida tojik ijodkorlari ham bor bo’lib, oxirgi o’nyillikda tojik adabiyotida yosh shoirlar safi kengayib bormoqda. Bu yoshlarning ijodiyoti mazmun va shakl jihatidan rang barang bo’lib, ularda adabiy an’analarga uyg’unlikda yangicha adabiy zamonaviy tamoyillar ta’siri ham kuzatiladi.

Maqolada vatanimizda yashab, badiiy ijod bilan shug’ullanayotgan ba’zi yoshlarning she’ri janr, shakl, mavzu va mazmun jihatidan, ulardagi uslub xususiyati va adabiy jarayonlardan ta’sirlanish nuqtai nazaridan tahlilga tortilib, yoshlar she’riyatining hozirgi tojik adabiyoti rivojidagi mavqii haqida so’z boradi.

Kalit so’zlar: O‘zbekiston, tojik she’riyati, yosh shoirlar, an’ana, adabiy tamoyillar.

Хазраткулиён Дилшодаи Фарходзод
докторант (DSc) Самаркандского государственного
университета имени Шарофа Рашидова
dilshoda.31@gmail.com

ВЗГЛЯД НА ПОЭЗИЮ ТАДЖИКСКОЙ МОЛОДЕЖИ В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация: В Узбекистане живут и работают люди разных национальностей и профессий. Среди них есть таджикские поэты, а число молодых поэтов в таджикской литературе за последнее десятилетие увеличилось. Творчество этих молодых людей красочно по содержанию и форме, в гармонии с литературными традициями прослеживается влияние новых литературных принципов современности.

В статье анализируется поэзия некоторых молодых людей, проживающих в нашей стране и занимающихся художественным творчеством, по жанру, форме, предмету и содержанию, с точки зрения их стилистических особенностей и влияния литературных процессов, а также о Место молодежной поэзии в развитии современной таджикской литературы.

Ключевые слова: Узбекистан, таджикская поэзия, молодые поэты, традиции, литературные принципы.

Khazratkuliyon Dilshodai Farhodzod
Doctoral candidate (DSc) of Samarkand
State University named after Sharof Rashidov
dilshoda.31@gmail.com

A LOOK AT THE POETRY OF TAJIK YOUTH IN UZBEKISTAN

Abstract: People of different nationalities and professions live and work in Uzbekistan. Among them are Tajik poets, and the number of young poets in Tajik literature has increased over the past decade. The work of these young people is colorful in content and form, in harmony with literary traditions, the influence of new literary principles of modernity can be traced. The article analyzes the poetry of some young people living in our country and engaged in artistic creativity, by genre, form, subject and content, from the point of view of their stylistic features and the influence of literary processes, as well as the Place of youth poetry in the development of modern Tajik literature.

Keywords: Uzbekistan, Tajik poetry, young poets, traditions, literary principles.

Kirish. O‘zbekiston adabiy muhitida mustaqillikdan keyingi davrda yangi milliy g‘oyaviylik ruhida shakllanayotgan hozirgi fors-tojik adabiyoti ham yangi rivojlanishga yuz tutdi. XX asr oxiri - XXI asr birinchi o‘nyilligida O‘zbekiston hududida adabiy-madaniy muhit yangi sharoitga moslashishga harakat qildi. Aytish joizki, bu tarixiy davrada ushbu adabiy-madaniy muhitda na tanho tojik adabiy hayoti, balki unga yelkadosh bo‘lgan o‘zbek adabiy hayotida ham yangi iqtisodiy-siyosiy sharoitga moslashish marhalasi edi.

Nashriyotlar kamligi, iqtisodiy tanglik, adabiy-madaniy hayotning to‘liq va mukammal tarzda rivojlanmaganligi ijodkorlar uchun yaxshi sharoit hali mavjud emasligiga ishoradir. XX asr oxirgi o‘n yilligi hamda XXI asr birinchi o‘n yilligi oralig‘idagi davrda tojik adabiyotshunosligida asosan klassik hamda maorifparvar va jadidchilik adabiyoti muammolari asosiy tadqiqot mavzusi hisoblanar edi. Ana shu tarixiy marhalada bayozlar va tazkiralarning vujudga kelishi ushbu adabiy muhitda shakllanib borayotgan tojik adabiyotini targ‘ib qilish, rivojlantirish, shoirlarni tanitish, qo‘llash kerakligini ta’kidladi va adabiyotshunoslik diqqatini O‘zbekiston tojik adabiyoti masalalarini o‘rganishga jalb etdi. Bu yo‘lda ilk harakatlar qatorida yurtimiz taniqli ijodkorlari she’rlaridan tarkib topgan “Az Samarqandi chu qand”, “Bog‘i bisyordaraxt”, “Forsisaroyoni O‘bekiston”, “Bonuvoni shoiri haft shahri ishq”, “She’rboron” kabi she’riy bayozlar Eron Islom Respublikasining O‘zbekistondagi elchixonasi vakillari hamda xorijiy nashriyotlar tomonidan chop etildi.

Tojikiston modernist shoirlariga izdoshlik qilgan O‘zbekistonning 70-90-yil tojik shoirlari avlodidan farqli o‘laroq, 2000-chi yildan keyingi davrda adabiyot maydonida faollashgan shoirlar Tojikiston novator shoirlari qatorida ko‘pincha hozirgi Eron va jahon modernist shoirlari she’riga tajriba o‘rganish maqsadida yuz tutdilar. Bu guruhni eronlik adabiyotshunos olim Habib Safarzoda “novator shoirlarning yangi to‘lqini” [7, 92] deb nomlagan.

Shu davrada tojik adabiyotshunosligi ham tobora faollashdi va Shavkat Shukurov, Hasan Qudratulloyev, Ahmad Abdulloyev, Sadri Sa’diyev, Hamidjon Homidiy, Jumaqul Hamroyev, Sultonmurod Olim, Abdusalom Samadov kabi iqtidorli adabiyotshunos olimlar tadqiqotlarida yurtmizdagi tojik adabiyoti va shoirlar she’ri xususiyati o‘z ifodasini topdi. Bu tadqiqotlar kopincha ilmiy maqolalarda, shoirlar she’riy majmualari hamda bayoz

kitoblaridagi so‘zboshilarda bayon etildi. Professor Jumaqul Hamroyevning “Asrori she’ri shoir” (“Shoir she’ri sirlari”) kitobi esa taniqli shoir Paymonning hayoti va ijod yo‘li, she’rlari va ijodiy uslubini o‘rganishga bag‘ishlangan [8].

Tadqiqot maqsadi. Ushbu maqolada asosan XX asr ikkinchi o‘n yilligida O‘zbekiston tojik she’riyatida adabiy siymo sifatida tanilib borilayotgan tojik yosh shoirlari, ularning zamon nazmida tutgan mavqii o‘rganilgan.

Tadqiqot metodi. Tadqiqot jarayonida asosan tavsifiy-tahliliy metodlardan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari va muhokama. Yuqorida ta’kidlanganidek, XX asr boshida O‘zbekiston adabiy muhitida ijod etayotgan “yangi to‘lqin” novator shoirlari Ahmad Shomlu, Axavon Solis, Suhrob Sipehriy, Furug‘ Farruxzod, Nodir Nodirpur, Vosif Boxtariy, Latif Pidrom, Salmon Hirotiy va boshqa Eron va Afg‘oniston modernist shoirlari she’riyati bilan tanishib, nimoiy, erkin, oq she’r kabi adabiy tushunchalar bilan toqnash kelishdi. Nimoiy va oq she’r bu davrda hali yetarli darajada tanilmagan edi. Hazrat Sabohiy, Adash Istad, Abdulla Subhon, Ja’far Muhammad, Xoja, Shahzoda Nazarzoda, Dilshod Farhodzod, Pariso, Xusrav Sa’dulloh kabi turli yoshdagi ijodkorlar she’riyatida nimoiy, erkin va oq she’rlar shakllanib bordi va bu shoirlar bugungi kungacha bo‘lgan muddatda muayyan darajada yutuqlarga erishdi.

Surxondaryolik shoirlar she’ridan tarkib topgan “Sarvodai Surxon” bayozida professor Hasan Qudratulloyev aytganidek, bugun O‘bekistonda 220 dan ortiq ijodkor yashaydi. Shunday ekan, bu muhitdagi ijodkorlar asarlarini o‘rganish vaqti yetdi [5, 4]. Biz esa bu kichik tadqiqotda tojik yosh ijodkorlari she’riyatining o‘ziga xos jihatlariga oydinlik kiritmoqchimiz.

XXI asr boshida she’r olamiga kirib kelgan shoirlardan farqli o‘laroq, hozirgi ijodkor yoshlar ancha hushyor bilimli va maqsadli bo‘lib, maqsad sari eltuvchi imkoniyatlari ham ko‘proqdir. Ular she’r nazariyasi, shoirlik mohiyati va mas’uliyatini ertaroq tushungan yoshlardir, boshqacha qilib aytganda, bu yoshlar rivojlangan, kengaygan adabiy va madaniy zaminada ijod olamiga kirib kelishgan. Aruz vazni me’yorlarini yaxshiroq bilishadi, erkin va nimoiy she’r bilan ham muayyan darajada tanish. Hali hammalari she’riy majmualarini o‘quvchilariga taqdim eta olmagan bo‘lishsada, hozirda axborot va ma’rifat yetkazishning faol vositasiga aylangan internet sahifalarida ijod namunalarini e’lon qilib borishadi.

Aytish kerakki, hozirda yurtimizdagi “Ovozi tojik”, “Ovozi Samarqand”, “Xovar” kabi tojik ro‘znomalari, xususan, “Durdonai Sharq” ilmiy-adabiy jurnali ijodkor yoshlarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida alohida sahifalarda o‘smirlar, katta yoshdagi maktab o‘quvchilari ijod namunalarini ham nashr etib kelmoqda. Ammo ularning qaysi biri mustahkam turib, bu yo‘l bilan borishini vaqt ko‘rsatadi. Zero yoshlarimiz orasida 1-2 ta she’riy to‘plam chiqarib, shu bilan jimib ketganlar ham kam emas. Chunonchi, Mehrovar, Sayriddin, Manzura, Manzila, Mustafo, Bahrom, Bobur, Sharif, Manija, Shahlo kabi yoshlar adabiyot gulshanida bir aylanib, yana goyib bo‘lishdi. Bunga hayot pastu balandliklarida iroda kuchsizligi, yo she’riyatdan ixtiyoriy voz kechishlik, yo xud iste’dodni sayqal bera olmaslik va yo muhit nosozliklari sabab bo‘la olishi mumkin.

Bugun Hasan Sulaymoniy, Shahzod Kenjazoda, Siyovush Qodiriy, Alisher Sabriy, Shukrulloh Siroj, Dalershoh Ne’matzoda, Parvina Mahmudova, Shohsanam Muratova, Zikrullo Zubaydullo, Samariddin Orifiy, G‘ayrat Panjizoda kabi umidbaxsh yoshlar ijod olamida kuch sinab kelmoqdalar. Bularning she’riyatida biz hozirgi tojik nazmidagi faol adabiy jarayonlarga intilishlarini kuzatamiz. Bu yoshlar orasida universitet talabalari, matbuot va maorif xodimlari hatto oddiy uy bekalari ham bor. Shunga ko‘ra, turli ijodiy uslub, dunyoqarash va turli ijodiy yo‘nalishga egalar. Vatan, millat, ishq mehri bularni birlashtiradigan va she’rlariga umumiylik bag‘ishlaydigan ulug‘ bir kuchdir.

Istiqlol davri tojik adabiyotida tarjmonlik hamda zullisonayn she’r rivojini muhim adabiy hodisa sifatida e’tirof etish kerak. Agar sho‘rolar davrida shakllangan o‘zbek tarjimonlik maktabi yuzlab fors-tojik adabiyoti vakillarining durdona asarlarini o‘zbek tiliga o‘girishga erishgan bo‘lsa, bugun shu maktabning davomchilari bo‘lmish o‘zbekistonlik tojik shoirlar ham oz’bek adabiyoti vakillari asarlaridan tojik tiliga va aksincha, tojik tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilmoqdalar. Bu hodisa tojik adabiyotining mustaqil Ozbekistondagi yirik namoyandasi Jonibek Quvnoq zamonidan an’ana tusini olib, shu zaminada zullisonayn she’r ham qaytadan jonlandi.

Hozirgi yoshlar orasida aruz vaznida o‘zbek va tojik tilida ijod qiladigan va tarjimonlik bilan mashgu’l *Alisher Sabriy* iste’dodli shoir va tarjimon sifatida adabiyot ahli orasida nom chiqargan. Alisher Samarqand davlat universitetining O‘zbek filologiyasi fakultetida tahsil olgan, o‘zbek va tojik adabiyotini yaxshi biladi. Ko‘plab fors-tojik adabiyoti namoyandalari she’rlarini o‘zbek tiliga o‘girgan. Uning tarjimalaridagi yetuklik aynan fors klassik adabiyotidan bahramandligi, aruz vaznini bilishidadir. Ular orasida Mavlono Jaloliddin Rumiy, Avhadiy, Zebunniso, Lohutiy, Mirzo Tursunzoda she’rlaridan ko‘plab namunalar mavjud. Uning an’anaviy aruziy she’rga moyilligi modern erkin she’rda mashqlari yo‘q degani emas, aksincha, u jozibali erkin she’rlar muallifi hamdir. Masalan, u bir she’rida ma’shuqasiga ichi to‘la mehr bo‘lgan shar, ya’ni pufak sovg‘a qilgani, ammo u nogahon portlaganini shunday tasvirlagan:

Hayratda qoldik biz, hayrona qoldik –
Ikki aqli karaxt, ikkita sodda…
Taqdir solgan ekan sharga bildirmay
Na seni, na meni ogoh qildirmay
Portlovchi modda!
Hasratda qoldik biz, vayrona qoldik… [1, 262]

Ko‘rganimizdek, an’anaviy nazmga ko‘ngil qo‘ygan bu yigit modernistik she’rni ham yaxshi tushunadi: oshiqona mazmunni yangicha talqinda, yangicha zamonaviy tushunchalarda (shar, portlovchi modda) bayon eta olgan. Lekin shu bilan birga hanuz bayonda klassik tamoyil his etiladi (“hayrona qoldik, vayrona qoldik”).

Alisher Sabriyga o‘xshagan yosh ijodkorlar o‘zbek adabiyotida ham aruziy she’riyatning yuksalishiga o‘z hissalarini qo‘shmoqdalar. Taniqli adib va olim Xurshid Davronning internet kutubxonasida yosh shoirlar kitoblarini ta’riflar ekan, ular orasida vodiylik yosh ijodkorlarning aruziy nazm an’analariga sodiqligini ta’kidlagan [12].

Zullisonayn she’r ilgaridan Movarounnahr adabiy markazida faol raviyalardan hisoblahib, bu mintaqada yashab ijod qilgan ko‘pgina shoirlar o‘zbek va tojik tillarida bemalol ijod qilishgan. Ulug‘ shoir Navoiyning fors-tojik tilida Foniy taxallusi bilan yaratilgan devoni fikrimizning yorqin dalilidir. “Tojik va o‘zbek xalqlari o‘rtasidagi adabiy bilingvizm geografik yaqinlik, an’analar va turmush tarsi umumiyligi ta’sirida shakllanib, bu tarixiy jarayonda ikki xalqni bir-biriga yaqinlashtirdi” [6, 641]. Ozbekiston adabiy muhitida bu an’ana hozirda ham mantiqiy va tabiiy tarzda ba’zi yosh shoirlar ijodiyotida davom etayotir.

Biz *Shukrulloh Siroj* ijodiyotida o‘zbekcha she’rlarga ham duch keldik. Shukrullohning “Tovusi xayol” (“Xayol tovusi”) kitobidagi muqaddimada filologiya fanlari doktori, professor Ja’far Muhammad shunday yozadi: “Shukrulloh ikki til – fors-tojik va o‘zbek tillarida she’ru g‘azal yozadi. Kuylaganlarining aksariyati diniy va irfoniy mazmunga to‘la. Har ikki tilni yaxshi tushunadi va har ikkala tilda ham yaxshi she’r aytadi. She’rlari sodda va ravon, eshitishi yoqimli va xos musiqaga ega. Uning she’r mashqlaridagi ayrim sakta va nuqsonlar hali kechirimli [10, 4].”

Shoirning ushbu kitobida faqatgina tojikcha she’rlari keltirilgani bois biz noiloj uning telegramdagi guruhidan ushbu o‘zbekcha g‘azaldan parcha keltirdik:

Mushkmi, anbarmi, yo atri gulafshon sochlaring?
Xush ifori birla sarxush aylar afshon sochlaring.
Gar parishon aylasang, ko‘ngil chu daryo mavj urar,
Mavj urar bo‘lsa, bo‘lar holim parishon sochlaring!...
Yuz g‘azal Shukrixudo bitgay soching har toridin,
Men kabi devona-chun sarmashqi devon sochlaring [15].

Shukrulloh she’riyatida ham klassik yo‘nalish ustunlik qiladi. Uning ijodida ko‘plab g‘azallar, qasida, masnaviylarning borligi fikrimizning isbotidir.

Fors-tojik nazmining ming yillik adabiy an’analari sho‘rolar davri adabiyotida sarqit g‘oyalar va zararli an’analar majmui sifatida adabiyotdan chetlatildi. Natijada, milliy adabiyot katta bo‘shliqda qolib, o‘zligidan, chin reallikdan cheklangan siyosiy adabiyotga aylandi. Fors alifbosining lotinchaga, keyinchalik kirilcha alifboga o‘zgartirilishi, 30 - chi yillarda ma’rifat ahlining qirilishi bu muhitda adabiyot va madaniyat rivojiga katta zarba yetkazdi. Hozirgi paytda Eron va Afg‘oniston adabiyotshunoslarining fors alifbosi negizida yaratiladigan qofiya san’ati, aruz qonunlari rioyasida tojik shoirlari she’rlarida ko‘rsatadigan kamchiliklar negizida ana shunday achchiq haqiqat pinhondir [9, 227; 3, 63].

Lekin hozirgi tojik ijodkor yoshlarning bir yutug‘i - ularning an’anaviy she’rga bo‘lgan ehtiromidir. Siyovush Qodiriy, Dalershoh Ne’matov, Mehrofarin taxallusli Shohsanam Muratova, Samariddin Orifiylarni shu toifadagi shoirlar safiga kiritish mumkin. Ular hijoiy, yoki barmoq she’rlari bilan tarbiya topib, keyinchalik mushkillik bilan aruzni yodlagan yoshlardan farqli tarzda aruziy she’r bilan ijodlarini boshlagan. Bu degani, ijodkor she’riyatga jiddiy boqib, maqsadli munosibat boshlagan. Klassil she’riyat ruhida kamol topgan yosh ijodkor har holda she’rni yaxshiroq anglaydi. Ammo masalaning nozik bir tomoni shuki, hozirgi postmodernistik qarashlar rivojlanayotgan badiiy adabiyotda

an’analarga poyband bo‘lib, oldinga siljimay qolish bugungi zamon shoiri uchun muvofiq emas, ya’ni hozirgi zamon shoiri she’rlarida bugungi kun ruhiyati, hozirgi jam’iyat dardini yangi, muvofiq shakl va qoliblarda bayon eta olishi kerak.

Siyovush Qodiriy she’rlarini asosan internet sahifalarida nashr etib boradi. Ularni mushohida qilganda ko‘rish mumkinki, shoirning o‘z zamondoshlari Abdullo Rahmon, Asadulloh Shukurov, Shohid va boshqa klassik shoirlarga yozgan muxammas va tazminlari ko‘p. Bu holat shoirning boshqa ijodkorlar ta’sirida qolishiga sharoit yaratib, ijodiy o‘zligini anglashiga, mahoratini oshirishiga, yangi qirralarini ochilishiga to‘sqinlik qiladi.

Dalershoh, Mehrofarin, Samariddin she’rlarida tazmin muxammaslar bo‘lmasada, hanuz ijodiy izlanishlar kamroqdir. An’anaviylik bu yoshlar she’riyatida asosiy me’yor hisoblanadi. *Dalershohda* oshiqonalar, orifonaga yetmagan, xudojuylik ohangi yangragan she’rlar mavjud. *Mehrofarinda* andisha va bayon pishiq, uslub klassik, Bedil ash’oridan bahramandligi seziladi. *Samariddin* g‘ayratliroq va harakatchan bo‘lib, tashbih va tavsifu mubolag‘a she’rlarida ko‘proq ishlatiladi. Orifiy taxallusi bilan yozib, so‘z uslubi sodda, ravondir. Ishq, Vatan, tabiat vasfi, hikmat she’rlarining asosiy mazmuni bo‘lib, ularni hozirgacha internet sahifalarida muxlislariga yetkazadi.

Parvina Mahmudova, Surxondaryolik yosh shoira, oliy ta’limgohda tahsil olmagan bo‘lsada, savodli ijodkor. U “Dili tanho” (“Yolg‘iz yurak”) kitobi muallifi. Kitobda g‘azallar, to‘rtliklar, qit’a, dubaytiy va ruboiy, manzumalar keltirilgan. Parvinaning hali shoirlik uslubi to‘liq shakllanmagan bo‘lsada, unda ba’zi bir o‘ziga xosliklar ham bor. Masalan, u ota-ona, vatan, ustozni ulug‘lash barobarida o‘z yorini ham ta’riflaydi. Bu xayoliy ma’shuq emas, balki hozirgi davr she’riyatida ko‘zga tashlanadigan real inson – turmush o‘rtoq, shoir tili bilan aytganda - “shavhar”:

Mehrubon, g‘amxor boshad shavharam,
Xonaro sardor boshad shavharam…
Chun musofir ast dar mulki kason,
Chashmi sar bedor boshad, shavharam…
Zud oyu rahbari in xona shav,
Be tuyam dushvor boshad, shavharam [4, 41].

Shoir yuqoridagi g‘azalda turmush o‘rtog‘ining mehribon va g‘amxorligi, uyning sardori ekanligi, uning rostguyligi va boshqa sifatlarini ta’riflab, ayni paytda xorijda musofirlikda yurgani, uning hajrida betobligi, farzandlarining otasi diydoriga intiqligini bayon etib, tezroq qaytib, o‘z uyiga bosh bo‘lishini so‘raydi. Demak, bu shoir ijodida realistik tamoyil kuchliroqdir. Hozirgi adabiyotda romantik xayollar parvozi naqadar avjiga chiqib, syurrealistik manzaralarni vujudga keltirsa, tasvir realligi ham gohida soddalashadi. Bu hodisa shoirlar didi, dunyoqarashiga bog‘liq holda vujudga keladi. Gohida shoir kamolga yetgan sayin bayon tarsi soddalashaveradi, ammo so‘zi balog‘atga yetgan bo‘ladi, ustoz Ro‘dakiy she’ridek – sodda, ammo aytilishi oson emas – “sahli mumtane”.

Shahzod Kenjazoda ijodkor oilasida tug‘ilgani bois she’r mohiyatini juda erta anglab, aruz vazni me’yorlarini yaxshi o‘rganib, klassik hamda hozirgi jahon adabiyoti vakillari bilan ham tanishib oldi. Shu qiymatli xazina uni erta she’riyat olamiga yetakladi. Anchagina

she’r yozib qolgani bilan hanuz o‘z kitobini nashr ettirgani yo‘q va boshqa yoshlar kabi o‘zining internet sahifasida muxlislariga she’rlarini taqdim etadi. Asosan ishq, ona, vatan vasfida aytilgan g‘azal, nimoiy she’rlari bilan muxlislarini oshno etgan. Ularda hissiyot va lirizm baland. Tarjima ishlarida mahorati bor [14].

Hasan Sulaymoniy, “Nasimi subh” (“Tong shamoli”) kichik majmuasining muallfi, Hofiy taxallusli iste’dodli shoirdir. Ijodini klassik shoirlarga izdoshlik bilan boshlab, ayni paytda modernistik tamoyillarga ham tavajjuhi bor, bu tamoyil unda tabiiy tarzda kechadi. Oq she’r mashqlari hanuz maromiga yetmagan, ammo to‘rtlik she’rlarini yaxshi aytgan. She’rga ijodkorona yondoshadi – til va tasvir bobida gohida yangi topilmalarni ishga solib, erkin ijodga maylini ifoda etadi. Gohida ikki sohil orasida turadi, yangilik yaratishga moyil bo‘la turib, klassik uslubga ham mahliyo bo‘ladi. Grammatik qoidalarni she’rda so‘zi maromini buzilishiga yo‘l qoymasdan ularni o‘zi buzadi, yoki o‘ziga erk berib, xalqona so‘zlarni joyida ishlatadi. Yangicha raqamli radif (“Chorsadu yak, chil, chilu yak”-“401-40-41”), yoki raqamli so‘z-radif (“Соат 10:00 шуд”) ham she’rlarida uchrab, uning xushzavq shoir ekanligiga ishora qiladi. Chunonchi quyidagi 10 baytlik g‘azaldan olingan parchada:

Дер кард нигори мо, соат даҳи нол-нол шуд,
Нуҳ буд қарори мо, соат даҳи нол-нол шуд.
Ёре, ки намуд ваъда дар соати нуҳ дидор,
Н-омад ба канори мо, соат даҳи нол-нол шуд...
Ё соати ӯ саҳв аст, вақтро ба ғалат ронад,
Зеро ба шумори мо соат даҳи нол-нол шуд.
Бар Ҳофӣ бикун раҳме, ёраш ба канораш ор,
Парвардигори мо, соат даҳи нол-нол шуд [13].
Mazmuni:
Kechikdi nigorimiz, soat o‘n nol-nol bo‘ldi.
To‘qqiz edi qarorimiz, soat o‘n nol-nol bo‘ldi.
To‘qqizda diydorini va’da qilgan nigorimiz
Bag‘rimizga kelmadi, soat o‘n nol-nol bo‘ldi.
Yo uning soati buzuq, vaqtni noto‘gri ko‘rsatar,
Chunki bizning hisob bilan soat o‘n nol-nol bo‘ldi.
Hofiyga rahm ayla, yorini bag‘riga yetkaz,
Bizning Parvardigorimiz, soat o‘n nol-nol bo‘ldi.

Yengil, badiiy vositalardan xoli bu she’rda til sodaligi, radif yangili, shoir topqirligi xonandaga zavq bag‘ishlaydi.

*Zikrullo Zubaydullo*ning “Daftari dil” (“Yurak daftari”) ilk kitobidagi muqaddimada professor, filologiya fanlari doktori Sadri Sa’diyev jumladan shunday yozgan: “She’rlaridan ma’lum bo‘ladiki, ularda shoir qaysi mavzu va voqeylik hodisasiga murojaat qilgan bo‘lmasin, shoirona ko‘z bilan boqadi va musavvirona did bilan tasvirga olib, yangi shoirona so‘z aytadi. Shu bilan birga uning she’rlarida zamonamizning naqshi ko‘rinib turadi, davr muammolari his etiladi. Yosh shoir she’r tilini yaxshi o‘rganibti…” [2, 4]

Donishmand adabiyotshunosning bu ta’riflariga sazovor bo‘lgan ekan, demak, Zikrullo haqiqatda iste’dodli shoir bo‘lib, oz muddat ichida shoirlik mahoratini tojik adabiy muhitida ko‘rsata oldi. Uning o‘zbekcha mashqlari ham bor. She’rlarida ishq mavzusi ustun turadi. Bundan tashqari ijtimoiy, axloqiy, milliy masalalarda ham ijod qiladi. Darvoqe’ shu joyda o‘zbek yosh ijodkorlari she’rlarida milliy mavzu bayonidagi jo‘shqinlik, ijodiy izlanuvchanlik haqidagi bir maqoladan iqtibos keltirishni joiz deb bildik, chunki ularda haqiqatdan ham yoshlarga xos uyg‘oq ehtiros, jo‘shqinlik va ichki izlanuvchanlik ko‘rindi: “XXI asr o'zbek yoshlari ijodida millat mavzusi boshqacha yangrayapti. Endi hurlikka erishganiga shukrona bilan she'rlar bitishni bu avlod o'ziga ep ko'rmaydi. Bugun o'zbek yosh ziyolilarini mustaqillik qoniqtirmaydi. Ular dunyo bilan bo'ylashishni, millatning shonli o'tmishi bugun qaytadan bo'y ko'rsatishini istaydi. Aytish mumkinki, yoshlar she'riyatida bugungi o'zbek farzandlarining ayni shu jasorati ko'zga tashlanadi.

Hayronman, erkini qanday taniydi, /Yig'i dovushiga o'rgangan millat, - deb yozadi Najmiddin Ermatov bir she'rida. U millatni oh-voh tortib, ahvolidan nolib yashashini istamaydi [16].”

Ijodkorona jo‘shqinlik Zikrullo she’riga ham xosdir, xoh u oshiqona she’r bo‘lsin, xoh ijtimoiy. Bizningcha, tojik nazmi 60-yillar yirik namoyandasi, g‘azalguy shoir Loyiq Sherali maktabiga uning tavajjuhi balandroqdir. Zikrulloning mazkur she’riy to‘plamida ham g‘azal soni ko‘proq bo‘lib, undagi bir namunaning o‘zi Loyiqning “Do‘ston, to umr boshad, har bahor oshiq shaved” (“Do‘stlar, umr bor ekan, har bahor oshiq bo‘ling”) g‘azali yo‘lida yozilgan [2, 57]. Albatta Zikrullo she’rda ijtimoiylik va axloqqa ko‘p urg‘u berib, g‘azaldagi nafis lirizmni qo‘ldan boy bergan. Yosh shoir nimoiy, erkin she’rlarda ham kuch sinab, bu yangi qoliblarda ham yaxshi she’r ayta olishini isbotladi. Tojik adabiyoti kelajakda undan umidi katta.

Bu yosh shoirlar she’rlarining Tojikistonda nashrdan chiqqan “Suxanvaroni Zarafshon” (“Zarafshon so‘z ahli”) va “Safinai suxan” (“She’r daftari”) bayozlaridan o‘rin olishi ularning she’rlari xorijlik adabiyot ahli tomonidan e’tirof etilganidan ham darak beradi.

Xulosa. Biz yuqorida nomlarini tilga olgan shoirlar O‘zbekistonda yashab ijod etayotgan iste’dodli yoshlar bo‘lib, kelajakda ana shu adabiy va madaniy muhit nomini ulug‘lashga, sha’nini himoya qilishga qodir insonlar bo‘lib yetishlariga umid bor. Zero ular ijodida asl adabiyotga ehtirom va izdoshlik, ba’zilarida esa zamon adabiyoti bilan hamnafas bo‘lishga intilish hissi mavjud. Ular ayni paytda o‘rganish va tajriba hosil qilish marhalasini boshdan kechirmoqdalar.

Tojik va o‘zbek adabiyotining ezgu an’analari hisoblanmish zullisonayn she’r va tarjimonlik ishi davomi kelajakda ularning qo‘lida. Shunday ekan bu yoshlar katta hayot sinovlari va ijodiy tajriba maktabini muvaffaqiyatli o‘tashi kerak.

Yosh avlod she’ri har bir millat nazmining umidli bir shu’basi hisoblanar ekan, ularni qo‘llab quvvatlash, ularga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatish, ijodiga e’tibor berish adabiy to‘garaklar, muayyan adabiy muhitdagi ijodiy jamoalar vazifasidir.

Tazmin muxammaslar yozib, biror shoirga izdoshlik qilish kuch sinash, tajriba oqrttirish ma’nosini anglatadi. Uzoq o‘tmishda shu an’analarning davomiyligi ko‘pgina shoirlarga mustaqil o‘sish imkoniyatini bermagan. Hozirgi bizning individuallikka intiluvchan jam’iyatda ham bu adabiy hodisaga hamisha ham musbiy baho berilmaydi.

Yosh ijodkorlar klassik adabiyotning badiiy-estetik va axloqiy-tarbiyaviy ahamiyatini tushunishi bilan birga, she’riyatni chin reallikning xayoliy va estetik ko‘rinishi ekanligi va uni hozirgi zamon ruhiyatini singdirilgan holda ko‘rsatish kerakligini anglashi kerak.

Iqtiboslar/Сноски/Reference

1. Гулободнома (ҳикоялар, шеърлар; ӯзбек ва тожик тилларида). Жамоа. Самарқанд: Turon Nashr, 2021. 272 саҳ.

2. Зикруллои Зубайдулло. Дафтари дил. Самарқанд: Маҳорат, 2023. 93 саҳ.

3. Муҳаммадӣ Ҳ. Қофия дар шеъри муосири форсӣ (Дар мисоли намунаҳои шеърии форсӣ, тоҷикӣ ва афғонӣ) // “Рушд.Омӯзиши забон ва адабиёти форсӣ”. Теҳрон, зимистони 1383, 72, саҳ. 60

4. Парвина Маҳмудова. Дили танҳо. Тошканд: Turon Iqbol, 2020, 84 саҳ.

5. Сарводаи Сурхон. (Баёзи шеърҳо), Тошканд: Тамаддун, 2011. 224 саҳ.

6. Хазраткулиён Д. Развитие традиции «зуллисонайн» в таджикской поэзии современного Узбекистана. // “Неофилология”, Тамбов. 2024. Том 10. №3

7. حبیب صفرزاده. فارسی سرایان ازبکستان. انتشارات بین المللی الهدی. تابستان، 1388

8. Ҳамроев Ҷ. Асрори шеъри шоир. Т.: Paradigma, 2017. -120

9. Шеърдӯст А. Чашмандози шеъри имрӯзи тоҷик. Д.: Адиб,1997, 227 саҳ.

10. Шукруллоҳ Сироҷ. Товуси хаёл. Тошканд: Yosh Avlod Matbaa, 2023. 72 саҳ.

11. https://t.me/Daftari_del

12. https://kh-davron.uz/dir/kutubxona/uzbek/yoshlar

13. https://t.me/hasansulaymoni

14. https://t.me/shahzadkenjazade

15. https://t.me/shakarguftor_uz

16. https://yoshlarovozi.uz/oz/news/ozbek-yoshlar-sheriyatida-turon-mavzusining-aks-etishi

Davronova Zarnigor Jabbor qizi
Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti
universiteti 1-kurs tayanch-doktarant

Badiiy matnda qo‘llangan antroponimlarning keyingi davrda yaratilgan badiiy asarlar matniga munosabati

Annotatsiya: Ushbu maqola, badiiy matndagi antroponimlarning keyingi davrda yaratilgan badiiy asarlardagi ko‘rinishlari oid qarashlar tahlil etilgan, badiiy adabiyotlarda eng ko‘p uchraydigan antroponimlar insonning aqliy faoliyati va ongi bilan bog‘liq bo‘lganligi, ularning konseptualizatsiyasi insoniyatning uzoq va yaqin o‘tmishdagi tajribasiga borib taqalishi o‘rganilgan. O‘zbek tillidagi matnlar aro antroponimlar qiyoslanganda, turli davrlarda yaratilgan asarlardagi nomlar davrlar o‘tishi bilan o‘z qiymatini yoqotmasdan matlar aro bir tizmani tashkil qilishi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: matnlararo antoponim, intertekstuallik, konseptuallik, poetonim, davr, madaniyat, kongnitiv ong, badiiy niyat, taxallus, laqab.

Давронова Зарнигора дочь Джаббора.
Назван в честь Алишера Навои.
Ташкентский государственный
узбекский язык и литература
Студент 1 курса основного докторантуры университета

ОТНОШЕНИЕ АНТРОПОНИМОВ, ИСПОЛЬЗУЕМЫХ В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ТЕКСТЕ, К ТЕКСТУ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЙ, СОЗДАННЫХ В БОЛЕЕ ПОЗДНИЙ ПЕРИОД.

Аннотация: В данной статье анализируются взгляды на появление антропонимов в художественных текстах в произведениях искусства, созданных в более поздний период, то, что наиболее распространенные в художественной литературе антропонимы связаны с мыслительной деятельностью и сознанием человека, их концептуализация связана с опытом. человечества в далеком и недавнем прошлом, изучено его происхождение. При сравнении антропонимов текстов на узбекском языке выявлено, что названия произведений, созданных в разные периоды, образуют ряд между текстами, не теряя с течением времени своего значения.

Ключевые слова: интертекстуальная антопонимия, интертекстуальность, концептуальность, поэтонимия, эпоха, культура, познавательное сознание, художественный замысел, псевдоним, прозвище.

Davronova Zarnigor Jabbor kizi

Tashkent State University of Uzbek Language
and Literature named after Alisher Navoi,
1st year doctoral student

THE RELATIONSHIP OF ANTHROPONYMS USED IN LITERARY TEXTS TO THE TEXT OF WORKS OF ART CREATED IN LATER PERIODS

Abstract. This article analyzes views on the appearance of anthroponyms in artistic texts in works of art created in the later period, the fact that the most common anthroponyms in fiction are related to the mental activity and consciousness of a person, their conceptualization is related to the experience of mankind in the distant and recent past. its origins have been studied. When comparing the anthroponyms of the Uzbek language texts, it was revealed that the names of the works created in different periods form a series between the texts without losing their value over time.

Key words: intertextual antoponymy, intertextuality, conceptuality, poetonymy, period, culture, cognitive consciousness, artistic intention, pseudonym, nickname.

KIRISH

O‘zbek tilining lug‘at tarkibida asosiy o‘rin tutuvchi atoqli otlar haqida ma’lumotlarni to‘plash va tadqiq qilishga alohida e’tibor berib kelinmoqda. O‘zbek onomastikasi hozirda ancha rivoj topgan soha bo‘lib o‘zbek antroponimikasini monografik tarzda o‘rganish bo‘yicha qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. O‘zbek antroponimlarining tadqiqiga doir ilmiy ishlar E.Begmatov, G‘.Sattorov, S.Rahimov, va boshqalar tomonidan amalga oshirilgan.

Badiiy asarda qo‘llaniladigan ismlarni ifodalash uchun “poetonim” terminidan foydalaniladi. Bu termindan ilk bor 1956-yilda V.M.Mixaylov tomonidan qo‘llangan. Keyinchalik S.I.Zinin ushbu terminga alohida diqqat qaratgan va bir qator tadqiqotlar olib borgan. Mazkur tadqiqotlar ayni soha terminologiyasini tartibga solgani, «poetonim» sifatida har qanday onomastik birlik emas, balki badiiy yuki, poetik qimmati bor nomlargina tushunilgani bilan ham muhim.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Antroponimlar asar estetik mohiyatining tez va qulay anglanishiga yordam beruvchi lisoniy vosita, yozuvchi va kitobxon orasidagi o‘ziga xos ko‘prik hisoblanadi. Mahoratli yozuvchilar bu vositadan unumli foydalanadilar. Bunday birliklar lingvopoetik jihatdan muayyan vazifalarni bajarishga moslangan bo‘ladi. Shuningdek, antropoetonimlar semantik va estetik jihatdan alohida xususiyatlarga ega bo‘ladi. Yozuvchilar qahramon ismiga uning hatti-harakati, fe’l-atvori bilan bog’liq axborotlarlarni joylash barobarida o‘zining dunyoga boqish tarzini ham yuklagan bo‘ladi[5. B. 13].

Antroponimlarning matnlararo ko‘chib yurishi bu kongnitiv jarayon bo‘lib bunda insonlar kongnitiv ongida bilimlarning mavjudligidan dalolat beradi yoki aksincha. Masalan, biz o‘limidan oldin yashab o‘tgan biror bir shaxsning yaxshi xislatlarga egaligi

uchun uning ismini farzandlarimizga qo‘yishimiz mumkin. Buni badiiy asarlar misolida ham ko‘rsak bo‘ladi.

Matnni tushunishda yozuvchi yoki shoirning maqsadini aniq ochib berishda matnlararo antroponimning semantikasi haqida ma’lumotlarga ega bo‘lishimiz kerak. Matnlararo presuppozitsiyalarni aniqlash, ya'ni matn yoki antroponimning orqasida butun bir matnlar to‘plami turishi mumkin. Antroponimik birliklar muayyan bir xalq uchun yaxshi tanish, uning lisoniy zaxirasidan allaqachon o‘rin olgan tayyor matn parchalaridir. Ular yaratilayotgan yangi matnga kiritilsa, intertekstuallik yuzaga keladi. Har qanday matnni tushunishda asarda berilgan matnlararo antroponimlar orqasida qandaydir kongnitiv bilimlar borligi haqida o‘ylab ko‘rib keyin xulosa qilishimiz kerak. Bu o‘quvchiga ma’lumotlarni to‘g‘ri tahlil qilishga yordam beradi.

MATERIAL VA METODLAR

XX asr boshlarida yaratilgan Abdulla Qodiriyning “O‘tgan kunlar” romanidagi antroponimlar ko‘plab kitobxonlarning ko‘nglidan joy olganligi sababli zamonaviy o‘zbek sheriyati uchun alyuziv nom sifatida joy ola bildi. Shu sababli biz maqolamizga “O‘tgan kunlar” va zamonaviy o‘zbek sheriyatini obyekt sifatida tanlandi va undagi antroponimik birliklar tahlilga tortildi. Tanlangan materiallar maydon nazariyasi metodi asosida tasniflandi, muammoni o‘rganishda lingvokongnitiv tahlil usullaridan foydalanildi.

NATIJALAR VA ULARNING TAHLILI

Onomastik birliklarning matndagi asosiy vazifasi sifatida ularning allyuziv nom sifatida qo‘llanib, matnlarda katta hajmli axborotni ixcham shaklda ifodalash imkoniyatini yuzaga keltirishini aytish mumkin. Ma'lumki, tarixiy voqealar, mashhur asarlar, diniy, mifologik rivoyatlar va shu kabi keng ommaga ma'lum bo‘lgan faktlarga ishora qilish, ulardagi nomlar va turg‘un tushunchalarni badiiy matnga olib kirish usuli – allyuziya badiiy matnda keng tarqalgan. Bunda, ayniqsa, antroponimlar intertekstual matn unsuri vazifasida ko‘p qo‘llanib, allyuziv nom sifatida lingvopoetik qimmatga ega bo‘ladi. [3. B. 12].

Otabek va Kumush allyuziv nomlari quyidagi misolda lirik qahramonning oshiqlik holatini bo‘rttirib ifodalashga erishilgan:

*Marg‘ilonda **Kumushn**i ko‘rdim,*
Ko‘ziga yosh olib turibdi.
Sochlarini maydalab o‘rib,
***Otabek**ni kutib yuribdi.* [6. B. 325].

Quyidagi misralarda Abdulla Qodiriyni tengi yo‘q yozuvchi, jamiyatni orqasidan yetaklovchi shaxs ekanligini bilsalarda o‘limga hukm qilish holatlari ifodalangan.

***Otabek Kumushin** ko‘zlarin yopib,*
O‘zi ham ortidan qilgach safarlar,
***Qodiriy boboning** qo‘llarin o‘pib,*
Chohga itargan ham — laganbardorlar. [6. B. 41].

Abdulla Oripov bir she’rida otdoshlari buyuk insonlar ekanligi ularga oson bo‘lmaganligi haqida aytib o‘tgan.

Ulug‘ otdoshlarim maqomi yuksak,

Men shogird erurman garchand alarga.
Har nechuk, bir gapni aytmog‘im kerak:
Oson bo‘lmagan hech ***Abdullalarga*** [7. B. 98].

H.Xudoyberdiyevaning *,,Kumushning o‘limiga”* nomli she‘rida onomastik metaforada antroponim ishora qilgan ma‘noning ko‘lami kengroq bo‘ladi. Quyidagi misralarda Kumush antroponimi chiroyli, oqila, dono, iboli, hayoli qizlar uchun timsol sifatida qo‘llangan Kumush antroponimi onomastik metaforani namoyon qilgan. Kumushning go‘zal ekanligi ismining izohida ham o‘z aksini topadi.

Kumush, Kumush [o‘z.] - kumushdek qadrli, qimmatbaho qiz yoki oq yuzli, oqbadan qiz. Shakli: Kumushoy, Kumushxon[1. B. 188].

Asarda Kumushning tarifi keltirilgan misralarda qarasak Kumushning oq yan’ni kumushga o‘xshatilganligi o‘zbek qizlariga xos xislatlari o‘z aksini topgan.

Abdulla Qodiriyningning “O‘tgan kunlar” romanida ham Kumush ismini tanlayotganda bu ismni ma’nosi va o‘zbekcha ism tanlanganligi ham Qodiriyning o‘zbek tilining sofligi uchun qo‘shgan hissasidir.

Bizga ma‘lumki, o‘tmish ajdodlarimizning ko‘pchiligi arab va fors tillaridan taxallus, ismlar tanlashgan. Til sofligi uchun kurashgan “Chig‘atoy gurungi” a‘zolari esa bu an‘anadan voz kechib, sof turkiy so‘zlardan taxallus tanlay boshladilar. Masalan, yuksak bilim va iqtidorga ega Fitrat guruh a‘zolariga Botu, O‘ktam, Elxon, Elchi, Chig‘atoy, O‘g‘uz, O‘qtoy, Eltuzar Jig‘oy Yildirim kabi jasurlik, qahramonlik bobida dong taratgan ajdodlarimiz nomlari asosida taxallus tanlab bergan [2. B 14].

Siz bugungi ***Kumushlar****, ayol zotin sarasi,*
Sochingizni to abad ishq qo‘llari tarasin,
Otabeklar *topsa ham qovushmoqlik chorasin,*
Oson emas ekanku abad asramoq suymoq,
*Oson ekan-ku axir Sizni boy berib qo‘ymoq (*H.Xudoyberdiyevaning *,,Kumushning o‘limiga)*

Bunday holatda Kumush ismning orqasida Abdulla Qodiriyningning "O‘tgan kunlar" matni mavjud undagi Kumushning vafodorligi, go‘zallik mezonlari Kumush bilan bog‘liq holda kengayadi va bugungi kun qizlarining ham aynan, Kumushga o‘xshash go‘zallikka, odobga, iboga egaligi, ammo Kumush qismatidan hushyor bo‘lishlari ta’kidlab o‘tilgan.

XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, ntroponimlar badiiy matnni lingvopoetik jihatdan aniqlashtirib, unga o‘zgacha ruh berib, matn yaratuvchi yoki asar personajining sub’ektiv holatini ifodalashga, shuningdek, turli xil badiiy san’atlarni hosil qilishga, obraz xarakteriga xos ayrim jihatlariga ishora qilish, asarga kulguli holatlarni yuzaga chiqarishga xizmat qiladi. Antroponimlar xalq tafakkuri mahsuli bo‘lib, ularda nafaqat xalqning tili, urf-odatlari, qadriyatlari, balki hayot va olam borasidagi qarashlari ham jo bo‘ladi. O‘zbek tilidagi antroponimlarga e’tibor qaratsak o‘zbek xalqiga xos fazilatlar ufurib antroponimlarda namoyon bo‘ladi. Antroponimlarni izchillik asosda kognitiv tahlil qilish

shu xalq vakillarining ma’lum bir davrdagi olam va borliq haqidagi tasavvurlarini aniqlash imkonini beradi.

Iqtiboslar/Сноски/Reference

1. Бегматов Э. Ўзбек исмлари изоҳи.Ўзбекистон миллий энсклопедияси. – Тошкент, 2016 – 608 Б
2. BobomurodovaSh.E. Elbekning tilshunoslik merosi. – Toshkent, 2020.
3. Анданиёзова Д. Бадиий матнда ономастик бирликлар лингвопоетикаси фил,фан.ном.дисс автореф. – Тошкент, 2017 48 Б
4. H.Xudoyberdiyeva Tanlangan asarlar – Toshkent: Sharq. 2020.560 B
5. Qodiriy A. O‘tgan kunlar. – Toshkent: Navro‘z. 2019. 400B
6. Муҳаммад Юсуф Сайланма . – Тошкент: Шарқ. 2007. 286 Б
7. Абдулла Орипов Танланган асарлар 2-жилд. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. 2001 - 496 Б

Sapayeva Zuhra Raximberganovna
o‘qituvchi – stajor Urganch State Pedagogical Institute
E-mail: sapayevazuhrahon@gmail.com

A comparative study of english and uzbek literatures through historical, cultural, and global lenses

Abstract: This article provides a comparative analysis of English and Uzbek literatures, exploring their historical, cultural, and literary characteristics. English literature spans a wide range from ancient epic works to modernism and postmodernism, while Uzbek literature has evolved from the works of Alisher Navoi to contemporary pieces reflecting themes of independence. The study also examines the impact of globalization, translation, and literary exchanges, as well as the mutual influence of the two literatures and their shared themes. The paper aims to guide future research for a deeper understanding and study of these literary traditions.

Key Words: English Literature, uzbek literature, comparative literature, translation studies, globalization, identity, narrative style, cultural ceritage, modernism, mostcolonialism, Alisher Navoi, literary traditions

Sapayeva Zuhra Raximberganovna
o‘qituvchi – stajor Urganch davlat pedagogika instituti
E-mail: sapayevazuhrahon@gmail.com

"INGLIZ VA O'ZBEK ADABIYOTLARINI TARIXIY, MADANIY VA XALQARO NUQTAYI NAZARDAN SRAVNITELIK O'RGANISH"

Annotatsiya: Ushbu maqola ingliz va o‘zbek adabiyotlarini taqqoslaydi, ularning tarixiy,madaniy va badiiy rivojlanishidagi asosiy xususiyatlarni o‘rganadi. Ingliz adabiyoti qadimgi epik asarlardan, modernizm va postmodernizmga qadar keng qamrovli, o‘zbek adabiyoti esa Alisher Navoiydan zamonaviy mustaqillik mavzularigacha rivojlangan. Tadqiqotda globalizatsiya, tarjima va adabiy aloqalar ta’siri hamda ikki adabiyotning o‘zaro ta’siri va umumiy mavzulari tahlil qilinadi. Bu ish, adabiyotlarni yanada chuqurroq tushunish va o‘rganish uchun kelajakdagi tadqiqotlar yo‘nalishlarini belgilaydi.

Kalit so‘zlar: ingliz adabiyoti, o'zbek adabiyoti, taqqoslash adabiyoti, tarjima tadqiqotlari, globalizatsiya, identitet, badiiy uslub, madaniy meros, modernizm, postkolonializm, Alisher Navoi, adabiy an'analar.

Сапаева Зухра Рахимбергановна
преподаватель - стажер Ургенчского государственного педагогического института
E-mail: sapayevazuhrahon@gmail.com

“СРАВНИТЕЛЬНОЕ ИЗУЧЕНИЕ АНГЛИЙСКОЙ И УЗБЕКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ ЧЕРЕЗ ИСТОРИЧЕСКИЕ, КУЛЬТУРНЫЕ И ГЛОБАЛЬНЫЕ ПРИЗМЫ”

Аннотация: Эта статья проводит сравнительный анализ английской и узбекской литературы, изучая их исторические, культурные и литературные особенности. Английская литература охватывает широкий спектр от древних эпических произведений до модернизма и постмодернизма, в то время как узбекская литература развивается от творчества Алишера Навои до современных произведений, отражающих темы независимости. В исследовании также рассматриваются влияние глобализации, перевода и литературных обменов, а также взаимное влияние двух литератур и общие темы. Работа нацелена на развитие будущих исследований для более глубокого понимания и изучения этих литератур.

Ключевые слова: английская литература, узбекская литература, сравнительное литературоведение, исследования перевода, глобализация, идентичность, стиль повествования, культурное наследие, модернизм, постколониализм, Алишер Навои, литературные традиции.

English literature, with its long-standing tradition stretching from Old English epics like *Beowulf* to modernist innovations and postmodern narratives, represents a spectrum of human expression influenced by historical and cultural shifts. Similarly, Uzbek literature reflects the intricate heritage of Central Asia, rooted in the oral storytelling tradition, classical works like Alisher Navoi’s *Khamsa*, and contemporary narratives adapting to modern realities. This paper examines the significant characteristics of both literatures, focusing on thematic trends, narrative styles, and the evolution of literary genres, with an emphasis on their socio-cultural impacts. Furthermore, the study investigates the interplay of globalization, translation studies, and modern literary discourse, contributing to the academic field of comparative literature.

The academic study of these literatures not only bridges linguistic and cultural divides but also offers fresh insights into universal themes and the localization of global literary forms. English literature medieval period dominated by religious and epic themes (*The Canterbury Tales*). Renaissance: Flourishing of drama and poetry with figures like Shakespeare and Marlowe. Romanticism: Focus on nature and individualism (Wordsworth, Byron). Modern Era: Reflection on war, industrialization, and existentialism (Woolf, Orwell). [1]

Uzbek Literature: Classical Period: Highly influenced by Persian literary traditions, marked by works of Alisher Navoi. Soviet Era: Socialist realism became dominant, intertwining political ideology with artistic expression. Post-Independence: Revival of national identity and exploration of contemporary social issues.

Themes and Motifs Identity and Individualism: English literature frequently emphasizes personal struggles and societal roles, while Uzbek literature often reflects communal identity and ethical values. Love and Spirituality: Both literatures explore love, albeit with different emphases—spiritual and philosophical dimensions are more pronounced in Uzbek poetry. Colonialism and Power Dynamics: English literature interrogates imperialism (e.g., postcolonial works by Conrad and Rushdie), while Uzbek literature reflects resistance and resilience against foreign domination. Literary Forms and Innovations Epic Poetry: Both literatures boast rich traditions, from *Paradise Lost* in English to *Khamsa* in Uzbek.Prose: English literature revolutionized the novel form (e.g., Austen, Dickens), while Uzbek prose grew significantly in the Soviet and post-Soviet periods.Modernism and Postmodernism: English literature's experimentalism (e.g., Joyce's *Ulysses*) contrasts with Uzbek literature's cautious embrace of modernist techniques due to historical constraints.[2]

Globalization and Translation Globalization has fostered cross-cultural literary exchanges, allowing Uzbek literature to reach international audiences through translations and comparative studies. Similarly, English literature's global reach has influenced Uzbek writers, inspiring hybrid narratives that blend traditional forms with contemporary styles. The comparative study of English and Uzbek literature reveals the rich diversity of human expression across cultures while highlighting universal themes. Future research should focus on the role of translation, digital platforms, and interdisciplinary approaches to further enhance the understanding of these literary traditions[3]

1. Geoffrey Chaucer – *The Canterbury Tales Abstract*: This medieval English text provides a rich tapestry of social commentary and narrative variety through a collection of tales told by pilgrims. It highlights the diversity of genres, themes, and characterizations in early English literature, making it a vital comparative tool for studying narrative traditions across cultures.
2. John Milton – *Paradise Lost Abstract*: An epic poem exploring the fall of man, it combines theological themes with profound poetic innovation. Its emphasis on morality and divine justice parallels themes found in classical Uzbek literature like *Khamsa*.
3. Alisher Navoi – *Khamsa Abstract*: A masterpiece of Uzbek classical literature, this poetic quintet delves into themes of love, spirituality, and governance. It represents the peak of Chagatai literature and serves as a cultural counterpart to English epics.
4. Virginia Woolf – *To the Lighthouse Abstract*: A modernist novel that captures the intricacies of human consciousness through stream-of-consciousness techniques. Its innovative narrative style offers insights into the evolution of modern English literature.
5. James Joyce – *Ulysses* A cornerstone of modernist literature, this work reimagines Homer's *Odyssey* within a single day in Dublin. Its experimental narrative parallels contemporary innovations in Uzbek prose.
6. Abdulla Qahhor – *Sarob* A significant novel from the Soviet period of Uzbek literature, *Sarob* explores the complexities of rural life and socialist transformation, offering a lens to compare how ideology influences literary narratives.

7. Salman Rushdie – *Midnight's Children* A postcolonial narrative examining the legacy of British colonialism in India. Its themes and structure provide a comparative perspective on how colonial histories influence English and Central Asian literatures.

8. Erkin Karimov – *O'zbek adabiyoti tarixi Abstract*: This historical overview of Uzbek literature explores its evolution, from oral traditions to contemporary works, providing essential context for comparative studies.

9. Edward W. Said – *Orientalism Abstract*: A foundational text in postcolonial studies that critiques Western depictions of the East. It provides theoretical insights for analyzing the representation of Central Asian cultures in English literature and vice versa.

10. Susan Bassnett – *Translation Studies Abstract*: This foundational work explores the dynamics of translation, emphasizing its role in cross-cultural exchanges and comparative literature. It is crucial for understanding how English and Uzbek literary works are mediated and analyzed globally.[4]

Cross-Cultural Parallels and Distinctions the comparative study of English and Uzbek literature reveals both shared universal themes—such as love, spirituality, and identity—and distinct approaches shaped by cultural and historical contexts. While English literature often emphasizes individualism and innovation, Uzbek literature reflects a strong connection to collective identity and moral tradition.

The Influence of Historical Context the historical backdrop plays a pivotal role in shaping the literary traditions of both cultures. English literature evolved through periods like the Renaissance and Romanticism, emphasizing humanism and personal expression. Uzbek literature, influenced by Central Asian, Persian, and Soviet ideologies, has maintained its poetic essence while adapting to modern themes. **Genre and Form Adaptations** both literatures have seen transformations in their narrative forms, such as the evolution from epics to prose and modernist styles. However, the degree of experimentation differs due to differing societal constraints and global influences.

Globalization and Literary Exchange the impact of globalization and translation has facilitated the cross-cultural appreciation of both literatures. English literary works have influenced Uzbek writers to adopt hybrid styles, while Uzbek literature, though less globally recognized, has gained prominence through translation and scholarly attention. **Role of Translation Studies** translation emerges as a crucial tool for bridging these literary traditions. It enables mutual understanding and highlights the importance of preserving cultural nuances while presenting literature to a broader audience. **Future Directions in Comparative** studies between English and Uzbek literatures should expand to include interdisciplinary approaches, integrating sociology, history, and digital humanities to deepen the understanding of how these literatures inform and transform each other in a globalized world. This paper provides a deep comparative analysis of English and Uzbek literature, focusing on their unique historical, cultural, and socio-political contexts while recognizing their shared human themes. Here's an expansion of the key elements and insights from your work English Literature has evolved through distinct literary periods, each marked by significant societal changes. From the medieval period (dominated by religious and epic

themes, as seen in *The Canterbury Tales*), to the Renaissance (characterized by the flourishing of drama and poetry with figures like Shakespeare and Marlowe), and Romanticism (focused on nature and individualism, exemplified by Wordsworth and Byron), English literature shifted in response to events such as the Reformation, industrialization, and war.[5]

The Modernist era, with writers like Virginia Woolf and James Joyce, brought experimental narratives that reflect the disillusionment of war, existential struggles, and the fragmentation of identity. Uzbek Literature, deeply rooted in the Persian literary tradition, flourished in the Classical Period, particularly through the work of Alisher Navoi. His *Khamsa* (Quintet) is an essential cultural artifact, exploring themes of love, spirituality, and governance. The Soviet Era marked a significant shift, with literature serving as a tool for the propagation of socialist realism. However, the post-independence period saw the revival of national identity and a move towards contemporary themes. Writers began to focus on social change, individual struggles, and the complexities of modernity within Uzbekistan. English literature often explores personal identity, the tension between self and society, and individual experiences. Authors like Woolf and Orwell examine the alienation and internal conflict that arises within modern societies. In contrast, Uzbek literature reflects a strong emphasis on communal identity, ethics, and the collective rather than individual experience. This can be seen in works like *Khamsa* and in the socialist realism of the Soviet period. Both traditions explore love, though their approaches differ. In English literature, love is often explored in relation to personal freedom, moral dilemmas, or social constraints (as seen in works by Austen, Brontë, and others). In Uzbek literature, particularly in classical poetry, love is more often explored through its spiritual, philosophical, and even mystical dimensions. Navoi's works, for instance, often link love with divine connection. English literature interrogates imperialism, focusing on the impacts of British colonialism through works by authors like Conrad and Rushdie. Uzbek literature, on the other hand, deals with themes of resistance to foreign domination, from Persian influence in earlier centuries to Soviet control in the 20th century. The literature of post-independence Uzbekistan often wrestles with the legacy of these forces on national identity. Both English and Uzbek literature boast rich traditions of epic poetry. Milton's *Paradise Lost* and Navoi's *Khamsa* represent the pinnacle of their respective traditions, each delving into profound theological and moral issues within expansive narrative frameworks. The English novel, from Austen and Dickens to Joyce, revolutionized the form, exploring complex characters and social contexts. In contrast, Uzbek prose saw a significant transformation during the Soviet period, when narrative techniques adapted to socialist themes. Authors like Abdulla Qahhor (*Sarob*) explored rural life and socialist transformation.[6]

Post-independence literature has increasingly dealt with themes of personal freedom, social change, and the challenges of modernization. The Modernist movement in English literature, epitomized by Joyce's *Ulysses* and Woolf's *To the Lighthouse*, was defined by an experimental narrative style and a break from traditional forms. Uzbek literature, although influenced by modernist trends, approached these styles cautiously, partly due to historical

constraints and state censorship during the Soviet period. The process of globalization has fostered an increasing exchange between English and Uzbek literatures. The translation of Uzbek works into English and vice versa has allowed for a greater understanding of each culture's literary contributions.

Translation studies play a crucial role in this exchange, providing insights into how literature is adapted across languages and cultural boundaries. The global reach of English literature has shaped writers worldwide, including Uzbek authors. Modern Uzbek writers are increasingly incorporating hybrid forms, blending traditional literary styles with global influences. This is particularly visible in the growing body of post-independence Uzbek literature, which addresses contemporary social issues while drawing on historical narratives. Uzbek Literature's Global Recognition: Although traditionally underrepresented on the global stage, Uzbek literature has gained greater recognition in recent decades. The translation of key works, such as those by Navoi and Qahhor, has helped international readers appreciate the unique contributions of Uzbek writers. The comparative study of English and Uzbek literature should continue to evolve by integrating interdisciplinary approaches. The digital humanities, sociology, and history could be useful for understanding how both literary traditions interact with their social contexts, global influences, and changing political landscapes. Additionally, digital platforms can facilitate the wider dissemination of both literatures, allowing for a more global and accessible literary conversation. This study of English and Uzbek literature highlights the richness and diversity of global literary traditions, showing both the commonalities in themes and the differences shaped by historical and cultural contexts. The future of comparative literature lies in the continued exploration of these literary legacies, aided by translation studies and new technological platforms. Both traditions offer profound insights into human experiences and the universal themes of love, identity, and power, which transcend national and linguistic boundaries.[7]

Iqtiboslar/Сноски/Reference

1. Алишер Навоий. Ҳамса. URL: https://kitob.uz/navoiy-hamsa *(Alisher Navoi. "Khamsa" // URL: https://kitob.uz/en/navoiy-hamsa)*

2. Ўзбекистон халқ шоирлари шеърлари тўплами. (Anthology of Uzbek Poets). URL: https://literature.uz/poets-anthology

3. Шекспир Вильям. Ҳамлет. (William Shakespeare. Hamlet). URL: https://literature.uz/shakespeare-hamlet

4. Абдулла Қодирий. Ўтган кунлар. (Abdulla Qodiriy. "Bygone Days"). URL: https://literature.uz/abdulla-qodiriy

5. "Pride and Prejudice" by Jane Austen. URL: https://projectgutenberg.org/pride-and-prejudice

6. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. (Zahiriddin Muhammad Babur. "Baburnama"). URL: https://literature.uz/babur-baburnama

7. “A History of English Literature” by Michael Alexander. URL: https://academicpress.com/english-literature

8. Чўлпон. Кейингисига олиб ўтиш. (Choʻlpon. "Night and Day"). URL: https://uzlit.uz/cholpon

9. “The Canterbury Tales” by Geoffrey Chaucer. URL: https://penguinclassics.com/canterbury-tales

10. Навоий Алишер. Лисон ут-Тайр. (Alisher Navoi. "Language of the Birds"). URL: https://navoiy-foundation.uz/lison-ut-tayr.

Saidova Nilufar Anvar qizi
TDO‘AU tayanch doktoranti
E-mail: saidovanilufar1992@gmail.com

TILNING LEKSIK-SEMANTIK TIZIMIDAGI ARGONING FUNKSIYASI

Annotatsiya. Mazkur maqola argolarning tilning leksik-semantik tizimidagi o‘rnini o‘rganishga bag‘ishlangan. Maqolada argolarning ijtimoiy va funksional xususiyatlari, ularning so‘zlashuv uslublari va madaniy kontekstdagi roli ko‘rib chiqiladi. Argolarning kommunikativ vosita sifatida ishlatilishi, ularning emotsional va ekspressiv funksiyalari tahlil qilinadi. Shuningdek, argolar yordamida ijtimoiy guruhlarning o‘ziga xosligi va uslublari ochib beriladi. Maqolada zamonaviy adabiyot, ommaviy madaniyat va musiqa janrlarida argolarning ishlatilishi misollar bilan yoritiladi.

Kalit so‘zlar: argot, til tizimi, leksik-semantik, badiiy adabiyot, ijodiy nutq, stilistik leksika, ijtimoiy muammolar, jinoyat romani, uslubiy xususiyatlar, Amerika adabiyoti.

Саидова Нилуфар
Докторант ТГУЯЛ
saidovanilufar1992@gmail.com

ФУНКЦИОНИРОВАНИЕ АРГО В ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКОЙ СИСТЕМЕ ЯЗЫКА

Аннотация. Настоящая статья посвящена изучению роли арготизмов в лексико-семантической системе языка. В ней рассматриваются социальные и функциональные особенности арготизмов, их роль в речевых стилях и культурном контексте. Анализируется использование арготизмов как коммуникативного средства, их эмоциональные и экспрессивные функции. В статье также показано, как арготизмы раскрывают идентичность и стили социальных групп. Приводятся примеры использования арготизмов в современной литературе, массовой культуре и музыкальных жанрах.

Ключевые слова: арго, языковая система, лексико-семантический, художественная литература, художественная речь, стилистическая лексика, социальные проблемы, детективный жанр, стилистические особенности, американская литература.

Saidova Nilufar
Doctoral student of TSUULL
E-mail: saidovanilufar1992@gmail.com

THE FUNCTIONING OF ARGOT IN THE LEXICO-SEMANTIC SYSTEM OF LANGUAGE

Annotation. This article is dedicated to the study of the role of argotisms in the lexical-semantic system of language. It examines the social and functional characteristics of argotisms, their role in speech styles, and their cultural context. The use of argotisms as a communicative tool and their emotional and expressive functions are analyzed. The article also highlights how argotisms reveal the identity and styles of social groups. The usage of argotisms in contemporary literature, mass culture, and musical genres is illustrated with examples.

Key words: argot, language system, lexico-semantic, literary language, artistic speech, stylistic vocabulary, social issues, detective genre, stylistic features, American literature.

Introduction. Language is a dynamically evolving social phenomenon whose task is to facilitate verbal communication between people. “We believe that the study of language cannot take place without studying its functioning in various social strata and professional groups, and without investigating its socio-dialectical stratification. The social division of society is directly reflected in the functioning of language and in the structure of speech” [Belyaeva, Khomyakov 1984, p. 4].

Among the forms of language functioning, literary standard and dialects are distinguished. “The literary standard is an exemplary, normalized language, whose norms are perceived as “correct” and obligatory, and which is opposed to dialects” [1, P.101]. “A dialect is a colloquial variant of a language used by a limited number of people, connected by a common territory and regularly communicating with each other” [2,P.17-18]. Dialects, in turn, are divided into two groups: territorial dialects and social dialects.

Research methodology. In modern linguistic literature, a social dialect is understood as “a set of linguistic features inherent to a particular social group—professional, class, age-related, etc.—within a specific subsystem of the national language” [3,P.47]. Z.D.Popova and I.A.Sternin define a social dialect as “the speech characteristics of certain social groups” [4,P.72-73].

V.D. Bondaletov believes that “a common feature of all language formations included in the category of social dialects is the limitation of their social base: they serve as a means of communication, usually an additional one, for specific social-class, production-professional, group, and age collectives, and not for the entire people (like the literary language) or the entire population of a region (like territorial dialects)” [5,P.68]. An example of a sociolect could be the speech characteristics of youth—school and student slang, military jargon, programmers jargon, and the argot of criminal subcultures.

Slang terms, jargons, and argotisms, being non-standard vocabulary, are opposed to elements of the literary standard. According to V.A. Khomyakov, there is a dichotomy

among non-standard vocabulary: stylistically lowered vocabulary contrasts with socially determined vocabulary [6,P.39].

Discussion. The study of such a linguistic phenomenon as argot requires terminological clarity in its definition. To derive a working definition of this lexical layer, it seems appropriate to analyze the concepts and definitions significant for our research, developed in domestic and foreign linguistics. Special attention should be given to the place of argot in various concepts of the social differentiation of language, as presented in the works of the most authoritative scholars in this field: D.K.Hotten, E.Partridge, B.S.Flexner, R.Spears, W.O'Grady, J.Coleman, D.Lighter, V.D. Bondaletov, M.A.Grachev, L.P.Krysin, V.V.Khimik, V.A.Khomyakov, V.P. Korovushkin, I.V.Fishchuk.

One of the first studies on the social differentiation of language is associated with the name of J.C.Hotten, who created the dictionary "A Dictionary of Modern Slang," first published in 1859. In the preface to the dictionary, which consists of two sections:

1) "The History of Cant" and

2) "A Brief History of Slang"

J.C.Hotten notes the stages of formation and development of English substandard lexicography. In his dictionary of colloquialisms, he highlights such varieties as slang and cant, describing the history of each and also discussing the difficulties of differentiating these terms. He defines cant as a kind of secret language used primarily by thieves, beggars, and gypsies to conceal the subject of communication: "Cant apart from religious hypocrisy, refers to the old secret language, by allegory or distinct terms, of Gipseys, thieves, tramps, and beggars" [Hotten 1960, p. 6]. Slang, in his opinion, is a constantly changing vulgar language spoken by representatives of various classes: "Slang represents that evanescent, vulgar language, ever changing with fashion and taste, which has principally come into vogue during the last seventy or eighty years, spoken by persons in every grade of life, rich and poor, honest and dishonest" [7,P.6].

One of the most authoritative researchers on the stratification of the English language is the British lexicographer E. Partridge, the author of dictionaries and monographs on English colloquialism. In his monograph "Slang Today and Yesterday", published in 1933, he offers a clear stratification of the English language, paying special attention to the classification of non-standard vocabulary. The scholar distinguishes a hierarchically organized system of lexical levels of the national language, in which the degree of non-standardness is determined by the distance of a particular lexical level from the literary standard. This criterion allows E.Partridge to highlight such subsystems of the language as slang, colloquialisms, cant, and vulgarisms [8].

In his later work "Usage and Abusage," he refines the definitions of the terms slang, cant, and argot. Partridge writes that slang is an intermediate category between colloquialisms and cant: "It stands below colloquialisms, but above cant" [9,P.167]. He also mentions the short-lived existence of lexical units within various categories of non-standard vocabulary and their transition from one category to another: "If a cant word gains wider currency, it is by its admission to the vocabulary of slang; if a slang word is promoted, it is

to the ranks of colloquialism" [9,P.167]. The author believes that in philology, cant is a term used to denote the language of the criminal world (criminals, vagrants, beggars, prostitutes, and pimps).

Due to the limited duration of rap compositions (ranging from 4 to 20 minutes), the text's volume must adhere to strict boundaries. Therefore, the primary task of the author is to convey their thoughts or position as clearly as possible while using minimal vocabulary. To create vivid imagery and enhance expressiveness, *argot* serves this purpose effectively.

Some of the most popular artists in this genre include Coolio, Jay-Z, and Wu-Tang Clan, whose compositions are filled with argot related to prison terms, criminal activities, weapons, drugs, and police: *big time*, *mob*, *trey-eight*, *ten*, *crystal*, *punk*, *cop*, *blueops*. These argot terms give the text a unique emotional tone, reflect the author's attitude towards the surrounding world, and emphasize their connection with the audience.

Rap compositions are also characterized by their autobiographical nature, and since the author and performer are often the same person, this fosters a closer connection with the target audience. A prominent example of such an artist is the American rapper Tupac Amaru Shakur (2Pac), who led a criminal lifestyle and was repeatedly imprisoned. His fame is primarily attributed to his album *Me Against the World*, recorded in prison. Having firsthand knowledge of prison and criminal realities, Tupac aimed to accurately reflect them in his compositions. Argot frequently appears in the titles of his songs, such as *Thug Life*, *Bury Me a G*, *My Block*, and *Thugs Mansion*. In this way, argot in song lyrics fulfills an emotive function, expressing the author's attitude towards criminal reality and his subjective opinion. Argot terms also appear within the lyrics themselves, serving as a means of the author's evaluation of events and sometimes as a form of self-assessment.

Argot has also influenced literature. Currently, the works of English-speaking writers, reflecting the main trends in the language, abound in argot. However, "these elements in literary style are presented in a processed, typified, and selected form. They are not used in their natural state; such use of non-literary words would clutter the language and would not contribute to the enrichment and development of the literary language norm" [10,P. 347-48].

It is natural that when an author describes the lives of asocial elements, one of the main tasks is to include argot in the text of a literary work, which sometimes surpasses the literary language in vividness and accuracy. Thus, argot can serve as a means of enriching the text with its expressiveness. Having considered journalistic and song texts, as well as films, it becomes clear that argot functions differently in these areas. Analyzing the factual material, one can conclude that, penetrating many areas of reality due to the democratization of society, argot has become a means of creating special expressiveness, emotionality, and evaluative meaning. The use of argot in narrative language not only adds expressiveness but also realism. Reflecting contemporary language trends, journalists, writers, directors, and performers turn to argot in their works. Thus, the use of a large amount of non-standard vocabulary can be considered one of the most striking features of modern reality.

The language of literary works is a complex and multifaceted concept, whose specificity is revealed in relation to literary norms or literary language. V.V. Vinogradov identified the features, similarities, and differences of these concepts: “First, the language of literature is used in two senses: the language of literature partly reflects the general system of a particular national language and, second, in the sense of the language of art” [11,P.7]. Consequently, literary language is a norm characterized by its system of linguistic means. It is the literary language that forms the foundation for the language of literature. The latter represents a synthesis of both literary and non-literary means of the common language. Its uniqueness lies in the possibility of incorporating numerous elements from various functional styles, adapted according to the communicative and aesthetic functions of language.

The aesthetic function of language, as one of the main elements of literature, allows for the depiction of artistic thinking processes. “The representation of artistic-figurative thinking presupposes a special artistic organization of the linguistic material in literary works, which results in the purposeful use of all linguistic elements to create an artistic whole, leading to the emergence of an artistic image” [11,P.7].

Result. Literature serves as a means of understanding and reflecting reality, while “artistic speech is a unique sublanguage that uses and synthesizes the means of communicative styles in a new quality—in the figurative-aesthetic function” [11,P. 7]. Artistic speech is not speech in the philological sense but rather the result of the “artistic transformation” of spoken language: “Artistic speech” is the fruit, the result, the “product” of the artistic reimagining of practical speech, comparable in this regard to stage “action”; real human speech is the subject and material of literary and artistic creativity, not its form" [12,P.5].

Depending on the genre of literature, artistic speech will include not only literary but also non-literary linguistic elements (slang, jargon, argot, etc.), as “the principles of selecting expressions and the ways of constructing their connections and combinations are often subordinated to the tasks of creating speech portraits of characters from different social environments, sometimes very far removed from the carriers of literature” [13,P.6].

T.N.Belyaeva and V.A.Khomyakov note that non-standard linguistic elements in literary texts are used “not only to create a comic effect or tension but also to create a general social and emotional atmosphere, speech portraits, as a means of typifying the speech of individual characters, or as a means of individualizing a character's speech characteristics, and sometimes as a means of stylization” [14,P. 72]. Thus, stylistically low-register vocabulary in English performs an important function in creating a complete speech characterization of a literary character and serves as a link that connects the writer with the reader.

It is essential to note that the functional features of artistic speech, i.e., the means of expression and their quantity, depend on the individual artistic style of the author, which includes not only the lexical-semantic aspect of the work but also the themes and issues addressed in the works themselves.

The turn of the 19th and 20th centuries was marked by a number of acute social problems for the United States and Great Britain. The rapid pace of development and industrialization in these countries had diverse socio-political consequences. For the United States, this period was characterized by the process of urbanization, i.e., the migration of a large population from rural areas to industrial cities, along with a significant influx of immigrants from Europe and the North American continent. In Europe, due to the agrarian crisis prolonged by the capture of the global market by overseas suppliers of cheap grain, a large number of peasants, left without work and unable to adapt to the prevailing economic conditions, joined the ranks of the marginalized. All of this led to growing dissatisfaction among the population, a loss of faith in justice, and hope for a better life.

Conclusion. It was during this time that genres of literature focused on social issues began to flourish. One such genre in popular mass literature was the detective genre. The appeal of this type of literature was primarily determined by the so-called “laws of the genre,” which included the triumph of law over crime and the unequivocal victory of good over evil—qualities that people felt were lacking in real life. Thus, the times themselves tasked authors with reflecting the ideas, fears, and expectations that dominated the minds of the people.

Iqtiboslar/Сноски/Reference

1. Andreeva G. R. Lexico-Semantic Features of Special Slang (Based on English Language Materials). – Moscow: [Doctoral dissertation], 2004. – p. 177.
2. Akhmanova O. S. Dictionary of Linguistic Terms. – Moscow: Soviet Encyclopedia, 1969. – p. 608.
3. Galperin I. R. On the Term 'Slang' || Questions of Linguistics. – Moscow: Publishing House of the Academy of Sciences of the USSR, 1956. – No. 6. – pp. 107-114.
4. Grabovyi P. M. Ukrainian Youth Slang. – Kyiv: Zhovtyi, 2010. – p. 220.
5. Homyakov V. A. Introduction to the Study of Slang: A Core Component of English Colloquial Speech. – Vologda: Vologda State Pedagogical Institute, 1971. – p. 104.
6. Istomin V. S. Norm and Social Variability in Language || Linguocultural Paradigm in Modern Studies. – Grodno, 2011. – pp. 191-197.
7. Lipatov A. T. Slang as a Sociolinguistic Problem. – Moscow: Elpis, 2010. – p. 318.
8. Mozhzhukhin K. E. Slang in the Speech of American University Students. – Moscow: [Doctoral dissertation], 2005. – p. 194.
9. Partridge E. Usage and Abusage: A Guide to Good English. – London: Penguin Books, 1999. – p. 401.
10. Spears R. A. Slang and Euphemism. – New York, 1981. – p. 448.

UDK: **94(575.171)(072**

Sheripov Umarbek Atajanovich,
Urganch davlat pedagogika instituti
“Tarix va geografiya” kafedrasi o`qituvchisi.
Tarix fanlari nomzodi, dotsent.
sheripovumarbek@gmail.com
tel +99891-434-24-55
https://orcid.org/0009-0003-6865-8765

XXI ASRDA MARKAZIY OSIYODA TRANSCHEGARAVIY SUVLARDAN FOYDALANISH VA SUV MUAMMOLARINING KUCHAYISHI

Annotatsiya. Insoniyat taraqqiyoti turmush darajasining pasayishiga sabab bo‘luvchi iqlim o‘zgarishlari, ekologik tizimning buzilishi, suv va havo havzalarining ifloslanishi, yerlarning cho‘llanishi va sho‘rlanishi kabi global ekologik muammolar bilan yuzma-yuz kelgan hozirgi davrda inson va tabiatning o‘zaro ta’siri masalalari tobora ko‘proq e’tiborni o‘ziga jalb qilmoqda. Ushbu maqolada Markaziy Osiyo mintaqasida suvdan foydalanishning transchegaraviy muammolari tahlil qilingan. Orol dengizi havzasida Markaziy Osiyoning 5 ta respublikasi joylashgan bo‘lib, hududi 1550 ming km^2 ni tashkil etgani holda, sug‘oriladigan maydonlar 7,95 mln ga teng. Mintaqada tiklanadigan suv resurslari hajmi yiliga o‘rtacha 118-120 km 3ni tashkil etadi. Ularning asosiy tarkibi Amudaryo, Sirdaryo suvlari hamda yer osti suvlari zaxiralari (14,7 km^3)dan iborat. Suv omborlari hajmi – 60 km^3ga teng. Orol dengizi havzasining suv resurslaridan uning havzasida joylashgan davlatlar hamkorlikda foydalanishi – suv xo‘jaligining transchegaraviy tusda ekanligini va suv muammolarini hamjixatlikda hal qilish lozimligi haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Markaziy Osiyo Davlatlararo suv xo‘jaligini muvofiqlashtiruvchi komissiya, (Межгосударственная координационная водохозяйственная комиссия Центральной Азии. MKVK), suv resurlari taqsimoti, limit, kollektor-drenaj suvlari, Qoraqumdaryo, global iqlim o‘zgarishi, Qo‘shtepa kanali.

Шерипов Умарбек Атажанович,
Ургенчский государственный педагогический институт
Преподаватель кафедры "История и география".
Кандидат исторических наук, доцент.
sheripovumarbek@gmail.com
tel +99891-434-24-55
https://orcid.org/0009-0003-6865-8765

ИНТЕНСИФИКАЦИЯ ТРАНСГРАНИЧНОГО ВОДОПОЛЬЗОВАНИЯ И ВОДНЫЕ ПРОБЛЕМЫ В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ В XXI ВЕКЕ

Аннотация. В современную эпоху, когда развитие человечества сталкивается с глобальными экологическими проблемами, такими как изменение климата, разрушение экологических систем, загрязнение воды и воздуха, опустынивание и засоление земель, которые вызывают снижение уровня жизни, взаимодействие человека и природы» секретные вопросы привлекают все больше и больше внимания. В данной статье анализируются трансграничные проблемы водопользования в Центральноазиатском регионе. В бассейне Аральского моря расположены 5 республик Средней Азии, территория которых составляет 1550 тыс. км2, орошаемые площади равны 7,95 млн. Объем возобновляемых водных ресурсов региона составляет в среднем 118-120 км3 в год. Их основной состав составляют воды Амударьи, Сырдарьи и запасы подземных вод (14,7 км3). Объем водоемов равен 60 км3. Речь идет о том, что водные ресурсы бассейна Аральского моря используются совместно странами, расположенными в его бассейне, что управление водными ресурсами является трансграничным и водные проблемы должны решаться сообща.

Ключевые слова: Среднеазиатская межгосударственная координационная комиссия по водному хозяйству (Межгосударственная координационная водохозяйственная комиссия Центральной Азии. МКВК), распределение водных ресурсов, лимитные, коллекторно-дренажные воды, Каракумдарья, глобальные изменения климата, канал Коштепа.

Sheripov Umarbek Atajanovich,
Urgench State Pedagogical Institute
Teacher of the Department “History and geography”.
Candidate of historical sciences, associate professor.
sheripovumarbek@gmail.com
tel +99891-434-24-55
https://orcid.org/0009-0003-6865-8765

TRANSBOUNDARY WATER USE AND THE ESCALATION OF WATER PROBLEMS IN CENTRAL ASIA IN THE 21ST CENTURY

Annotation. In the current era, humanity is facing global environmental challenges such as climate change, the disruption of ecological systems, pollution of water and air basins, desertification, and soil salinization, all of which contribute to a decline in living standards. This article analyzes the transboundary issues of water use in the Central Asian region. The Aral Sea basin encompasses five Central Asian republics, with a total area of 1,550,000 km² and irrigated lands covering 7.95 million hectares. The region’s renewable water resources amount to an average of 118–120 km³ annually. These resources mainly consist of the waters of the Amu Darya and Syr Darya rivers, as well as groundwater reserves (14.7 km³). The volume of water reservoirs is estimated at 60 km³. The article discusses the importance of collaborative management of the water resources in the Aral

Sea basin by the countries within its territory, emphasizing the transboundary nature of water management and the need for joint resolution of water-related issues.

Keywords: Central Asian Interstate Commission for Water Coordination (ICWC), water resource distribution, limits, collector-drainage waters, Karakum River, global climate change, Koshtepa Canal.

Kirish (Introduction): O‘zbekiston Respublikasi Orol dengizi havzasida joylashgan bo‘lib, uning asosiy suv manbai Amudaryo va Sirdaryo daryolari, shuningdek, ichki daryo va soylar hamda yer osti suvlaridir. Sobiq ittifoq tarqalib ketgandan keyin, “Amudaryo” va “Sirdaryo” havza suv xo‘jaligi birlashmalari (HSXB) Davlatlararo suv xo‘jaligini muvofiqlashtiruvchi komissiyasiga (*MKVK*) bo‘ysundirildi. Mazkur komissiya 1992 yil 18 fevralda Olma-ota shahrida imzolangan “Xalqaro suv manbalarini saqlash va ulardan foydalanish, boshqarishda hamkorlik to‘g‘risida”gi kelishuv asosida tashkil qilingan bo‘lib, Markaziy Osiyodagi mustaqil davlatlar hududi doirasida faoliyat yuritardi. Komissiya tarkibiga 5 nafar suv xo‘jalik ministrlari va ularning birinchi o‘rinbosarlari kiritildi. Komissiyaning Ilmiy Tadqiqot Markazi (*NIS*) tashkil qilingan bo‘lib, davlatlararo suv xo‘jaligi ma’lumotlarini umumlashtirish ishlari ham boshlandi.

Orol dengizi havzasidagi barcha manbalarning o‘rtacha ko‘p yillik suv oqimi 116 mlrd kub metrni tashkil etadi, shundan 67,4 foizi Amudaryo havzasida va 32,6 foizi Sirdaryo havzasida shakllanadi. Jumladan, yer osti suvlarining umumiy zaxirasi 31,2 mlrd kub metrni tashkil etib, uning 47,2 foizi Amudaryo havzasiga, 52,8 foizi esa Sirdaryo havzasiga to‘g‘ri keladi.[1]

“Amudaryo” havza suv birlashmasiga Panj, Vaxsh, Kofirnigon va Amudaryodan oqib keladigan asosiy suv zaxiralarini boshqarish vazifasi yuklangan. O‘zbekiston Respublikasi hududida mavjud Qashqadaryo va Zarafshon daryolarining suvlari Amudaryoga deyarli tushmaydi va borlari ham ichki zaruratdan ortmaydi. Turkmaniston Respublikasining Murg‘ob, Tajan va Atrek daryolari esa qo‘shni Eron va Afg‘oniston davlatlari bilan chegara hududlardan oqib o‘tadi va ichki suv yo‘llari sifatida o‘z boshqaruv tizimiga ega.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology): Tadqiqotda xronologik ketma-ketlik, qiyosiy tahlil, tarixiylik, determinizm tamoyillari, tizimli yondoshuv, xolislik tamoyillari kabi metodlardan unumli foydalanildi.

Natijalar va muhokama (Results and Discussions): Amudaryo havzasi 1327 km^2. iborat bo‘lib, daryoning yillik o‘rtacha suv sig‘imi 79,3 ming km^3. tashkil qiladi (shu jumladan 61,2 km^3 Amudaryoning o‘z suvidir). Daryo suvining 74 % Tojikiston Respublikasi hududida to‘planadi. 2000 yilga kelib daryodan sug‘oriladigan yer maydoni 3,56 mln. gektarga yetdi.[2] Mavjud suv zaxiralari o‘lchovli bo‘lganligi sababli, davlatlararo kelishuvga binoan 59,4 km^3. suv taqsimoti amalga oshiriladi va qolgani Orolni saqlab qolish uchun ajratiladi. Katta maydon va suv resurslaridan foydalanish, kanallar va gidroinshootlarni ishlatish uchun Qo‘rg‘ontepa (Tojikiston), Turkmanobod (*Turkmaniston*), Urganch (*O‘zbekiston)* va Taxiatosh (*Qoraqalpog‘iston*) hududiy boshqarmalari shakllantirilgan.

Respublikada sug‘oriladigan yer maydoni 4,3 mln gektarni tashkil etib, jami suv resurslarining o‘rtacha 90-91 foizi qishloq xo‘jaligida, 4,5 foizi, kommunal-maishiy xo‘jalik sohasida, 1,4 foizi sanoatda, 1,2 foizi baliqchilikda, 0,5 foizi issiqlik energetikasida, 1 foizi esa iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida foydalanilgan.

Amudaryodan oqib keladigan suv 1992 yildan boshlab, Xalqaro Muvofiqlashtiruvchi Suv Xo‘jaligi Komissiyasi (*MKVK*) tasdiqlagan limit asosida bo‘linadi. Mazkur holatda ekin maydonlarining sho‘r yuvish, vegetatsiya va vegetatsiya oralig‘idagi sug‘orilishi davri e’tiborga olinadi. Xususan, daryoning yuqori oqimida: 1. Qirg‘izistonga — 0,45 km^3.; Tojikistonga — 9,50 km^3.; O‘zbekistoning Surxondaryo viloyatiga — 1,20 km^3. suv ajratiladi. O‘rta oqimdagi Turkmaniston va O‘zbekiston Respublikalariga teng — 22,0 km^3. suv bo‘linadi. Orololdi mintaqasidagi ekologik vaziyatni saqlash maqsadida sanitar suvlar hajmi — 0,8 km^3., Orol dengizi va Orololdi zonasiga — 3,5 km^3. suv taqsimlash rejalashtirilgan.

MKVK tomonidan belgilangan Quyi Amudaryodan suv olish limiti[3]

Suv oluvchi hududlar	Sug‘orilish (*mln. m^3.*)		Jami	Sanitar suv o‘tkazish (*mln. m^3.*)		Jami
	Vegetatsiya oralig‘ida	Vegetatsiya davrida		Vegetatsiya oralig‘ida	Vegetatsiya davrida	
Qoraqalpog‘iston	1484	1840	8303	500	0	8885
Xorazm viloyati	1214	3402	466	150	0	4835
Dosho‘g‘uz viloyati	1400	5028	6428	150	0	6578
Jami	4098	15250	19348	800	0	20248
Orol va Orololdi	2100	2100	4200	-	-	4200
Jami	6198	17350	23548	800	0	2444

Ko‘rinib turganidek, vegetatsiya davrida Quyi Amudaryodagi suvlarning asosiy qismi Xorazm va Dosho‘g‘uz viloyatlariga ajratilgan. Chunki, sug‘oriladigan maydonlarning ko‘pligi, magistral kanallarning viloyat hududidan oqib o‘tishi va asosiy maydonlarni paxta va sholi ekinlari egallaganligi sababli suvga bo‘lgan ehtiyoj yuqoriligicha qolmoqda.

Amudaryo transchegaraviy daryo bo‘lganligi sababli, u bilan bog‘liq yana bir muammo keskin holatda qolmoqda. Daryoning yuqori qismida mavjud bo‘lgan kollektor-drenajlar suvlarini daryoga tashlash holatlariga chek qo‘yib bo‘lmayapti. Xususan, keyingi 12 yil davomida daryoga o‘rtacha 33,0 km^3. oqova suvlar tashlandi, bu esa yiliga 2,75 km^3.

to‘g‘ri keladi.[4] Sanoat korxonalari va aholi yashaydigan punktlarning tozalanmagan chiqindilari, qishloq xo‘jaligi aylanmasidagi yerlarning sho‘ri yuvilishi, sug‘orish natijasida mineral o‘g‘itlar qoldiqlari erigan suvlarning jinoyatkorona ravishda daryoga tashlanishi, uning quyi oqimida yashayotgan hamda suv iste’mol qiladigan odamlar va hayvonot dunyosi uchun o‘ta xavflidir.

1993-yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti (*BMT*) “Chegaraviy suv oqimi va xalqaro ko‘llarni saqlash hamda ulardan foydalanish to‘g‘risida” (*“Suv konvensiyasi”*)[5] va 1997-yilda “Xalqaro suv oqimlaridan foydalanish huquqi haqida”gi konvensiyalarni tasdiqladi. Mazkur hujjatlarda davlatlarning o‘z hududidan oqib o‘tadigan daryolar suvlaridan foydalanish huquqi, majburiyatlari, qarorlar qabul qilish uchun loyihalarni bamaslahat ishlab chiqish zarurligi qayd qilinadi.

Amudaryoning quyi qismida – chegaraviy suv resurslari masalasi doimiy ravishda murakkabligicha saqlanib qoladi. Uning yechimi – ko‘p jihatdan Tojikistondagi Panj, Vaxsh va Kofirnigon daryolari suvlarining Amudaryoga uzluksiz oqizilishi, mavjud suv resurslarining O‘zbekiston va Turkmaniston o‘rtasida teng bo‘linishi, gidropostlarni yangi asbob-uskunalar bilan jihozlash evaziga ma’lumotlarni aniq va tezkor ravishda olish kabi masalalar bilan bog‘liqdir. “Amudaryo” havza boshqarmasining 20 yildan ortiqroq davrdagi faoliyati uzoq kelajakni mo‘ljallab belgilangan vazifalarning to‘g‘ri ekanligini tasdiqladi.

“Amudaryo” suv xo‘jaligi havza boshqarmasi mutaxassislarining ma’lumotlariga qaraganda, keyingi 23 yildan 10 yilda daryodan kelayotgan suv yetarli bo‘lgan. Ayniqsa 1991-1992-yillar juda sersuv kelib, daryodan kelgan suv hajmi 80,9 km^3. ga teng edi. O‘z navbatida 1988-1989, 2000-2001, 2007-2008 va 2010-2011-yillarda suv hajmi juda past bo‘lgan.[6] Natijada keyingi 13 yilda Orol va Orolbo‘yi hududlariga suv ko‘zlangandan juda kam miqdorda yetib borgan. Daryodan suvning kam oqib kelishi Orol dengizi va uning atrofidagi ekologik vaziyatni yanada keskinlashtirdi. To‘plangan ma’lumotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, 13 yil davomida Orol va Orolbo‘yi hududlariga yetkazib berilishi rejalashtirilgan suv miqdori bajarilmagan. Ayniqsa, suv taqchil bo‘lgan 2000-2001-yillarda Orolga atigi 546 mln. m^3. suv tushgan, xolos. 2002-yil yozida Amudaryo deltasiga katta miqdorda suv oqib keldi va ekologik sharoitni biroz tiklash imkoni paydo bo‘ldi.

Kuzatuvlarga qaraganda, Amudaryo va Sirdaryo suvlaridan keragidan ortiqcha va noto‘g‘ri foydalanish ularning quyi oqimi va Orol bo‘yidagi keskin ekologik sharoitni keltirib chiqaradi. Daryolarning nisbatan yuqori oqimdan suv oladigan kanallar yaqinida joylashgan xo‘jaliklarning nasoslar yordamida belgilanganidan ortiqcha suv olish uchun harakatlari natijasida quyi qismidagi yerlar va aholining ehtiyojlarini qondirish murakkab vaziyatda qoladi. Shu bilan bir qatorda suv omborlari (*Tuyamo‘yin, Chordara*), daryolar yaqinidagi ko‘llarda (*Aydarko‘l*) to‘plangan suv hajmi va miqdorining oshishi — ekologik muammolarni yanada murakkablashtiradi.

Ko‘p yillar davomida saqlanib kelayotgan yana bir muammo – Amudaryoning 45 % suvini oladigan Qoraqumdaryo bilan bog‘liqdir. Uzunligi 1445 km., kengligi 200 va chuqurligi 7,5 metrga yetkazilgan kanal har kuni daryodan 600 m^3/sek. va yiliga 12-13 km^3.

suvni doimiy ravishda olib turadi.[7] Qoraqumdaryo havzasida 50 dan ortiq shahar-qishloqlar joylashgan va Turkmanistonning 48 % aholisi yashaydi, 619 ming gektar yerlari sug‘oriladi va 60 foiz qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiriladi.[8] Daryodan mazkur kanalga kirgan katta miqdordagi suv botqoqliklar va hatto ko‘llarni vujudga keltirgan. Qaqroq cho‘ldan o‘tgan kanaldan esa qo‘shimcha suv bug‘lanadi (*o‘rtacha 20%)* va atrofdagi maydonlar sho‘rlanishi davom etadi. Buning ustiga kanalning quyi qismi yaqinida 2002-yildan boshlab qurilayotgan: maydoni 3460 km^2. va sig‘imi 132 km^3., bahosi 4 mlrd. dollarga teng ”Oltin asr — Turkman dengizi”[9] deb nomlangan yirik suv havzasining ishga tushirilishi yana katta miqdorda suvlarning bir joyda to‘planishi va sahroga shimilib ketishiga olib keladi. Mazkur suv omboriga Daryoliq va Ozernыy kollektorlari orqali Xorazm va Dosho‘g‘iz viloyatlaridan chiqadigan 1,0 km^3. sizot suvlarni oqizilishi ham ko‘zlangan.[10]

Global iqlim o‘zgarishi natijasida Markaziy Osiyoda so‘nggi 50-60 yil davomida muzliklar maydoni taxminan 30 foizga qisqargan.[11] Taxminlarga ko‘ra, harorat 2^0Sga ortganda muzliklar hajmi 50 foizga, 4^0Sga isiganda esa 78 foizga kamayadi. Hisob-kitoblarga ko‘ra, 2050 yilgacha Sirdaryo havzasida suv resursi 5 foizga, Amudaryo havzasida 15 foizgacha kamayishi kutilmoqda. O‘zbekistonda 2015-yilgacha bo‘lgan davrda suvning umumiy taqchilligi 3 mlrd kub metrdan ortiqni tashkil qilgan bo‘lsa ,2030-yilga borib 7 mlrd kub metrni, 2050-yilga borib esa 15 mlrd kub metrni tashkil qilishi mumkin.

Tahlillar iqlim o‘zgarishi O‘zbekistonda suv taqchilligini yanada keskinlashtirishini, 2000, 2008, 2011, 2014 va 2018-yillardagi kabi qurg‘oqchilikning davomiyligi va davriyligi ko‘payishiga olib kelishini hamda iqtisodiyotning suv resurslariga bo‘lgan ehtiyojini qondirishda jiddiy qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi mumkinligini ko‘rsatmoqda. Keyingi 15 yil ichida aholi jon boshiga suv ta’minoti 3 048 kub metrdan 1 589 kub metrga qisqardi. Shu bilan birgalikda, respublikada aholi soni yiliga o‘rtacha 650 — 700 ming nafarga oshib, 2030 yilga borib 39 mln nafarga yetishi, ularning sifatli suvga bo‘lgan talabi 2,3 mlrd kub metrdan 2,7 – 3,0 mlrd kub metrga (18 – 20 foiz) yetishi kutilmoqda. Bu esa kommunal sohani yildan yilga suvga bo‘lgan talabini ortishiga olib keladi.[12]

Hozirgi vaqtda transchegaraviy daryo bo‘lmish Amudaryo suvlaridan foydalanishda paydo bo‘lgan asosiy muammolardan biri qo‘shni Afg‘onistonda shiddat bilan qurilayotgan Qo‘shtepa kanali hisoblanadi. Qo‘shtepa kanali 2022-yil mart oyida Tolibon tomonidan Afg‘onistonning shimolida Amudaryo suvini burish uchun qurila boshlangan. Rejaga asosan kanalning uzunligi 285 km, eni 100 m bo‘lishi kerak.[13] Tolibonga ko‘ra, kanal qurilishi orqali 550 ming gektar cho‘l yerlari ekin yerlariga aylantiriladi. Kanalning qurilishi uch bosqichdan:

- Birinchi bosqich — kanalning 108 km uzunlikdagi Davlatobod tumanigacha boradigan qismini qurish;
- Ikkinchi bosqich — Juzjon va Faryob viloyatlaridan o‘tuvchi 117 km uzunlikdagi qismini qurish;

- Uchinchi bosqich — ekin yerlari bo‘ylab subkanallarni taqsimlashdan iborat.[14]

Tolibon kanalning birinchi bosqichini yakunlash uchun 8 mlrd AQSh dollari sarflagan bo‘lib, keyingi qurilish ishlari uchun Xitoydan qo‘shimcha moliyaviy mablag‘larni jalb qilmoqda. 2023-yil sentyabr holatiga, kanalning 100 kmdan ziyod qismida qazish ishlari to‘liq tugallangan.[15] 2023-yil 11-oktyabrda Balx viloyatida kanalning birinchi qismi foydalanishga topshirish yuzasidan marosim bo‘lib o‘tgan.[16] Tolibon matubotiga asosan kanalning birinchi qismi uzunligi 108 km bo‘lib, bu qism Amudaryodan boshlanib, Davlatobod tumanigacha boradi. Birinchi qismning qurilishi 1,5 yil davom etgan.[17] Kanalning to‘liq qurib bitkazish 2028-yilga rejalashtirilgan bo‘lib, qurilish qiymati 7 mlrd afg‘oniy, ya’ni 92 mln AQSh dollarga baholanmoqda.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations): “O‘zbekiston-2030” strategiyasida belgilangan vazifalarni bajarish, suv tanqisligi, ifloslanishi va xaddan tashqari me’yordan ortiq foydalanish kabi qishloq xo‘jaligini suv bilan ta’minlash muammolari ayniqsa iqlim o‘zgarishining salbiy ta’siri keskinlashib borayotgan bir davrda, oziq-ovqat tizimini o‘zgartirishva ularni yanada bardoshli qilish uchun zudlik bilan barcha Markaziy Osiyo mamlakatlari birgalikda bu muammoni xal qilishi maqsadga muvofiq.Xulosa qilib, aytganda suv resurslaridan samarali foydalanish suvni tejash, uning ortiqcha isrof bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik ta’bir joiz bo‘lsa, hayot-mamot masalasiga aylanmoqda. Shunday ekan barcha suv iste’molchilari suv resurslaridan foydalanishga oid tartib qoidalarga bo‘ysungan holda suvdan oqilona foydalanishi lozim.

Iqtiboslar/Сноски/References

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2020 йил 10 июлдаги ПФ-6024 сонли фармони 1-иловаси. https://lex.uz/docs/4892953?otherlang=1

2. БВО “Амударья” // WWW.Google.com; Совместное заявление Глав государств-учредителей МФСА // WWW.Google.com

3. Юсупов Э. Опыт работы УПРАДИКа БВО “Амударья” в управлении трансграничными водными ресурсами // WWW.Upradik@mail.ru; Назарий А.М. БВО “Амударья” о вопросах водной безопасности в бассейне реки Амударья // WWW.Google.com.

4. Кдырниязов Б. БВО “Амударья” — 20 лет в составе МКВК // WWW.amubvo@yahoo.com.

5. Батизи А.Э. Проблемы водных ресурсов в развитии отношений России с соседным странами и участие государств в их регулировании. Дисс… докт. экон. наук. — М., 2007. – С. 13.

6. Кдырниязов Б. БВО “Амударья” — 20 лет в составе МКВК // WWW.AmuBVO@yahoo.com.

7. Каракумский канал // WWW.Wikopedia.com; Google.com; Современная ирригационная сеть в бассейне реки Амударьи в Узбекистане и ее влияние на экологическое состояние окружающих территорий. 24.07.2013. // WWW.Google.com.

8. Туркменская ССР. — Ашхабад: Энциклопедия, 1984. – С. 229.

9. Жильцов С., Зонн И. Борьба за воду // WWW.Google.com; Больмурадов К. М. Туркменское Озеро Золотого века и его роль в экологическом оздоровлении окружающей среды // "Стройка". — Ашгабат, 2004. – № 31 // WWW.Google.com; Камалов Ю.С. Аральское море, проблемы, легенды, решения // WWW.Экодело.uz.

10. Больмурадов К.М. Туркменское озеро “Золотого века” и его роль в экологическом оздоровлении окружающей среды // В сб.: Экологическая устойчивость и передовые подходы к управлению водными ресурсами в бассейне Аральского моря // Материалы Центрально-азиатской международной научно-практической конференции в г. Алмате, 6-8 мая 2003 г. — Алматы–Ташкент, 2003. – С. 62-63.

11. 2023 йил 19 сентябр куни Президент Ш.М.Мирзиёев БМТ нинг Бош Ассамблеяси 78 сессиясидаги нутқи.

12. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2020 йил 10 июлдаги ПФ-6024 сонли фармони 1-иловаси. https://lex.uz/docs/4892953?otherlang=1

13. “Work on Second Phase of Qosh Tepa Canal Starts” (ingliz tilida). *tolonews.com* (2023-yil 11-oktyabr)..

14. “Afg‘onistonda Qo‘shtepa kanalining birinchi uchastkasi qurilishi yakunlandi”. *kun.uz* (2023-yil 12-oktyabr)..

15. *Isaqulov, Abduaziz* „Qo‘shtepa kanali mojarosi. Buning xalqaro huquqiy yechimi bormi?“. *kun.uz* (2023-yil 27-sentyabr)..

16. «Толибон» “Қўштепа канали қурилишининг 2-босқичига старт берди”. *gazeta.uz* (2023-yil 12-oktyabr)..

17. *Kamil, Ikramuddin (2021). „Afghanistan, the Amu Darya Basin and Regional Treaties“. Chinese Journal of Environmental Law (ingliz tilida). 5-jild. 37–62-bet.*

Nazokat Farhod qizi Ahmedova
UrDU, Tarix kafedrasi doktoranti
E-mail: nazokat.ahmedova27@mail.ru
Tel.: +998(94)-319-70-75

XIVA XONLIGI ADABIY MUHITINI O‘RGANISHDA EPIGRAFIK MANBALARNING O‘RNI

Annotatsiya. Xiva xonligida yuzaga kelgan adabiy muhit tarixda muhim o‘rin tutadi. Moddiy va yozma manbalar qatorida epigrafik manbalar xonlik tarixini, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy - ma’naviy hayotini shu bilan bir qatorda adabiy muhitni o‘rganishda muhim ahamiyatga ega. Epigrafik manbalar qatorida yog‘och ustunlar, yog‘ochdan qilingan turli san’at namunalarida bitilgan yozuvlar, masjid-madrasa eshiklarining ustunlariga yozilgan yozuvlar, xonlik tarixini, shu davrdagi adabiy muhitni o‘rganish va boyitish uchun muhimdir.

Kalit so‘zlar: Xorazm adabiy muhiti, Xiva xonligi, epigrafik manbalar, me’moriy inshoot, A.Kun, Muhammad Rahimxon II, Muhammad Rizo Ogahiy, abjad hisobi, xattot, nasta’liq.

Ахмедова Назокат Фархад кизи
Докторант исторического факультета УрГУ
E-mail: nazokat.ahmedova27@mail.ru
Tel.: +998(94)-319-70-75

РОЛЬ ЭПИГРАФИЧЕСКИХ ИСТОЧНИКОВ В ИЗУЧЕНИИ ЛИТЕРАТУРНОЙ СРЕДЫ ХИВИНСКИХ ХАНСТВА

Аннотация. Литературная атмосфера, созданная во времена Хивинского ханства, занимает важное место в истории. Среди материальных и письменных источников важное значение в изучении истории, социально-экономической, культурной и духовной жизни ханства, а также литературной среды имеют эпиграфические источники. Среди эпиграфических источников важное значение для изучения и обогащения истории ханства и литературной среды этого периода имеют деревянные столбы, надписи, написанные на различных художественных образцах из дерева, надписи, написанные на столбах дверей мечетей-медресе.

Ключевые слова: Литературная среда Хорезма, Хивинского ханства, эпиграфические источники, архитектурное сооружение, А.Кун, Мухаммад Рахимхан II, Мухаммад Реза Огахи, расчет абджада, каллиграфия, насталик.

Ahmedova Nazokat Farhod kizi
PhD student, Department of History, Ural State University
E-mail: nazokat.ahmedova27@mail.ru
Tel.: +998(94)-319-70-75

THE ROLE OF EPIGRAPHIC SOURCES IN THE STUDY OF THE LITERARY ENVIRONMENT OF THE KHIVA KHANATE

Annotation. The literary atmosphere created during the Khiva Khanate occupies an important place in history. Among the material and written sources, epigraphic sources are important in studying the history, socio-economic, cultural and spiritual life of the khanate, as well as the literary environment. Among the epigraphic sources, wooden pillars, inscriptions written on various art samples made of wood, inscriptions written on the pillars of mosque-madrasa doors are important for studying and enriching the history of the khanate and the literary environment of this period.

Keywords: Literary environment of Khorezm, Khanate of Khiva, epigraphic sources, architectural structure, A.Kun, Muhammad Rahimkhan II, Muhammad Reza Ogahi, abjad calculation, calligraphy, nastaliq.

Dolzarbligi: Xorazm adabiy muhiti va san’ati o‘ziga xos taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tgan. Xorazm adabiy muhiti haqida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev shunday ta’kidlagan: “Jo‘shqin Amudaryodan suv ichib, muqaddas va tabarruk Xorazm tuprog‘ida unib-o‘sgan, xalqimiz tarixida o‘chmas iz qoldirgan Abu Rayhon Beruniy, Muhammad Muso Xorazmiy, Mahmud Zamaxshariy, Najmiddin Kubro, Pahlavon Mahmud, Nosiriddin Rabg‘uziy, Sulaymon Boqirg‘oniy, Sakkokiy, Munis, Feruz, Ogahiy, Bayoniy va boshqa ko‘plab allomalar, shoir va mutafakkirlarning nomlari jahon sivilizatsiyasi tarixiga haqli ravishda oltin harflar bilan bitilgan” [1, B.488].

Xiva xonligida yuzaga kelgan adabiy muhit tarixda muhim o‘rin tutadi. Moddiy va yozma manbalar qatorida epigrafik manbalar xonlik tarixini, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy - ma’naviy hayotini shu bilan bir qatorda adabiy muhitni o‘rganishda muhim ahamiyatga ega. Epigrafik manbalar qatorida yog‘och ustunlar, yog‘ochdan qilingan turli san’at namunalarida bitilgan yozuvlar, masjid-madrasa eshiklarining ustunlariga, qabr toshlariga yozilgan yozuvlar, marmar taxtachaga yozilgan yozuvlar, me’moriy obidalar – madrasa peshtoqi, minora masjid ichkarisidagi, devorlardagi yozuvlar, tangalarda bitilgan yozuvlar, darvoza tavaqasiga bitilgan bitiklar ham xonlik tarixini, shu davrdagi adabiy muhitni o‘rganish va boyitish uchun muhimdir**.**

Xiva me’moriy obidalarida qo‘llanilgan yog‘och o‘ymakorligi, toshtarishlik, ganchkorlik, naqqoshlik, koshinpazlik vohada o‘ziga xos me’morchilik maktabi mavjud bo‘lganligidan dalolat beradi. Me’morchilik sohasida asrlar davomida orttirilgan tajribaga tayanish hamda uni boyitish qo‘ng‘irotlar sulolasi hukmronligi davrida Xorazm

me’morchiligi o‘zining yuqori rivojlanish bosqichiga ko‘tarilgan. Xonlikdagi Qo‘ng‘irotlar hukmronligi davrida, ayniqsa XX asr boshlariga kelib Xiva Markaziy Osiyoning eng katta ilm-ma’rifat va madaniyat markazlaridan biriga aylangan edi [2, B.11]. Xorazmning 134 dan ziyod tarixiy-me’moriy obidalarining 54 tasi aynan Xiva shahrida, aniqrog‘i Ichan qal’ada joylashgan. Ichan qal’a me’moriy yodgorliklarining bezatilishida epigrafika muhim o‘rin egallaydi. Ular soni, ko‘rinishi va janri, saqlanish darajasiga ko‘ra butun Markaziy Osiyoda muhim ahamiyat kasb etadi. Markaziy Osiyodagi eng boy qadimiy shaharlardan biri bo‘lgan Xiva haqli suratda Boku, Buxoro, Hirot, Ganja, Isfaxon, Samarqand kabi tarixiy markazlar orasida munosib o‘rin egallaydi. Biroq bag‘ishlov yozuvlari va she’r ko‘rinishidagi xronogrammalar soni jihatidan, shubhasiz, eng yuqori cho‘qqida turadi.

Tarixdan ma’lumki, “epigrafika” yunoncha buyumga yozilgan degan ma’noni bildirib, unda sopol, metall va boshqa qattiq buyumlarga bitilgan yozuvlar o‘rganiladi. Epigrafik yozuvlarning o‘ziga xos bir jihati bu abjad hisobida tarixiy voqelikni keltirilishidir. Abjad hisobi - arab alifbosida harflarning har biri ma’lum songa tengligi asosida yuritiluvchi hisobdir. Ya’ni arab harflarining har biri alifbo tartibida ma’lum sonni ifodalaydi. O‘tmishda bu yozuv tarixiy yodgorliklar, ulkan inshootlar, osori atiqalar uchun naqsh, bezak vazifasini ham bajargan. Bulardan tashqari uning yana bir muhim vazifasi bor, u ham bo‘lsa arab alifbosining raqam, son ma’nosini ifoda etish bilan bog‘liqligidir [3, B.196]. Tadqiqotchilar qariyb yuz ellik yildan beri Ichan qal’a epigrafikasini o‘rganib, jamlab kelmoqdalar. Biroq ular hozirga qadar yozuvlarga asosan yodgorlik sanasini belgilovchi “material” sifatida qaragan va o‘z tadqiqot natijalarini kamdan-kam e’lon qilishgan. Xivadagi yozuvlarning majmuaviy tadqiqotlari hozirga qadar to‘liq olib borilmagan. Lekin, rossiyalik sharqshunos olim A.L.Kunning (1840-1888) Xorazmga ilmiy ekspeditsiyasini ilmiy jihatdan eng samarali deb tan olish lozim. Uning topshirig‘iga ko‘ra, samarqandlik ulamo Mirzo Abdur-Rahmon tomonidan bir qator obidalardagi yozuvlar qayta yozilgan. Bu merosning barchasi mashhur “A.Kun arxivi”dan o‘rin olgan, uning asosiy qismi bugungi kunda Rossiya Fanlar akademiyasining qo‘lyozma meros instituti va Sankt-Peterburgning boshqa muassasalarida saqlanmoqda [4, B.112].

2. Metodlar va o‘rganilganlik darajasi:

Xiva epigrafika yodgorliklari havaskor tarixchilardan – Hasan Murod Laffasiy va keyinchalik Abdulla Boltayevning qiziqishlari nishoniga aylangan. Ular Xiva epigrafikasining ayrim “obyekt” lariga murojat qilganlar. Biroq bu materiallarda me’moriy epigrafika uning tarixiy, madaniy yoki landshaft kelib chiqishisiz, shunchaki o‘rganilgan. Ichan qal’adagi ayrim obidalar epigrafikasini o‘tgan asrning 50-60-yillarida Fanlar akademiyasining Sharqshunoslik instituti xodimi Yu.N.Zavadovskiy ko‘chirib, tarjima qilgan. U bu ishni O‘zbekiston yodgorliklarini saqlash bosh boshqarmasi buyurtmasiga ko‘ra bajargan, boshqarma arxivlarida uning hisobotlari saqlangan [5, B.13].

3.Tadqiqot natijalari:

Xiva xonligi epigrafikasini yaqindan o‘rganish, unda bitilgan tarix va pand-nasihat so‘zlarining mazmunini aniqlash, anglash va bu so‘zlar nafaqat bezak balki mazmundor so‘z ekanligini bilishdan iborat. Xiva epigrafikasining boshqa jihati shundaki, obidalardagi

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Nazariyaga ko‘ra, asosan axborot urushi dushman tomonning axborot xavfsizligiga putur etkazish hamda mamlakatning siyosiy qaror qabul qilish markazini falajlashga qaratiladi [11, 46-b.]. SHu bilan birga, axborot urushi deganda, jamoatchilik ongiga ularning manfaatiga zid g‘oyalarni majburan singdirib, xatti-harakatni o‘zgartirish maqsadida ta’sir ko‘rsatish tushuniladi [13, 126-b.]. Mazkur holat jamoatchilik fikrini manipulyasiya qilish bilan barobardir.

Bunday tahdidning oldini olish milliy xavfsizlikni ta’minlashga doir chora-tadbirlar ko‘rib chiqiladi. Bundan kelib chiqadiki, mamlakat axborot xavfsizligini izdan chiqarish uning milliy manfaatlariga tahdid solishdir. SHu bois mazkur masala har qaysi davlat, uning geosiyosiy o‘lchami va mavqeidan qat’i nazar, dolzarb va muhim hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining axborot xavfsizligini ta’minlash sohasidagi siyosati 2002 yil 12 dekabrdagi «Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida”gi qonunda belgilab berilgan. Hujjatda axborot xavfsizligi axborot sohasida shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarining himoyalanganlik holati [1], - deya ta’riflangan. Demak, davlat nafaqat o‘zini va jamiyatni, balki har bir fuqaroni destruktiv axborot ta’siridan himoya qilishga ma’sul hisoblanadi.

Bundan, shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarining uyg‘unlashgan holati mamlakat milliy manfaatlarini ifoda etiladi. Demak, mamlakatning axborot sohasidagi xavfsizligini ta’minlash uning milliy manfaatlarini himoya qilish masalasi bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi. Global siyosiy tizim doirasida fikrlaganda esa axborot xavfsizligi milliy xavfsizlik strategiyasining asosiy qismini tashkil qiladi.

Mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatni izdan chiqarish, millatlararo adovat uyg‘otish, jamiyatni parokanda etishga qaratilgan axborot kampaniyalari, afsuski, O‘zbekistonni ham o‘z domiga tortadi. Bunday xavfni bartaraf etish uchun davlat axborot sohasidagi xavfsizligiga jiddiy e’tibor qaratish zarur. Ilm-fanda bu axborot xurujlarini qaytarish siyosati, deb ataladi [14, 55-56-bb.].

O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida tashqi axborot xurujlariga qarshi kurashishga doir normalar mavjud. “Axborot olish erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida”gi qonunning 14-moddasiga ko‘ra, qonunga xilof ravishda ijtimoiy ongga axborot vositasida ruhiy ta’sir ko‘rsatishga va uni adashtirishga yo‘l qo‘yilmaydi. Qonunda, shuningdek, milliy o‘zlikni anglashni izdan chiqarishga, jamiyatni tarixiy va milliy an’analar hamda urf-odatlardan chetlashishtirishga, ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirishga, millatlararo va konfessiyalararo totuvlikni buzishga qaratilgan axborot ekspansiyasiga qarshi harakat tizimini barpo etish zarurligi belgilab berilgan [2]. Mazkur chora-tadbirlar jamiyatning axborot borasidagi xavfsizligiga erishish yo‘llari bo‘lib, ularni davlat amalga oshirishi lozim. Biroq amalda boshqa holatga yo‘l qo‘yilmaydi.

2013 yilda O‘zbekistonda Axborot xavfsizligini ta’minlash markazi tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 17 oktyabrdagi qaroriga muvofiq tashkilot Axborot xavfsizligi va jamoat tartibini ta’minlashga ko‘maklashish markazi deb nomlandi [3]. Bir yildan so‘ng Texnik ko‘maklashish markazi faoliyati yo‘lga qo‘yildi [4]. U ko‘proq Kiberxavfsizlik nomi bilan tanilgan. Biroq sanab o‘tilgan tuzilmalarning barchasi asosan axborot tizimlari xavfsizligini ta’minlash, jumladan, xakerlik xujumlarini qaytirish bilan shug‘ullanadi. Turli axborot manbalari (jumladan, xorijiy) orqali tarqatilayotgan yolg‘on axborot oqimini monitoring qilish ularning vazifasiga kirmaydi. Ko‘rinib turibdiki, hozirgi tahlikali davrda hukumat media makondagi dezinformatsiyaga qarshi tizimli kurash olib borayotgani yo‘q. SHuningdek, O‘zbekistonda aholiga tashqaridan g‘oyaviy ta’sir ko‘rsatish holatlarini aniqlash va bartaraf etish mexanizmi ham mavjud emas. Bizningcha, bu mamlakat axborot siyosatining muhim kamchiligi.

V.D.Popovning fikricha, har qaysi davlatning axborot siyosati strategiyasida axborot xavfsizligi masalasiga markaziy o‘rin ajratilmog‘i lozim [15, 846-b.]. Bu esa mamlakatda yaratilayotgan va tarqatilayotgan axborotning shaxs, jamiyat va davlat manfaatlari, bir so‘z

bilan aytganda, mamlakat milliy manfaatlariga zid bo‘lmasi kerak. Mohiyatan gap davlat miqyosida aksiltarg‘ibot (axborot xurujlarini qaytarish ishlarini) olib borish hamda dezinformatsiyaga qarshi kurashish masalasini o‘rtaga tashlaydi.

O‘zbekiston hukumati xorijiy davlatlar rasmiylarining yurtimiz ichki hamda tashqi siyosatiga doir qo‘rs va asossiz fikrlariga bir necha marotaba keskin javob bergan. Rossiya tashqi ishlar vazirligi rasmiy vakili Mariya Zaxarovaning 2020 yilda davlat tilida ish yuritish to‘g‘risidagi qonun loyihasi yuzasidan bergan bayonot berilgan. U bunday islohot tarafdorlari mamlakatda juda ozchilikni tashkil qilishini eslatib o‘tgan, O‘zbekistonning til masalasidagi siyosatiga biryoqlama baho berilgan [5]. 2020 yilning 18 may kuni O‘zbekiston tashqi ishlar vazirligi holat yuzasidan izoh berib, M.Zaxarovaning so‘zlarini davlat ichki ishiga aralashuv, deya baholandi [6].

Shuningdek, Belarus prezidenti Aleksandr Lukashenko 2022 yilning 10 yanvar kuni Kollektiv xavfsizlik shartnomasi tashkiloti (ODKB) Kengashi yig‘ilishida Qozog‘istonda sodir bo‘lgan voqealardan birinchi navbatda O‘zbekistonga saboq bo‘lishi kerakligini aytib o‘tdi [7]. Davlatimiz rahbari SHavkat Miziyoev ushbu bayonotni “asossiz” deb, O‘zbekiston har qanday tahdidga nisbatan munosib javob qaytarish hamda zarba berish uchun etarli kuch va salohiyatga ega ekanligini ta’kidlab o‘tdilar [8].

Axborot xavfsizligini ta’minlash mamlakatning axborot sohasidagi suverenitetini himoyalash demakdir. Bizningcha, mazkur komponentni universal demokratik qadriyatlar tizimiga kiritish zarur. Ba’zan bir mamlakat huquqiy jihatdan mustaqil bo‘la turib, boshqa yirikroq davlatning axborot ta’siriga yoki g‘oyaviy ekspansiyasiga duchor bo‘ladi. Bunda, so‘zsiz, ommaviy axborot vositalarining o‘rni va roli muhim.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Maqolani yoshich jarayonida analiz va sintez, induksiya va deduksiya, dialektik, retrospektiv, qiyosiy tahlil va tizimli yondoshuv kabi tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Tashqaridan uyushtiriluvchi axborot xurujlari, ba’zan hatto obdon rejalashtirilgan axborot kampaniyalari mamlakat nomiga dog‘ tushirib, respublikada olib borilayotgan islohotlarni shubha ostiga olish, millatlararo nizolarni keltirib chiqarish hamda ijtimoiy zo‘riqishni kuchaytirishga olib keladi.

O‘zbek media maydonida rusiyzabon axborot manbalariga talab birmuncha baland. Respublikada Rossiyaning federal telekanallari – «Birinchi kanal» hamda «Rossiya 24», shuningdek Sputnik.ru onlayn-nashri hammaga tanish. Kremlning asosiy targ‘ibot dastaklari O‘zbekistonning ichki auditoriyasiga to‘siqsiz kirib borish imkoniyati paydo bo‘ladi. Tadqiqotlarga ko‘ra, so‘nggi yillarda Rossiyadan tashqariga chiqarilayotgan dezinformatsiya oqimi kuchaymoqda. Moskva atrofidagi davlatlar, xususan, Markaziy Osiyo respublikalari aholisi va siyosiy elitalarida turli masalalarda o‘ziga ma’qul pozitsiyani shakllantirish uchun juda katta targ‘ibot resurslarini ishga soladi. Bu esa mamlakatlarimiz axborot xavfsizligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi [17, 10-b.].

Mintaqadagi ustunligini saqlab qolish maqsadida Kreml destruktiv targ‘ibot usulidan foydalaniladi. Buni O‘zbekiston aholisi uchun nozik mavzularda tayyorlanayotgan

provokatsion materiallar salmog‘i ham isbotlaydi. Ular orqali mahalliy auditoriyaga Rossiya rasmiylarining manfaatiga xizmat qiluvchi fikr va qarashlar singdirishga harakat qilishadi.

Matbuotga vaqti-vaqti bilan O‘zbekistonda rus tili va rusiyzabon aholining “kamsitilishi”ga doir xabarlar etkaziladi. Qolaversa, xitoy ekspansiyasi, panturkchilik, radikal islom, tolibonlar tahdidiga o‘xshash fobiyalar bilan qo‘rqitish amaliyoti ham bor. Sun’iy tarzda yuzaga keltirilgan bunday nomaqbul axborot foni mamlakatda millatchilik va ridakalizm kuchayayotgandek tasavvur hosil qiladi. Bu O‘zbekistonning bag‘rikenglik siyosatiga tamomilaga zid hisoblaniladi.

Aslida tashqi tahdilar bilan qo‘rqitish axborot kampaniyasiga xos xususiyat. Bunday usul yordamida buyurtmachi nafaqat jamoatchilik fikrini ma’lum tomonga og‘dirishi, balki fuqarolarning xatti-harakatini boshqarishga ham erishiladi [18, 58-b.].

Londondagi Sharq va Afrika tadqiqotlari maktabi ilmiy xodimi Alisher Ilhomovning ta’kidlashicha, Moskva qo‘shni davlatlarni o‘ziga bog‘lab qo‘yish orqali postsovet makonidagi etakchiligini saqlab qolishga harakat qiladi. Rus targ‘ibotining eng asosiy g‘oyasi Evroosiyo integratsiyasi bo‘lib, mazkur ideologema Markaziy Osiyo davlatlariga faol singdirisha harakat qilinmoqda. Buning uchun Kreml bir qator instrumentlar, ayniqsa, axborot resurslarini ustamonlik bilan ishga soladi [19, 20-b.].

Ekspert internetning o‘zbek segmentida rusparastlik avj olganini ta’kidlarkan, bu Rossiya hisobidan moliyalashtiriluvchi “trollar fabrikasi” faoliyatining mahsuli bo‘lishi mumkinligini taxmin qildi. Ilgari bunday “fabrikalar” RF, Evropaning ayrim davlatlari va AQSH hududida oshkoralangandi. Rus trollari qo‘shni mamlakatlarga qarshi ishlayotgan bo‘lishi ham mumkin [19, 89-90-bb.].

Yuqoridagi fikr-mulohazalar O‘zbekistonni bundan buyog‘iga axborot xavfsizligi sohasida yanada jiddiy sinovlar kutayotganini bildiradi. SHu ma’noda bugun davlatimiz oldida axborot xurujlari, provokatsiya va g‘oyaviy diversiyalar, kibertahdidlarni o‘z vaqtida ilg‘ab, tezkor bartaraf eta oladigan yagona xavfsizlik tizimini yaratish vazifasi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bu axborot suverenitetini mustahkamlash yo‘lidagi ilk qadamdir.

Haqiqatan ham, hozirgi vaqtda yoshlar tarbiyasi biz uchun o‘z dolzarbligi va ahamiyatini hech qachon yo‘qotmaydigan masala bo‘lib qolmoqda” [9], – deb ta’kidlaydi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev.

Shu ma’noda, g‘oyaviy profilaktikaning yosh avlodni g‘oyaviy himoyalashdagi asosiy vazifalaridan biri komil insonni shakllantirish va uni amalga oshirishga bo‘lgan intilishlar insoniyat sivilizatsiyasining ma’no-mazmunini tashkil qiladi. Insoniyat jamiyati tarixiga nazar tashlasak, har qanday jamiyatda komillikning eng asosiy ko‘rsatkichi insonning ezgulikka, ijtimoiy baxt-saodatga, gumanistik g‘oyalarga munosabatida hamda ularga asoslangan amaliy faoliyatida namoyon bo‘ladi. Ya’ni jamiyatning umumiy rivojiga, insoniyat sivilizatsiyasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatuvchi komillik mezoni insonni, shaxsni barkamol qilish orqali jamiyatni baxtli, saodatli qilishdan iborat bo‘lib kelgan.

Turli xavf-xatarlar kuchayib borayotgan bugungi tahlikali vaziyatda bebaho boyligimiz bo‘lgan tinchlik va osoyishtalikni ko‘z qorachig‘idek saqlashimiz, yurtimizdagi

millatlar va dinlararo hamjihatlik, o‘zaro hurmat va mehr-oqibat muhitini yanada mustahkamlashimiz kerak” [10], deb ta’kidlaydi SHavkat Mirziyoev.

Ta’lim-tarbiya va targ‘ibot-tashviqot tizimi mafkuraviy profilaktikani, ya’ni yosh avlodni g‘oyaviy himoyalashni amalga oshirishga yordam beradi. Bunyodkor g‘oyalarni yosh avlod qalbi va ongiga singdirishga xizmat qiladigan ijtimoiy tuzilmalar, oila, maktab, mahalla, davlat va jamoat tashkilotlari ham unda o‘z o‘rniga ega. Xullas, Vatan, xalq manfaatlarini, do‘stlik va birodarlikni, o‘zaro hurmat va bag‘rikenglikni targ‘ib-tashviq etuvchi ertaklaru dostonlar, qo‘shiqlaru raqslar, turli ko‘rinish va mazmundagi ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar mafkuraviy profilaktikani – yosh avlodni g‘oyaviy himoyalashni amalga oshirish omillaridan iboratdir.

Mafkuraviy immunitetning o‘ziga xos xususiyatlari sifatida quyidagilarni aytish mumkin. Birinchidan, insonning umumiy immuniteti, ijtimoiy jarayonlarning mahsuli bo‘lib, muayyan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar asosida shakllanib boradi. Ikkinchidan, u har bir davrning xususiyatlariga, muayyan avlod yashayotgan zamon va jamiyatning taraqqiyot qonunlariga bog‘liq bo‘ladi. Uchinchidan, jamiyatda mustahkam g‘oyaviy immunitet tizimi shakllangandagina, shu jamiyatning mafkuraviy daxlsizligi va barqarorligi ta’minlanadi” [20,213-214-bb.].

Oila, mahalla va o‘quv muassasalarining mafkuraviy profilaktikani yosh avlodni g‘oyaviy himoyalash jarayonidagi o‘rni katta bo‘lib, barkamol avlod tarbiyasi, jamiyatning istiqbolini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday profilaktika murakkab, doimiy hamkorlikdagi, mushtarak maqsad yo‘lidagi intilishlari uyg‘unlashishini talab qiladi. Bu jarayon umumiy manfaat va maqsadlar sari jamiyatda tarbiyaning vorisiyligini ta’minlovchi makonni vujudga keltiradi. Bu makon yosh avlod, komil inson tarbiyasining ajralmas qismidir [21, 23-27-bb.].

Shu o‘rinda hammamiz uchun ayni paytda juda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan masala, ya’ni kitobxonlikni keng yoyish va yoshlarimizning kitobga bo‘lgan muhabbatini, ularning ma’naviy immunitetini yanada oshirishga qaratilgan ishlarimizni yangi bosqichga olib chiqish vazifasi turibdi” [11], – deb ta’kidlaydi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoev.

Yoshlar bilan ishlash masalasi ijtimoiy siyosatimizning ustuvor vazifalaridan biri bo‘lib, bu borada keng ko‘lamli chora-tadbirlar dasturini amalga oshirishini taqozo etadi” [12], – deb ta’kidlaydi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev.

Xulosa. Mafkuraviy immunitetni mustahkamlashga qaratilgan g‘oyaviy tarbiyaning asosiy maqsadlaridan biri aholining turli qatlamlari uchun umumiy tamoyillarga ega bo‘lgan fuqarolik mas’uliyati va insoniylik burchi bilan bog‘liq fuqarolik mas’uliyati va insoniylik burchi bilan bog‘liq tushunchalarni shakllantirishdan iborat. Bu tushunchalar qadim zamonlardan buyon ma’lum. Ammo ular deyarli hamma vaqt kishining milliy, sinfiy, irqiy, diniy, hududiy holatlariga qarab, turli chekinishlar yoki imtiyozlar bilan bog‘liq bo‘lgan. Er yuzidagi barcha inson zoti, irqi, dini, millati, jinsi, yashab turgan hududidan qat’i nazar, teng va teng bo‘lib yashashga haqli ekanligini, ularning huquqlari va erkinliklarini ta’minlash jamiyatning asosiy vazifasi bo‘lishi lozimligini mutafakkirlar allaqachon asoslab

berganlar. SHu bilan birga, dunyodagi har bir insonning ota-onasi, el-yurti, xalqi, farzandlari, o‘tmish va kelajak oldida burchi va mas’uliyati mavjudligi ham azaldan e’tirof etib kelinadi.

Iqtiboslar/Сноски/References

1. O‘zbekiston Respublikasining «Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida”gi 439-II-sonli qonuni // «Lex.uz» O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. 12.12 2002. URL: https://lex.uz/docs/52268.

2. O‘zbekiston Respublikasining «Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida”gi 439-II-sonli qonuni, 14-modda // «Lex.uz» O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. 12.12 2002. URL: https://lex.uz/docs/52268.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligining Axborot xavfsizligi va jamoat tartibini ta’minlashga ko‘maklashish markazi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘isida”gi 868-sonli qarori// «Lex.uz» O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. 17.10.2017. URL: https://lex.uz/docs/3383538?ONDATE=18.10.2017%2000.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarining joriy etilishini nazorat qilish, ularni himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-4024-sonli qarori // «Lex.uz» O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. 21.11.2018. URL: https://lex.uz/ru/docs/4071401.

5. Brifing ofitsialnogo predstavitelya MID Rossii M.V.Zaxarovoy. Sayt Ministerstva inostrannыx del RF. 14.05.2020. URL: https://mid.ru/ru/press_service/spokesman/briefings/1432983/.

6. O‘zbekiston Respublikasi tashqi ishlar vazirligi izohi. O‘R tashqi ishlar vazirligi sayti. 18.05.2020. URL: https://mfa.uz/uz/press/news/2020/ozbekiston-respublikasi-tashqi-ishlar-vazirligi-izohi-28208.

7. O‘zbekiston Qozog‘istonda sodir bo‘lgan voqealardan saboq chiqarishi kerak — Aleksandr Lukashenko. «Gazeta.uz» internet nashri. 10.01.2022. URL: https://www.gazeta.uz/uz/2022/01/10/lukashenko/#!.

8. SHavkat Mirziyoev Aleksandr Lukashenkoning so‘zlariga munosabat bildirdi. «Gazeta.uz» internet nashri.13.01.2022. URL: https://www.gazeta.uz/uz/2022/01/13/mirziyoyev/.

9. “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasidan. “Xalq so‘zi”, 2016 yil 8 dekabr.

10. O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri SHavkat Mirziyoevning Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi nutq. – “Xalq so‘zi”, 2016 yil 9 sentyabr.

11. “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruzasi. – “Xalq so‘zi”, 2017 yil 16 yanvar.

12. “Demokratik islohotlarni izchil davom ettirish, xalqimiz uchun tinch va osoyishta munosib hayot darajasini yaratish – barqaror taraqqiyot kafolatidir”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasining VIII s’ezdidagi ma’ruzasi. – “Xalq so‘zi”, 2016 yil, 2 noyabr.

13. Suleymanova SH.S., Nazarova E.A. Informatsionnыe voynы: istoriya i sovremennost. Uchebnoe posobie. – Moskva: «Etnosotsium». 2017. – 46-bet.

14. Viren G. Sovremennыe media: Priemы informatsionnыx voyn. – M.: «Aspekt press». 2013. – 126-bet.

15. Panarin I.N. SMI, propaganda i informatsionnыe voynы. Uchebnoe posobie. – Moskva: «Pokolenie», 2012. – 55-56-betlar

16. Popov.V.D. Informatsionnaya politika: Uchebnik. – M.: Izd-vo RAGS, 2003. – S. 38.

17. Ekspluatatsiya uyazvimostey: osobennosti rossiyskoy propagandы v Sentralnoy Azii // Sbornik Sentra issledovaniy armii, konversii i razorujeniya (SIAKR). – Kiev, 2020. – 1-bet.

18. Suleymanova SH.S., Nazarova E.A. Informatsionnыe voynы: istoriya i sovremennost. Uchebnoe posobie. – M.: «Etnosotsium», 2017. – 58-bet.

19. Ilhomov A. Vtyanut v EAES: instrumentы rossiyskogo ideologicheskogo vliyaniya v Uzbekistane // SIAKR). – Kiev, 2020.

20. G‘oyalar falsafasi (tajribaviy qo‘llanma). – Toshkent: “Akademiya”, 2011. – 213–214-bb.

21. Masharipova G.K. Dunyoda terrorizm tahdidlariga qarshi “Ma’naviyat va diniy bag‘rikenglik” rezolyusiyasi ning o‘rni. // - “Globallashuv sharoitida ma’naviyatga tahdid soluvchi omillar” mavzusidagi respublika ilmiy–amaliy seminari materiallari. – T., 2019 yil 6 fevral, 23-27-bb.

Kutlimuratova Nargiza Rustamovna –
Urganch davlat universiteti “Boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasi katta o‘qituvchisi

HUSAYN VOIZ KOSHIFIYNING IJTIMOIY – SIYOSIY QARASHLARINI TARBIYAVIY AHAMIYATI.

Annotatsiya: Ushbu maqola Husayn Voiz Koshifiyning ijtimoiy-siyosiy qarashlarini tarbiyaviy ahamiyatini tadqiq etadi. Maqolada olim va mutafakkir Husayn Voiz Koshifiyning ijtimoiy-siyosiy g'oyalari, uning jamiyatga ta'siri va tarbiyaviy qarashlari chuqur tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Husayn Voiz Koshifiy, ijtimoiy-siyosiy qarashlar, tarbiya, O'rta asrlar mutafakkiri, ijtimoiy ta'lim, axloqiy tarbiya.

Sharq madaniyati o‘zining o‘lmas asriy yutuqlari bilan butun insoniyatni ma’naviy-ma’rifiy bahramand etib kelmoqda. Xususan, buyuk allomalar, mutafakkirlarning ilm-fan, ta’lim-tarbiya sohasidagi ilg‘or g‘oyalari va kashfiyotlari bugungi taraqqiyotning tamal toshidir. Har bir mamlakatning, jamiyatning taraqqiyoti u yerda ilmu fanning naqadar rivoj topgani bilan uzviy bog‘liqdir. Ilmga va uni o‘rganishga qaratilayotgan e’tibor o‘sha davlatning ertangi kunini belgilab beradi.

Koshifiy yaxshilik, ezgulik, adolat, sabr-toqat va bag‘rikenglik bilan bog‘liq turli masalalar yuzasidan o‘z fikrlarini bildirgan. Yuqori saviyali mutafakkir sifatida uning aksariyat g‘oyalari juda chuqur va o‘ziga xosdir, bu esa masalani to‘liq tushunishga yordam beradi. Koshifiy dunyo, inson va jamiyatning kelib chiqishiga nisbatan o‘ziga xos nuqtai nazarga ega. U o‘qish davrida avvalgi mutafakkirlarning fikriga qo‘shilmagan, jamiyat bir omil asosida emas, balki omillar majmui asosida shakllangan, deb hisoblaydi. Eng avvalo, zaruriyat jamiyatning barpo etilishi sababi sifatida e’tirof etiladi. Koshifiyning fikricha, har bir inson tabiat tomonidan shunday yaratilganki, omon qolishi va yuksak taraqqiyot darajasiga yetishi uchun unga ko‘p narsa kerak.

Mutafakkir davlatni odilona boshqarishda siyosatdan foydalanish kerakligini alohida ta’kidlaydi. «Axloqi Muxsiniy» asarining 32 bobini «Siyosat»ga bag‘ishlaydi, «Siyosat»ning ma’nosi kishini g‘amga solmoq bo‘lur va istiloh ma’nosi mamlakatni zabt qilmoq va har kimni o‘ziga munosib o‘ringa o‘ltirgizmoq zarur.Siyosat adolatli bo‘lsa mamlakat, jamiyat rivoj topadi, xalqi farovon yashaydi. Siyosatni odil podsholar, odilona boshqarishi kerak — deb xulosa chiqaradi,— mutafakkir. «Adl (adolat) siyosatsiz mavjud bo‘lmas. Siyosat xor bo‘lsa, sardorlik zaif bo‘lur. Na uchunkim mulku— millat ziynati, dinu davlat musallahi siyosatdur [1] deb mamlakat taraqqiyotini, adolat qaror topishini Koshifiy siyosatga bog‘laydi.

Jamiyat, Koshifiyning fikricha, odamlar o‘rtasidagi munosabatlarsiz - o‘zaro munosabatlarsiz mavjud bo‘lmaydi. Koshifiyning fikricha, odamlar o‘z hayotlarini yuritish uchun moddiy vositalarga muhtoj bo‘lgan paytda jamiyat qurishni boshlaganlar. Ehtiyoj, zarurat ularni birlashishga majbur qildi. Koshifiy hokimiyatga nisbatan majburlashning

rolini tadqiq qiladi va ularning munosabatini to‘g‘ri belgilaydi. Odamlarni aql (donishmandlik) yo‘nalishida birlashtirgan yana bir omil ijtimoiy adolatning mavjudligidir. Jamiyatda adolatning mavjudligi, mutafakkirning fikricha, jamiyatdagi birlik va o‘zaro hamjihatlik, ahillik va tartibning sababidir.

Koshifiy adolatni insoniyat jamiyatidagi alohida kishilar o‘rtasidagi munosabatlarga baho berish uchungina emas, balki ijtimoiy tuzumni tavsiflash, hukumat faoliyati va hukmdorlar siyosatiga baho berish uchun ham zarur deb hisoblaydi. Koshifiy nuqtai nazaridan adolat tamoyilini tan olishgina emas, balki hukmdor va amaldorlar tomonidan adolatni qanday amalga oshirishi muhimroqdir.

Koshifiy hokimiyatning (rahbarlikning) uch turini sanab o‘tadi: birinchidan, tobelar ustidan hokimiyat, ikkinchidan, saroy a’yonlari ustidan hokimiyat; uchinchidan, qo‘l ostidagilar ustidan hokimiyat. Hokimiyatning birinchi turi podshoh hokimiyati bo‘lib, u butun xalqqa tegishli. Ikkinchidan, sud mansabdor shaxslarining rahbarligi kutilmoqda. Uchinchi tur - faoliyat doirasi cheklangan mahalliy hokimlarning vakolatlari. Koshifiy o‘zining barcha asarlarida jamiyatning barcha qatlamlari manfaatlarini himoya qiladigan shunday jamiyat va davlat tuzilishini targ‘ib qilgan. Uning fikricha, ideal jamiyat barpo etiladigan poydevor va manbalar, eng avvalo, adolat, axloq, huquqni muhofaza qilish, mehnat va dam

Koshifiy Markaziy Osiyo xalqlari siyosiy-huquqiy fikrida ideal davlat uchun quyidagi belgi va vazifalarni taklif qiladi:

a) Davlatni adolatli va qudratli podshoh boshqarishi kerak, chunki podshoh zaif va zolim bo‘lsa, uning qo‘shnilari uning yurtiga havas qilib, mamlakatni oyoq osti qiladi;

b) Davlat amaldorlarining zulmi sulton zulmidir, shuning uchun ham davlat a maldorlari bilimdon, adolatli kishilar lavozimiga tayinlanishi kerak. Agar davlat amaldorlari zolim va johil bo‘lsa, podshoh adolatli bo‘lsa, bu holatda ham shahar vayron bo‘ladi, xalq uni tark etadi, qishloqlar vayron bo‘ladi.

v) davlat fuqarolarning sog‘lig‘ini saqlashga majburdir. Mamlakatda tabobadni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish lozim;

d) aholi salomatligi mamlakatda toza suvning mavjudligiga bog‘liq. Shuning uchun ham “shaharning oqar suvlari, daryolari, soylari va buloqlari bo‘lishi shart”.

e) Mamlakatda huquq va ijtimoiy axloq sohasiga alohida e’tibor berilishi kerak.

Koshifiy jamiyatni podshohsiz tasavvur etmaydi va rahbarning jamiyat hayotidagi o‘rniga yuqori baho beradi. Shuning uchun u podshohdan quyidagi fazilatlarga ega bo‘lishini xohlaydi:g‘amxo‘r va muloyim bo‘lish;xalqni himoya qilish;yurt himoyasi haqida o‘ylash va olijanob insonlarni hurmat qilish; kibrli bo‘lmaslik va rahbarlik siyosatida qat’iy va ehtiyotkor bo‘lish.

Koshifiy fikricha, ideal davlat boshlig‘ida to‘rtta asosiy fazilat bo‘lishi kerak: 1) donolik; 2) jasorat; 3) o‘ychanlik; 4) adolatlilik.

Koshifiyning fikricha, “Davlat tabiiy taraqqiyot mahsuli bo‘lib, uning barpo etilishining asosini odamlarning talab va ehtiyojlari tashkil etadi va davlat umumiy yashash uchun emas, balki baxtli yashash uchun yaratilgan”. Koshifiy Aristotel fikriga zid ravishda

davlatda odamlar - shaxslar (podshohlar, hokimlar, siyosatchilar) emas, balki qonun va axloq hukmronlik qilishi kerakligini ta'kidlaydi. Husayn Voiz Koshifiy xalqqa baxtsizlik va davlatga zarar keltiruvchi kishilarni yetti toifaga ajratadi:

1. Dilozorlar
2. Nojins va. nomunosib fazilatlar bilan taniqli kishilar: ya'ni hasad qiluvchi, baxillar, mo'msiq (xasis)lar.
3. Dunhimmat (1. Dun—past; 2. Razil, nokas, himmatsiz, pastkash, xasis), ya'ni pastkash va razil kishilar.
4. Tuhmatchilar, g'iybatchilar.
5. Xoin va ahmoqlar.
6. Xoin va sotqinlar [1]

Koshifiy fikricha, dunyo mollaridan foydalanish muayyan tartib-qoidalarga bo'ysunadi. Odamlar uchun zarur tartibni faqat davlat ta'minlay olishini ta`kidlaydi. Koshifiy rahbar va hokimiyatga bo'ysunishni tavsiya qiladi. U hokimiyatga qarshi chiqish huquqini tan olmaydi, balki uni qoralaydi. [1]

Koshifiy qarorlar qabul qilishda va davlatni boshqarishda yangiliklarni to'plash va uning to'g'ri va dolzarbligiga alohida e`tibor qaratishni talab etadi. Mamlakat ahvoli va uning har tomonlama hayoti haqida ma'lumot to'plash, o'z vaqtida va to'g'ri xulosalar chiqarish, qarorlar qabul qilish va ularni hayotga tatbiq etish davlatchilikning muhim asoslari deb biladi.

Koshifiy siyosatning zaruratiga ham e'tibor qaratib, hakimlarning hikmatlaridan iqtibos ketiradi. Jumladan, "Agar zabt etish va siyosat qilish bo'lmasa, barcha ishlar izdan chiqadi, agar adab berish va jazolash rasmi yo'q bo'lsa, muhim ishlar vayronlikka yuz qo'yadi" [2]. Demak, siyosat davlat hokimiyati uchun juda zarur bo'lib, mamlakatda odamlar orasidagi tartib va tarbiyaning, o'zaro munosabatlarning barqarorligiga sabab bo'lishi, aksincha bo'lsa, boshboshdoqlik va zulm-sitamga sabab bo'lishini ta'kidlab o'tadi.

Iqtiboslar/Сноски/References

1. Husayn Voiz Koshifiy. "Futuvvatnomai sultoniy". "Axloqi muhsiniy". T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashri, 2011 y. - 374 b

2. Hashimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi / Darslik. – Toshkent: "Istiglol" nashriyoti, 2005 y.- 304 b

3. Hoshimov K., S.Ochil. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. - T.: O'qituvchi, 1995 y - 464 b

4. Mahmudov. R.J.Husayn Voiz Koshifiy/ Ma'naviyat yulduzlari. T. 2001y. 241-245 b

Abdullayeva Arofatxon Abduvaxobovna
Andijon davlat pedagogika instituti
dotsenti v.b, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
E-mail: arofatabdullayeva95@gmail.com

UCHINCHI RENESANS DAVRIDA MILLIY TARBIYA G‘OYASINING TAKOMILLASHUVI

Annotatsiya. Maqolada Uchinchi Renessans yoshlarini tarbiyalash va yoshlar milliy o‘zligidan begonalashuviga qarshi “Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari” g‘oyasining o‘rni ilmiy jihatdan asoslangan. Bugun dunyoga yangi O‘zbekiston nomi bilan balqiyotgan uchinchi Renessans g‘oyasining jozibasi shundaki, u o‘z atrofiga davlatni ham, jamiyatni ham, butun xalqni ham birlashtira oladi. Bu g‘oyaning milliy g‘oya o‘laroq keng quloch yozishi esa, nazarimizda, barchamizning uning mazmunini chuqurroq anglashimizga, teranroq mushohada yuritishimizga bog‘liq. Shu asnoda Davlatimiz rahbari aytganidek: “Biz Uchinchi Renessans masalasini strategik vazifa sifatida oldimizga qo‘yib, uni milliy g‘oya darajasiga ko‘tarmoqdamiz”.

Kalit so‘zlar: Uchinchi renessans, yoshlar, tarbiya, milliy o‘zlikni anglash, milliy tiklanish, milliy yuksalish, fan, ta’lim, oila, mahalla.

Абдуллаева Арофатхан Абдувахобовна
Андижанский государственный педагогический институт
Доцент, доктор философии педагогических наук (PhD)
E-mail: arofatabdullayeva95@gmail.com

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ИДЕИ НАЦИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ПЕРИОД ТРЕТЬЕГО ВОЗРОЖДЕНИЯ

Аннотация. В статье научно обоснована роль идеи «От национального возрождения к национальному подъему» в воспитании молодежи Третьего Возрождения и против отчуждения молодежи от своей национальной идентичности. По нашему мнению, широкое признание этой идеи в качестве национальной идеи зависит от нашего более глубокого понимания и наблюдения за ее содержанием. В этом контексте глава нашего государства сказал: «Мы ставим вопрос о Третьем Возрождении как стратегическую задачу и поднимаем его на уровень национальной идеи”.

Ключевые слова: Третье возрождение, молодежь, образование, осознание национального самосознания, национальное возрождение, национальный подъем, наука, воспитание, семья, соседство.

Abdullayeva Arofatkhon Abduvakhobovna
Acting Associate Professor of Andijan State Pedagogical Institute, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences

THE DEVELOPMENT OF THE IDEA OF NATIONAL EDUCATION DURING THE THIRD RENAISSANCE

Annotation. The article scientifically substantiates the role of the idea "From the national revival to the national rise" in the education of the youth of the Third Renaissance and against the alienation of youth from their national identity. In our opinion, the widespread acceptance of this idea as a national idea depends on our deeper understanding and observation of its content. In this context, the head of our state said: “We raise the issue of the Third Renaissance as a strategic task and raise it to the level of a national idea.

Keywords: Third renaissance, youth, education, awareness of national identity, national revival, national uplift, science, education, family, neighborhood.

Musulmon Uyg‘onish davrida ayniqsa arab dunyosida ta’lim, fan, adabiyot, san’at va madaniyat rivojlandi. Bag‘dod, Qohira, Damashq, Buxoro, G‘azna, Samarqand, Xorazm, Isfahon, Nishopur, Balx, Kordova, Tabriz kabi shaharlar jahonning yirik ta’lim va madaniyat markazlariga aylandi. Dunyodagi birinchi universitet musulmon davlatida ochilgan. Bu 859-yilda Marokash malikasi Fotima alFixri tomonidan Fezda ochilgan birinchi universitetdir. Bungacha IX asrning 20-yillarida Bag‘dodda “Bayt al-hikma” islom akademiyasi tashkil etilgan. Olimlarning ta’kidlashicha, xalifa Al-Ma’mun ochgan ushbu “Donishmandlar uyi”ga O‘rta Osiyo va Erondan ko‘plab olimlar kelib ishlashgan. Uyg‘onish davrida ta’lim va ilm-fan mayoqlari bo‘lgan bu shaharlarda Yevropa, Osiyo, Afrikaning ko‘plab davlatlaridan olimlar to‘planishgan. Umuman olganda, G‘arbiy Evropada Uyg‘onish davrining tug‘ilishi va shakllanishiga musulmon Uyg‘onish davri alohida ta’sir ko‘rsatdi.Evropada Uyg‘onish davrida insoniyatning xalqaro munosabatlari sezilarli darajada rivojlandi. Bu buyuk geografik kashfiyotlar davri edi. 1492-yilda Kristofer Kolumbning Amerikaga tashrifi, 1498-yili Vasko da Gamaning Hindistonga tashrifi, 1522-yilda Fernan Magellanning dunyo bo‘ylab mashhur ekspeditsiyasi kabi misollar Uyg‘onish davri insoniyatga nima berganligini yaqqol tushuntirib bera oladi, deb hisoblaymiz. Ulardan

tashqari Uyg‘onish davri vakillaridan Dante, Galiley, Kopernik, Bruno, Monten, Rotterdam, Makiavelli, Kampanella, Shekspir kabi insoniyat ongi va umumiy bilimiga katta hissa qo‘shgan shaxslarni tilga oladigan bo‘lsak. Servantes, Mikelanjelo, Leonardo da Vinchi, keyin bu davr sivilizatsiyasi tarixida ahamiyati aniq bo‘ladi. Musulmon Uyg‘onish davrida va undan keyingi G‘arb Uyg‘onish davrida inson, insoniylik, odob-axloq, fikr, xatti-harakat, his-tuyg‘ular birinchi o‘ringa chiqqan bo‘lsa, qozoqlar kabi mustamlakalashgan xalqning uyg‘onishida millat va inson chambarchas uzviylikda ko‘rindi. Bu barcha mustamlakalashgan Osiyo, Evropa va Amerika xalqlariga xos xususiyatdir. Masalan, XIX asr oxiridan 20-asr boshlarigacha Hindistondagi Bengal Uyg‘onish davrini eslatib o‘tishimiz mumkin. Uning asosiy figurasi R.Tagor edi. Bolgariyada XVIII-XIX asrlar oxiridagi bunday uyg‘onish “bolgar milliy uyg‘onish davri” deb ataldi. Bunday misollarni ko‘p keltirish mumkin. Umuman olganda, bunday xalqlarda Uyg‘onish davri milliy-ozodlik harakati bilan kechayotganini tushunish qiyin emas. XX asr boshidagi Uyg‘onish davrini “O‘zbek xalqi milliy uyg‘onish davri” deb atash to‘g‘ri bo‘ladi. Chunki, jadid ma’rifatparvarlari davrida butun bir xalqni savodini oshirishga alohida e’tibor qaratildi. Jadidchilik harakatining avvalgi barcha harakatlardan asosiy farqi, kerak bo‘lsa, hatto afzalligi ham uning fikriy-madaniy va intellektual-siyosiy harakat ekanligidadir. Ochig‘i, bu jadidchilik harakati XIX asr oxiri va XX asr boshlarida zamonaviy bilim olgan o‘zbek ziyolilari qarashlariga asoslangan kurashdir.

O‘zining tarixiy missiyasiga xos bo‘lgan jadidchilik harakati davri, bizningcha, bir qancha uyg‘onish davri arboblarini vujudga keltirdi. “Bugungi kunda butun xalqimizning qalbidan chuqur joy olgan, umummilliy harakatga aylanib borayotgan “Yangi O‘zbekiston” g‘oyasi zamirida ana shunday ulug‘ ajdodlarimiz, umuman olganda, milliy tariximizda Birinchi va Ikkinchi uyg‘onish davrlariga asos solgan alloma bobolarimizning orzu-intilishlari va armonlari ham mujassam, desak, adashmagan bo‘lamiz [1]”, – dedi davlat rahbari Shavkat Mirziyoyev.

Uyg‘onish davri odami kim va uning xususiyatlari qanday, degan savolni bersak, quyidagicha javob bergan bo‘lardik. “Uyg‘onish davri shaxsi” deganda inson va xalqning insonparvarlik xarakterini aks ettirgan va uni keng targ‘ib qilgan, insonparvarlik g‘oyalarini o‘z ijodi va kurashining tayanchiga aylantirgan, tarix va madaniyat, san’at, ta’lim sohalarida ulkan burilish yasagan shaxs tushuniladi. Biz maktabgacha ta’lim va maktab ta’limi, oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimi hamda ilmiy-madaniy muassasalarni bo‘lg‘usi Renessansning to‘rt uzviy halqasi, deb bilamiz. Bog‘cha tarbiyachisi, maktab muallimi, professor-o‘qituvchilar va ilmiy-ijodiy ziyolilarimizni esa yangi Uyg‘onish davrining to‘rt tayanch ustuni, deb hisoblaymiz [2].

Milliy ilm-fanning tug‘ilishi va shakllanishi o‘sha xalq uchun doimo o‘ziga xos hodisadir. Bu odamlarning ulg‘ayib, tafakkuri yangi sifat bosqichiga ko‘tarilganini yaqqol ko‘rsatadigan misoldir. Bilimli, ilmli xalq o‘z bilimi evaziga dunyodagi narsa va

hodisalarning sirlarini anglay boshlaydi, hayoti yengillashadi, yangi hunar va kasblarni egallaydi. U buni hayotida yaratishni boshlaydi. Ayni shu ma’noda “Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari” g‘oyasini Uchinchi Renessans yoshlarini tarbiyalash va yoshlar milliy o‘zligidan begonalashuviga qarshi kurashdagi ahamiyati beqiyos hisoblanadi. O‘zbekistonda uchinchi uyg‘onish davri boshlandi. O‘zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 29 yillik tantanalarida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining: “Xalqimizning ulug‘vor qudrati jo‘sh urgan hozirgi zamonda O‘zbekistonda yangi bir uyg‘onish – Uchinchi Renessans davriga poydevor yaratilmoqda[3]”, – degan so‘zi yangradi.

Renessans, ya’ni Uyg‘onish faqat Yevropa hodisasi emas. Dunyo madaniyatini yaxlit olib o‘rgangan olimlarning ishlari shuni ko‘rsatdiki, Osiyo markazida joylashgan Movarounnahr, Xuroson va Eronda Italiyaga qaraganda bir necha asr avval (IX-XII acrlar) ulkan madaniy ko‘tarilish yuz bergan, ilm-fan, falsafa, adabiyot kuchli rivojlanib, ilg‘or insonparvarlik g‘oyalari jamiyat fikrini band etgan, aqliy va ijodiy faollik gurkiragan. Bu davr dunyo ilmida “Musulmon Renessansi” (A.Mets) yoki “Sharq Uyg‘onishi” (N.I.Konrad) nomi bilan atalib kelinmoqda. Sharq Uyg‘onish davri ham ulug‘ allomalar, qomusiy bilim sohiblari, mashhur mutafakkirlarni etishtirdi. Sharqdagi Birinchi Uyg‘onish davrida yurtimizdan Muhammad Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Ahmad al-Farg‘oniy, Mahmud Qoshg‘ariy va Yusuf Xos Hojiblar etishib chiqqan bo‘lsalar, Ikkinchi Uyg‘onish davrida esa, xususan, temuriylar xonadoni hukm surgan bosqichda Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Bobur kabi daho ijodkorlar o‘lmas asarlar yaratdilar, ishq-muhabbat, qahramonlik, ozodlik va ezgulikni kuyladilar. Miniatyura rassomchiligida bir necha maktablar shakllandi, bunda Kamoliddin Behzod rasmlari yangi ijodiy yo‘nalishga asos soldi [4].

Mustaqillik bilan bog‘liq bo‘lgan globallashuv jarayoni sharoitida Uchinchi Renessans yoshlarini tarbiyalash va yoshlar milliy o‘zligidan begonalashuviga qarshi kurashish jarayoni Yangi O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatining shakllanishi bilan hamohang kechayotganini hisobga olgan ma’qul. Bu tarixiy ong asosida rivojlang an maishiy madaniyatdagi o‘zgarishlar bilan ham bog‘liq edi. Bir qarashda tarixiy ong madaniyatning bir qismidek tuyulishi mumkin. Zero, madaniy jarayon insonning uzluksiz tarixiy jarayondagi rolini yaqqol his etishiga imkon beradi. Biroq, tarixiy ong va madaniyat bir-biriga yaqin bo‘lsa-da, tarixiy ong madaniy meros bilan chambarchas bog‘liq bo‘lsa ham, bular turli xil ijtimoiy-falsafiy tushunchalar ekanligini hisobga olish kerak. Har holda, madaniyat jamiyatning o‘ziga xos tarixiy ongidir.

Maktabdagi bezorilik, qo‘rqitish va qiynoqqa solish bu holatlarning asosiy sabablari bo‘lmoqda. Ajablanarli tomoni, o‘z joniga qasd qilayotganlarning 70 foizi sog‘lom bo‘lib, ularning aksariyati qishloqlarda yashagan [5]. Demak, qanchadan-qancha ota-onalar qora libosga burkanib, farzandlarini yo‘qotib, ming-minglab yuraklar ezilib ketgan. Bugun ota-

onalar farzandlari maktabga borsa, uylariga eson-omon qaytib kelishadimi, degan savol tug‘iladi. Ishda bo‘lganlarida, o‘g‘li kechki payt ularni kutib olishidan xavotirda edilar. Ertaga kim bevaqt o‘lim eshigini taqillatadi, kim yig‘laydi?! Bu falokat qayerdan keldi? Tashqi ko‘rinishi butun, ichi tutunli bolalar qayerdan keladi? Nega bolalar beshikdan chiqolmasa, bunchalik hafsalasi pir bo‘ladi? Farzandlari uchun o‘tga ham, suvga ham borishga tayyor bo‘lgan ota-onaning ko‘z yoshlari nega qurimaydi? Mutaxassislar bu haqda nima deydi? Ularning bir qismi o‘z joniga qasd qilish holatlarining ko‘payishiga ijtimoiy sharoit, oilaviy va ijtimoiy tarbiyaning yetarli darajada berilmaganligi, zo‘ravonlik, diniy oqimlar faoliyati, giyohvandlik sabab bo‘layotganini ta’kidlamoqda. O‘z joniga qasd qilish holatlarining ko‘payishi, birinchi navbatda, televizordagi mushtlashuvlar va qonli filmlar, shuningdek hammani daromadidan mahrum qilib, boyligini oshirishga urinayotgan ota-onalarning ish bilan bandligi aybdor, deganlar ham bor. Jamiyatdagi o‘zgarishlar, turli qiyinchiliklar bolalar psixologiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. O‘z joniga qasd qilish – bu tushunmovchilik va begonalashuv muammosi hisoblanadi. Ilmiy ish doirasida o‘tkazilgan “Bolalarning o‘z joniga qasd qilishi” bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotda bolaning og‘ir ijtimoiy-psixologik ahvoli, oilaviy hayotdagi noqulaylik, qo‘llab-quvvatlanmasligi kabi omillar bunga asosiy sabab sifatida ko‘rsatilganligi ham bejiz emas.

Dunyoning axborotlashuvi, insonning tabiatdan begonalashishi, o‘z joniga qasd qilish holatlarining ko‘payishiga asosan yoshlar o‘rtasida turli xil kompyuter o‘yinlari sabab bo‘ldi. O‘smirlar ko‘pincha tanqidni qabul qilmagani va qiyinchiliklarga toqat qilmagani uchun o‘z joniga qasd qiladi. Bundan tashqari, giyohvandlar va ichkilikbozlar o‘z joniga qasd qilish ehtimoli ko‘proq.

Darhaqiqat, bugungi kunda dunyoda ro‘y berayotgan ko‘plab voqea va vaziyatlarni etnik, fuqarolik va milliy o‘ziga xoslik, milliy ong, millatlarning tiklanishi, ommaviy etnik-siyosiy safarbarlik, etnik-siyosiy ziddiyatlar kabi omillarni hisobga olmasdan turib tushunib bo‘lmaydi. Umuman olganda, olimlarning fikricha, millatlararo munosabatlarga bevosita va bilvosita ta’sir etuvchi omillarga ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik, siyosiy, geosiyosiy, ishsizlik, inson huquqlarini himoya qilish, etnik guruhlarning haqiqiy holati, alohida xalqlar ichidagi tinchlik, madaniyat va urf-odatlar darajasi kiradi.

Yuqoridagilarni umumlashtirib xulosa sifatida aytadigan bo‘lsak, milliy o‘zlikni anglash masalasi ma’naviy yangilanish jarayonining o‘zagi hisoblanadi. Chunki siyosiy barqarorlik, iqtisodiy o‘sish va madaniyatning holati milliy va fuqarolik o‘ziga xosligiga erishishga bog‘liq bo‘ladi. Ya’ni, globallashuv davrida, shiddat bilan o‘zgarib borayotgan dunyoda har bir xalq o‘ziga xosligini yo‘qotmasdan, balki o‘zi duch kelayotgan xavf-xatarlarni to‘g‘ri yengib o‘tish, omon qolish uchun uni yanada mustahkamlashi kerak. Faqat “xilma-xillikdagi birlik” siyosiy formulasi asosida biz tinchlik, totuvlik va barqarorlikni saqlaymiz, kelajakka katta ishonch bilan qaraymiz, strategik rejalar tuzamiz va ularni amalga oshiramiz.

Iqtiboslar/Сноски/References

1. https://www.gazeta.uz/uz/2021/08/17/renaissance/#!.
2. https://xs.uz/uzkr/59537.
3. https://xs.uz/uzkr/post/ozbekistonda-yangi-ujgonish-uchinchi-renessans.
4. https://yuz.uz/news/uchinchi-uygonish-davri-sarchashmalariga-bir-nazar.
5. https://zamin.uz/jamiyat/43361-usmirlar-nega-uz-joniga-qasd-qiladi.html.
6. https://uza.uz/uz/posts/covid-19-pandemiyasi-davrida-yapon-ayollariorasida-oz-zhoniga-qasd-qilish-darazhasi-oshdi_355413?q=%2Fposts%2Fcovid-19-pandemiyasi-davrida-yapon-ayollari-orasida-oz-zhoniga-qasd-qilish-darazhasioshdi_355413.
7. Belinskaya E., Jichkina A. Sovremennыe issledovaniya virtualnoy kommunikatsii: problemы, gipotezы, rezultatы. – M.: YUNITI-DANA, 2004.